3. Algoritmning asosiy xossalari.
4. Algoritmik va dasturlash tillari.

Tayanch tushunchalar: kibernetika, matematika, kompyuter, algoritm, algoritmik amallar, determinantlik, ommaviylik, diskretlilik, natijaviylik sifatлари.

Algoritm — berilgan natijaga erishish uchun qilinishi kerak bo'lgan aniq bo'lanmalar ketma-ketligi. Algoritm keng ma'noda faqat kompyuterga oid atama bo'lmay, balki unda berilgan ko'rsatmalarni bajara oluvchi har qanday narsaga oiddir. Algoritm — ma'lum bir turga oid masalalarni yechishda qo'llaniladigan amallarning muayyan tartibda, ketma-ketlikda bajarilishi haqidagi aniq qoida (dastur).

Boshqacha aytganda, algoritm - boshlang'ich va oraliq ma'lumotlarni, masalani yechish natijasiga aylantiradigan jarayonni bir qiymatli qilib, aniqlab beradigan qoidalarining biror bir chekli ketma-ketligidir. Buning mohiyati shundan iboratki, agar algoritm ishlab chiqilgan bo'lsa, uni yechilayotgan masala bilan tanish bo'lmagan biror-bir ijrochiga, shu jumladan, kompyuterga ham bajarish uchun yuklansa bo'ladi va u algoritmning qoidalariga aniq rioya qilib masalani yechadi. Algoritm kibernetika va matematikaning asosiy tushunchalaridan biri. Algoritm so'zi Al-Xorazmiyning lotincha talaffuzidan kelib chiqqan ilmiy atamadir. Muhammad Muso Al-Xorazmiy tomonidan X asrda yaratilgan qo'llanmada keltirilgan o'nlik sanoq sistemasidagi arifmetik amallarni bajarish qoidalarining soddaligi Yevropada ham o'nlik sanoq sistemasini qo'llanishiga turtki bo'ldi.

Algoritm tushunchasini konkretlashtirish va o'rganish, ya'ni algoritmlar nazariyasi bo'yicha eng birinchi tadqiqotlar 1936-37-yillarda A.Tyuring, E.Post, D.Privan, K.Gedel, A.Markov, A.Church tomonidan bajarildi.

Hozirgi paytda algoritm sifatida biror masalani ishlash yoki biror ishni bajarish uchun qilinishi kerak bo'lgan, tartiblangan chekli sondagi aniq bir

qiymatli ko'rsatmalar ketma-ketligi tushuniladi. Masalan, biror manzilda boshqa manzilga borish uchun shahar transportidan foydalanib qanday borish mumkin, degan savolga biz ma'lum algoritim tavsiya qilishimiz mumkin. Yana bir misol pazandalik kitobida, palovni pishirish qoidasi keltiriladi. Bu ham o'ziga xos algoritim bo'lib, masala algoritmini hisoblash algoritmi deyiladi.

Har qanday algoritim quyidagi asosiy xossalarga ega bo'lishi kerak:

Diskretlilik (cheklilik). Dastlabki berilgan ma'lumotlarni natijaga aylantirish jarayoni chekli ravishda amalga oshiriladiki, bunda vaqtning har bir keyingi keladigan daqiqasidagi miqdor(kattalik)larning qiymati vaqtning shundan oldingi daqiqasida bo'lgan miqdorlar qiymatidan ma'lum bir qoidalar bo'yicha olinadi. Ya'ni uni chekli sondagi oddiy ko'rsatmalar ketma-ketligi shaklida ifodalash mumkin. Agar kuzatilayotgan jarayonni chekli qadamlardan iborat qilib qo'llay olmasak, uni algoritim deb bo'lmaydi.

Ommaviylik. Masalani yechish algoritmi shunday yaratilishi kerakki, uni faqat boshlang'ich ma'lumotlar bilan farqlanadigan masalalarni yechish uchun ham qo'llanilishi kerak. Bunda boshlang'ich ma'lumotlar "algoritimni qo'llash sohasi" deb ataladigan birorta sohadan olinadi. Ya'ni masaladagi boshlang'ich ma'lumotlar qanday bo'lishidan qat'iy nazar algoritim shu xildagi har qanday masalani yechishga yaroqli bo'lishi kerak. Masalan, ikki oddiy kasrning umumiy mahrajini topish algoritmi, kasrlarni turlicha o'zgartirib bersangiz ham, ularning umumiy mahrajlarini aniqlab beraveradi. Yoki uchburchakning yuzini topish algoritmi, uchburchak qanday bo'lishidan qat'iy nazar uning yuzini hisoblab beraveradi.

Aniqlik. Ijrochiga berilayotgan ko'rsatmalar aniq mazmunda bo'lishi zarur. Chunki ko'rsatmadagi noaniqliklar mo'ljaldagi maqsadga erishishga olib kelmaydi. Odam uchun tushunarli bo'lgan "3-4 marta silkitilsin", "5-10 daqiqa qizdirilsin", "1-2 qoshiq solinsin", "tenglamalardan biri yechilsin" kabi noaniq ko'rsatmalar robot yoki kompyuterni qiyin ahvolga solib qo'yadi. Bundan tashqari, ko'rsatmalarning qaysi ketma-ketlikda bajarilishi ham muhim ahamiyatga ega. Demak, ko'rsatmalar aniq berilishi va faqat algoritmda ko'rsatilgan tartibda bajarilishi shart ekan.

Natijaviylik. Algoritim berilgan masalaning yechimiga chekli sondagi qadamlar ichida olib kelishi yoki masalani "yechib bo'lmaydi" degan xabar bilan tugashi kerak. Bajariladigan amallar ko'p bo'lsa ham, barchasi bir natijaga

ish qilishi kerak. Chekli qadamdan so'ng qo'yilgan masala yechimga ega bo'lganini aniqlash ham natija hisoblanadi. Agar ko'rilyotgan jarayon cheksiz davom etib natija bermasa, uni algoritm deb atay olmaymiz.

Tushunarlilik. Kundalik hayotimizda berilgan algoritmlar bilan ishlayotgan elektron soatlar, mashinalar, dastgohlar, kompyuterlar, turli avtomatik va mexanik qurilmalarni kuzatamiz. Ijrochiga tavsiya etilayotgan ko'rsatmalar, uning uchun tushunarli mazmunda bo'lishi shart, aks holda ijrochi ishlayotgan amalni ham bajara olmaydi. Bundan tashqari, ijrochi har qanday amalni bajara olmasligi ham mumkin. Har bir ijrochining bajarishi mumkin bo'lgan ko'rsatmalar yoki buyruqlar majmuasi mavjud bo'lib, u ijrochining *ko'rsatmalar tizimi* (sistemi) deyiladi. Demak, ijrochi uchun berilayotgan har bir ko'rsatma ijrochining ko'rsatmalar tizimiga mansub bo'lishi lozim. Ko'rsatmalarni ijrochining ko'rsatmalar tizimiga tegishli bo'ladigan qilib o'qitay birlashimimiz muhim ahamiyatga ega. Masalan, quyi sinfning a'lochi o'qituvchisi "son kvadratga oshirilsin" degan ko'rsatmani tushunmasligi natijasida bajara olmaydi, lekin "son o'zini o'ziga ko'paytirilsin" shaklidagi ko'rsatmani bemalol bajaradi, chunki u ko'rsatma mazmunidan ko'paytirish amaliini bajarish kerakligini anglaydi.

Amaliyotda algoritmni ifodalashning *uchta asosiy usullari* foydalaniladi.

Metodlar

1. *Matnli ko'rinishi yoki algoritmni oddiy tilda ifodalash;*

2. *Sxematik (grafik) ko'rinishi yoki algoritmni tizim ko'rinishida ifodalash;*

3. *Biror algoritmning tildagi (dasturiy) ifodasi yoki algoritmni maxsus (algoritmik) tilda yozish.*

1. Algoritmning oddiy tilda ifodalanishi. Bu usulda ijrochi uchun beriladigan har bir ko'rsatma so'zlar, jumlarlar orqali buyruq shaklida beriladi. Bu usulning eng keng tarqalgan shakli - oddiy tilda so'zlar bilan bayon qilishdir. Algoritmni ishlab chiqishning bunday ko'rinishi *matnli usul* ham deyiladi. Bu nafaqat hisoblash algoritmilarida, balki hayotiy, turmushdagi "algoritm"larga ham tegishlidir. Masalan, biror-bir taom yoki qandolat mahsulotini tayyorlashning retsepti ham oddiy tilda tavsiflangan algoritmdir. Shaharlararo telefon — avtomat orqali aloqa o'rnatishning o'ziga xos algoritmida

foydalanasiz. Do'kondan yangi kir yuvish mashinasi yoki magnitofon olinsa, ishni foydalanishning algoritmi bilan tanishishdan boshlaymiz.

Masalani kompyuterda yechishda ham, ko'pincha matematika tili ham o'z ichiga olgan tabiiy tildan foydalanish mumkin. Algoritmning bunda tildagi yozuvi izlanayotgan natijaga olib keladigan amallar ketma-ketlik ko'rinishida bo'lib, har bir shaxs tomonidan o'z ma'nosida tushunilishi kerak. So'zlar bilan ifodalangan har bir amal **"algoritmning qadami"** deb ataladi. Qadamlar tartib nomeriga ega bo'ladi.

2. Algoritmilar grafik shaklda tasvirlanganda ular maxsus geometrik figuralar yordamida ifodalanadi va bu grafik ko'rinish blok-sxema deyiladi. Algoritmning matnli ifodasi murakkab jarayonlar uchun hajman katta bo'lib, yetarli darajada ko'rgazmali bo'la olmaydi. Shuning uchun algoritmning matnli ko'rinishidan dastlabki bosqichda masalani ishlashning asosiy bo'g'inlarini ifodalashda foydalaniladi. Masalaning algoritmini kompakt (ixcham) ko'rinishda ifodalash uchun **sxematik usul**dan foydalaniladi. Bu usul grafiklar deyilib, bunda algoritm o'zaro bog'langan funksional bloklar tarzida ifodalanadi. Har bir funksional blok ma'lum bir amal, yoki amallar ketma-ketligini bajarishni o'z ichiga oladi. Funksional bloklarning mazmuniga ko'ra shaklini va ularning o'zaro bog'lanishini ifodalashda davlat standartiga ko'ra qabul qilingan qoidalariga rioya qilinadi. Bunda bajariladigan amallar turiga ko'ra turlicha bo'lgan bloklarga GOST bo'yicha tasvirlanadigan turli xil geometrik shakllar – to'g'ri to'rtburchak, romb, parallelogramm, ellips, oval va hokazolar mos keladi. Odatda axborot yo'nalishiga mos kelayotgan bog'lanish yo'nalishi, yuqoridan pastga, strelka bilan ifodalanmasligi mumkin. Boshqa barcha hollarda bog'lanish yo'nalishi strelka (ko'rsatgich) bilan ko'rsatib qo'yiladi. Qulaylik uchun algoritm bloklari tartibli tarzda raqamlanishi kerak.

3. Algoritm ishlab chiqishning uchunchi usuli - algoritmni maxsus tilda ifodalash yoki biror algoritmik tildagi (dasturiy) ifodasi. Bu usulda algoritmni ifodalash uchun "dasturlash tillari" deb ataluvchi sun'iy tillar qo'llaniladi. Buning uchun ishlab chiqilgan algoritm shu tillar yordamida bir ma'noli va kompyuter tushuna oladigan ko'rinishda tavsiflanishi zarur. Uning tarkibida cheklangan sondagi sintaksis konstruksiyalar to'plami bor bo'lib, u bilan algoritm yaratuvchi tanish bo'lishi kerak. Ana shu konstruksiyalardan foydalanib buyruq va ko'rsatmalar formal ifodalarga o'tkaziladi. Zamonaviy

Ushbu tilla kompyuterning ichki kompyuter tilidan keskin farq qiladi va kompyuter tili bilan aniq shu tilda ishlay olmaydi. Buning uchun dasturlash uchun mo'ljallanish tushunadigan tilga tarjima qiluvchi maxsus dastur – *translyatsiya* foydalaniladi. Dasturni translyatsiya qilish va bajarish jarayonlari uchun alohida vaqtlar ajratiladi. Avval barcha dastur translyatsiya qilinib, kompyuter tili bo'yicha bajarish uslubida ishlaydigan translyatorlar "**komplyatorlar**" deb ataladi. Ushbu tilda tilning har bir operatorini o'zgartirish va bajarishni ketma-ket bajarish uchun ishlatiladigan translyatorlar "**interpretatorlar**" deb ataladi. Kompyuterning ixtiyoriy tili belgilar majmuini va algoritmlarni yozish uchun ishlatiladigan belgilarni qo'llash qoidalarini o'z ichiga oladi.

Hozirgi kunda dasturlash tillarini u yoki bu belgisi bo'yicha tasniflash uchun kompyuter tili bo'yicha dasturlash tilini kompyuterga bog'liqlik darajasi bo'yicha tasniflash eng muhim tushunchadir. Yuqorida aytilgan belgiga qarab, dasturlash tillari **kompyuterga bog'liq va kompyuterga bog'liq bo'lmagan** tilga bo'linadi.

Kompyuter tili **0 daraja** deb qabul qilingan bo'lib, sanoq boshi bo'linadi. Odamning tabiiy tili "eng yuqori darajadagi til" deb qaraladi.

Kompyuterga bog'liq bo'lmagan tillar ham ikki turga bo'linadi: birinchisi *protseduralarga mo'ljallangan tillar*, ikkinchisiga - *muammoga mo'ljallangan tillar*.

Protseduralarga mo'ljallangan tillar turli masalalarni yechish algoritmlarini (protseduralarni) tavsiflashga mo'ljallangan; shuning uchun ular ko'pincha tabiiy qilib "algoritmik tillar" deb ataladi. Ushbu tillar yechilayotgan masalalar muammasini to'la hisobga oladi va kompyuterning turiga deyarli bog'liq bo'ladi. Bu xildagi tillar tarkibi kompyuter tiliga qaraganda tabiiy tilga, masalan, ingliz tiliga yaqinroq.

Algoritmnining buyruqlarini bajarishda blok-sxemalar keltiriladi. **Blok-sxema** – algoritm buyruqlarini bajarilish tartibini ko'rsatuvchi yo'naltirilgan grafidir.

Blok-sxemalarni tuzishda foydalaniladigan asosiy sodd geometrik figuralar quyidagilardan iborat:

Nomi	Belgilanishi	Bajaradigan vazifasi
Jarayon		Bir yoki bir nechta amallarning bajarilishi natijasida ma'lumotlar o'zgarishi
Qaror		Biror shartga bog'lik ravishda algoritmning bajarilish yo'nalishini tanlash
Shakl o'zgartirish		Dasturni o'zgartiruvchi buyruq yoki buyruqlar turkumini o'zgartirish amalini bajarish
Avval aniqlangan jarayon		Oldindan ishlab chiqilgan dastur yoki algoritmdan foydalanish
Kiritish chiqarish		Axborotlarni qayta ishlash mumkin bo'lgan shaklga o'tkazish yoki olingan natijani tasvirlash
Display		EHMga ulangan displeydan axborotlarni kiritish yoki chiqarish
Hujjat		Axborotlarni qog'ozga chiqarish yoki qog'ozdan kiritish
Axborotlar oqimi chizig'i		Bloklar orasidagi bog'lanishlarni tasvirlash
Bog'lagich		Uzilib qolgan axborot oqimlarini ulash belgisi
Boshlash tugatish		Axborotni qayta ishlashni boshlash, vaqtincha yoki


		butunlay to'xtatish
blok		Bloklarga tegishli turli xildagi tushuntirishlar

Blok-sxemalar bilan ishlashni yaxshi o'zlashtirib olish zarur, chunki bu usul algoritmni ifodalashning qulay vositalaridan biri bo'lib, programma muallifi osonlashtiradi, programmalash qobiliyatini mustahkamlaydi. Algoritmik tillarda blok - sxemaning asosiy strukturalariga maxsus operatorlar mos keladi. Shuni aytish kerakki, blok-sxemalardagi yozuvlar odatdagi yozuvlardan katta farq qilmaydi.

Har qanday murakkab algoritmnı ham uchta asosiy struktura yordamida ifodalash mumkin. Bular ketma-ketlik, ayri va takrorlash strukturalaridir. Bu strukturalar asosida chiziqli, tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi hisoblash sxemalarining algoritmilarini tuzish mumkin. Umuman olganda, algoritmilarini shu tarzda ko'rishda quyidagi turlarga ajratish mumkin:


- chiziqli algoritmilar;
- tarmoqlanuvchi algoritmilar;
- takrorlanuvchi yoki siklik algoritmilar.

Faqat ketma-ket bajariladigan amallardan tashkil topgan algoritmilar chiziqli algoritmilar deyiladi. Bunday algoritmnı ifodalash uchun ketma-ketlik strukturalari ishlatiladi. Strukturada bajariladigan amal mos keluvchi shakl bilan ko'rsatiladi. Chiziqli algoritmilar blok-sxemasining umumiy strukturasini quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:




1-rasm. Chiziqli algoritmlar blok-sxemasining umumiy struktura

Agar hisoblash jarayoni biror-bir berilgan shartning bajarilishiga qarab turli tarmoqlar bo'yicha davom ettirilsa va hisoblash jarayonida har bir tarmoq faqat bir marta bajarilsa, bunday hisoblash jarayonlariga **tarmoqlanuvchi algoritmlar** deyiladi. Tarmoqlanuvchi algoritmlar uchun ayri strukturalar ishlatiladi. Tarmoqlanuvchi strukturasi berilgan shartning bajarilishiga qarab ko'rsatilgan tarmoqdan faqat bittasining bajarilishini ta'minlaydi.



2-rasm. Tarmoqlanishning umumiy ko'rinishi


Berilgan shart romb orqali ifodalanadi, r-berilgan shart. Agar shart bajarilsa, "ha" tarmoq bo'yicha *a* amal, shart bajarilmasa "yo'q" tarmoq bo'yicha *b* amal bajariladi. Ko'pgina masalalarni yechishda, shart asosida tarmoqlanuvchi algoritmlarning ikkita tarmog'idan bittasining, ya'ni «ha» yoki «yo'q»ning bajarilishi yetarli bo'ladi. Bu holatni tarmoqlanuvchi algoritmlar faqat o'ziga tegishli, xususiy **aylanish strukturasi** deb atash mumkin. Aylanish strukturasi quyidagi ko'rinishga ega:



3-rasm. Aylanish strukturasi umumiy ko'rinishi.

Agar biror masalani yechish uchun zarur bo'lgan amallar ketma-ketligining ma'lum bir qismi biror parametrga bog'liq ko'p marta qayta bajarilsa, bunday algoritmlar **takrorlanuvchi algoritmlar** yoki **siklik algoritmlar** deyiladi.

Bu blok sxemaning takrorlanuvchi qismiga quyidagi, sharti oldin berilgan siklik strukturaning mos kelishini ko'rish mumkin.



Algoritm 1. *1 dan n gacha bo'lgan sonlar yig'indisini hisoblash algoritmi.*

Ushbu algoritmda shu tilga tegishli bo'lgan chekli sondagi belgilardan foydalanilgan. Dastur matnini yozishda faqat shu belgilardan foydalanish mumkin, boshqa belgilarni esa til tanimaydi, ya'ni ulardan foydalanish mumkin emas.

Ushbu dasturda alifvit harflaridan tashkil topgan bo'lib, mumkin bo'lgan konstruksiyalarni aniqlovchi qoidalar tizimidir. Mazkur tilda ifoda etilgan to'la gaplar va ularning alohida hadlari shu konstruksiyalar orqali ifoda qilinishi shunday qilib, belgilarning har qanday ketma-ketligini hamda mazkur ketma-ketlikning noto'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini til sintaksisi orqali bilib olamiz.

Til semantikasi – jumla yoki gaplarning mazmunini aniqlaydi. Algoritmik tilning ayrim konstruksiyalari uchun qoidalar tizimini tushuntirishga xizmat qiladi. Kompyuter uchun dastur tuzish jarayoni dasturlash va dastur yaratish deb ataladi. Kompyuter tushunadigan (til) esa **dasturlash** deb ataladi. Dasturlash tillari, asosan, ikkinchi jahon urushidan keyin yaratila boshlandi. Ammo uning boshlanish tarixi ancha o'sils yillarga borib taqaladi. Arxayotqish qazilmalarida topilgan sopol taxtachada bundan 3800 yil oldin (hozirdan avvalgi 1800 yillar) Bobilda foiz bilan bog'liq amallar algoritmi kiritilgan. Unda aniq masala ishlangan bo'lib, agar bug'doy yiliga 20% dan ko'prok hosil bo'lsa, ikki marta o'sishi uchun necha yil va oy kerak bo'lish algoritmi kiritilgan. Quyidagidagi dasturlash tillari kompyuter qurilmalari bilan bevosita bog'liq bo'lib, buyruqlar maxsus raqamlar (kodlar) yordamida yoziladi. Bu kabi buyruqlardan tashkil topgan dasturlar katta hajmli bo'lib, ularni tahrir qilish

ancha mushkul ish hisoblanadi. Dastlabki elektron hisoblash mashinasi ("ENIAK", "MESM" va boshqalar) masalalarni yechish uchun ana shunday buyruqlar yordamida dasturlar tuzilgan.

Hozirgi kunda hisoblash, muhandis-texnik, iqtisodiy, matnli va axborotlarni tahlil qilish va boshqa masalalarni yechish tillari ma'lum.

Dasturlash tillari 3 ga bo'linadi:

Muammoga yo'naltirilgan dasturlash tillari: RPG, Lisp, APL, GP, Prolog.

Jarayonga yo'naltirilgan dasturlash tillari: Fortran, Kobol, Beyk, Paskal C.

FORTRAN tili 1954-yili ishlab chiqilgan bo'lib, FORmula TRANslator formulalar translyatori degan manoni anglatadi. Ilmiy va muhandis – texnik masalalarni hisoblashlarda qo'llaniladi. Bu til 1954-yilda prof. J.V.Bek boshchiligidagi bir guruh amerikalik mutaxassislar tomonidan yaratildi.

KOBOL tili 1959-yili yaratilgan bo'lib, Common Businees Oriented Language - "savdo-sotiq masalalariga mo'ljallangan til" degan ma'noni anglatadi. Korxona va tarmoqning moddiy boyligini, moliyasini, ishlab chiqargan mahsulotini hisobga olish bilan bog'liq iqtisodiy masalalarni yechish uchun qo'llaniladi.

BEYSIK (BASIC - Beginner's All Purpose Sumbolic Instruction Code boshlovchilar uchun ko'p maqsadli dasturlash tili) hisoblash algoritmlarini yozish uchun qo'llaniladigan algoritmik tildir. Bu til 1965-yilda Dartmut kolleji xodimlari Kemini va Kurtslar tomonidan ishlab chiqilgan.

PASKAL tili 1970-yilda N.Virt tomonidan yangi til yaratildi, bu til 1971-yilda e'lon qilingan bo'lib, mashhur olim Blez Paskal nomi bilan, ya'ni Paskal deb ataldi. Turli xildagi masalalar yechimini olishda tartiblangan (strukturaviy) dasturlar tuzishda qo'llaniladi.

Ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash tillari: Visual Basic (Basic); Delphi (Pascal); Visual Fortran, (Fortran); C++ (C); Prolog++.

ALGOL tili 1960-yili yaratilgan bo'lib, ALGORITMIC Language algoritmik til degan ma'noni anglatadi va ilmiy-texnik masalalarni hisoblashlarda qo'llaniladi.

Bu tillardan tashqari maktabda o'quv jarayonlarini ta'minlash uchun "SHKOLNISA" sistemasi ham mavjud. Bu sistemadan AGAT turidagi

kompyuterlar yordamida foydalanish mumkin. Sistema sobiq mulliq FAoi Sibir bo'limining hisoblash markazi, Novosibirsk Davlat universiteti va Novosibirsk shahridagi maktablararo o'quv o'rgatish kombinati xodimlari hamkorligida yaratilgan bo'lib, uning nomi "KOBOL", "RAPIRA", "SHPAGA" kabi til va sistemalar mavjud. "KOBOL" tilining birinchi ko'rinishi 1975-yilda yaratilgan bo'lib, kichik va yoshdagi (6-11 yosh) maktab o'quvchilarini dasturlashga o'rgatish uchun ishlatilgan. "RAPIRA" tilining birinchi ko'rinishi 1978 - 1979-yillarda yaratilgan bo'lib, o'rta va yuqori yoshdagi (11 - 17 yosh) maktab o'quvchilariga ishlatilgan. Iku ikki tilda dasturlar rus tilida yoziladi. "SHPAGA" sistemasi o'zbek tili uchun mo'ljallangan sistemadir.

Masalani kompyuterda yechishning asosiy bosqichlari:

1) masalani qo'yib olish; 2) masalani modellashtirish va formallashtirish; 3) algoritmi ishlab chiqish; 4) algoritmni testdan o'tkazish; 5) dasturni testdan o'tkazish; 6) algoritmni dasturlash; 7) dasturni ishlatish va natijalarni tahlil etish.

AMALIY MASHG'ULOT UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Topshiriq. Mosini tanlang.

Id	Atamalar		Izohi
1.	Algoritmining qadamlari	A	ilmiy va muhandis - texnik masalalarni hisoblashlarda qo'llaniladi.
2.	FORTRAN -	B	Korxona va tarmoqning moddiy boyligini, moliyasini, ishlab chiqargan mahsulotini hisobga olish bilan bog'liq iqtisodiy masalalarni yechish uchun qo'llaniladi.
3.	KOBOL -	C	tartib nomeriga ega bo'lib, so'zlar bilan ifodalangan har bir amal.
4.	Algoritmi -	D	har bir operatori o'zgartirish va bajarishni ketma-ket amalga oshiradigan translyatorlar.


5.	Interp- retatorlar -	E	berilgan natijaga erishish uchun qilinishi kerak bo'lgan aniq ko'rsatmalar ketma- ketligi.
6.	BEYSIK -	F	turli xildagi masalalar yechimini olishda tartiblangan (strukturaviy) dasturlar tuzishda qo'llaniladi.
7.	ALGOL -	G	ilmiy-texnik masalalarni hisoblashlarda qo'llaniladi.
8.	PASKAL-	H	hisoblash algoritmlarini yozish uchun qo'llaniladigan algoritmik tildir.

2-topshiriq. Nuqtalar o'rniga mos ma'lumotni yozing.

1. FORTRAN tiliyili ishlab chiqilgan bo'lib,
degan manoni anglatadi va ilmiy va muhandis - texnik masalalarni
hisoblashlarda qo'llaniladi. 2. KOBOL tiliyili yaratilgan. 3.
FORTRAN tili-yilda boshchiligidagi bir guruh amerikalik
mutaxassislar tomonidan yaratildi. 4. tili korxona va tarmoqning moddiy
boyligini, moliyasini, ishlab chiqargan mahsulotini hisobga olish bilan bog'liq
iqtisodiy masalalarni yechish uchun qo'llaniladi. 5.ALGORITMIC Language
..... degan ma'noni anglatadi va ilmiy-texnik masalalarni hisoblashlarda
qo'llaniladi. 6.tili 1965-yilda Dartmut kolleji xodimlari
.....tomonidan ishlab chiqilgan. 7.1970-yilda
..... tomonidan yangi til yaratildi. 8. alfavit harflaridan tashkil
topgan bo'lib, mumkin bo'lgan konstruksiyalarni aniqlovchi qoidalar tizimidir.
9. - jumla yoki gaplarning mazmunini aniqlaydi. 10.
sistemi sobiq ittifoq FAsi Sibir bo'limining hisoblash markazi,
va xodimlari hamkorligida yaratilgan.

3-topshiriq. Bu – Komil Insondir! gapini algoritm ifodalash usullarida
(matnli ko'rinishi yoki algoritmni oddiy tilda ifodalash; sxematik (grafik)
ko'rinishi yoki algoritmni tizim ko'rinishida ifodalash) izohlang.

Topshiriq. Masalani kompyuterda yechish asosiy bosqichlarining ketma-ketligini to'g'ri keltiring.



1) masalani qo'yib olish; 2) masalani modellashtirish va formallashtirish; 3) algoritmi testdan o'tkazish; 4) dasturni ishlatish va natijalarni tahlil etish; 5) algoritmi dasturlash; 6) algoritmi ishlab chiqish; 7) dasturni testdan o'tkazish.

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

Topshiriq. Yod oling.

Kompilyatorlar - barcha dastur translyatsiya qilinib, so'ngra bajarish uchun ishlatiladigan translyatorlar.

Interpretatorlar - har bir operatorni o'zgartirish va bajarishni ketma-ket amalga oshiriladigan translyatorlar.

Algoritim - berilgan natijaga erishish uchun qilinishi kerak bo'lgan aniq ko'rsatmalar ketma-ketligi.

Algoritimning qadami - tartib nomeriga ega bo'lib, so'zlar bilan ifodalangan har bir amal.

FORTTRAN - FORMula TRANslator - formulalar translyatori degan ma'noni anglatadi va ilmiy va muhandis - texnik masalalarni hisoblashlarda qo'llaniladi.

KOBOL - Common Businees Oriented Language - "savdo-sotiq masalalariga mo'ljallangan til" degan ma'noni anglatadi. Korxona va tashkilotning moddiy boyligini, moliyasini, ishlab chiqargan mahsulotini hisobga olish bilan bog'liq iqtisodiy masalalarni yechish uchun qo'llaniladi.

ALGOL - ALGORITMIC Language - algoritmik til degan ma'noni anglatadi va ilmiy-texnik masalalarni hisoblashlarda qo'llaniladi.

BEYSIK - (BASIC - Beginner's All Purpose Sumbolic Instruction Code - boshlovchilar uchun ko'p maqsadli dasturlash tili) hisoblash algoritmlarini yozish uchun qo'llaniladigan algoritmik tildir.

PASKAL - turli xildagi masalalar yechimini olishda tartiblangan (struktural) dasturlar tuzishda qo'llaniladi.

2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Algoritm haqida nimalar bilasiz?
2. Algoritm tarixi haqida tushuncha bering.
3. Algoritmni ifodalash usullari haqida gapirib bering.
4. Algoritmik til deganda nimani tushunasiz?
5. Dasturlash tillari tarixi haqida nimalarni bilasiz?
6. Matnli ko'rinishi bilan algoritmni oddiy tilda ifodalash usullarini qanday farqi mavjud?
7. Sxematik (grafik) ko'rinishi yoki algoritmni tizim ko'rinishi ifodalash haqida nimalar bilasiz?
8. Biror algoritmik tildagi (dasturiy) ifodasi yoki algoritmni maxsus (algoritmik) tilda yozish usuli haqida tushuncha bering.
9. Algoritm turlarini tushuntiring.

3-topshiriq. O'zingiz sevgan taom algoritmini keltiring.



4-topshiriq. Quyidagi matnni sxematik ko'rinishda ifodalang.

Nisbiylik nazariyasi — fizik jarayonlarning zamon va makon xususiyatlarini ko'rib chiquvchi fizik nazariya. Ushbu nazariya tomonidan o'rnatilgan qonuniyatlar barcha fizik jarayonlar uchun umumiydir, shuning uchun ko'pincha ular yuzasidan shunchaki makon va zamon xususiyatlar haqida gapiriladi. Aynan nisbiylik nazariyasi tortishish kuchi ta'siriga ahamiyat bermasdan zamon va makon xususiyatlarini taqriban ko'rib chiqadi. Nisbiylik nazariyasi muallifi Albert Eynshteyndir.

5-topshiriq. Rejalaringiz algoritmini tuzing.

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Mavzu yuzasidan prezentatsiya tayyorlang.

2-topshiriq. "Kompyuter va til", "Hayot algoritmi" mavzularidan biriga esse yozing.

3-topshiriq. "Algoritm", "Algoritm tarixi", "Algoritmning kompyuter lingvistikasi sohasidagi o'rimi", "Jahon dasturlash tillarining rivoji" mavzularining biriga referat tayyorlang.

Yozishliq. Professor U.Tursunovning saytini yaratish uchun
uzbeksizlar bazasini yig'ing.

Yozishliq. Ispiring dasturida mavzu yuzasidan 10 ta test yarating.

Adabiyotlar:

1. [1] Aximov P., Sherboyev H., Mirhamidov Sh., Karimova A. Matematika.
O'qituvchi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.

2. [2] Aximov J. Maktab matematika tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.

3. [3] Yisulov T., Kallibekov S. Matematik mantiq elementlari. – Toshkent:
O'qituvchi, 1996.

4. [4] Aximov J., Axmadjonov I. Maktab matematika lug'ati. – Toshkent:
O'qituvchi, 1973.

5. <http://refleader.ru/igecqasmerpolujg.html>

6. <http://lib.uzbender.ru/article.php?id=4460>

2-MODUL. KOMPYUTER LINGVISTIKASINING RIVOJLANI TENDENSIYASI

4-MAVZU:

KOMPYUTER LINGVISTIKASINING TAHLIL METODLARI

Reja:

1. Lingvistikaning matematik tahlil metodlari bilan bog'liqlig:
 - a) statistik metod;
 - b) nazariy to'plamlik belgilarini aniqlash metodlari;
 - c) mantiq algebrasida yasalgan transformatsion yoki algoritmlik belgilarini aniqlash metodlari;
 - d) ehtimollik belgilarini aniqlash metodlari.

Tayanch tushunchalar: matematik tahlil metodlari, statistik, nazariy to'plamlik belgilarini aniqlash metodlari, to'plam, transformatsion yoki algoritmlik belgilarni aniqlash metodlari, ehtimollik belgilarini aniqlash metodlari.

Fan sohasida qo'llaniladigan bilishning vosita va amallari umumlashmasi ilmiy tadqiqotlar metodini tashkil qiladi. Tadqiqot metodi, albatta, o'rganish uchun tanlangan ob'ektga monand tarzda turli xil bo'lishi mumkin. Shu bilan birgalikda, tadqiqot metodining tanlanishi tadqiqotchining borliqqa (ob'ektga bo'lgan munosabati bilan ham belgilanadi. Bu esa, ilmiy tadqiqot yoki ilmiy tafakkur metodologiyasini belgilaydi³.

Ilmiy tadqiqot metodologiyasida voqelikning tadqiqotchi tomonidan qanday tasavvur va idrok qilinishi ilmiy tadqiqot natijalari uchun muhimdir. Ma'lumki, voqelik real mavjudlikdan iborat bo'lib, undagi hodisa va predmetlar o'zaro bog'liq hamda bir-birini taqozo etadi. Bu bog'liqlik ularning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarida, alohida qismlar o'rtasidagi yaxlitlik va xususiylik munosabatlarida namoyon bo'ladi. Dunyodagi barcha hodisalar doimiy o'zgarishda, taraqqiyotdadir va bu taraqqiyot bosqichma-bosqich amalga oshadi hamda sifat o'zgarishlariga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, voqelik hodisalarini

³ Aitchison J. Words in the Mind: An introduction in the Mental Lexicon. - Oxford; New York: Basil Blackwell, 1994. - str. 11-12.

⁴ Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: Антология. / Под ред. В.П.Нерознака. - М.: Academia, 1997. - стр. 4-5.

...qiyosiy tamoyillarga amal qilgan, o'z-o'zini tashkil etish tamoyillariga amal qilgan bo'lsa ifodaladi⁵.

Matematika matematik tahlil usullarini tadbqiq qilishning ashaddiy tashkilotchiligidir. Ularning fikricha, strukturalizmning "tug'ilish" joyi ham matematikadir. Buni biz struktur tilshunoslik haqidagi qo'llanma (1990) 11.11. Apresyaning quyidagi qaydida aniq ko'rishimiz mumkin: "... har bir struktur tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biri qo'llanishdagi tushunchalarni o'z ichiga olgan fanga oid tushunchalarga moslashtirishdir... Struktur tilshunoslikning o'tinishidagi fan – matematika"⁶.

Matematik tushuncha va amallar tilshunoslikka oid tadqiqotlarda XIX asr oxirlaridan boshlab, ya'ni strukturalizm paydo bo'lishidan birmuncha oldin tatbiq qilingan bo'lgan. Matematikaning boshqa fan sohalariga tatbiqi kutilgan va kutilganidek aynan o'sha paytlarda o'z isbotini topgan.

Matematik modellarni ularga qo'yilgan maqsad va vazifadagi farqqa ko'ra ikki turga ajratadilar: 1) ideal (ramziy) model, uning maqsadi lisoniy hodisalarning muhim xususiyatlarini izchil aniqlash va imkon boricha tilning barcha xususiyatlarini aks ettirish; 2) qayta yaratuvchi (injener - konstruktiv) modellar, bunda lisoniy ob'ektlarni tahlil qilish bilan bir qatorda qayta yaratish muammosi ham nazarda tutiladi.

Tabiiy til belgilarini matematik belgilar tizimi bilan qiyoslash hamda shuning asborot tashish imkoniyatlarini modellashtirish nazariyasi nuqtai nazaridan o'rganish matematik usullarni lisoniy tahlil sharoitiga tatbiq qilishda bir qator metodologik to'siqlar uchrashidan guvohlik beradi. Bu to'siqlarning barchasiga quyidagilar bilan bog'liqdir:

1) lisoniy ob'ektlarning davomiy amorfik holati va matematik modellashtiruvchi vositalarning aniqligi o'rtasidagi qarama-qarshilik;

2) lisoniy belgining ma'no jihatidan boyligi va matematik belgilar boyligining chegaralanganligi.

Ushbu sababli hozirgi paytda taklif qilinayotgan matematik modellarda til tizimini to'liqicha qamrab olish maqsadi ko'zlanmaydi, ular alohida olingan lisoniy hodisalar va tashkil qiladigan ma'lum tizimlarni aks ettirish uchun mo'ljallangan xolos.

⁵ Apresyan I. Силергетика. - М.: Мир, 1985. - 423 с.

⁶ Apresyan I. Д. Непосредственно составляющих метод // Лингвистический энциклопедический словарь. М., 1990. - стр. 38.

Rejalashtirilayotgan maqsad va vazifalari farqiga nisbatan lisoni strukturalarni matematik modellashirishning ikki asosiy mahsuldor yo'nalishi ajratish mumkin. Bulardan birinchisi matematikaning sonsiz sohalari bo'lib to'plamlarga asoslanadi va bu yo'nalish algebrak tilshunoslik nomini oladi (N.Xomskiyning generativ grammatik nazariyasi, S.Markus va I.I.Revzinlarning nazariy-to'plam modellari va boshqalar). Ikkinchi yo'nalish ehtimolli statistika tilshunosligi (N.D.Andreev, P.M.Alekseev, R.G.Piotrovskiy S.Rizaev va boshqalar) bo'lib, unda ehtimollik nazariyasi va matematik statistika metodlaridan foydalaniladi.

Tilning ba'zi struktural elementlari boshqalariga nisbatan ko'p, ba'zilari esa kam qo'llanilganligi sababli, uning struktural elementlari miqdor jihatdan ham o'rganiladi. Struktural elementlarning qo'llanish darajasini o'rganish metodlariga **matematik tahlil metodlari** deb yuritiladi. Ular 3 xil bo'ladi:

- a) nazariy to'plamlik belgilarini aniqlash metodlari;
- b) mantiq algebrasida yasalgan transformatsion yoki algoritmlik belgilarni aniqlash metodlari;
- c) ehtimollik belgilarini aniqlash metodlari.

a) nazariy to'plamlik belgilarini aniqlash metodlari

Til birliklarini to'plamlik belgilari asosida tahlil qilish birliklar orasidagi ekvivalentlik va tartibning binar munosabatini tahlil qilishdan iborat. Ushbu usul asosida kvantitativ belgilar aniqlanadi. Tilshunoslikda to'plam nazariyasi yordamida grammatik tavsif va tasniflarni asoslash mumkin hamda shu usul vositasida grammatik tizimlarni tillararo qiyoslash imkoniyati kuchayadi.

To'plam deb istalgan miqdordagi ob'ektlarning jami yoki yig'indisiga aytiladi. To'plamga kiruvchi bir belgi, ob'ekt shu to'plamning **elementi** deb yuritiladi. Masalan, tildagi so'zlarning lug'aviy ma'nosi uni ifodalovchi predmetlik, belgilik xususiyatlari yig'indisi orqali aniqlanadi:

$$\text{Oy I} = \text{M.M} = \text{a} + \text{v} + \text{s}$$

- a) osmon jismi; b) yer atrofiga aylanadi; c) nur taratadi.

To'plamning muhim belgilaridan biri uning quvvatidir.

To'plamning quvvati deb ma'lum bir chekli to'plam uchun xarakterli bo'lgan elementlar miqdoriga aytiladi.

To'plamlar orasidagi murakkab ekvivalent binar munosabatga misol bo'ladi. Masalan, 2 to'plam orasida



bu xarakteristik mavjud bo'ladi:

1) Ibbi to'plam kesishadi. Bunday kesimlik polisemantik so'zlar izohida

2) Uning grafik ifodasi quyidagicha bo'ladi: Oy II $M_2 = 1 + 2 + 3 + 4$

3) xotin-qizlar ismiga qo'shiladi;

4) otalarga qo'shiladi;

5) o'qilish ma'nosi bo'ladi;

6) shakl yasaydi. $M_1 M_2$



$M_1 \cap M_2$

To'plamlar haqidagi nazariyani matematik fan sifatida asoslagan olim matematigi **Genrix Kantordir (1845-1918)**. To'plam elementlari o'zaro taqqoslanadigan ma'nolar yig'indisi sifatida tilshunoslikda sinonimlar, omonimlar, homonimlar tarkibidagi semalarni tadqiq etishda komponent tahlil metodi muvaffaqiyatli xizmat qiladi. Masalan, o'zbek tilidagi yoz so'zining ma'no taqqoslashi to'plamlar nazariyasiga ko'ra tahlil qilib ko'raylik.

1) Yoz keldi (M_1) 2) Xat yoz (M_2) 3) Dasturxon yoz (M_3)

M_1 Yoz 1

a) payt belgisi, issiqlik belgisi, hamma o'simliklarning ko'karganlik belgisi, suvga chanqoqlik belgisi;

M_2 Yoz 2

b) shartli ishora, harf yasash belgisi m_1 ishorani biror materialdan yasash belgisi, biror ma'noni ifodalash belgisi, qo'l bilan bajarish belgisi;

M_3 Yoz 3

c) x- tartib o'yib qo'yish belgisi;

o- ma'lum tekislikda odatda gorizantal sharoitda bajarish belgisi;

y- biror yumshoq, jismoniy ta'sirga beriladigan narsalarni o'yish belgisi;

l- muddat belgisi.

Ushbu to'plamlarning o'zaro kesishganlik yo'ki kesishmaganlik holatini quyidagicha aniqlash mumkin:

1) $M_1 = [a+b+s+d]$ va $M_2 = [e+m+n+p]$

2) $M_1 = [a+b+s+d]$ va $M_3 [x+y+z+n]$

3) $M_2 = [e+m+n+p]$ va $M_3 = [x+y+z+n]$

Berilgan 3 to'plamda mushtarak elementlar bo'lmagani to'plamlar kesishmaydi. To'plamlar jamlanishi ham mumkin. Jamlangan to'plamlar to'plashlarning yig'indisi yo'ki birlashmasi deb yuritiladi va $M_1 \cup M_2$ ifodalanadi.

Bir to'plam boshqa bir to'plamning ichiga kirishi mumkin. Bu holda bunday belgilanadi: $M_1 \subset M_2$. Ularning grafik ifodasi quyidagicha bo'ladi:

To'plam ichiga kirgan har bir to'plam juz'iy to'plam deb yuritiladi. Juz'iy to'plamlar kesishmasi tasniflanishiga ko'ra bir-biridan farqlansa, to'plam bo'linadi. Bunday bo'linuvchi juz'iy to'plamlar **bo'linish shifli** bo'linuvchi to'plamlar deb yuritiladi. O'zbek tilida so'z turkumlari, undosh tovushlar, so'z ma'nolarining tasniflari to'plamlar nazariyasining shu qoidasiga asoslanadi. Berilgan to'plamga nisbatan xususiy elementlardan iborat bo'lsa, bunday juz'iy to'plamlar **munosabat** deb yuritiladi. Tilshunos uchun juz'iy to'plamlardagi ekvivalentlilik munosabati va tartibli binar munosabati muhim ahamiyatga ega. Binar munosabatlar juft elementlar xos bo'lib, bu munosabatlarning juda xilma-xil turlari tilning barcha keng tarqalgan: unli va undosh, portlovchi va sirg'aluvchi, jarangli va jarangsiz til oldi va til orqa va boshqalar. Binar munosabatlarning quyidagi xususiyati mavjud:

1) **refleksiv munosabat** – bunda har qanday a elementi o'ziga munosabatda bo'ladi va bu munosabat quyidagicha ifodalanadi: aRa ($a=a$);

2) **simmetriklik xususiyati** – bu xususiyat binar munosabatdagi aRb holatda ifodalanadi, ammo $a > b$ bo'lsa, $b > a$ holda assimetriklik xususiyati vujudga keladi;

3) **tranzitivlik xususiyati** – bu xususiyat quyidagicha ifodalanadi: aRb, bRc, aRc .

Refleksivlik, simmetriklik va tranzitivlik xususiyatlari mavjud bo'lgan binar munosabat ekvivalentlikka ega deyiladi. Ekvivalentlikning xususiyati ko'rinishi tenglikdir. Irrefleksivlik, assimetriklik va tranzitivlik mavjud bo'lgan binar munosabatga **qat'iy tartibli munosabat** deyiladi. Tilshunoslik fanida paradigmaning bosh a'zosi va keyingi bo'linishlar **bosqichlilik** qat'iy tartibli munosabatda bo'lishni talab qiladi.

Transformatsion yoki algoritmlik jihatdan til birliklarini tahlil qilish metodlari

Ushbu qisqirishga asoslangan transformatsion belgilar vositasida til tahlil qilinadi. Transformatsion yoki algoritm jihatdan tahlil qilish til tahlilining umumiy usulini tasvirlashning aniq qoidalarini ko'rsatib berish uchun transformatsiya metodi ham lisoniy birliklarning paradigmatic xarakterini namoyishga yo'naltirilgan. Ushbu metodning oldingilardan farqi shundaki, ushbu usulda bir tizim tarkibidagi birliklarning bir-biriga o'tishi, o'zaro bog'lanish yoki yamallishi g'oyasi yotadi.

Transformatsion metodning ilmiy tadqiqot metodi sifatida to'liq shunda ta'lim turli variantlarining yaratilishi amerikalik tilshunolar J. R. Hayes, H. Kozmakiylar nomlari bilan bog'liq. Distributiv tahlilning transformatsion tashqi tuzish istagida bo'lgan tilshunolar transformatsiya usulini yaratishga qaratilgan. Bu usul hozirgi paytda sintaksisda keng qo'llaniladi va sintaktik tuzilmalarning turli o'zgartirish qonuniyatlari bu usulning umumiy tizimida tutgan o'rnini aniqlash imkonini bermoqda.

Bu qanday gap tuzilishi tarkib jihatidan o'zgarishlarga bo'lgan ta'limatga asoslan tajriba sinovidan o'tishi mumkin va ushbu gap aynan transformatsiya imkoniyatlari o'lchovi asosida u yoki bu sintaktik turlar ajratiladi. Bundan tashqari, ushbu sinovlar jarayonida gap bo'laklari, ushbu turlar qismlarining semantik xususiyatlari, sintaktik munosabatlari ham tahlil qilinadi va bu jihatdan transformatsion metod differensial ma'no xususiyatlari ajratiladi, uning isbotlovchi amaliga aylanadi.


Tilni tahlil qilish va tasvirlashda ikki xil qolip tuzish qoidalari qo'llaniladi:

- a) bevosita tashkil etuvchilar bilan bajaradigan ishlar qoidalari;
- b) transformatsion qolip tuzish.

1. Bevosita ishtirokchi (tuzuvchi)lar bilan bajariladigan operatsiyalar yoki qoidalar. Bevosita ishtirokchilarga ajratish metodi faqat morfologiya va sintaksis asosida qo'llanilishi R.Uellz hamda Yu.Naydalar tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu metodga muvofiq tayanch nuqta konstruksiya hisoblanadi va ushbu ishtirokchilari: bevosita hamda bilvosita ishtirokchilarga ajratiladi.

Tilning sintaktik sathini tahlil qilishda deskriptiv lingvistikaning bevosita ishtirokchilar (BI)ga ajratish metodidan foydalaniladi. Gap strukturasida


tarkibidagi bunday ishtirokchilarni aniqlash jarayoniga bevosita ishtirokchilarga ajratish metodi deb yuritiladi. Bevosita ishtirokchilarga ajratish jarayoni yuqori sintaktik sath birliklaridan boshlanib, morfologiya, morfemika, fonologiya sathlarigacha davom ettiriladi. Masalan, *Bizning guruh ilg'orlikni egalladi*, degan gapni quyidagicha bevosita ishtirokchilarga ajratish mumkin:



Bevosita ishtirokchilar (BI) metodiga ko'ra tayanch nuqta **konstruksiya** (**qurilma**) deb ataladi. Konstruksiya tarkibidan **ishtirokchilar** va **bevosita ishtirokchilar** (BI) ajratiladi.

Konstruksiya yoki qurilma deyilganda ma'noli qismlarning ketma-ket munosabatidan tashkil topgan butunlikka aytiladi. Kattaroq konstruksiya tarkibiga kirgan so'z yoki konstruksiya (morfema)ga ishtirokchilar deyiladi.

Har qanday bir konstruksiyaning bevosita shakllanishida ishtirok etgan bir yoki bir nechta ishtirokchilar *bevosita ishtirokchilar* deb yuritiladi. Masalan, prof. A. Nurmonov *Shabboda qurg'ur ilk sahar olib ketdi gulning totini* (sahar(tomla)ni)ni yaxlit bir konstruksiya deb hisoblab, uni quyidagicha BIGa ajratadi¹:



Yoki *Katta opam kecha chiroyli ko'ylak oldi*, degan gapni bevosita ishtirokchilarga ajratish metodi yordamida quyidagicha formallashtirish mumkin bo'ladi: 1) $S \rightarrow NP + VP$; 2) $NP \rightarrow A + N$; 3) $VP \rightarrow Adv + NP + Vtr$; 4) $NP \rightarrow A + N$.

2. Transformatsiyalash (aylantirish) metodi distributiv tahlil usuli o'rnatilgan shakllangan va oddiy sintaktik qurilmalardan murakkablarini, bir birligi sintaktik qurilmadan boshqa turdavisini hosil qilish yo'llari hamda natijalarini tadqiq va tahlil etishga mo'ljallangan. Bu tahlil usuli yordamida ilk boshqa birlik (mas., aniqlik mayli, umumiy zamon va umumiy shaxs-son shakl va ma'nolaridagi gap) tanlanib, shu qurilmadan boshqa ma'noli va vazifali qurilmalarning hosil qilish chizmalari aniq belgilanadi va modellashtiriladi. Natijaning avtomat (kompyuter) vositasida ma'lum bir dastur asosida bir qurilmadan ikkikinchisi to'g'ri hosil qilinadi. Bu tahlil usulidan S.Muhammedov va B.Mahmatqulovlar tadqiqotlarida foydalanganlar.

Transformatsion modellar tuzish qoidolari: bevosita tuzuvchilar bilan ajratiladigan operatsiyalar so'zlar yoki morfemalarda mavjud bo'lgan sintaktik belgilarni aniqlash qoidalaridan iborat. Bu qoidalarga ko'ra 2 elementdan tashqari bir yangi element hosil bo'ladi.

Ikki bevosita tuzuvchi sintagma hosil qiladi. Bu sintagmalardan gaplar

tuziladi. Gaplar hosil qilishning bosqichli tartibi shundaki, agar kesimga ega bo'lsak, u holda bunday gaplarda kesim guruhi etakchi bo'ladi. Ba'zan ayrim gaplarda ega guruhi alohida, kesim guruhi ham alohida bo'lishi mumkin. Har bir sintagma o'z sintaktik xususiyatiga ko'ra yadroga teng hisoblanadi. Yadrolarni ixchamlashtirish va shu asosda gapning eng kichik qolipini aniqlash mumkin. Sintagmalar 2 xil sintaktik munosabatga asoslanadi:

a) predikativ munosabat;

b) predikativ bo'lmagan munosabat.

Transformasion qoidalar deb odatdagi bevosita tuzuvchilar modeli asosida yaratiladigan yangi gaplarga o'tish qoidalariga aytiladi.

c) tilni ehtimollik belgilariga ko'ra tahlil qilish metodlari

Tilni ehtimollik belgilariga ko'ra tahlil qilish til elementlarini statistik xarakteristikalar asosida baholash demakdir. Til birligining gapda qo'llanish chastotasi ehtimollik deyiladi. Ehtimollik fonema, so'z, so'zlar guruhi, gaplarning qo'llanishidagi tasodifiy o'lchovidir. Tanlanma matn asosida statistik xususiyatlarni o'rganish natijasida chastotali lug'atlar tuziladi.

Bunday tahlil til elementlarini statistik tavsiflar asosida baholash demakdir. Statistik tahlilning asosiy maqsadi lisoniy birliklarning umumiy tizimiy xarakterini, xususiyatlarini o'rganishdir. Alohida olingan guruhlar til tizimining barcha tarkibiy qismlariga xos belgilarini namoyon qilish imkonligi ushbu guruhlarini ehtimollik nazariyasi metodlari asosida tahlil qilish yo'li bilan isbotlanadi.

Statistik metodning lingvistik tadqiqotlardagi ahamiyati barchaga ma'lum. Uning yordamida lisoniy birliklarning qo'llanish koeffitsiyenti, ya'ni nutq (yozma va og'zaki) faollik darajasi aniqlanadi. Statistik tahlil natijalaridan amaliy maqsadlarda, masalan, yozma yodgorliklar sirlarini ochishda kriminalistikada (noma'lum muallifni aniqlashda), lug'atlar tuzishda, stilistik tahlilda va boshqa sohalarda foydalaniladi.

Statistik tahlil, so'z shakllari va gaplar qurilishining analitik qoliplarini tuzish bir tildan ikkinchi tilga mashina (avtomatli) tarjimaning matematik asosini yaratish imkonini beradi. Hozirgi kunda turli xil tarjima avtomatlari paydo bo'lgan va har bir shaxs ulardan foydalanish imkoniga ega. Ammo bu turdagi mashinalarning qobiliyati anchagina cheklanganligini ham unutmaslik

...ularning "tishi" faqatgina sodda, unchalik murakkab bo'lmagan shaklga "o'tadi". Faqatgina avtomatik lug'atlarning (masalan, Yaponiyada keng qo'llaniladigan qo'llanishda bo'lgan ierogliflar lug'ati) imkon darajasi shakliga keng.

Til birligining gapda yoki matn tarkibida qo'llanish chastotasiga, shakliga ehtimollik deyiladi. Bu nazariya umumiy tasodifiy qoidalar, qoidalar bo'ysunadigan qonuniyatlarni o'rganadi. Ehtimollik nazariyasiga ko'ra tildagi 3 voqea bir-biridan farq qiladi:

a) **ishonchli voqea** – ma'lum sharoitlar to'plamida, albatta, yuz beradigan voqealar.

b) **imkon bo'lmagan voqea** – ma'lum bir matnda uchramaydigan voqealar.

c) **tasodifiy voqea** – ma'lum bir matnda ayrim hollarda uchraydigan til voqealari.

Matnning xususiyati o'rganilayotgan aniq natijalar **tanlanma** deb yuritiladi.

Tanlanmaning hajmi yo'ki miqdori ehtimollik nazariyasi uchun muhim ahamiyatga ega. Tanlanmalar soni har xil bo'lishi mumkin. Bu esa ma'lum bir tilning muayyan uslubiga xos tipologik xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi. O'zbek tilida gap tuzish paytida so'z formalarining 65% foizi sintaktik va grammatik tildagi so'z o'zgartirish shakllari, qolgani 35% esa faqat analitik tildagi so'z o'zgartirish formalarini tashkil qilishi aniqlangan. Shunga ko'ra, hozirgi o'zbek adabiy tilida agglutinativ ajratuvchi tilga xos xususiyatlar yetakchi o'rin tutadi, degan xulosaga kelingan.

Ehtimollik nazariyasi asosida so'zlarning qo'llanish chastotasi, bo'g'inlar tarkibida harflarning kelish miqdori ham aniqlanadi. Masalan, tilshunos olim E. Xondzhidimov o'zbek tilida so'z boshida kelish jihatidan faol bo'lgan tovushlarni aniqlash maqsadida 67 ming leksemdan iborat "O'zbek tilining asos lug'ati" (1976)ni tanlab, tilimizda so'z boshida keladigan tovush(harf)lar intensivligi quyidagicha ekanligini aniqlagan²:

Harf	Soni	Harf	Soni	Harf	Soni	Harf	Soni
1 (1)	6326	Ch (10)	2342	O' (19)	1246	Yo (28)	790
2 (2)	5330	P (11)	2288	R (20)	1216	Ya (29)	782
3 (3)	4392	I (12)	2240	U (21)	1174	Yu (30)	526
4 (4)	4184	G (13)	1938	J (22)	1164	Ye (31)	462

² Xondzhidimov E. O'zbek tilida tovushlar intensivligi // Til va adabiyot ta'limi, 2005. № 1. - B. 88-91.

S (5)	4156	Sh (14)	1926	V (23)	1028	Y (32)	448
H (6)	4092	H (15)	1644	F (24)	1024	Ts (33)	100
M (7)	3732	N (16)	1526	G' (25)	1018	' (-)	
O (8)	2838	X (17)	1496	Z (26)	1003	(-)	
D (9)	2616	E (18)	1256	L (27)	890		

Keltirilgan jadvaldan ma'lum bo'ladiki, "t" tovushli so'zlar barcha o'rinlarda qilingan so'zlarning 10,0 foizdan ko'prog'ini tashkil qiladi; undan keyin "b" o'rinlarni "b", "k" va "a" tovushli so'zlar egallaydi. Ularning foiz ko'rsatkichlari quyidagicha: "b" – 12,5; "k" – 15,2; "a" – 16,0 kabilar. Bu jadvalning yordamida o'rinlarini yo, ya, yu, ye va y harflari bilan boshlanuvchi so'zlar egallaydi. Bunday tahlillarni yana davom ettirish mumkin.

AMALIY MASHG'ULOT UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Keyslarni bajaring.

Keys 1. "Shabboda qurg'ur ilk sahar olib ketdi, gulning totini" degan gapni sintaktik tahlil qilishda deskriptiv lingvistikaning bevosita ishtirokchilari (BI) ajratish metodidan foydalanildi. Mazkur tahlilni namuna sifatida morfologiya, morfemika, fonologiya sathlarida ham tahlilni davom ettirish topshiriladi. Gapni bevosita ishtirokchilar (BI)ga ajratish metodidan foydalanish tahlilni davom ettiring.



Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

1. Guruhlarda bevosita ishtirokchilar (BI)ga ajratish metodidan foydalangan holda morfologiya, morfemika, fonologiya sathlari bo'yicha misollar topib tahlilni davom ettiring.
2. Individual tarzda bevosita ishtirokchilar (BI)ga ajratish metodidan foydalangan holda morfologiya, morfemika, fonologiya sathlari bo'yicha misollar topib tahlilni davom ettiring.

Keys 2. Nazariy to'plamlik belgilarini aniqlash, mantiq algebrasida yasalgan transformatsion yoki algoritmlik belgilarni aniqlash, ehtimollik belgilarini aniqlash metodlarini o'zaro "Venn" diagrammasi asosida tahlil qilish.

2-topshiriq. To'plam atamasi qaysi metodga tegishli?

a) statistik metod	4	d) komponent tahlil metodi
b) nazariy to'plamlik belgilarini aniqlash metodi	5	e) tavsiflash metodi

bet).

6-topshiriq. Diktant yozing. Matnlarni statistik metod asosida tahlil qiling.

1. U hozir negadir yolg'iz qolgisi, xayollariga qonib, yolg'iz yolg'iz va shakarobni hozirladi-da, unga tuz sepmay, qizchalarni oshxonada qiz xonasiga yo'l oldi (*Bozor dunyo. – Toshkent, 2006, 378-bet*). 2. Faqat o'rganib shuni bildiki, cho'qqisoqol endi bu oilada o'z hukmini o'tkaza (*N.Eshonqul. Yalpiz hidi. - Toshkent, 2008, 223-bet*). 3. Agar yo mashinalar ko'p bo'lsa, u holda manzilimizga yetishimiz qiyinroq (*Bozor dunyo. – Toshkent, 2006, 370-bet*).

7-topshiriq. Tushirib qoldirilgan so'zlarni yozing.

Har qanday a elementi o'ziga teng munosabda bo'ladi va bu munosabat quyidagicha ifodalanadi: aRa ($a=a$) bunday xususiyatdeyiladi. Binar munosabatlardagi aRb , bRa holatda ifodalanadi, ammo $a \neq b$ bo'lsa, u la assimetriklik xususiyati vujudga keladi bu..... deyiladi. – bu xususiyat quyidagicha ifodalanadi: aRb , bRc , aRc . Refleksivlik, simmetriklik va tranzitivlik xususiyatlari mavjud bo'lgan binar munosabat ega deyiladi. 5. deb istalgan miqdordagi ob'ektlarning jami yoki yig'indisiga aytiladi. 6. Ma'lum sharoitda to'plamda, albatta, yuz beradigan voqea bu 7. ma'lum bir matnda uchramaydigan birliklar. 8. Ma'lum bir matnda ay hollarda uchraydigan til birliklari deb.....aytiladi.

8-topshiriq. Test savollarini bajaring.

1. Matnning formal ajraladigan eng kichik birligi ... sanaladi.

- a) fonema
- b) grafema
- c) so'z
- d) morfema

2. XX asr boshlarida grammatikani tavsiflashda sinxroniy va diaxroniyani farqlagan tilshunos olimni toping?

- a) N.Chomskiy
- b) F.de Sossyur

1. Tilshunoslik

2. Tilshunoslik

3. Tilshunoslikda qaysi matematik metodlardan foydalaniladi?

4. Tilshunoslik

5. Tilshunoslik

6. Tilshunoslik

7. Tilshunoslik to'plam, statistik va transformatsion.

8. Tilshunoslik to'plam metodidan tilshunoslikda qanday so'zlarni tahlil qilish imkoniyatini beradi?

9. Tilshunoslik to'plam so'zlarni.

10. Tilshunoslik to'plam so'zlarni.

11. Tilshunoslik to'plam so'zlarni.

12. Tilshunoslik to'plam so'zlarni.

13. Tilshunoslik to'plam so'zlarni qaysi tilshunoslikda ishlab chiqilgan?

14. Tilshunoslik to'plam so'zlarni.

15. Tilshunoslik to'plam so'zlarni.

16. Tilshunoslik to'plam so'zlarni.

17. Tilshunoslik to'plam so'zlarni.

18. A. Kozlovning "Sintaktik strukturalar" asarida grammatika

19. A. Kozlovning "Sintaktik strukturalar" asarida grammatika

Formal tushuncha - aniq mazmunga ega bo'lgan fikrlarni simvollar bilan ifodalash, ya'ni propositsional funksiya hosil qilish, formulalar yaratish, mantiqiy qoidalarni yaratish orqali tafakkurning strukturasi haqida fikrni ifodalash.

Formal tushuncha - aniq mazmunga ega bo'lgan fikrlarni simvollar bilan ifodalash.

Formal tushuncha - aniq mazmunga ega bo'lgan fikrlarni simvollar bilan ifodalash, ya'ni propositsional funksiya hosil qilish, formulalar yaratish, mantiqiy qoidalarni yaratish orqali tafakkurning strukturasi haqida fikrni ifodalash.

Formal tushuncha - aniq mazmunga ega bo'lgan fikrlarni simvollar bilan ifodalash.

3. Tushuncha

Ma'lumotlar	Maslahatlar va tavsiyanomalar
1. Ma'lumotlar	Avvalo keys bilan tanishish. "Kompyuter lingvistikasi va formallashtirish" haqida tushuncha hosil qilish uchun bor bo'lgan butun axborotni diqqat bilan o'qib chiqish lozim. O'qish paytida vaziyatni tahlil qilishga shoshilmang.
2. Ma'lumotlar	Ma'lumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan o'qib chiqing. Siz uchun muhim bo'lgan satrlarni belgilang. Bir misradan ikkinchi misraga o'tishdan oldin, uni ikki-uch marotaba o'qib mazmuniga kirib boramiz. Keysdagi muhim fikrlarni qalam yordamida ostini chizib qo'ying. Vaziyat tavsifida berilgan asosiy tushuncha va iboralarga diqqatingizni jalb qiling. Mavzudagi har bir so'z tushunarlimi? Kompyuter lingvistikasida formallashtirish masalalari nima o'zi?

3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish	Asosiy muammo va kichik muammolarga diqqatini qaratib qiling. Quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling. 1-muammo. "Formallashtirish tamoyillari va muammolari" 1. Formallashtirishning kompyuter lingvistikasida qanday afzalliklari mavjud? 2. Boshqa tilga mansub formallashtirish tamoyillari afzalliklarga egami, zamon nuqtai nazaridan ularni o'zbek tiliga qo'llash to'g'rimi? 3. Kelgusida yo'lga qo'yilgan xatolarni tuzatish uchun ushbu formallashtirish tamoyillari o'z ta'sir kuchini saqlay qoladimi? 2-muammo. "Formallashtirishda badiiy tasvir vositalarini qo'llash muammolari" 1. Matnlarda qanday badiiy tasvir vositalari qo'llaniladi? 2. Badiiy tasvir vositalari matn mazmuniga ta'sir etadimi, formallashtirishda qanday amalga oshiriladi? 3. Zamonaviy, o'zbek tili modeli aks etadigan grammatikani o'ylab topish uchun nima ishlar qilish kerak? 3-muammo. "Formal grammatikani hayotda qo'llash" 1. O'zbek tili modelini yaratishga qanday to'siqlar sabab bo'lmoqda? 2. Kompyuter dasturlari yaratishdan qanday maqsad ko'zlar edingiz va ularni hayotda qo'llashning qanday afzalligi mavjud? 3. Agar siz jamiki dasturlarni yarata olsangiz, nimadani amalga oshirar edingiz? Asosiy muammo nimaga qaratilganini aniqlang. Muammo ostidagi muammolar asosiy muammo bilan qanday o'zaro bog'liqligiga izoh bering. Muammoning mazmunini ajratib oling. Muammoli vaziyatni tahlil qilish obyektni holatini aniqlang, asosiy qirralariga e'tibor qaratib, muammoli vaziyatning hamma tomonlarini tahlil qiling.
4. Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarini tanlash hamda asoslash	Ushbu vaziyatdan chiqib ketish harakatlarini izlab topib, maqsadida quyida taqdim etilgan "Muammoli vaziyat" jadvalini to'ldirishga kirishing. Muammoni yechish uchun barcha vaziyatlarni ko'rib chiqing, muqobil vaziyatni yarating. Muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab oling, muammoning aniq yechimini toping. Jadvalni to'ldiring. Keys bilan ishlash natijalarini yozma shaklda davlat eting.

3. Muammoli vaziyatning tahlili va yechimi jadvalini to'ldiring

Muammoli vaziyat turi	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari
1-muammo. "Formallashtirish tamoyillari va muammolari"		

Formallashtirishning kompyuter lingvistikasida qanday afzalliklari mavjud?		
Boshqa tilga mansub formallashtirish tamoyillari afzalliklarga egami, zamon nuqtai nazaridan ularni o'zbek tiliga qo'llash to'g'rimi?		
Kelgusida yo'lga qo'yilgan xatolarni tuzatish uchun ushbu formallashtirish tamoyillari o'z ta'sir kuchini saqlay qoladimi?		
2-muammo. "Formallashtirishda badiiy tasvir vositalarini qo'llash muammolari"		
Matnlarda qanday badiiy tasvir vositalari qo'llaniladi?		
Badiiy tasvir vositalari matn mazmuniga ta'sir etadimi, formallashtirishda qanday amalga oshiriladi?		
Zamonaviy, o'zbek tili modeli aks etadigan grammatikani o'ylab topish uchun nima ishlar qilish kerak?		
3-muammo. "Formal grammatikani hayotda qo'llash"		
O'zbek tili modelini yaratishga qanday to'siqlar sabab bo'lmoqda?		
Kompyuter dasturlari yaratishdan qanday maqsad ko'zlar edingiz va ularni hayotda qo'llashning qanday afzalligi mavjud?		
Agar siz jamiki dasturlarni yarata olsangiz, nimadani amalga oshirar edingiz?		

3. **Qisqartirib.** Matnni o'qing va daftaringizga yozib oling. Formallashtirish tamoyillari asosida matnni formal qolipini yarating.

4. **Asosiy muammo.** Muammoni yechish uchun barcha vaziyatlarni ko'rib chiqing, muqobil vaziyatni yarating. Muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab oling, muammoning aniq yechimini toping. Jadvalni to'ldiring. Keys bilan ishlash natijalarini yozma shaklda davlat eting.

5. **Asosiy muammo.** Muammoni yechish uchun barcha vaziyatlarni ko'rib chiqing, muqobil vaziyatni yarating. Muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab oling, muammoning aniq yechimini toping. Jadvalni to'ldiring. Keys bilan ishlash natijalarini yozma shaklda davlat eting.

6. **Asosiy muammo.** Muammoni yechish uchun barcha vaziyatlarni ko'rib chiqing, muqobil vaziyatni yarating. Muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab oling, muammoning aniq yechimini toping. Jadvalni to'ldiring. Keys bilan ishlash natijalarini yozma shaklda davlat eting.

7. **Asosiy muammo.** Muammoni yechish uchun barcha vaziyatlarni ko'rib chiqing, muqobil vaziyatni yarating. Muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab oling, muammoning aniq yechimini toping. Jadvalni to'ldiring. Keys bilan ishlash natijalarini yozma shaklda davlat eting.

8. **Asosiy muammo.** Muammoni yechish uchun barcha vaziyatlarni ko'rib chiqing, muqobil vaziyatni yarating. Muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab oling, muammoning aniq yechimini toping. Jadvalni to'ldiring. Keys bilan ishlash natijalarini yozma shaklda davlat eting.

9. **Asosiy muammo.** Muammoni yechish uchun barcha vaziyatlarni ko'rib chiqing, muqobil vaziyatni yarating. Muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab oling, muammoning aniq yechimini toping. Jadvalni to'ldiring. Keys bilan ishlash natijalarini yozma shaklda davlat eting.

10. **Asosiy muammo.** Muammoni yechish uchun barcha vaziyatlarni ko'rib chiqing, muqobil vaziyatni yarating. Muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab oling, muammoning aniq yechimini toping. Jadvalni to'ldiring. Keys bilan ishlash natijalarini yozma shaklda davlat eting.

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Mavzu yuzasidan prezentatsiya tayyorlang.

2-topshiriq. "Sun'iy intellekt va formallashtirish" mavzusida esse yozing.

3-topshiriq. "Formal til nazariyasi", "Kompyuter lingvistikasi", "Formal til va formallashtirish", "Formal grammatika tarixi", "O'zbek tilining formallashtirish muammolari", "Tabiiy til va formal til" mavzularining biriga referat tayyorlang.

4-topshiriq. Mumtoz adabiyot kafedrasining saytini yaratish ma'lumotlar bazasini yig'ing.

5-topshiriq. Ispring dasturida mavzu yuzasidan 10 test yarating.

Adabiyotlar:

1. Новиков П.С. Элементы математической логики. – М.: Наука, 1973.

2. Ёкубов Т., Каллибеков С. Математик мантик элементлари. – Ўқитувчи, 1996. – 272 б.

3. Йулдошев Б. Математик ва компьютер лингвистикаси. Самарқанд, 2007.

4. Йулдошев Б. Компьютер лингвистикаси. – Самарқанд, 2009.

5. Эшқобил Шукур. Она тилимиз "хужайралари" ёхуд математикаси // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2006 йил 24 февраль (3837)-сон.

MODUL, KOMPYUTER LINGVISTIKASIDA LINGVISTIK MASALALAR

7-MAVZU:

LINGVISTIK BILIMLAR BAZASI

Reja:

1. Lingvistik bilimlar bazasi haqida tushuncha.
2. Lingvistik bilimlar bazasini yaratish muammolari.
3. Lingvistik bilimlar bazasining bosqichlari.

Taranch tushunchalar: *lingvistik bilimlar bazasi, formallashtirish, boshqartirish, leksik bloki – orfografik, orfoepik, izohli, atamalar, chastotali, ma'no bog'lanarlari, grammatik blok, fonetik blok.*

Kompyuter tilshunosligining paydo bo'lishi bilan tilshunoslik fanining shakli – til shakl va struktura sifatida o'rganilib, formal shakllari yaratildi. Hozirgi kunda har bir fanning taraqqiyoti, uning amaliy ahamiyati insoniyat rivojlanishida qay darajada qondirish bilan belgilanadi. Kishilik jamiyati rivojlanishi bilan kompyuter tilshunosligi fanining amaliy ahamiyatiga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Kompyuter tilshunosligining maqsadi ma'lum tilni o'qitish, o'qitishni dasturlashtirish, matnni mashina yordamida tashlash, xorijiy tillarni o'rganish, katta hajmdagi axborotlarni tez va qulay tarzda qayta ishlash, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish, matnga qayta ishlov berish kabi masalalar. Kompyuter tilshunosligining maqsadi tabiiy (o'zbek, rus, tojik, ingliz) tillarning matematik modellarni qurish, lingvistik muammolarni hal qilishda turli xil kompyuter dasturlarini ishlab chiqishdir. Ana shu masalalarni hal qilishda ekspert tizimi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekspert tizimi – muayyan sohadagi ekspertlik yoki mavjud bilimlarning konsepsiyasi tarzida yaratilgan kompyuter dasturi. Boshqacharoq aytganda, ekspert tizimi maxsus sohaga oid barcha bilimlar jamlangan qomus yoki o'ta kompyuter dasturlarining konsepsiyasi Stenford universiteti professori Eduard Feygenbaum nomi bilan bog'liq bo'lib, u 1977-yilda murakkab mantiqiy masalalarni yechishda kompyuter dasturlarining samaradorligi formallashtirish va dasturlash masalasidan ko'ra muammoli sohaga doir bilimlar bazasiga bog'liq ekanligini ko'rsatib berdi. Bilimlarning mavjud holatlar bilan muvofiqligi hamda bilimlar

bazasining boyitilishi ekspert tizimlarining tushuntiruvchi dasturlari amalga oshiriladi. Hatto keyingi paytlarda bilimlar bazasi bilan shug'ullangan maxsus yo'nalish ham shakllandi. Bu yo'nalish «**bilimlar injenerligi**» («**Knowledge Engineering**») deb ataladi.

Bilimlar injenerligi kognitiv lingvistika, kompyuter semantikasi va kompyuter lingvistikasining yutuqlariga tayanadi. Bunda informatika va bilimlar strukturasiga oid bo'lgan **semantik tarmoq**, **freym**, **ssenariy**, **Web**, **net** kabi tushunchalar va ularning tatbiqi muhim hisoblanadi. Semantik tarmoq bo'lib borliqni so'zlar va ularning semantik munosabatlari yordamida modellashtirilgan yo'naltirilgan tizim hisoblanadi. **Semantik tarmoq** aniq belgilangan obyektlar (obyektlar kesishadigan joy) va dugalar (semantik munosabatlarning ikkinchisiga ta'sir ko'rsatadigan nuqta) munosabatdorligi asosida modellashtiriladi. Semantik tarmoq g'oyasi kompyuter texnologiyalarida lokal va global tarmoq nazariyasi ta'sirida kelib chiqqan. Uzellar muayyan obyektlarga, muayyan sohaga oid tushunchalarga, dugalar obyektlar o'rtasidagi semantik munosabatlarga aloqador tushunchalardir. Semantik tarmoq qismdan tashkil topadi: 1) mavhum tarmoq; 2) aniq tarmoq.

Mavhum tarmoq umumiy tushunchalar orqali ifodalanadigan (zamon, makon, miqdor, sifat kabi) bilimlar fondini o'z ichiga oladi; 2) aniq tarmoq mavhum tarmoq tarkibiga kiruvchi tushunchalarning real obyektlarini konkret bilimlar fondini o'z ichiga oladi.

Semantik tarmoq tizimi quyidagi munosabatlarni o'rnatish orqali yaratiladi:

1. To'plam va obyekt o'rtasidagi munosabat (muayyan obyekt to'plamga mansub bo'ladi) tasnif munosabati deyiladi. Masalan, «Qoplab hisoblanadi» holati kabi. Ba'zan ushbu munosabat **Member Of, Instance** deb ham yuritiladi.

2. Tur va jins o'rtasidagi munosabat **AKO** - «A Kind Of», «Subset» («turlaridan biri») deb ataladi. Masalan: «It hayvon hisoblanadi» holati kabi. Sistem leksikologiyada tur uchun **giponim** (it), jins uchun **giperonim** (hayvon) tur-jins munosabati uchun **giponimiya** terminlari qabul qilingan.

3. Butun va qism o'rtasidagi munosabat sistem leksikologiyada metonimiya termini bilan ataladi. Masalan, kompyuter - butun; monitor, klaviatura, sichqoncha, protsessor kabilar - qismdir. Butun uchun **xolonim**, qism uchun

... ishlatiladi. Demak, motor - avtomobil uchun meronim, ... motor uchun xolonim sanaladi.

Freym strukturasiga oid tayanch tushunchalardan yana biri **freym** hisoblanadi. Freym inglizcha «frame» - «karkas», «ramka», «skelet» ma'nolarini bildiradi. Freym son'iy intellekt tizimida bilimlarni, stereotip (juda ko'p qaytalanuvchi) vaziyatlarni gavdalanitirishning bir usuli sanaladi. Ya'ni Freym modelizatsiya qilyotgan hodisa, vaziyat va jarayonlarni umumlashtirilgan shaklda ifodalash mumkin. **Freym** - mavhum obraz modeli bo'lib, muayyan hodisa, vaziyat va jarayonlarning formal tavsifi demakdir. Freym modelizatsiya qilish, shifokor qabulida bo'lish, ma'ruzalarga qatnashish, o'yin kabi tipik vaziyatlar). Dastlab «freym» termini XX asr 60 yillarida Marvin Minskiy tomonidan olamning kompyuter modelini yaratish uchun bilimlar strukturasiga nisbatan ishlatilgan¹⁰. Shundan so'ng Freym konsepsiyasi (**frame semantics**) amerikalik tilshunos Charlz Fillmor tomonidan rivojlantirildi. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, so'zlar, so'z tizimlari, gaplar, matn ma'nosi **sahnalar** bilan uyg'unlashtirilgan, shartlangan holatlar. Bir freym boshqa bir freymning davomi yoki tarkibiy qismi bo'lishi mumkin. Ch.Fillmorning qarashlariga L.Tenyening aktantlar (fe'ning bo'sh joylari to'ldiruvchilar) haqidagi g'oyasi katta ta'sir ko'rsatgan. Fillmorning g'oyasiga asosan aktantlar (fe'ning hamrohlari) fe'l bilan bog'lanadigan holat yoki harakat munosabatlaridagi bajariladigan holatlar ta'kidlanadi. Ch.Fillmor ajratgan kelishiklar quyidagilar:

1. **Agent (A)** - harakat bajaruvchisi (inglizcha «agent» so'zidan olingan).
 2. **Topic (T)** - predmet (inglizcha «theme» so'zidan olingan).
 3. **Source (S)** - harakat obyektining dastlabki holati (inglizcha «source» so'zidan olingan).
 4. **Goal (G)** - harakat ijrosidan keyingi yakuniy holati (inglizcha «goal» so'zidan olingan).
 5. **Instrument (I)** - harakat uchun qurol-vosita (inglizcha «instrument» so'zidan olingan).
 6. **Way (W)** - harakat usuli (inglizcha «way» so'zidan olingan).
- Freym son'iy intellekt tarkibiga kiruvchi ekspert tizimlarida faol ishlatiladi. Freymning quyidagi turlari mavjud: freym-namunalar, freym-strukturalar,

freym-rollar, freym-ssenariylar, freym-vaziyatlar. Freymlar tizimni **semantik tarmoqni** hosil qiladi. Freym kompyuter xotirasida bilimlar va faktlar omboriga tayanib olamni maxsus shakllantiruvchi modelni bajaradi. Freym **slot** deb atalgan bir yoki bir necha elementlarning hisoblanadi. Slotlarda obyektlarga xos belgilar ma'nosi qayd etilgan bo'ladi.

«Stol» freym fragmentining jadval ko'rinishidagi representatsiyasi

Slot nomi	Slot mazmuni
Oyoqchalar miqdori	To'rtta, undan ko'proq bo'lishi ham mumkin
Material	Yog'och, plastmassa, shisha
Yuzasi, sirti	Oval, kvadrat, aylana
Tumbaning (tagkursining) mavjudligi	Ixtiyoriy tarzda
Vazifalari	Ovqatlanish uchun, dars tayyorlash uchun, o'qish uchun va hokazo
Boshqalar	

Freym-ssenariy ba'zi harakat, voqea-hodisalarning xarakterli unumdor o'z ichiga olgan tipik strukturalar hamda vaziyatlarning rivojlanishi, ketma-ketligi (algoritm bosqichlari) demakdir. Ssenariy bu oddiy voqea-hodisa zanjiri emas, balki ushbu harakatlar ketma-ketligida kauzal bog'liqlik ta'riflanishlaydi, ya'ni har bir harakat natijasi shartli sanaladi, uning ta'siri va oqibati navbatdagi ish-harakat sodir bo'lishi mumkin. Har bir ssenariyda bajaruvchilar mavjud. Ssenariylar real hayotda uchraydigan vaziyatlarni ettiruvchi holatlar asosida yuzaga keladi. Masalan, restoranga tashrif buyurish ssenariysini olib qaraylik.

Ssenariy: restoran

Rollar: tashrifchi, ofitsiantka, xo'jayin, kassir.

Maqsad: Taomlanish uchun ovqat olish.

Sahna I. Kirish

Restoranga kiriladi.

Bo'sh o'rindiqlar bor joyga nazar tashlanadi.

O'tirish uchun joy tanlanadi.

Tanlangan joyga boriladi.

O'tiriladi.

Sahna II. Buyurtma

...ning (matni) olinadi.

...ga qaytadi.

...ning qaytasi qilish haqida kelishiladi.

...ning (matni) berilgan (nomni) keltirish so'raladi.

...ga (matni) beriladi.

...ga qaytadi.

...ga qaytadi.

...ga (matni) beriladi.

...ga qaytadi.

...ga qaytadi.

...ning (matni) beriladi.

...ga qaytadi.

...ning (matni) beriladi.

...ning (matni) beriladi, ekspert tizimlarining asosiy tarkibiy qismidan ...ning (matni) beriladi (bazasi)ni yaratish ham bir qancha masalarni o'rganib ...ning (matni) beriladi.

...ning (matni) beriladi, tilning o'ziga xosligini inobatga olgan holda ...ning (matni) beriladi. Tilni avtomatik qayta ishlashning murakkabligi tadqiqot ...ning (matni) beriladi. Chunki inson mashinani ...ning (matni) beriladi va unga qayta ishlov berishga o'rgatishi lozim. ...ning (matni) beriladi qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. Jumladan, mantiqiy ...ning (matni) beriladi metodik qoidalar sistemasining cheklanganligi; kompyuterning ...ning (matni) beriladi, tilning murakkabligi¹¹. Nutqning u yoki bu ko'rinishiga xos ...ning (matni) beriladi qabul qildirish uchun tilning semantik, leksik, fonetik, ...ning (matni) beriladi chuqurroq o'rganish va shu orqali axborotni qabul ...ning (matni) beriladi qayta ishlab beradigan dasturlar tuzish mumkin.

...ning (matni) beriladi lingvistik bilimlar bazasi mashina lingvistik-axborot bazasi ...ning (matni) beriladi. Ishlab chiqilgan lisoniy algoritmlar, modullar bir tizimga jamlanishi ...ning (matni) beriladi. Tizimga jamlangan lingvistik-axborot, matematik-axborot ta'minoti, ...ning (matni) beriladi (bank) ma'lum bir matnni avtomatik qayta ishlash ...ning (matni) beriladi. Mexanizmning ishlashi uchun har bir soha mutaxassisi ...ning (matni) beriladi bilan mashina bazasini ta'minlaydi.

11. ...ning (matni) beriladi. Toshkent, 1976. 13-6et.

Ma'lumotlar bazasining kengayishi bilan lingvistik-axborot muammosi kamayadi. Amaliy ishlarni amalga oshirishda tilning muhim ahamiyat kasb etib, unda til tizimining modellari, tizim sifatida uslubning (funktional uslublari, hozirgi va qadimgi adabiy til) birliklari, nutqdagi til birliklarining qo'llanish qonuniyatlari, nutq birligi yuzaga kelish qoidalari to'liq o'z ifodasini topmog'i lozim.

Lingvistik bilimlar bazasi alohida bloklarda tekshiriladi:

1. Tilning kommunikativ vazifasi, avvalambor, leksika orqali chiqadi. Shuning uchun ham, lingvistik bilimlar bazasini vujudga keltirishda tilning leksik bloki – orfografik, orfoepik, izohli, atamalar, chastotalar, lug'atlari shaklidagi axborotlar bazasi hisobga olinadi. Sanab o'tilgan lug'atlarning barchasi tilning ko'p maqsadda qo'llanuvchi mashina leksikonlarini yaratishga manba bo'ladi. Tilning leksikonini yaratish – o'zgaruvchan masalalardan biridir. Uning to'liq yuzaga kelishi uchun lingvistik, morfologik va grammatik aspektlarning barchasi o'rganilishi lozim. Buning uchun tilning leksikonini yaratish sistem o'rganish so'z shakllarining, leksemalarning o'zaro semantik va grammatik munosabatini, ularning ma'no nozikliklarini o'rganishni taqozo etadi.

Soʻz shakllarining leksik-grammatik tavsifi 30 ramziy belgidan iborat boʻlib, leksik-grammatik kodda voqelashadi. Ularning leksik-grammatik tavsifi yuzaga keltirishda, avvalambor, quyidagi xususiyatlari koʻrib chiqiladi: 1) shakl (lugʻat birlik)larining grammatik kategoriyaga mansubligi; 2) grammatik va leksik omonimligi; 3) soʻz shakllarining oʻziga xos xususiyatlarini belgilash olish. Soʻz shakllarini indeksatsiya qilish jarayonida turkumlar doirasida mansubligi, omonimlik xususiyatlari inobatga olinib ikki belgi bilan alohida alohida kodlanadi (Masalan: YN-omonim/ot, YS-omonim/sifat).

2. Lingvistik bilimlar bazasining ikkinchi bloki - grammatik blok. Grammatik blokda so'z munosabatini aniqlash leksik blokdan farqlanadi, chunki leksik blokda so'z shakllari o'rtasidagi aloqa faqat til sistemasidagi aloqa emas, balki tashqi borliq tomonidan ham aniqlanadi. Har bir leksik birlik ma'noni, mavhum grammatik ma'noni, ham aniq material ma'noni anglatadi.

Turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilidagi so'z paradigmalari yaqin yillarda rivojlangan, so'z yasovchi qo'shimchalarning omonimiyasi mavjud. Shuning uchun chastotali lug'at tuzishda, matnga kompyuter yordamida qayta ishlash va berishda har bir so'z yoki so'z shakli grammatik, leksik-grammatik, leksik

1) qanday bo'linishi va indeksatsiya (muayyan belgi shartli o'zgaruvchi bo'lgan chiqilishi) qilinishi lozim.

2) qanday usulda indeksatsiyalashni K.B.Bektayev¹² birinchi bo'lib 1970 yilda H.A.Dortayevich¹³ maxsus kodlar asosida amalga oshirganlar.

3) qanday usulda olingan asosiy grammatik guruhlar:

Grammatik guruh	Kod	Fe'l shakllari	Kod	O'zgarmaydigan so'zlar turkumi	Kod
SV	SV	Sifatdosh	SV	Ko'makchi	K
RV	RV	Ravisdosh	RV	Bog'lovchi	B
HV	HV	Hamkat nomi	HV	Yuklama	Y
Mod				Modal	M
Undov				Undov	U
Taglid				Taglid	T

4) so'z shakllarining leksik-grammatik omonimligini aniqlashga qaratilgan taqdim qilinayotgan matndagi so'z shakllari kompyuter xotirasiga omonimlikning ilmiy xususiyatlari inobatga olinadi va bunda quyidagi qoidalarga e'tibor qilinadi:

1) matndagi ikki bo'shliq (probel) orasidagi bir butunlik – so'zshakli deb qabul qilinadi;

2) matndagi juft va takroriy so'zlar ham (probelsiz yozilganda) bir shakl deb inobatga olinadi;

3) so'zshakllarning qaysi so'z turkumiga taalluqli ekanligi oldindan aniqlanmagan holda kiritiladi;

4) qanday belgi bir so'zshakli deb qabul qilinadi. Shuning uchun matn kompyuter xotirasiga satosiz, aniq kiritilishi lozim;

5) shakllash so'zlar – omonimlar alohida-alohida (kodlashtirilgan) lug'at shaklida tuzatib olinadi;

6) belgilashni qiyin bo'lgan so'zshakllari – atamalar, shevaga xos so'zlar, qiyin so'zlar ham maxsus belgilar bilan qayd etiladi.

Shunday qilib, olib, ushbu blokda quyidagi axborotlar bazasi keltiriladi:

1) so'zshaklning ma'nosi – umumgrammatik ma'no anglatuvchi birlik; 2) yordamchi so'zshakllar; 3) so'zshakllari (qip-qizil, ko'm-ko'k, sap-sariq kabi tayyor

12) K.B. Бектаев. Типология информационная типология тюркского текста (Отв.ред. Р.Г.Пиотровский). Москва, 1976, с. 183.
13) H.A. Dortayevich. Кодирование грамматической информации в машинном словаре // Статистика языка, 1970, с. 139.

shakllar); 4) soʻz yasovchi va soʻz oʻzgartuvchi morfemalar; 5) soʻz oʻzgartiruvchi morfemalar; 6) soʻz yasovchi va soʻz oʻzgartuvchi morfemalarning joylashish tartibi; 7) sintaktik sxemalar – modul; 8) soddasintaktik birliklar va qoʻshma birliklarga aylanish qonuniyatlari.

Lingvistik bilimlar bazasining grammatik bloki mashinaviy lek nisbatan yaxlit manbaga ega. Lekin kompyuter tilshunoslikda uning o'z murakkabligi mavjud. Bu holat turkiy tillarning, jumladan, o'zbek assimilyatsiya, dissimilyatsiya, undoshlarning moslashuvchanligiga Masalan: o'zbek adabiy tilida tushum kelishigining *-ni*, poeziyada mavjud. Folklor tili va shevalarda *-ni*, *-ti*, *-di*, *-n*, *-in* variantlari bo'li kelishikning jami 20 dan ortiq varianti bor.

O'zbek tili affikslarining ko'p variantlilikligi mashina lisoniy-axborot tizimlarini kengaytirish bilan birga dasturlash va modellar yaratishda bir qancha muvaffaqiyatli noqulayliklar keltirib chiqaradi. Bu noqulayliklar quyidagilarda ko'rinadi:

1. Morfemalarning ko'p variantlilik omonimik hodisasi yuzaga keladi. Bu hodisa har bir tomondan, axborot bazasini kengaytiradi. Ikkinchi tomondan, dasturlar yaratishda jarayonida murakkab nostandart dasturlar ishlab chiqiladi. Bu esa har bir dasturlar yaratishda har bir yangi matnga alohida dasturlar yaratishga olib keladi.

2. O'zbek adabiy tili fonetik jihatdan deyarli o'zgarmas, sheva va folklor manbalari tili o'zgaruvchandir. Umuman olganda, agglutinativ morfologiya sheva va folklor tili qarama-qarshi tizimni ko'rsatadi. Natijada barcha morfologik tizim tipi yuzaga keladi. Bunday paytda algoritmlar ishlab chiqilgan o'zak oxiridagi tovush yoki so'zshakli hisobga olinishini nazarda tutib, «mashina o'zagi»ni yaratish lozim bo'ladi. Masalan, kitob so'zida «mashina o'zagi» «kitob» deb olinadi, qo'shimchalar esa **-ga**, **-im** sifatida kompyuter xotirasiga kiritiladi. Ayrim so'zlarda o'zak o'zgarishi inobatga olinib, Internet axborot baza fondiga ikkita «mashina o'zagi» beriladi. Masalan, og'iz so'zida «mashina o'zagi» «og'iz, og'z», qo'shimchalar esa **-i**, **-im**, **-ing** kabi bo'lmagan. So'zshaklidagi mashina o'zagini aniqlashda quyidagi shartlarga rioya qilinib, davor:

Ushbu soʻzlarning mashina oʻzagi soʻzning oʻzidir. Faqat soʻzning
oʻziga yoki oʻzgaradigan soʻzlar turkumiga mansubligini aniqlash
qiyin boʻlgan holatda ikki xil grammatik tushuncha hisobga olinadi: nol
va nol oʻzagi. Oʻzgarmaydigan soʻzlar nol paradigma ostida

...ostidagi defin orqali yozilgan juft va takror soʻzshakllarining
...birinchi qism va ikkinchi qismning oʻzagarishiga bogʻliq:

O'zgaradigan qismi tip	Lug'atdagi topshiriq tipi
O'zgaradigan ikkala qismi ham o'zgarmaydi. Misol: qozon-tovoq, qosh-kuz.	O'zgarmaydigan so'zlar tarkibiga kiritilib, lug'at maqolasida to'liq qabul qilinadi.
O'zgaradigan faqat o'ng tomoni o'zgarmaydi. Masalan: qosh-talang, yosh - qari, qosh-kuz, qosh - kuz.	O'zgaradigan so'zlar tarkibiga kiritilib, lug'at maqolasida ikkita (uchta) mashina o'zagi hisobida olinadi.
O'zgaradigan faqat chap tomoni o'zgarmaydi. Misol: oy-kun, tun-kun, kun-oy, kun-oy.	Lug'at maqolasida ikkala qism alohida-alohida mashina o'zagi hisobida olinadi.

aniqlashda so'zshakllarining ichki va tashqi tarkibiga duch kelamiz. Shuning uchun grammatik blokda har bir so'zning maxsus lug'at maqolasi tarzida berilmog'i zarur. Berilgan so'z aniqlangandan so'ng mashina affiksi inobatga olinadi. Har bir so'zga mansub affikslarni (so'z o'zgartuvchi, shakl hosil qiluvchi) aniqlashda mashina affikslar paradigmasi yuzaga keladi:

Grammatik axborotlar		
Son	Kelishik	Modifikator
Birlik	Bosh	1
-	Tushum	2
-	Qaratqich	3
-	Jo'nalish	4
-	O'rin	5
-	Chiqish	6
-	Bosh	7
Ko'plik	Tushum	8
-	Qaratqich	9
-	Jo'nalish	10
-	O'rin	11
-	Chiqish	12

3. Lingvistik bilimlar bazasining keyingi bloki - fonologik morfonologik blok hisoblanadi. Lingvistik bilimlar bazasining morfonologik bloki quyidagi axborotlarni o'zida jamlashi lozim:

- 1) tilning fonetik qurilishi, fonemalar tizimi, o'zakdagi fonemalar ketligi, o'zakning turkumlanishi;
- 2) singarmonizm qonuniyatining qo'llanishi, shuningdek, hodisalar va o'zakning qattiq-yumshoqligi, jarangli-jarangsiz tovushlar qo'llanishi;
- 3) o'zak va so'z shakllarida urg'uning qo'llanishi.

Tilning eng quyi bosqichi fonologiya va morfonologiyadagi tushunchalar atamalar, unda qo'llanadigan usul, uslub va qonun-qoidalar lisoniy axborot boshqa bosqichlarini, xususan, morfologik, sintaktik, leksik, grammatik ma'lumotlarni olishda ham qo'l keladi.

AMALIY MASHG'ULOT UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Hamma affikslar 3 sinfga (kategoriya) bo'lingan, ulardan belgilar orqali belgilashgan, o'sha belgilashlarni jadvaldagi belgilarga moslashtiring.

- 1) ot yasovchi affikslar sinfi; 2) son yasovchi affikslar sinfi; 3) ravish yasovchi affikslar sinfi; 4) sonning turlari affikslar sinfi; 5) egalik affikslar sinfi; 6) kelishik affikslar sinfi; 7) shaxs affikslar sinfi; 8) so'roq affikslar sinfi; 9) darajalari yasovchi affikslar sinfi; 10) zamon affikslar sinfi; 11) nisbat affikslar sinfi; 12) vazifadosh shakl affikslar sinfi; mavhum ot yasovchi affikslar sinfi.

So'z yasovchi affikslar	Lug'aviy shakl yasovchi affikslar	Sintaktik munosabat yasovchi affikslar

2-topshiriq. Tushirib qoldirilgan so'zlarni yozing.


- 1) Informatsiyani inson tushunadigan tildan mashina tushunadigan tilda o'tkazish deyiladi.
- 2) Kompyuter tushunadigan tildan inson tushunadigan tilda o'tkazish deyiladi.

.....tilga o'tkazishdeyiladi. 3)- bilimlar bazasi bilanmaxsus yo'nalish bo'lib, u sun'iy intellekt tizimining tarkibiy 4)- til o'qitishni avtomatlashtirish, xorijiykompyuter yordamida o'qitish tizimini ta'minlovchi amaliy dasturlaravtomatik baholash mexanizmlari. 5)- muayyan sohadagiyoki mavjud bilimlarning imitatsiyasi tarzida yaratilgan kompyuterTurkiy tillar asosida indeksasiyalashni birinchi bo'libmaxsus kodlar asosida amalga oshirganlar.

Topshiriq. Quyidagi affikslarni kodlashtiring va mashina affikslar jadvaliga joylang.

Sana	Grammatik axborotlar		
	Son	Kelishiklar	Modifikator
1991		Bosh	
1992		Tushum	
1993		Qaratqich	
1994		Jo'nalish	
1995		O'rin	
1996		Chiqish	
1997		Bosh	
1998		Tushum	
1999		Qaratqich	
2000		Jo'nalish	
2001		O'rin	
2002		Chiqish	

Topshiriq. Lingvistik bilimlar bazasining morfologik blokini ketma-ketma joylashtiring.



5-topshiriq. «Eng muhimi nima?» mashqi. Ushbu mashqni o'tkazish avval har bir guruh uchun mavzu yuzasidan ahamiyatli deb hisoblagan gapni yozib va kesib qo'yilgan kartochkalarni tayyorlab qo'yish lozim.

Talabalarni 4-5 kishidan iborat guruhlariga bo'ling. Ularga har bir guruhga kartochkalar to'plamini, A3 varag'i va yelim berishingizni tushuntiring. Har bir guruhning vazifasi kartochkalarni ko'rib chiqib, guruh fikriga ko'ra, eng muhim va muhim bo'lgan 9 ta kartochkalarni tanlab olishdan iborat. Talabalar guruh ishi ekanligini va ular o'z g'oyalarini muhokama qilishlari va talabaning fikrini e'tiborga olishlari lozimligini eslatib qo'ying.

Guruh uning nazarida 9 ta dolzarb va muhim kartochkalarni tanlab olingandan keyin, guruh talabalaridan to'qqizta kartochkalardan foydalanib "rombik qator"ni qurishni iltimos qiling. Guruhga "rombik qator"ni qurishni tushuntirayotganda, ma'lumotnoma jadvalini chizing yoki ilib qo'ying:

eng ahamiyatli						
	2		2			juda ahamiyatli
3		3		3		o'rta ahamiyatli
	4		4			ahamiyati kamroq
		5				eng ahamiyatsiz

Talabalar muhim masala yozilgan kartochkani varaqning yuqori qismiga, eng ahamiyatsizroq, lekin baribir kerakli bo'lgan ikkita kartochkani joylashtiradilar. So'ng o'rta ahamiyatga ega bo'lgan uchta kartochkalar va ikkita birmuncha ahamiyatsizroq kartochkalar, rombning quyida esa eng ahamiyatsiz kartochkani joylashtiriladi va izohlaydilar.

6-topshiriq. "Katta portlash nazariyasi". matnini bloklar asosida tuzib qiling.

So'rov natijalariga ko'ra Katta portlash g'oyasi birinchi pog'onani egallagan bo'lsa ham, Zamonaviy tushunchalarga ko'ra, bu Koinotning 13 mlrd. yilcha ilgari kengayib boshlagan holati bo'lib, Koinotning o'rtacha zichligi hozirgi kunda cheksiz ravishda katta bo'lgan. Fazoning kengayib borishi tufayli Koinotning zichligi vaqt o'tgan sayin quyilab boradi. O'tmishga uloqtirilishiga mos holda...

harakat vaqt haqidagi klassik tushunchalar o'z kuchini yo'qotguniga qadar (singulyarlik) ortib boradi. Shu lahzani hisob-kitob kuni deb qabul qilish mumkin.

SEMINAR MASHG'ULOT UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Ma'lumotlarni o'qing va zarur joylarini daftaringizga

Freym konsepsiyasi bilimlar strukturasiga oid tayanch tushunchalardan biri. Freym - «ramka», «skelet» ma'nolarini anglatadi) sun'iy intellekt tizimida bilimlarni, stereotip (juda ko'p kuzatiladigan, tipik) vaziyatlarni gavdalantirishning bir usuli sanaladi. Ya'ni Freymga modellashtirilayotgan hodisa, vaziyat va jarayonlarni modellashtirgan holda joylashtirish mumkin. Freym mavhum bo'lib, muayyan obyekt, voqea-hodisa, vaziyat va jarayonlarning to'plamidir (masalan, restoranga borish, shifokor qabulida bo'lish, dam olish, tug'ilgan kun, futbol o'yini kabi tipik vaziyatlar). Freym termini XX asrning 70-yillarida Marvin Minskiy tomonidan kompyuter modelini o'z ichiga oluvchi bilimlar strukturasiga nisbatan shundan so'ng freym semantikasi konsepsiyasi (**frame semantics**) tushunchasi Charlz Fillmor tomonidan rivojlantirildi. Mazkur konsepsiya so'zlar, so'z birikmalari, gaplar, matn ma'nosi sahnalar modellashtirilgan, shartlangan bo'ladi. Bir freym boshqa bir freymning tarkibiy qismi bo'lishi mumkin. Freymlar sun'iy intellekt tarkibiga asosiy tizimlarda faol ishlatiladi. Freymning quyidagi turlari mavjud: ramka, freym-strukturalar, freym- rollar, freym-ssenariylar, freym-

konsepsiyalar tizimi birlashib **semantik tarmoqni** hosil qiladi. Freym konsepsiyasida bilimlar xazinasini va ma'lumotlar omboriga tayanib olamni modellashtiruvchi model vazifasini bajaradi. Freym slot deb atalgan bir nechta elementlarning majmui hisoblanadi. Slotlarda obyektlarga xos ma'lumotlar qayd etilgan bo'ladi.

Ssenariy — ba'zi harakat, voqea-hodisalarning xarakterli bo'lgan o'z ichiga olgan tipik strukturalar hamda vaziyatlarning rivojlanishi, oqibati (algoritm bosqichlari) demakdir. Ssenariy — bu oddiy voqea-hodisalarning oqibati emas, balki ushbu harakatlar ketma-ketligida kauzal bog'liqlik

tamoyili ishlaydi, ya'ni har bir harakat natijasi shartli sanaladi, uning taqib oqibatida navbatdagi ish-harakat sodir bo'lishi mumkin. Har bir ssenariy bajaruvchilar mavjud. Ssenariylar real hayotda uchraydigan vaziyatlarni ettiruvchi holatlar asosida yuzaga keladi. Masalan, restoranga tashrif bo'lgan ssenariysi.

Wordnet – ingliz tilining leksik bazasi, Princeton universitetida yaratilgan. Elektron lug'at – tezaurus va ingliz tilining semantik bazasi yig'indisi (to'ri)ni o'z ichiga oladi. WordNet birgina so'z emas, balki so'zning sinonimik qatorini, semantik tarmog'i bilan birgalikda inobatga olib «sinset (ing. *Synset*)». Foydalanuvchilarga qulay bo'lish uchun har bir sinset matndagi misollari va qo'llanish, ma'nolari bilan berilishi lozim.

Sinsetlar WordNetda turli so'zlarning semantik munosabati bilan aloqador: giperonim (breakfast → meal) (nonushta – tanavvul qilmoq);

- giponim (meal → lunch) (tanavvul qilmoq → tushlik);
- has-member (faculty → professor) (fakultet → professor);
- member-of (pilot → crew) (pilot → ekipaj);
- meronim: has-part (table → leg) (stol → oyoq);
- antonim (leader → follower) (lider → ishtirokchi).

WordNet leksik, antonimik, kontekstli va boshqa aloqalarni ham qamrab oladi.

2-topshiriq. Savollarga javob bering.

7. Lingvistik bilimlar bazasi haqida nimalarni bilasiz?
8. Lingvistik bilimlar bazasini yaratishda qanday muammolar mavjud?
9. Lingvistik bilimlar bazasi qanday bosqichlaridan iborat?
10. WebNet nima?
11. Semantik tarmoq (to'r) deganda nimani tushunasiz?
12. Leksik blok nimalarni o'zida ifodalaydi?
13. Grammatik blok o'z ichiga qanday tushunchalarni qamrab oladi?
14. Fonetik, fonologik va morfonologik blokning afzalligi nimada?

3-topshiriq. Istagan badiiy asarni olib 10 leksik blok, 10 grammatik blok, 10 fonologik blok uchun misol topib daftaringizga yozib oling. Misollarni tahlil qiling.

1-topshiriq. Misollardan semantik tarmoq hosil qiling.

Misol: turon, rom, safar, sandal, cho'g', o'ch.

2-topshiriq. Misol: turon o'qi; **Boshqoq** - o'simlikning don o'ragan qismi.

3-topshiriq. Freym-namunalar, freym-strukturalar, freym-rollar, freym-rol, freym-vaziyatlarga badiiy asardan misol toping. Freym tarmoq hosil qiling.

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Mavzu yuzasidan prezentatsiya tayyorlang.

2-topshiriq. "Kompyuter lingvistikasida lingvistik bazaning ahamiyati" mavzusi haqida yozing.

3-topshiriq. "Lingvistik bilimlar bazasi va kompyuter lingvistikasi", "Lingvistik bilimlar bazasini yaratishda muammolar", "Lingvistik bilimlar bazasida WebNetning ahamiyati", "Lingvistik blok (to'r) yaratish muammolari", "Leksik blokning o'ziga xos xususiyatlari" kabi mavzularining biriga referat tayyorlang.

4-topshiriq. Professor A.Nurmonovning sayti yaratish uchun lingvistik bazasini yig'ing.

5-topshiriq. Ispring dasturida mavzu yuzasidan 10ta test yarating.

Adabiyotlar:

1. Нурамонов Б. Математик ва компютер лингвистикаси. – Самарқанд, 2007.
2. Нурамонов Б. Компютер лингвистикаси. – Самарқанд, 2009.
3. Марчук Ю.Н. Компютерная лингвистика. – Москва, 2007.
4. Баранов А.Н. Введение в прикладную лингвистику: Учебное пособие. – М.: Эдиториал УРСС, 2001. – 360 с.
5. Шаницина Л.Ю. Информационные технологии в лингвистике: Учебное пособие. – М.: Наука, 2013. – 128 с.

8-MAVZU: MORFOLOGIK TAHLILNING AVTOMATIK TIZIMI

Reja:

1. Morfologiya haqida tushuncha.
2. Morfologiyaning formal qolipi.
3. So'z turkumlarini formallashtirish tamoyillari.

Tayanch tushunchalar: morfologiya, formal grammatika, morfologiyaning formal qolipi, so'zshakli, o'zak, lemma, lemmatizatsiya

Grammatika - yunoncha so'z bo'lib, «o'qish va yozish» ma'nosini bildiradi. Bu tushuncha dastlab xat-savod, imloni o'rgatuvchi ma'nosida ishlatilgan. Keyinroq grammatika tilning fonologik, morfologik, sintaktik va semantik belgilarini tavsiflovchi til qoidalari majmuasi ma'nosiga ko'chgan. Grammatika haqidagi ilk qarashlar falsafa, mantiq, germaniya (diniy matnlarni sharhlash, talqin etish) qobig'ida bo'lgan. Bunda tilning paydo bo'lishi, til va tafakkur munosabati, lingvistik belgi motivatsiyasi, diniy matn mazmunini to'g'ri tushunish bilan bog'liq masalalar o'rganilgan, til strukturasiga yetarli darajada tadqiq etilmagan. Faqatgina miloddan avvalgi II - I asrlar shakllangan Aleksandriya grammatika maktabining eng yirik vakili Dionis Traks (miloddan avvalgi 170 - 90-yillarda yashagan) o'zigacha belgi tadqiqotchilarning ishlari va tajribalarini o'rganib, ulardan foydalanib rimliklari uchun «Grammatika san'ati» («Grammatike techne») nomli sistemalashtirilgan dastlabki yunon grammatikasini yaratdi. Shundan buyon grammatika falsafa mustaqil soha sifatida ajralib chiqdi.

Antik davrda grammatika preskriptiv (to'g'ri gapirish, to'g'ri yozishni ko'rsatuvchi yo'riqnoma) xarakterga ega bo'lgan. XVIII asr oxirlarida grammatikani tushunish keskin o'zgardi. Bu davrda bobo til konsepsiyasi ilgari surgan qiyosiy-tarixiy grammatika shakllandi. Unda yevropa tillarining qadimgi sanskrit tili bilan tarixiy aloqasini aniqlash yordamida hind-yevropa tillari shajarasini rekonstruksiya qilish bo'yicha qiyosiy aspektda tadqiqotlar olib borildi.

XX asr boshlarida Ferdinand de Sossyur grammatikani tavsiflash sinxroniya va diaxroniyani farqladi. Bunda grammatikani tarixiy (diachron)

qilish zarur, balki sinxron (muayyan vaqtdagi holati) tadqiq qilish lozim, chunki XX asrning 50-yillarida Noam Chomskiy grammatikani o'zining yangi metodini tavsiya etdi. Bu tilshunoslikda «formal grammatika nazariyasi» deb ataladi. Olimning tadqiqot natijalari kompyuter tilshunosligining shakllanishiga asos bo'ldi. N.Chomskiyning formal grammatika bo'limidagi qanashlari «*Syntactic Structures*» (1957) hamda «*Aspects of the Theory of Syntax*» nomli kitoblarida yoritilgan.

Grammatikaga bo'lgan yondashuvlar turlicha bo'lganligi bois tilshunoslikda xoli grammatikalar yaratilgan. Jumladan, nazariy grammatika va amaliy grammatika; an'anaviy (klassik) grammatika va noklassik grammatika; sinxron grammatika; xususiy va umumiy (universal) grammatika; kategorial grammatika; tabelik grammatikasi, leksik-funksional grammatika, konstruktiv grammatika, transformatsion grammatika, kontekstdan xoli grammatika (xoli free grammar) kabi.

Grammatika tabiiy tillar strukturasi haqidagi fan bo'lib, u morfologik shakllar va shakllar, sintaktik kategoriya va konstruksiyalar hamda so'z shakllarini tashkil etadi. Til qurilish birliklarining paradigmatic va syntaktik munosabatga kirishuvi (vertical va gorizantal yo'nalishda) muayyan qoidalar asosida yuz beradi. Ushbu qoidalar yig'idi tilning grammatik tizimi deb yuritiladi. Grammatika ikki yirik sistemani o'z ichiga oladi:

Morfologik tizim – so'z formalari, grammatik shakllar, grammatik kategoriyalar tizimi.

Sintaktik tizim – sintaktik kategoriyalar va konstruksiyalar, so'zlarning qurilish qonuniyatlari.

Morfologiya – tabiiy til tizimining bir qismi bo'lib, so'zshakllarining qurilish va tashkilini ta'minlaydi. Ammo tabiiy til bilan mashina tili o'rtasidagi ayrim nomutanosibliklar mavjud bo'lib, bu ayrim muammolarni keltirib chiqaradi:

1) so'zshakli chegarasida turli tillarda turlicha qo'llangan ayrim ma'no birliklarini ro'yxatga olish va tadqiq qilish;

2) so'zshakli chegarasida turli tillarda qo'llangan u yoki bu ma'noni ifodalash usullarini aniqlash;

3) so'zshakli va so'zshaklining qismlari o'rtasidagi formal ma'noviy munosabatlarni ro'yxatga olish va tadqiq qilish;

4) morfologik tiplarning qoidalarini aniqlash, so'zshakllarning morfologik bo'linish qonuniyatlarini belgilash, xususiyl morfologik modellarning yaratilishi orqali umumiy morfologik model nazariyasini ishlab chiqish.

Morfologik tahlilda matndagi so'zshakllarning boshlang'ich shakli morfologik tavsifi keltiriladi: so'z turkumi, son, kelishik, egalik, shaxs va boshqalar. Morfologik tahlilda so'z, so'zshakli, so'z o'zgarishi va boshqa tushunchalar inobatga olinadi.

So'z – tilning asosiy struktur-semantik birligidir. U predmet, jarayon, xususiyatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. So'z morfemalardan tarkib topgan gapning shakllanishiga manba bo'ladi va mustaqilligi, erkin qayta qo'llanishi bilan farqlanadi. So'z o'zida leksik-grammatik ma'nolarni jamlaydi va har bir so'z turkumiga xos bo'ladi. So'zda insonning bilish faoliyatining natijasi namoyon mujassamlashadi. So'zsiz tushunchalarning tasavvur etish, ifodalash, namoyon qilish mumkin emas. So'zlar nutqda berilgan ob'ektlarning umumiy guruhini yoki xususiy guruhlarini ifoda etadi.

So'zshakli – so'zning aniq grammatik shaklga ega bo'lgan ko'rinishi.

So'z o'zgarishi – har bir so'zning (o'zgarmaydigan so'zlardan tashqari) o'z yasali sh paradigmati. So'zning o'zgarishi uning leksik ma'nosiga bog'liq qanday ta'sir ko'rsatmaydi.

Mashina tahlil qilish jarayonida, asosan, so'zshakli bilan ish yuritiladi.

An'anaviy lug'atlarda so'zshakli emas, so'z keltiriladi. Avtomatik tahlil dasturlarida lemmalar tahlil etiladi.

Lemma – so'zlarning lug'atdagi shakli. Masalan, *daftarlarda, daftarlarning, daftarlarga, daftarlarda, daftarlardan* so'zshakllarining boshlang'ich shakli lemmasi - *daftar*. Demak, daftar lemmasining 5 so'zshakli mavjud.

Lemmatizatsiya - so'zning dastlabki, boshlang'ich formasini (lug'atdagi shaklini - lemmasini) tashkillashtirish texnikasi bo'lib, bu jarayon o'zgarish so'zning boshqa so'zshakllaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Lemmatizatsiya morfologik tahlil metodi tarkibiga kiradi, u ikki bosqichni o'z ichiga oladi: 1) deklarativ bosqich - bunda muayyan so'zning mumkin bo'lgan barcha shakllari (so'zshakllar) belgilanadi; 2) protsedura bosqichi - bunda so'z asos va qo'shimchalarga, ya'ni leksemlarga yoki morfemalarga bo'linadi.

soʻzlarning grammatik valentligi, qaysi affikslar bilan birika olinadiganini ham belgilab beradi. Masalan, oʻzbek tilida soʻzlarning qoʻshimchasi - lemmasi quyidagicha:

1. 1-oʻgʻ turkumi uchun - bosh kelishik, birlik shakli;

2. 2-oʻgʻ turkumi uchun - harakat nomi shakli: *yugurdi, yugurgan, yugurmoqchi // yugurmoq*;

3. 3-oʻgʻ turkumi uchun - oddiy daraja shakli: *koʻkintir, koʻkish, koʻk*.

Stemming – turli soʻzshakllarning bir kvaziasosdan shakllanishi. Bunda soʻz qaytariluvchi qoʻshimchalarsiz, takror harflarning kelmasligi bilan olinadi. Masalan, *toʻxta, toʻxtam, toʻxtovsiz* – soʻzshakllaridagi *toʻxt* qolip qoladi. Stemming avtomatik tahlil, Internetdagi maʼlumotlarni qayta ishlashda muhim ahamiyatga ega.

Mashina oʻzagi xususida yuqoridagi mavzuda toʻxtalgandik.

Mashina qoʻshimchasi – paradigm hosil qiluvchi shakl oʻzgarishi uchun ishlovchi qism. Masalan, *sehrta, toʻdala*.

Teging bosqich – soʻz turkumlarining morfologik tavsifi amalga

ashiradi. **Teging** - soʻz turkumlarining morfologik tavsifi. Mashina oʻzagi, qoʻshimchasi, stemming tegini morfologik parserga kiritiladi.

Parser – soʻzning avtomatik morfologik tahlili uchun maxsus kompyuter

programmasi. Tahlil jarayonida morfologik parserdan tashqari sintaktik parser ham qoʻllaniladi. Parser tahlili uchun xizmat qiladi.

Morfologiyaning **formal (shakliy) qolipi**. Tabiiy tillarni qayta ishlovda, yaʼni kompyuter sistemasi uchun lingvistik taʼmin tashkil etishda mexanizm ishlab chiqiladi.

Tabiiy tillarni qayta ishlov berishda formal lingvistik til yaratiladi.

Bunda ANT va PATR kabi formal mexanizmlar qoʻllanmoqda. Bunday mexanizmlarni yaratishda V.Vinograd, Gazdar, Krulee, N.Chomskiyning ishlatilishi alohida oʻrin tutadi.

Lingvistik taʼminning formal mexanizmi grammatik, sintaktik, semantik, morfologik bilimlarni qamrab olishi zarur.

Morfologiya

asosan soʻzning maʼnosini ochishga yordam beruvchi morfologik oʻrni alohida ahamiyat kasb etadi.

Masalan, grammatikaning morfologik qolipini yaratishda pozitsiyada soʻz turkumlari toʻgʻrisida maʼlumot berilsa, ikkinchi pozitsiyadan keyin maʼlum bir soʻz turkumiga mansub lugʻat birligining grammatik kategoriyalar toʻjrisida maʼlumot beriladi. Oʻtlarda kategoriyasi haqidagi maʼlumotlar soʻz uyalarida uchinchi pozitsiyada oʻz ifodasini topadi. Kelishik kategoriyasi lugʻat maqolalari tarkibida ta pozitsiyani egallaydi. Masalan, Oʻtalardan $w=[N]$ 1-pozitsiyada- leksik ot soʻz turkumiga taalluqli ekanligi, 2-pozitsiyada $w=[N + sk]$ boʻlgan koʻplikda va 4-pozitsiyada $w=[N + sk + k5]$ soʻz shaklining chiqish keli ekanligini bildiradi. Qolgan soʻz turkumlariga mansub til birliklari avtomatik lugʻatda xuddi shunday oʻz ifodasini topadi.

Kompyuter lingvistikasida soʻz turkumlarni formallashtirishda ravishda quyidagi simyollardan foydalanadi:

soʻz turkumlari	kod tizimi	misollar	formallashtirish
ot	N	kitob	$w=[N]$
egalik kategoriyasi	e		
birik 1-shaxs	eb1	kitob + im	$w=[N + eb1]$
2-shaxs	eb2	kitob + ing	$w=[N + eb2]$
3-shaxs	eb3	kitob + i	$w=[N + eb3]$
koʻplik 1-shaxs	ek1	kitob + imiz	$w=[N + ek1]$
2-shaxs	ek2	kitob + ingiz	$w=[N + ek2]$
3-shaxs	ek3	kitob + i (lari)	$w=[N + ek3]$
son kategoriyasi	s		
koʻplik	sk	kitob+lar	$w=[N + sk]$
kelishik kategoriyasi	k		
bosh kelishik	k1	kitob+o	$w=[N + k1]$
qaratqich kelishigi	k2	kitob+ning	$w=[N + k2]$
tushum kelishigi	k3	kitob+ni	$w=[N + k3]$
joʻnalish kelishigi	k4	kitob+ga	$w=[N + k4]$
oʻrin-payt kelishigi	k5	kitob+da	$w=[N + k5]$
chiqish kelishigi	k6	kitob+dan	$w=[N + k6]$
shakl hosil qiluvchi qoʻshimchalar	N,f		
erkalash	f1	Feruzaxon	$w=[N + f1]$
kichraytirish	f2	uycha	$w=[N + f2]$
chegara	f3	maktabgacha	$w=[N + f3]$
oʻrin belgisi	f4	togʻdagi	$w=[N + f4]$
qarashlilik	f5	maktabniki	$w=[N + f5]$
hurmat	f6	dadamlar	$w=[N + f6]$
oʻxshatish	f7	gulday	$w=[N + f7]$

	N,y		
	y1	ish+chi	w=[N + y1]
	y2	gul+zor	w=[N + y2]
	y3	qir+g'ich	w=[N + y3]
	y4	qahramon+lik	w=[N + y4]
	Aj	yashil	w=[Aj]
	d1		
	d1	go'zal	w=[Aj + d1]
	d2	go'zalroq	w=[Aj + d2]
	d3	g'oyat go'zal	w=[Aj + d3]
	d4	qizg'ish	w=[Aj + d4]
	Aj,y	rasm+li	w=[Aj+y]
	Mu		
	Nu1		
	Nu2	ikki	w=[Nu2]
	Nu3	uchta	w=[Nu3]
	Nu4	minglab	w=[Nu4]
	Nu5	beshovlon	w=[Nu5]
	Nu6	birinchi	w=[Nu6]
	Nu7	beshtadan	w=[Nu7]
	num	yuz yil	w=[num+N]
	Pron		
	Pron 1	men	w=[Pron 1]
	Pron 2	shu	w=[Pron 2]
	Pron 3	o'z	w=[Pron 3]
	Pron 4	alla+qaysi	w=[Pron 4]
	Pron 5	qanday	w=[Pron 5]
	Pron 6	hamma	w=[Pron 6]
	Pron 7	hyech	w=[Pron 7]
	Av	tez	
	Av1	asta	w=[Av1]
	Av2	ilgari	w=[Av2]
	Av3	ichkaridan	w=[Av3]
	Av4	noiloj	w=[Av4]
	Av5	jo'rttaga	w=[Av5]
	Av6	bir talay	w=[Av6]
	Av,y	do'st+larcha	w=[Av+y]
	Av,d		
	d1	sekin	w=[Av+d1]
	d2	tez+roq	w=[Av+d2]
	d3	juda ko'p	w=[Av+d3]
	d4	juda-juda	w=[Av+d4]
	V	o'qimoq	w=[V]

yasovchi qo'shimcha	V,y	ko'mak+lashdi	w=[V+y]
bo'lishsiz fe'llar	bf	o'qi+madi	w=[V+bf]
shaxs-son qo'shimchalar	shs		
birlik 1-shaxs	shs b1	o'qi+dim	w=[V+shs b1]
2-shaxs	shs b2	o'qi+ding	w=[V+shs b2]
3-shaxs	shs b3	o'qi+di	w=[V+shs b3]
ko'plik 1-shaxs	shs k1	o'qi+iylik	w=[V+shs k1]
2-shaxs	shs k2	o'qi+dingiz	w=[V+shs k2]
3-shaxs	shs k3	o'qi+dilar	w=[V+shs k3]
zamon	z		
o'tgan zamon fe'li	z1	yoz+di	w=[V+z1]
yaqin o'tgan zamon	z1y	kel+di	w=[V+z1y]
uzoq o'tgan zamon	z1u	kel+gan edi	w=[V+z1u]
o'tgan zamon hikoya	z1h	kel+ib+man	w=[V+z1h]
o'tgan zamon maqsad	z1m	kel+moqchi edik	w=[V+z1m]
o'tgan zamon davom	z1d	kel+ar edi	w=[V+z1d]
hozirgi zamon fe'li	z2	bor+yapti	w=[V+z2]
hozirgi zamon davom	z2d	bor+yapti	w=[V+z2d]
hozirgi-kelasi zamon	z2k	bor+a+man	w=[V+z2k]
kelasi zamon	z3	bor+moqchi	w=[V+z3]
kelasi zamon maqsad	z3m	bor+moqchi+man	w=[V+z3m]
kelasi zamon gumon	z3g	bor+ar+man	w=[V+z3g]
fe'l nisbatlari	n		
aniq nisbat	n1	o'qi+di	w=[V+n1]
o'zlik nisbat	n2	zavq+lan+di	w=[V+n2]
majhul nisbat	n3	to'k+il+di	w=[V+n3]
birgalik nisbat	n4	ter+ish+di	w=[V+n4]
ortirma nisbat	n5	yoz+dir+di	w=[V+n5]
fe'l mayllari	m		
xabar mayli	m1	yoz+di	w=[V+m1]
buyruq-istak mayli	m2	yoz+ay+lik	w=[V+m2]
shart mayli	m3	yoz+sa	w=[V+m3]
to'liqsiz fe'l	tf	edi	w=[V+tf]
fe'lning vazifadosh shakllari	vsh		
sifatdosh	vsh 1	bajar+il+gan	w=[V+vsh 1]
ravishdosh	vsh 2	bajar+guncha	w=[V+vsh 2]
harakat nomi	vsh 3	o'qi+sh	w=[V+vsh 3]
ko'makchi	Poc		
sof ko'makchilar	Poc 1	bilan	w=[Poc 1]
ot ko'makchilar	Poc 2	ustida	w=[Poc 2]
bog'lovchi	Conj	hamda	w=[Conj]
teng bog'lovchi	Conj 1	va	w=[Conj 1]
ergashtiruvchi		ammo	w=[Conj 2]
bog'lovchi	Conj 2		
yuklama	Part	nugul	w=[Part]
so'roq-taajjub	Part 1	tur-chi	w=[Part 1]
kuchaytiruv-ta'kid	Part 2	g'irt	w=[Part 2]

Part 3	yolg'iz	w=[Part3]
Part 4	xuddi	w=[Part4]
Part 5	borgan+dir	w=[Part5]
Mim		
Mim 1	g'arch-g'urch	w=[Mim1]
Mim 2	milt-milt	w=[Mim2]
Interj		
Interj 1	voy	w=[Interj 1]
Interj 2	bah-bah	w=[Interj2]
Interj 3	huv	w=[Interj3]
Mod	ehtimol	w=[Mod]

Har bir gap muayyan so'z turkumlariga oid bo'lgan so'zlar zanjiri bo'yicha va tahlilda morfologiya bazasiga tayaniladi. Formallashtirishda turli turdagi so'z turkumlariga mansub so'z shakllarining nutq zanjiridagi distributsiyasi (qanday qancha) gap strukturasi modelashtirishning asosiy mezonidir.

INITIALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

Quyidagi berilgan simvollarni ularning bildirgan ma'nosi bilan

1. Ushbu bilimlarning sirli shitirlashi zo'raydi. Qorong'ilikni yirtib chaqmoq qoldiradi. Dabdurustdan yomg'ir savaladi. Yirik bilimlarga tasir-tusur uriladi, cho'ziq iz qoldirib pastga oqadi. Ariq qurib, qilin bodomzorga tutashar ekan. 2. Rais og'ilni aylanib chiqib keldi. Nafosat opaga duch keldi. U quchog'iga sig'maydigan bedani keldi. Ushbu ko'tarib kelayotgan edi.

Yopshiriq. Mashina tarjimasi qaysi sohaga tegishli?

Matematik lingvistik	7.	Injener lingvistik
Hisoblash lingvistik	8.	Hisoblash lingvistikasi
Matematik lingvistik	9.	Matematik lingvistik
Kompyuter lingvistik	10.	Kompyuter lingvistikasi
Psixolingvistik	11.	Psixolingvistik
Etnolingvistik	12.	Etnolingvistik

Yopshiriq. Quyidagilarning mosligini toping.

Tushuncha va sanalar	№	Ta'rif va hodisalar
Bilimlar tajenerligi	A	Muayyan sohadagi ekspertlik yoki mavjud bilimlarning immitatsiyasi tarzida yaratilgan kompyuter dasturi.
T.A.L.	B	Bilimlar bazasi bilan shug'ullanuvchi maxsus yo'nalish.
Ekspert tizimi	C	Til o'qitishni avtomatlashtirish uchun dastur.
Example based translation	D	1984-yilda yaratilgan yangi konsepsiya.

5.	1836-1848	A	U. Uiver mashina tarjimasi tizimini yaratishning nazariy asoslarini ishlab chiqildi.
6.	1949	B	Avtomatik tarjima bo'yicha dastlabki g'oyalar Charlz Bebbidj tomonidan ilgari surilgan.
7.	1954	F	AQSHning fan masalalari bo'yicha kongress qo'mitasida avtomatik tarjimaga oid ma'ruza muhokamasi bo'lib o'tdi.
8.	1966	J	AQSHdagi Jorjtaun universitetida dunyoda birinchi marta avtomatik tarjima tajribadan o'tkazildi.
9.	1990	K	Moskva davlat lingvistik universitetida mashina tarjimasi laboratoriyasi ochildi.
10.	1959	L	Amerikada Global Link, Rossiyada PROMI avtomatik tarjima tizimlari yaratildi.
11.	1974	M	Eng yirik DIANA loyihasi AQShda NANA mutaxassislari tomonidan yaratilgan.
12.	1991	N	Moskvada INFORM-ELEKTRO institutida fransuzcha-ruscha (ETAP-1), inglizcha-ruscha (ETAP-2) hamda nemischa-ruscha (NERPA) avtomatik tarjima tizimlarini yaratish bo'yicha amaliy tadqiqotlar yuzaga keldi.

5-topshiriq. Tushirib qoldirilgan so'zlarni yozing.

1) bir tildagi matnni ikkinchi bir tilga kompary vositasida tez vaqt ichida tarjima qilish tizimi. 2) Avtomatik tarjima bo'yicha g'oyalar ingliz olimi tomonidanyillarda il surilgan. 3)yilda AQSHdagi Jorjtaun universitetida dunyoda birinchi marta avtomatik tarjima tajribadan o'tkazildi. 4) rahbarligi ostida Amaliy matematika institutida mashina tarjimasi bo'yicha uchta yirik tajriba tizimi yaratildi: fransuzchadan ruschaga (FR-1), inglizchadan ruschaga va fransuzchadan ruschaga (yangi variantda) Tarjima jarayonida quyidagi muammolar kelib chiqadi: muammolari.

6-topshiriq. Avtomatik tarjima jarayonida yuzaga keladigan lingvistik kamchiliklarning ro'yxatini keltiring.

Topshiriq. Quyidagi berilgan jadvalga olimlar va ularga mos bilim juftlang.

M.Nagao	A	Avtomatik tarjima bo'yicha dastlabki go'yalarni ilgari surgan.
Veb Lay	B	Amaliy matematika institutida mashina tarjimasi bo'yicha uchta yirik tajriba tizimini yaratgan.
O.S.Kulagina	C	1984-yilda Yaponiyaning Kioto universiteti professori mashina tarjimasi yo'nalishida yangi konsepsiya ishlab chiqdi.
Ch.Bebbidj	D	bu to'qimaga suyaklar, qon, limfa, tog'ay va paylar kiradi.
I.yakunov	G	Amaliy matematika institutida mashina tarjimasi bo'yicha uchta yirik tarjima tizimi yaratildi.
O.S.Kulagina va I.A.Melchuk	E	So'zma-so'z tarjima qilishning ilmiy strategiyasini yaratdi.
L.L.Nelyubin	F	«Vista Tehnologii» kompaniyasi «Retrans Vista» loyihasini ishlab chiqdi.

Topshiriq. Avtomatik tarjimada samaradorlikning yuqori bo'lishiga qaysi omillarning ayrim jihatlari to'sqinlik qiladi. Quyidagilardan qaysilari shu omillarga xos sanaladi?

1) morfologizmlar; 2) so'z shakli; 3) omonimlik; 4) analiz; 5) polisemiya; 6) analoglar; 7) paremlar; 8) sintez; 9) troplar; 10) so'z birikmasi; 11) so'zga old so'zlar; 12) tasviriy so'zlar; 13) so'z yasalishi; 14) maqollar; 15) mantiq so'zlar; 16) sinonimlar; 17) paronimlar; 18) antonimlar.

Javab: _____

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQ

1-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Avtomatik tahrirlash yo'nalishi haqida tushuncha.
2. Mashina tarjimasi va uning tarixi.
3. Mashina tarjimasining lingvistik ta'minoti va uning tarkibiy qismlari haqida.
4. Mashina tarjimasi muammolarini yechish yo'llari.
5. Fe'l mashinada so'zlarni tahlil qilishning boshlang'ich nuqtasi haqida.

2-topshiriq. Qo'shimcha mutolaa. Matnning zarur joylarini ko'rsatib oling.

Jahon tajribasidan kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish jarayonlarini yaratilayotgan avtomatlashtirilgan axborot kutubxona tizimlari haqida ma'lumotlar bankidan tashkil topganligini ko'rish mumkin. Bu banklar tizimlari bilan asosida texnologik, axborot va lingvistik ta'minotlar yotuvchi avtomatlashtirish kontsepsiyasiga ko'ra aloqada bo'ladi. Elektron tizimlar mashinalarining (EHM), mashina o'qiydigan tashuvchilarning va ularning birgalikda axborotlarni qayta ishlash va uzatish usullarining jadal rivojlanishi ishni tashkil qilishda urg'u beriladigan faktorlarni avtomatlashtirish jarayonda ishlatiladigan texnik ta'minotlar jamlamasini, har 2-3 yilda yangi texnologiyalar o'lganda butunlay o'zgarib ketayotganligini hisobga olib, doimiy ravishda rivojlanishni ko'rib chiqishni talab qiladi. Kutubxona tizimlarida elektron katalog tizimlari asosiy ma'lumotlar banklaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun Respublikamiz kutubxonalari EKlarning quyidagi bazalarini yaratadilar:

- o'zlarining fondlarida mavjud bo'lgan o'zbekcha-kirilcha, ruscha-kirilcha, o'zbekcha-lotincha kitoblarning, notalarning, xaritalarning, avtoreferatlarning va davriy nashrlarning, avvalombor joriy tashayotganlarining EK, keyinchalik esa u retrospektiv katalog sifatida to'ldiriladi;

- alifbosida boshqa grafikadan foydalanilgan tillardagi kutubxona fondlarining elektron katalogi;

- himoya qilingan dissertatsiyalarning EK;
- ma'lumotlar bazasi va programma mahsulotlarining EK;
- elektron tashuvchilardagi ma'lumotlarning (elektron kitoblar) EK;

kitob o'zbek va lotin yozuvidagi qo'lyozma kitoblar va asarlarning EK; gazeta va jurnallardagi maqola va asarlarning EK.

Kutubxona an'anaviy katalogini retrospektiv konvertsiya orqali mashina shakliga ko'rinishga o'tkazish ko'p mehnat va sarf-xarajat talab etadi. Shu munosabatlarda bu muammoni hal qilishni kechiktirib bo'lmaydi, chunki hozirgi kunda katalogda mavjud bo'lgan axborotlarni saqlab qolish va undan foydalanish va boshqa mamlakatlarning kutubxonalari foydalanishlari uchun zarur yaratish kerak. Kutubxona kartochkali katalogini mashina o'qiydigan skanerlash yo'li bilangina emas balki klaviaturada terish orqali ham bajarish mumkin. Bunga sabab kartochkadagi bibliografik yozuvlarning yuqori soni va ularning ko'pchiligi qo'lyozma ko'rinishdaligidir. Kitob katalogida mavjud bo'lgan ayrim kataloglarni mashina o'qiydigan tashuvchilarga o'tkazish ham skanerlash va tasvirni aniqlashtirish dasturlari orqali amalga oshirish mumkin. Katta kutubxonalar kataloglarni retrospektiv konversiyalash uchun klaviatura yordamida qo'lda terish juda katta mehnat sarfini va vaqt talab qiladigan mashaqqatli ish hisoblanadi. Ammo bu usul juda keng tarqalgan. O'zbekiston kutubxonalarida kataloglarni mashina o'qiy oladigan shaklga o'tkazish asosan mazkur usulda olib borilmoqda. Bu sohada jahon amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, bunday mashaqqatli ishni bajarish uchun maktab, maktab o'quvchilari jalb qilingan. Retrokonversiyalash jarayonini tezlashtirish uchun chet ellardagi bir qator yirik kutubxonalar arzon ish kuchini qidirib olishlari, boshqa mamlakatlardan arzon ishchilarni va hatto operator o'qitishlari bunday mashaqqatli ishni bajarishga taklif qilganlar. Bunday konversiya asosida ish olib borilganda o'rtacha bir operator 40-50 katalog kartochkalarni mashina o'qiy oladigan shaklga o'tkaza oladi, ammo mehnatni tejsizlik bilan o'tkazish va operator tajribasining ortishi bilan bu ko'rsatkich keskin kamayib borishi mumkin. Chet ellarda oxirgi yillarda katalog kartochkalarni yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan skanerlar yordamida skanerlash yo'lga qo'yilmoqda. Bunda katalog kartochkalarining pachkasi skanerning qabul qilishi qurilmasi orqali avtomatik ravishda uzatilib turiladi. Skanerlash jarayonida kompyuter xotirasida katalog kartochkalari old va orqa qismlarining shakllari obrazlari massivi shakllanadi. Bunday skanirlash juda tez bajariladi. Bunday usulda kartochkadan nusxa olish katalogdagi bibliografik axborotni aniqlik bilan saqlashni ta'minlaydi. Bundan tashqari keyinchalik yashiklardagi

kartochkalardan foydalanmasdan ularning elektron foydalanish imkoniyati yaratiladiki bu holat katalog kartochkalarini asl holicha saqlanishda muvaffaqiyatli o'ynaydi. Kartochkalarni bunday elektron obrazi rasm shaklida bo'lib saqlash, displayda ko'rish mumkin, ammo ularga matn sifatida qarash berish mumkin emas. Bu yerda yana bir jiddiy muammo ham bo'lib qoladi, agar bo'lsa qandaydir bir qidiruv belgilari yaratmasdan turib (ularni matn deb kompyuter tizimiga kiritmay) obrazlar massividan bibliografik yozuvlar kidirish mumkin emas. Shuning uchun ham mashinadagi kartochka shaklida qandaydir yozuvlar (harflar, raqamlar va boshqa belgilar) bilan bog'lanishi kerak. Bunda eng soddha variant-har bir kartochkaga, xuddi kartochkali katalog shaklida singari har bir kartochkaning bosh harfi yoki sarlavha tavsifidagi bosh harflaridan bir necha harfni mos qo'yish mumkin. Albatta bu usulda elektron katalog yaratish skanirlash jarayoni uchun sarf qilingan xarajatlarga nisbatan o'zini oqlamaydi. Kutubxona EK yaratishdagi yangi masala sifatida bibliografik yozuv va sahifalarning faksimil tasviri birgalikda qo'shilgan katalog shaklida jamlamasi bo'yicha ma'lumotlar bazasi tashkil qilishni kiritish mumkin. Bunday ma'lumotlar bazasi bibliografik yozuvlarni klaviatura orqali kiritish va elektron gazeta va rasmlar tasvirini skanerlash yo'li bilan tashkil qilinadi. Bu usul o'tilgan vazifalar operativ bajarilishni talab etadi. Respublikamiz kutubxonalari bu vazifalarni bajarishlari uchun bir qator muammolarga duch keladi. Hozirgi navbatda hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar sifatida quyidagilarni muammolarni keltirish mumkin:

- Respublikamiz kutubxonalari uchun yagona kataloglashtirish qoidasi ishlab chiqilishi yoki boshqa davlatlar tomonidan ishlab chiqilganini qabul qilinishi;

- Elektron katalogning lingvistikasi hisoblanuvchi bibliografik yozuv elementlarini tasvirlash formati va mavzu bo'yicha qidirish uchun qidiruv tili yaratilishi;

- Elektron katalog yaratish uchun dasturiy ta'minot yaratish yoki mavjud dasturiy ta'minotlar orasidan keraklisini tanlash;

- EK shakllantirishni operativ amalga oshirish maqsadida kutubxonalarning korporatsiyalari va assotsiatsiyalari tashkil qilish.

Respublika kutubxonalari uchun yagona kataloglashtirish qoidasi qabul qilish paydo bo'lishi EKning lingvistikasi uchun me'yoriy-huquqiy asos yaratilishi.

ling lingvistikasi esa har xil kutubxonalar tomonidan yaratilayotgan ma'lumotlarning bir xilligini ta'minlaydi. Bu esa kutubxonalarning hamkorlikda ma'lumotlari va ma'lumotlar bazalarini ayirboshlashlariga imkoniyat yaratadi. Ma'lumotlarni yaratilayotganda jahon tajribasi inobatga olinishi talab etiladi, yaratilayotgan bibliografik yozuvlar xalqaro kommunikativ formatlar talabiga javob berishi talab etiladi. EK yaratish kechiktirib bo'lmaydigan vaziyat bo'lganligi sababli, har bir kutubxona o'z imkoniyatidan kelib chiqqan xalqaro kommunikativ formatlar talablariga javob beradigan dasturiy talablarini o'rnatib olishi va EK shakllantirishni boshlashi lozim. Kutubxonalar o'z ma'lumot bazalariga ko'ra korporatsiyalar va assotsiatsiyalarga birlashib, ma'lumotlarni ishlash yo'larini izlashlari maqsadga muvafiqdir. EKlar yaratishning keyingi bosqichida avtoritet yozuvlar tashkil qilish, mualliflik bazasini o'rnatish va ma'lumotlar bazasi yaratish muammolarini hal qilish lozim.

Topshiriq. Diagnostik lug'at tuzing. Bunda (siz istagan) ikki tilga oid bir ma'lumotli matnni tanlab oling va tarjima qiling. Tarjima natijalariga tayanib, ma'lumotli jadvalni to'ldiring.

kriteriyalar	1-til	2-til
Tipik qo'shimchalar		
Bo'lanish olmoshlari		
Idga xos fe'l		
Bo'lanishlari		
Atamalar ko'makchilar		
5. Bog'lovchilar		
6. Yuqori chastotali so'zlar izohi		

Topshiriq. Maqollarni ikki tilda keltiring va tarjima qiling. Tarjima natijalariga duch kelgan qiyinchilikni izohlashga harakat qiling.

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

Topshiriq. Mavzu yuzasidan prezentatsiya tayyorlang.

Topshiriq. "Globallashuv jarayonida mashina tarjimasining ahamiyati" mavzusi haqida esseni yozing.

3-topshiriq. "Avtomatik tarjima yo'nalishi tarixi", "Tarjimon Axborot Tizimi", "Avtomatik tarjima uchun ma'lumotlar bazasini yaratish", "Avtomatik tarjima yo'nalishining zamonaviy holati va istiqboli", "Kompyuter lingvistikasi", "Avtomatik tarjima yo'nalishidagi ahamiyati" mavzularining bir qancha mavzulari tayyorlang.

4-topshiriq. Ta'lim muassasining sayтини yaratish uchun ma'lumotlar bazasini yig'ing.

5-topshiriq. Ispring dasturida mavzu yuzasidan 10 test yarating

Adabiyotlar:

1. Апресян Ю.Д. и др. Лингвистическое обеспечение систем машинного перевода // Искусственный интеллект. Справочник. - М., 1988. С. 201-215.
2. Бакулов А.Д., Леонтьева Н.Н., Шалапина З.М. Отечественные системы машинного перевода/Искусственный интеллект. Справочник. - М., 1990. С. 201-215.
3. Бархударов Л.С. Язык и перевод. - М., 1975.
4. Беляева Л.Н., Откупщикова М.И. Автоматический машинный перевод // Прикладное языкознание. - СПб., 1996. С. 360-388.
5. Комиссаров В.Н. Теоретические основы методики обучения переводу. - М., 1997.
6. Яковсон Р.О. лингвистических аспектах перевода // Избранные работы. - М., 1985. С. 361-368.

15-MAVZU:

INFORMATSION QIDIRUV TIZIMI. GIPERTEKST TEXNOLOGIYASI.

Reja:

1. InformatSION-qidiruv tizimi haqida.
2. Axborot-qidiruv tizimlarining turlari.
3. Gipermatn texnologiyasi.

Yaratish tushunchalar: matnni gipertekst darajasiga yetkazish, axborot-tizimlarini kengaytirish, tasvir, jadval, videorolik, matniy, lug'aviy, audio, video, animatsiyali.

Axborot-qidiruv tizimi (axborot-izlanish sistemasi) – 1950-1960 yillarda katta miqdordagi axborotlar keskin sur'atda oshdi. Millionga yaqin ixtirolar va turli xil ma'lumotlar bir necha million ilmiy yangiliklar mavjud bo'lib, ular muntazam ravishda ko'pgina tillarda berib boriladi. Millionlab ilmiy-texnika jurnallari nashr etilib, ularda maqolalar chop etilmoqda. Har qanday ilmiy-texnik ma'lumotni osonlik bilan kitobxonlar ommasiga o'z vaqtida va oson yetkazishning birdan-birda zaruriyati hisoblanib, matnlarni turli tillarga tarjima va annotatsiya qiladigan dasturlarni yaratish zaruriyati hisoblanib, shunday sharoitda kompyuter lingvistikasi axborotlarni saqlaydigan tizim ishlab chiqarilgan. Shunday sharoitda axborot – izlanish (AIS) sistemasi ishlab chiqildi. Bu sistemada ma'lumotlar bo'yicha bo'lgan bo'layotgan sari uni saralash, keraklisini qidirib topish muammosi yechilmoqda. Mazkur muammoni bartaraf etish uchun olimlar informatsion tizimlarni yaratishni g'oyasini taklif etdilar. Informatsiyon qidiruv (inglizcha information retrieval) atamasi 1948-yil Kelvin Mur tomonidan birinchi marta ishlatilgan.

Informatsion-qidiruv tizimi – ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida qidirib topish uchun kerakli hujjatlarni ma'lumotlar bazasidan topishni optimallashtirish tizimi. Axborot-izlanish sistemasi axborotlarni qidirishga mo'ljallangan. U quyidagi bosqichlarda ishlaydi:

- informatsiya (axborot)ni jamlash;
- informatsiya (axborot)ni tasniflash;
- hujjatni qidiruv obrazini yaratish;
- hujjatni qidiruv obrazi va hujjanrlarni saqlash;
- qidirish va natijani chiqarish.

Bu yo'nalish INTERNET yuzaga kelgandan so'ng yanada rivojlandi. Internetda Google, Yandex, Rambler, Yaho kabi qidiruv tizimlari yaratilgan.

Axborotni qidirish 4 bosqichni o'z ichiga oladi:

- axborotga bo'lgan talabni aniqlashtirish hamda informatsiyon so'rovni yaratish;
- talab qilingan axborotni saqlagan manbalarni aniqlash;

- axborot massivlaridan zarur axborotni ajratib olish;
- axborot bilan tanishish va qidiruv natijalarini baholash.

Qidiruvning quyidagi turlari mavjud:

To'liq matnli qidiruv - hujjatning toliq mazmun-muhimligi amalga oshiriladigan qidiruv. Masalan, Internetdagi qidiruv www.yandex.ru, www.google.com.

1. *Metama'lumotlar bo'yicha qidiruv* - hujjatning muayyan ma'lumot (hujjat nomi, yaratilgan vaqti, hajmi, muallifi) asosida amalga oshiriladigan qidiruv. Qidiruvning bu turiga MS Windows tizimida fayllar to'g'risida foydalaniladigan qidiruv dialogi misol bo'la oladi.

2. *Tasvir qidiruvi* - tasvirning mazmuni asosida amalga oshiriladigan qidiruv. Bunda qidiruv tizimi rasmning mazmunini taniydi va natijada o'xshash rasm topiladi. *Polar Rose*, *Piollator* qidiruv tizimlari mana shu asosida ishlaydi.

3. *Multimediaqli informatsiya qidiruvi* - bunda ma'lumotlar yoki videofayllar bo'yicha qidiriladi.

Qidirish jarayoni turli metodlar asosida yuz beradi: *manzilli qidiruv*, *semantik qidiruv*, *hujjatli qidiruv*, *faktografik qidiruv*.

Manzilli qidiruv so'rovda ko'rsatiladigan sof formal belgilar bo'yicha hujjatlarni qidirish jarayoni bo'lib, bunda hujjatning aniq manzili ko'rsatib berilish lozim. Hujjatning manzili web-server va web-sahifa manzili yoki boshqa qayd elementlari va hujjat saqlangan joy sanaladi.

Semantik qidiruv hujjatlarlarning mazmuni asosida qidirish usuli bo'lib, bunda hujjatning umumlashma mazmuni, sarlavhasi deskriptor to'g'risida shakllantirilishi lozim.

Hujjatli qidiruv matnli ma'lumotlar hamda ular haqidagi boshqa qaydlarni qidirish jarayonidir.

Faktografik qidiruv so'rovda nazarda tutilgan ma'lumotga mos faktlarni (matnli hujjatlar tarkibidan ajratilgan ma'lumotlar) qidirish jarayonidir. Qidiruv tizimi relatsion ma'lumotlar bazasida hamda gipertekstli ma'lumotlar bazasida mavjud bo'lgan hujjatlar, hujjatlar haqidagi metama'lumotlar, rasmlar, video va audiofayllarni qidirishni o'z ichiga oladi. Informatsiya eksponensial tarzda ko'payib ketayotganligi, shuningdek, internet tizimlari kundan kunga ma'lumotlar hajmining o'sib borayotganligi kompyuter

bir qator vazifalarni qo'ymoqda: - qidiruv tizimining optimal
- hujjatlarni tasniflash (klassifikatorlar tizimini yaratish); -
- foydalanuvchi interfeyslari va qidiruv tizimlari
- zaruriy informatsiyani ajratib olish, hujjatlarni
- deskriptorli tillar va tezauruslarni

ma'lumotning xarakteri hamda qidirish xususiyatiga
qidiruv tizimlari 2 katta guruhga bo'linadi: *hujjatli va*
informatsion qidiruv tizimlari.

Informatsion qidiruv tizimlarida matn, tavsif va ta'riflar
informatsion qidiruv tizimlari esa jadvallar, formulalar,
ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, *aralash*
qidiruv tizimlari ham mavjud bo'lib, unda ham hujjatli, ham
ma'lumotlar saqlanadi. Informatsion qidiruv tizimlarida qidiruvni
maxsus informatsion qidiruv tillari mavjud. Informatsion
qidiruv tizimlarida saqlangan
matnning mazmunini tavsiflash va so'rov uchun mo'ljallangan. Informatsion
qidiruv tizimlari hujjatlarga ishlov berish protsedurasi *indekslash* deb ataladi.
Natijada har bir hujjatga informatsion qidiruv tizimidagi ta'rif
qo'yiladi. Mazkur ko'p bosqichli jarayonda deskriptorli informatsion
tillari ishlatiladi. Hujjat mavzusi deskriptorlarning birlashuvi bilan
Deskriptorlar sifatida so'zlar, terminlar, muayyan sohadagi
tushuncha va kategoriyalardan foydalaniladi. Deskriptorlarni *kalit*
so'zlar deb nomlash ham mumkin. Deskriptorli til bilan ishlaydigan tizimlardan
il faqide tomonidan yaratilgan *UNITERM* tizimidir. Bu tizimda
hujjatning kalit so'zlari – unitermlar ishlatiladi. Demak,
terminologiyasi, ya'ni deskriptorlarqidiruv tizimi va
asosini tashkil etadi. - Matnning asosiy mazmun-mundarijasini
kalit so'zlar, terminlar, tayanch tushunchalar bazasi asosida
lug'at tuziladi. Bunday lug'at *informatsion qidiruv tezauruslari*
Tezauruslar ensiklopedik va izohli lug'atlardan farqli ravishda til
matnning matnda qo'llanish chastotasi va matnning predmet mundarijasini
darajasiga qarab tuziladi. Bunda terminning mazmuniy tavsifi orqali
ma'lumotlar qidirilishiga mo'ljallangan bo'ladi. Terminlar tezaurusga

qat'iy semantik prinsiplar asosida kiritiladi, bunda *naming gipo* (*tur-jins*), *holomeronik* (*butun-bo'lak*), *ierarxik* (*pog'onali*) munosabatlar assotsiativ mazmuniy bog'lanishlar e'tiborga olinishi lozim. Ensiklopedia sanalgan Vikipediada keltirilgan so'zga bag'ishlangan maqolasida semantik munosabatlar, assotsiativ bog'lanishlar hamda munosabati yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu o'rinda ta'kidlash zarurki, paytlarda qidiruv tizimlari bazasidagi tezauruslar giperhavolalar bilan ta'minlanmoqda, bu esa userga bir muncha qulayliklar yaratadi. Qidirilayotgan terminlarga aloqador bo'lgan boshqa yaqin tushunchalar bog'liq ma'lumotlarni ham oson topish imkonini beradi. Ilm-fan taraqqiyoti intensiv ravishda rivojlanayotgan davrda terminlar dinamik e'tiborga olgan holda tezauruslar bazasini muttasil to'ldirib, boyitib borish zarur. Chunki til ochiq dinamik tizim hamda jamiyat taraqqiyotining oqibati hisoblanadi, ya'ni ayrim tushunchalar eskiradi, ularning o'rniga yangi nomlar va terminlar yuzaga keladi. Informatsion qidiruv tezauruslar yaratishda shuni doimo e'tiborga olish lozim. Xalqaro INFOTERM (Xalqaro terminlar markaz, Avstriya) tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, hozirgi kunda tashkilot terminlar miqdori 50 mln, mahsulot nomlari miqdori 100 mlnni tashkil qiladi. Lekin ushbu statistik ma'lumot turg'un emas, u jamiyat taraqqiyoti bilan o'zgarib turadi.

Matnni katta hajmdagi matn (gipertekst) darajasida tasavvuri kompyuter lingvistikasida inqilobiy o'zgarish yasagan yangi texnologiyasi hisoblanadi. Chunki bu tizim Guttenberg asos solgan klassik texnologiyasiga zid ravishda yangi turdagi matn strukturasini vujudga keltiradi. Gipertekst g'oyasi AQSH prezidenti F.Ruzveltning fan va ta'lim bo'yidagi maslahatchisi Vannevar Bush nomi bilan bog'liq bo'lib, u foydalanuvchilarga va uning fragmentlarini turli assotsiativ munosabatlar asosida bog'lab beruvchi «Memeks» tizimini nazariy jihatdan asoslab berdi. U 1945 yildagi «Atlantic Monthly» jurnalida «Memeks» deb atalgan kelajakdagi xayoliy qurilmaga haqida *As We May Think* («Biz o'ylaganimiz kabi») maqolasini e'lon qilgan. Bush o'sha qurilmani kutubxonadagi har qanday hujjatlar, yozma kitoblarni displeyda ko'rsatib bera oladigan, cheklanmagan mikrofilm asosidagi ulangan elektromexanik stol sifatida tasvirlaydi. Kompyuter texnikasi paydo bo'lganidan keyin bu loyiha amalda qo'llanishi bir oz keyinga surilgan edi. Bushning

bu loqidagi nazariy va amaliy izlanishlarga juda katta ta'sir ko'rsatdi, uning belajak loyihasi 1960-yilda T.Nelsonning «Ksanadu» tizimi orqali amalga oshirildi. Bu texnik tizim kiritilgan matnlarni va uning qismlarini turli xil usullar bilan xil qatorda, ixtiyoriy ketma-ketlikda o'qishga imkon beradi. Bu tizim olingan matnlarning o'rmini, ketma-ketligini eslab qolishga va xohlagan ma'lumotli matnni tanlab olishga va tezkor murojaat etishga yordam beradi. Ushbu xususiyatga ega bo'lgan matnlarni T.Nelson *gipertekst* deb nomladi. Ushbu so'zni yunoncha «hyper» - «ostida», «orqasida», «ortidan» ma'nolarini bildiruvchi old qo'shimcha hamda lotincha *tekst*- «to'qima» ma'nosini bildiruvchi so'zlardan olingan.

1968-yil dekabrda amerikalik olim Duglas Engelbart ham o'zi yaratgan ushbu interfeysini e'lon qildi. Olim uni «The Mothyer of All Demos» deb nomladi. 1980-yilda Ben Shneyderman ham o'z gipertekst loyihasini yaratdi, ushbu tizimni The Interntive Enylopedia System (TIES) deb nomlangan. 1992-yilda dunyodagi gipertekst World Wide Web (xalqaro to'r)ga tatbiq etildi.

Ushbu gipermatn sistemasi grafik sifatida bo'lib, har bir nuqtada bir matn shaklida tayanch, jadval, videorolik va boshqalar joylashtiriladi. Sistemadagi har bir yoki ikki yo'nalishda bo'lib, ular «zanjir» holatda uzviy bog'liq bo'ladi. Foydalanuvchi o'zining ehtiyojiga ko'ra gipermatndan ma'lumot olinadi. Gipermatn sistemasida bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga o'tish uchun tayanch bo'yicha tayanch tushunchalar keltirilishi kerak. Tayanch tushunchalar o'zaro bilan gipermatn mavzusi o'zgaradi. Gipermatn sistemasidagi gipermatn matniy axborot ham, matnsiz axborot ham bo'lish mumkin. Gipermatn sistemasi tarkibiga multimedia, gipermedialar ham kiradi.

Gipermatn texnologiyasi matniy manbaning mashinada tashkil etishga asoslangan bo'lib, bunda leksik birliklar bir chiziqli ketma-ketlikda joylashtirilgan, balki aniq bilimlar asosida biror sohaga taalluqli birliklar va ular o'rtasidagi munosabatlar inobatga olingan. Yetarli darajada olingan manba birliklari o'rtasidagi bog'liqlik o'ta murakkab gipermatn kengligini yuzaga keltiradi. Gipermatn kengligi o'ziga xos semantik zanjir shaklida ma'lum bir fan sohasi sifatida o'ttiradi. Gipermatnning oliy shakli **World Wide Web** (Xalqaro to'rtburchak turi) sanaladi. U turli kompyuterlardagi millionlab axborotlarni boshqalar bilan yagona axborot maydoniga birlashtiradi.

Gipermatn strukturasiga ko'ra *ierarxik (pog'onali)* va *tarmoqli* bo'lishi mumkin.

Daraxt ko'rinishidagi **ierarxik gipertekstlar** foydalanuvchi navigatsiya (uzellar bo'ylab bir qismdan ikkinchi qismga o'tish) imkonini cheklaydi, gipermatn texnologiyasining barcha imkoniyatlarini qamrab o'lmaydi. Bunday gipermatn texnologiyasining barcha imkoniyatlarini qamrab o'rtasidagi aloqalar jins-tur munosabatiga asoslangan tezauslar shaklida eslatadi.

Tarmoqli gipermatn esa birmuncha keng tarqalgan va imkoniyatli tizim hisoblanadi, u jins-tur munosabatidan tashqari boshqa xarakterdagi munosabatlarni ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun tarmoqli gipermatn Internet tizimida faol ishlatiladi.

Gipermatn ikki xil holatda bo'lishi mumkin: statik va dinamik.

Statik gipermatn – oldindan tayyorlangan va saqlangan bo'lib, u o'z holatda bo'ladi. Masalan, gipertekst texnologiyasi asosida Dga yozilgan kitoblar.

Dinamik gipermatn – murakkab va tizimli bog'lanishlarga tayanadigan ko'proq tarmoq tizimida ishlaydi. Masalan, Arizona axborot tizimi barqaror holatda 300-500 referat ko'rinishida ma'lumotlar kiritib turiladi.

Hozirgi kunda texnik vositalarga bo'lgan ehtiyojning o'sishi natijasida gipermatnlarni kengaytirish gipermedia – informatsion – supermuhit yaratish asoslarini ishlab chiqish muammolari ko'tarilmoqda. Gipermedia statik bo'lgan nafaqat supermatnlar, balki nutqiy, grafik, hid sezish, ta'm bilish kengligi ta'sir etuvchi dasturlar yaratilmoqda. Gipermedia sistemasi insonning bilish jarayonini qayta tashkillashtirish jarayonini informatsion texnologiyalar bilan birga amalga oshirish holga keltirish orqali gipermedia sistemasida inson va mashina o'rtasidagi semantik kenglikni qisqartirish (kamaytirish), informatizatsiya imkoniyatlarini kengaytirish, mashinalarning kognitivligini oshirish kabi masalalar ishlab chiqilmoqda. Gipermedia texnologiyalar ma'lumotlar sivilizatsiyasiga olib boruvchi yo'l sanaladi.

O'zbek tilining gipermatni deganda, noxiziq shakldagi axborotlar tizimi yangi informatsion texnologiyalar orqali tahlil qilish (keng ma'noda ma'lumot qayta ishlaniishi), matniy, lug'aviy, grafik, audio, video, animatsiyali va boshqa leksikografik manbalarni tahlil qilish tushuniladi. Bundan tashqari, turli ma'noda

tilning turli tipdagi lug'atlarini ham o'z ichiga qamrab oladi. O'zbek tilining kompyuter tizimini – ochiq tizim – ya'ni Internetdagi o'zbek tilining Kompyuter tizimiga aylantirish bo'yicha amalga oshirilgan:

1. O'zbek tilining kompyuter xotirasida tizimlashtirilgan (uslub, janr, tuzilish bo'yicha ko'ra) bo'lib, axborotni topishda foydalanuvchi qiynalmaydi. 2. O'zbek tilining quyidagicha amalga oshirilgan:

1.1. O'zbek tilining xususiyatiga ko'ra:

- 1.1.1. Adabiy adabiyotlar (muallif, asar nomi, yil, nashriyot, janr);
- 1.1.2. Jurnalistik;
- 1.1.3. Qonun (hujjat, konstitutsiya, Qonun, Nizom, Farmon, buyruq, talablar va boshqalar);
- 1.1.4. Ilmiy (dissertatsiya, avtoreferat, referat, monografiya, darslik, qo'llanma, o'quv materiallari, ma'ruza, taqriz, bibliografiya, malakaviy bitiruv qog'ozlari);
- 1.1.5. Boshqalar (oddiy so'zlashuv nutqi matnlari, sheva materiallari, sleng, argo, latifalar);
- 1.1.6. Kommunikativ (xat, telegramma, chat – polilog va dialog, elektron pochta);
- 1.1.7. Boshqalar;
- 1.1.8. Ommabop;
- 1.1.9. Boshqalar.

1.2. O'zbek tilining xususiyatiga ko'ra:

- 1.2.1. Ilmiy (ilmiy qotiruv materiallari (fan, ishlab chiqarish);
- 1.2.2. O'quv-uslubiy materiallar (maktab, oliy o'quv yurtlari uchun);
- 1.2.3. Boshqalar (ommabop- hayotiy, xobbi).

1.3. Foydalanuvchining tipiga ko'ra:

- 1.3.1. Umumiy;
- 1.3.2. Ommabop;
- 1.3.3. Ommabop (tarix);
- 1.3.4. Ommabop (mif, afsona);
- 1.3.5. Ommabop (muallif, mavzu, atama, statistika);
- 1.3.6. Ommabop — dialekt (viloyataro, yig'ma, lokal);
- 1.3.7. Ommabop, kartoteka;

- broshyura, kitob, nashr, bo'lim, tom;

4. Elektron xususiyatiga ko'ra:

- magnitli yoki optik disk;
- internet;
- baza / ma'lumotlar banki;
- bilim;
- original-maket;
- hajm;
- ko'rinish shakli (glossariy, vokabulyar, so'zlashgich, leksikon, lugat, ro'yxat, ensiklopediya, ma'lumotnoma, indeks, ko'rsatkich, simfoniya)

5. Tartiblash turiga ko'ra:

- alfavitli;
- ideografik;
- tezaurus;
- xronologik.

Matn va gipermatn tushunchalari o'rtasida farqlar mavjud:

Matn	Gipermatn
Tugallanganlik	Tugallanmaganlik
Chiziqlilik	Nochiziqlilik
Aniq muallifning mavjudligi	Aniq muallifning mavjud emasligi
Bir tomonlama yo'nalganlik	Ko'p tomonlama yo'nalganlik
Bir jinslilik	Bir jinsda tuzilmaganlik
Yopiq strukturaga egalik	Ochiq strukturaga egalik

Xullas, kompyuter lingvistikasining asosiy yo'nalishlardan biri, gipermatn tizimi, millionlab axborotlarni giperaloqalar bilan yagona axborot maydoniga birlashtiradigan hajm jihatdan juda katta tizimdir. Unda jahonning barcha burchidagi ma'lumotlar jamlangan bo'lib, har qanday foydalanuvchi uchun kerakli bo'lgan xohlagan ma'lumotni olishi mumkin.

Gipermatn texnologiyasi information massivni tezroq ko'rib chiqish, muayyan axborot yoki matn fragmentlariga tezkor havola qilish, gipermatn

3.4. Erkin yangiliklar kiritish, boyitib boorish kabi optimal imkoniyatlar beradi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. *Topshiriq.* Qisqacha glossariy, vokabulyar, so'zlashgich namunalarini yarating va ularni ayting.

2. *Topshiriq.* Qisqacha leksikon, ro'yxat, ensiklopediya, ma'lumotnoma, namunalarini yarating va farqini ayting.

3. *Topshiriq.* Eng ma'qul talqinni tanlang.

4. *Topshiriq.* Tilanish sistemasi necha xil bo'ladi?

- a) 1
- b) 2
- c) 3
- d) 4

5. *Topshiriq.* Tilanish sistemasi keltirilgan qatorni toping.

- a) hujjatiy va faktografik
- b) referatlar, bibliografik kartochkalar
- c) jadvallar, formulalar
- d) formulalar, turli suratlar

6. *Topshiriq.* AISda qanday hujjat matnlari saqlanadi?

- a) hujjatiy va faktografik
- b) referatlar, bibliografik kartochkalar
- c) jadvallar, formulalar
- d) formulalar, turli suratlar

7. *Topshiriq.* Faktografik AISda qanday aniq daliliy ashyolar saqlanadi?

- a) hujjatiy va faktografik
- b) referatlar, bibliografik kartochkalar
- c) jadvallar, formulalar, turli suratlar
- d) formulalar, turli suratlar

8. *Topshiriq.* Ishlash jarayonida qanday maxsus til qo'llaniladi?

- a) hujjatiy
- b) formulalar
- c) jadvallar
- d) indeksatsiya

9. *Topshiriq.* Qaysi marta amerikalik olim M.Taube AIS uchun qanday maxsus til yaratgan?

- a) UNITERM
- b) MEMEKS
- c) KESANADU
- d) INDEKSATSIIYA

7. Ilk bor prezident F.Ruzveltning ilmiy ishlar bo'yicha maslahatchisi Vannevar Bush tomonidan ishlab chiqilgan texnik sistema loyihasi keltirilgan qatorni toping.

- a) UNITERM
- b) MEMEKS
- c) KSNADU
- d) INDEKSATSIYA

8. 1960 yillarda loyihani qayta ishlab chiqib «KSNADU» nomi bilan texnikasida qo'llay boshlagan kishi nomi keltirilgan qatorni toping

- a) T.Nelson
- b) F.Ruzvelt
- c) M.Taube
- d) Vannevar Bush

4-topshiriq. So'l ustundagi har bir atamaga o'ng ustundan ma'nosi tanlang:

Sinxron –	tarixan o'zgargan holda izchil rivojlanish bosqichlari.
Panxron –	so'zlar alifbo tartibida emas, balki mavzuiy tamoyilga ko'ra joylashtirilgan lug'at.
Tezaurus –	ayni bir davr tilini davr, vaqt omili va lisoniy o'zgarishlarga bog'liq bo'lmagan holda tavsiflashga oid.
Ideografik -	muayyan tildagi barcha so'zlarni qamrab oladigan, ularni matnda qo'llanish holatini to'liq aks ettiradigan lug'at.
Diaxron –	arxetip, mif.


5-topshiriq. Gipermatn va nashriy ishlarning matnida o'xshash va farq jihatlari mavjud. Quyidagi matnlarda gipermatnning qaysi xususiyatlari ko'rsatib tashlanadi:

- hadis matnlarida;
- gazeta, jurnal va reklama matnlarida;
- lug'at va ensiklopediyalarda;
- ma'lumotnoma tipidagi axborot va ish yozishmalarida.

6-topshiriq. Ko'pgina dasturiy mahsulotlar gipermatn sifatida ishlatiladi. Quyidagi dasturlarda gipermatnning qaysi xususiyatlari ko'zga tashlanadi

- MS Word matn muharriri;
- Power Point dasturi;
- MS EXEL elektron jadval.

Topshiriq. Axborot izlanish sistemasi o'z xususiyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi: hujjatiy va faktografik. Quyidagi rasmlarni axborotlarni turiga ko'ra ajratib joylashtiring.

			$(a+b)^2=?$
a	b	c	d
			
f	j	k	l
			$P = 1 - \frac{6 \sum Di^2}{n^2(n-1)}$
			m

Javob:

Faktografik	Hujjatiy	Faktografik	Hujjatiy	Faktografik
-------------	----------	-------------	----------	-------------

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

Topshiriq. Yod oling.

Katta hajmdagi matn (gipertekst) darajasida tasavvur etish – KL yana bir xususiy yo'nalishlardan biri gipermatn sistemasini tashkil etish sanaladi. Bu gipermatn sistemasi grafik sifatida bo'lib, har bir nuqtada bir matn yoki tasvir, jadval, videorolik va boshqalar joylashtiriladi.

Diavron – ayni bir davr tilini davr, vaqt omili va lisoniy o'zgarishlarga bog'liq bo'lgan holda tavsiflashga oid.

Diavron – tarixan o'zgargan holda izchil rivojlanish bosqichlari.

Fonxron – arxetip, mif.

Idiografik – so'zlar alifbo tartibida emas, balki mavzuiy tamoyilga ko'ra joylashtirilgan lug'at.

Teaurus – muayyan tildagi barcha so'zlarni qamrab oladigan, ularni qo'llanish holatini to'liq aks ettiradigan lug'at.

1-topshiriq. Savollarga javob bering.

Axborot qidiruv tizimi haqida nimalar bilasiz?

Gipertekst nima?

Gipermatn sistemasi tarkibiga nimalar kiradi?

Rasmilashtirish qanday amalga oshirilgan?

5. Matn va gipermatnning farqini ayting.
6. Axborot-qidiruv tizimining turlari haqida gapiring.
7. Gipermatn texnologiyasining turlari haqida gapiring.
8. Axborot-qidiruv tizimi va gipermatn texnologiyasining turlari o'rtasidagi farqlar haqida fikringizni ayting.

3-topshiriq. "Olma" usulida mavzuni tahlil qiling.

Qizil olma – mavzuning ahamiyatli jihati.

Yashil olma – mavzuning tushunarsiz, ochilmay qolgan qirrası.

Sariq olma – mavzuning yoqmagan jihati haqida fikrlaringizni yozib keling.

4-topshiriq. "BLUM MOYChEChAGI" usulida mavzuni tahlil qiling.

1-gulbarg oddiy savollar: kim? nima? qayer? qachon? qanday?

2-gulbarg aniqlashtiruvchi savollar: "Sizning aytishingizcha, ...", "Agar sizni to'g'ri tushungan bo'lsam, ...", "Balkim adashayotgandirman, ammo bu dedingiz".

3-gulbarg tushuntiruvchi savollar: Nima uchun... bo'ldi?

4-gulbarg ijodiy savollar: «Agar...bo'lsa, nima qilar edi?», «Sizning fikringiz o'ylaysiz.....bo'lsa, nima bo'ladi?»

5-gulbarg baholovchi savollar: «Nima uchun bu salbiy, bu ijobiy?», «Bu narsa bunisidan nima bilan farq qilardi?»

6-gulbarg amaliy savollar: «Buni qanday qo'llash mumkin?», «Bu hollarda nima qilish mumkin?» kabilar.

5-topshiriq. Axborot-izlanish tezaurusida ierarxik munosabat, jumladan, munosabatini shakllanishi. Namuna: Axborot-izlanish tezaurusida "Balkim" taksonining ierarxik munosabati:

Takson RAKETA

birpog'onali raketa; elektrli raketa, odamsiz raketa; birtida odamsiz raketa; oy orbitasidagi raketa; oy raketasi; planetalararo raketa; boshqariladigan raketa; tadqiqot olib boradigan raketa; kvant raketasi; aerostartda uchuvchi raketa; asbob-uskuna olib boradigan raketa; uchuvchisiz raketa; raketa-yuqori quyosh raketasi; termik raketa; ko'ppog'onali raketa; kosmik raketa.

Semantik tahlil: 1) yoqilg'i turi; 2) bosqichlar soni; 3) boshqarilish usuli; 4) start usuli; 5) yuk xarakteri; 6) boshqarilishi; 7) mo'ljallanganligi; 8) xarakteri.

1. Taksonni namunadagidek qismlarga ajrating.
2. Tahlilning tasniflanishi, qismlarga ajratilishi yuzasidan o'z taklifingizni keltiring.

6-topshiriq. "Butun-qism" semantikasi bo'yicha tahlil qiling.

Namuna: Takson RAKETA

2

Topshiriq. Mavzu yuzasidan prezentatsiya tayyorlang.

topshiriq. “Matnni tushunish muammolari”, “Axborot-izlanish muammolari”, “Matnni kengaytirish muammolari”, “Matnni gipertekst darajasiga yetkazish muammolari” mavzularining biriga referat tayyorlang.

Topshiriq. Amaliy tilshunoslik kafedrasining veb-saytini yaratish uchun ma'lumotlar bazasini yig'ing.

Topshiriq. Ispring dasturida mavzu yuzasidan 10 test yarating.

Adabiyotlar:

- Баранов А.Н. Введение в прикладную лингвистику: Учебное пособие. — М.: Эдиториал УРСС, 2001. — 360 с.
- Баранов А.Н. Категории искусственного интеллекта в лингвистической семантике. Фреймы и сценарии. - М., 1987.
- Городецкий Б.Ю. Компьютерная лингвистика: моделирование человеческого общения // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XXIV. Компьютерная лингвистика. - М., 1989. С. 5-31.

4. Войскунский А.Е. Моделирование мышления // Речевые проблемы и перспективы. - М., 1983. С. 16-60.

5. Олкер Х.Р. Волшебные сказки, трагедии и способы их моделирования // Язык и моделирование социального взаимодействия. - М., 1987. С. 408-440.

6. Поспелов Д.А. Ситуационное управление. Теория и практика. - М., 1986. С. 71-83; 99-106.

7. Субботин М.М. Гипертекст. Новая форма коммуникации // ВИНТИ. Сер. Информатика. Т. 18. - М., 1994.

16-MAVZU:

KORPUS LINGVISTIKASI

Reja:

1. Korpus lingvistikasining shakllanishi.
2. Korpus lingvistikasining taraqqiyoti.
3. Ikkinchi avlod korpuslari.
4. Korpus lingvistikasining atamallari va tasnifi.

Tayanch tushunchalar: empirik bosqich, Johnson, Oxford Dictionary, Webster Dictionary, chastotnyy korpus Thorndike's korpusi, Survey of English Usage, International Corpus of English.

Korpus – ma'lum maqsadda yig'ilgan matnlar majmuini tashkil etadigan birliklari yig'indisi, tabiiy tildagi elektron shaklda saqlanadigan yozma og'zaki, kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga dasturiy ta'minot bilan joylashtirilgan on-line yoki off-line tizimda ishlaydigan matnlar jamlamasi. Korpusi elektron kutubxonadan farqli o'laroq, tilni o'rganish uchun foydali va qiziqarli matnlarni to'plashni nazarda tutadi. Korpusni elektron kutubxonadan ajratib turuvchi birinchi omil undagi matnning xususiyatlariga qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitilganligi hisoblanadi va bu belgi korpusni alohida qismi – korpus birliklariga yozilgan izohni tashkil etadi.

Manbalarda ko'rsatilishicha, "Ishonarli lingvistik ma'lumotlar massivli matnlar majmuasidangina olinishi mumkin" degan qarash 60-yillarida R.G.Piatrovskiy tomonidan aytilgan. Aslida, 1940-yillarning sohasidagi maqsadli tadqiqotlar 40-yillarda (Blumfeld, Frays va Harnad) boshlandi. Lekin 50-60-yillarda Noam Chomskiy konsepsiyasi (xomskiy)

Chomskyan linguistics) ustunlik qila boshladi. Ushbu yo'nalish performance, Sosyurning fikricha, "nutq")ni emas, tilni competence, Sosyurning fikricha, "til") lozim, degan g'oyani ilgari ilmiy tilda nutqiy qo'llanish son-sanoqsiz, ularni o'rganish befoйда. Shu e'tibor, imkoniyatini ifodalaydigan qonuniyatlar esa sanoqli, demak, ularni o'rganish mumkin, maqsadga muvofiq, deb hisoblangan. Natijada, empirik lingvistikadan rasionalizmga o'tish davri keldi. Shunday bo'lsa-da, ayrim olimlar empirik lingvistika hukmronligi davrida tadqiqning korpus metodidan foydalanishni davom ettirishdi. Keyingi davrda tadqiqning korpus metodidan foydalanishga qiziqishning kuchayishiga matnlarning katta massivini qayta tashkil etishini beruvchi kompyuter texnologiyasining kirib kelishi sabab bo'ldi. Bundan tashqari, aksariyat olimlar tilni tadqiq etishda introspeksiya usulini (o'z fikrini kuzatish), tabiiy faktga tayanish usuli doim ham aynan bir xil bo'lmaydi, degan fikrni yoqlashadi.

Mashhur korpus lingvistikasi mutaxassisi Toni Mak-Enneri, Endryu Mak-Enneri ham empirik fakt, introspeksiyadan, ham tabiiy, sun'iy faktdan foydalanish lozimligini uqtiradi. Korpus lingvistikasi korpus shaklida bo'lmagan ma'lumotning muhimligi, ahamiyatini rad etmaydi. Bundan tashqari, korpusda barcha lingvistik hukmlarni ham chiqarib bo'lmaydi, ya'ni korpusda faqat korpus ma'lumoti yetarli emas. Korpusni tuzish, o'rganish korpus lingvistikasi sohasi rivojlanishidan ancha oldin – XVIII asrlarda boshlangan.

Shunday hamonchi, Bibliyaga oid tadqiqotlar (masalan, Cruden), lug'atlar (masalan, Oxford English Dictionary, Webster Dictionary), tillarni o'qitish uchun korpus Thorndike'a, 1921), Kvirk korpusi (Survey of English Language) shular jumlasidandir. Kvirk korpusida 1000000 so'z qo'llash holati tuzilgan, dastavval har biri 17 satrli matndan iborat 4x6 dyum hajmli 1000000 matndan iborat bo'lgan. Ushbu korpus eng so'nggi noelektron korpus, uni 1921-25 yil davom etgan hamda 1989 yilda nihoyasiga yetgan, chunki bu korpusda kompyuter texnologiyasi ilgarilab ketgan edi. Zudlik bilan korpusni elektron shaklga keltirish zarurati tug'ildi. Mazkur korpus hozir London Universitetida saqlanadi, o'sha yerda undan foydalanish mumkin.

Inglizcha sorpus linguistics atamasi ilk marta 1980 yilgi qo'llanma ushbu uzoq tarix hisoblanmasa-da, shu davr ichida korpus lingvistikasi tilshunoslikning peshqadam sohasi bo'lib ulgurdi.

Rossiyada ushbu atama 1996 yilda korpus lingvistikasi nomi bilan mashhur xalqaro ingliz tili korpusi (International Corpus of English) Sidni Grinbaum ma'ruzasidan keyin kirib keldi. Ma'ruza ingliz tili Integrum korpusida Sidni Grinbaumning korpus lingvistikasi bo'yida ma'ruzasiga tinglovchilar yog'ilib kelganligi haqida qayd qilingan. Ushbu korpus lingvistikasi tarixida ushbu tushunchaning ilk qo'llanishi 1970 yildan keyinchalik atamaga aylandi. Albatta, korpus lingvistikasi yangi atama bo'lgan emas. Tadqiqotning korpus metodi, korpus tashkil etilishi va foydalanishning ko'p yillik tajribasi ham bunga asos bo'ldi. Foydalanish asrigacha bo'lgan korpus noelektron shaklda bo'lgandigi, uning korpusdan topishning avtomalashmaganligi bilan xarakterlanishi korpus lingvistikasida bu davr raqamli texnologiya (ing. pre-electronic) bo'lgan davr sanaladi. Mashhur tilshunos Panini tomonidan tuzilgan hind grammatikasi shakli noelektron, mohiyatan korpus bo'lgan bo'yicha asoslangan edi. Miloddan oldingi 5-4 asrlarda bu korpus tashkil etilgan. U og'izdan og'izga ko'chib kelgan. Aslida, o'sha paytdayog' u hind va sanskrit tilidagi vedalar matnidan iborat bo'lgan. Kompyuter bo'yicha bo'lgan ko'plab korpuslar ham turli diniy muqaddas kitoblardan iborat. Ular orasida eng mashhuri Injil matnlari, ular atroflicha tadqiqot bilan ajralib turadi. Injilga asoslangan she'rlar ko'rsatkichiga ko'ra, ular ro'yxati simfoniya yoki konkordans degan nom bilan ma'lum bo'ladi. Bunday korpus ilk marotaba XIII asrda paydo bo'lib, "Konkordans konkordansiya Svyatyyennogo Pisaniya" deb atala boshlandi.

Kompyuter asrigacha bo'lgan korpus lingvistikasining yashash XVIII-XIX asr, bu leksikografiya taraqqiyoti, lug'atlar yaratilishi bilan bog'liq. Bugungi kunda mashhur sanalgan lug'atlarning ko'pchiligini mualliflar tomonidan illyustrativ korpus sanalgan minglab kartotekaga asoslanib tuzilgan korpuslarning ko'pchiligi hozirgacha "Kartoteka" yoki "Lug'at otel" ("Slovarnyy otel") deb yozilgan eshiklar ortida saqlanadi. Bunday korpus bilan ishlash natijasida No Vebsterning Webster's dictionary (Amerikansko-angliyskogo yazyka), V.I.Dalning "Buyuk rus tilining

...языка”) kabi lug’atlari dunyo
...VI Dal o’zining ushbu lug’ati uchun umrining oxirigacha
...to’limidan bir necha kun oldin ham xizmatkoridan
...o’z lug’atiga qo’shib qo’ydi. Bu davrga kelib
...“qanday gapirish kerakligini emas, haqiqatda
...o’rganish lozimligi to’g’risidagi fikrlarni
...Ushbu fikricha, til egasi qanday gapirishini o’rganish
...XIX-XX asrlarda xorijda shakllangan bu prinsipni korpus
...metodologiyasiga aylantirdi.

...lingvistikasining predmeti til me’yori emas, odatiy, rasmga
...hisoblanadi. Shved olimi Otto Espersen birinchilardan bo’lib
...[normativ] grammatikadan deskriptiv (tafsifiy) grammatikaga
...nazariyani e’lon qildi. U real til materialini o’rganishda
...misollardan voz kechdi. Asosiy ishi – “Modern English
...Historical Principles” (1909-1949) uchun maxsus misollar
...Bu manbaning ro’yxati 40 sahifadan iborat, zamonaviy
...ichonchli korpus namunasidir.

...paydo bo’lishi yozma (noelektron) korpuslarning yo’qolishiga
...Hozir ham tilshunoslikning bir qancha sohasi uchun karton
...yozilgan material bilan ishlash tadqiqot ishining
...hisoblanadi. Ayrim til, matnlar tadqiqi uchun misol, faktni
...miqdorida yoyma shaklda o’rganish muhimligi kuzatiladi.
...ingliz tili. Bugungi kunda hych kim
...oddiy matnlarni yig’ish haqida o’ylab o’tirmaydi, chunki bu
...varianti uchun juda katta hajmli, chuqur grammatik tahlilga ega
...korpuslar mavjud. “Annotasiyalangan korpus” davrigacha
...maqsadli to’plangan, sistemalashtirilgan matnlar
...iborat edi.

...ilk ingliz tili (Brown corpus, 1960 y.), rus tili (Uppsalskiy korpus
..., 1980 y.) korpuslari misol bo’la oladi. Shu tariqa ilk elektron
...o’z ajdodidan faqat ma’lumotni saqlash shakli hamda sezilarli
...kengayishi bilan farq qildi.

...korpus u yoki bu til resursini qay darajada ifodalashiga, sifati,
...matnlarning oddiy elektron kolleksiyasi yoki chuqur

annotatsiyalangan korpus kabi turga bo'linadi. Zamonaviy tilshunoslik hollarda matnni elektron shaklda ishlatish ehtiyojini sezadi, bu esa avvalgi davrda "korpusning birinchi avlodi"ni tashkil etadi. Shuning uchun korpuslar "o'lmaydi", iste'moldan chiqib ketmaydi, balki to'ldiriladi, chuqurlashib, annotatsiyaga (turli lingvistik tahlil) ega bo'lib boraveradi.

Kompyuter korpuslari yaratishning asosiy davrlari quyidagicha tasniflanadi:

I. 1960 yillar: Braun korpusi (AQSh) – 1 million so'z.

II. 1970 yillar: LOB korpusi (Buyuk Britaniya, Norvegiya) – 1 million so'z.

III. 1980 yillar:

1. Rus tilining mashina fondi (Mashinnyy Fond russkogo yazyka)

2. Rus tilining Upsalla korpusi (Uppsalskiy korpus russkogo yazyka)

Shvesiya) – 1 million so'z.

IV. 1990 yillar:

1. British National Corpus (Britaniya milliy korpusi) – 100 million so'z.

2. Milliy korpuslar (venger, italyan, xorvat, chex, yapon) 100 million so'z.

3. Ingliz tili banki (The Bank of English, Birmingham (Collins) – 600 million so'z.

V. 2000 yillar:

1. American National Corpus (Amerika milliy korpusi) – 100 million so'z.

2. Zamonaviy Amerikanacha ingliz tili korpusi (Corpus of Contemporary American English) – 400 million so'z.

3. Natsionalnyy korpus russkogo yazyka (Rus tili milliy korpusi) – 1 million so'z.

4. Gigaword corpora: ingliz, arab, xitoy tillari – 2 milliard so'z.

5. Oxford English corpus (Oksford ingliz korpusi) – 2 milliard so'z.

Xullas, korpusning paydo bo'lishi, rivojlanishi ikki bosqichdan iborat: kompyuter asrigacha bo'lgan, kompyuter asri korpuslari davri. Hozirgi davr korpusi – kartotekalar to'plamidan iborat, garchi bugungi kunda ko'rinishida bo'lmasa-da, lingvistik tadqiqot uchun material bo'lsa.

Kompyuter asrida esa ular elektron shaklga kirgan va yaratilgan.

Korpus lingvistikasida korpus annotatsiyasi, materiali, menejeri, interfeysi kabi foydalanuvchisi kabi atamalar qo'llaniladi.

Korpus annotatsiyasi – turli lingvistik topshiriq / amalni bajarish uchun lingvistik va ekstralingvistik qo'shimcha ma'lumot bilan ishlov berish.

Korpus materiali – korpus tarkibidagi matnlar yig'indisi.

Korpus menejeri – lingvistik korpusning ajralmas, eng asosiy qismi, qidiruv tizimi, u matn va lisoniy birliklarini boshqaruvchi sistema.

Korpus interfeysi – foydalanuvchini korpusning butun mazmuni bilan olovchi mundarija vazifasini bajaruvchi muhim tarkibiy qism.

Korpus razmetkasi – korpus matnlariga beriladigan lingvistik va ekstralingvistik izoh.

Korpus foydalanuvchisi – korpusdan foydalanadigan mutaxassislar; olovchi, filolog, jurnalist, o'qituvchi, talaba, maktab o'quvchisi.

Korpus bo'yicha qidiruv foydalanuvchiga quyidagi natijani berdi:

- 1) belgilangan so'zning turli kontekstdagi barcha shakldagi ko'rinishi;
- 2) tilning lug'at tarkibidagi o'rni va variantlari;
- 3) belgilangan so'z bilan birikish imkoniyatiga ega so'zlar ro'yxati;
- 4) u yoki bu yozuvchining ayni so'zdan foydalanish chastotasi yoki statistikasi;
- 5) so'zning o'z va ko'chma ma'nosi;
- 6) leksik qo'llanishining yashirin modeli (imkoniyati);
- 7) til taraqqiyotining turli davrda qo'llanish holati.

Hugungi kunda yaratilgan korpuslar quyidagicha tasniflanadi:

Tasnif belgisi	Korpus turlari
Nutq turiga ko'ra	Og'zaki, yozma, aralash
Matn tiliga ko'ra	Ruscha, inglizcha va b.
Matn tarjimasining parallelligiga ko'ra	Bir tilli, ikki tilli, ko'p tilli
Matnning ixtisoslashuviga ko'ra	Badiiy, dialektal, suhbat, terminologik, aralash
Janriga ko'ra	Adabiy, folklor, dramatik, publitistik
Kirish usuliga ko'ra	Erkin, pullik, yopiq
Maqsadiga ko'ra	Tadqiqiy, tavsifiy

Izohlanishiga ko'ra	Qo'shimcha izohli, izohsiz
O'zgaruvchanligiga ko'ra	O'zgaruvchan, turg'un
Strukturasiga ko'ra	Markaziy, arxiv, mahalliy
Izoh xususiyatiga ko'ra	Morfologik, sintaktik, semantik
Matn hajmiga ko'ra	To'liq matnli, lavha matnli
Xronologik jihatiga ko'ra	Sinxron, diaxron
Umumiylikiga ko'ra	Umumiy, yakka muallifli

Korpusning keng ko'lamli bo'lishi ma'lumotning o'ziga xos kafolatlaydi, til hodisalarining barcha qirrasini to'liq namoyish ta'minlaydi. Turli tipdagi ma'lumot til korpusida o'zining tabiiy kont shaklida joylashadi, bu esa uni har tomonlama va ob'yektiv o'rganish asos bo'ladi. Bir marta tuzilgan va tayyorlangan axborotlar massivi bir tadqiqotchi tomonidan ko'p marta, turli maqsadlarda ishlatilishi Korpus tilni tadqiq etish (tilde so'zning o'zgarishi, istorizm, neologizm kengayishi va torayishi; yangi frazeologizmlarning paydo bo'lishini kuzatish) o'rganish, lug'at tuzishda eng zamonaviy, keng imkoniyatli dasturlashtirish tizim. Korpus quyidagi maqsadlarda qo'llaniladi:

- 1) leksikografiya sohasida – lug'atlarni tuzish, so'zlarni ma'no izohlashda;
- 2) grammatika sohasida – morfemalarning chastotasini aniqlash, so'z yasashi, gap va boshqalarni turini aniqlashda;
- 3) tilshunoslik sohasida – matnning turini, abzaslar va ular o'rtasidagi munosabatni yoritishda;
- 4) avtomatik tarjimada – matndan so'zlarni izlash, tarjima ekvivalent parallel matnlarni topishda;
- 5) o'quv jarayonida – sitatalar, asardan parchalar, mashq va topshiriqlar uchun misollar, o'quv qo'llanma va darsliklar uchun ma'lumotlar to'plash uchun qo'llaniladi.



Korpusiz bugungi kunda nazariy va amaliy filologiya tadqiqotlarni tasavvur etish qiyin.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Korpus lingvistikasiga tegishli bo'lgan atamalar raqamli kataklarga yozing.

1) Brown; 2) LOB; 3) Mantiq; 4) Vena qon tomiri; 5) To'qima va
 6) Korpus mareriali; 7) Korpus menejeri.

2 topshiriq. Quyidagi berilgan ta'riflarning to'g'rilariga "1"
 rilariga esa "0" belgisi bilan jadvalga yozing.

No	Ta'riflar	"1" yoki "0"
1.	Korpus lingvistikasini o'rganish XVIII asrga borib taqaladi.	
2.	Korpus lingvistikasi asosan mantiqqa asoslangan holda analiz olib boradi.	
3.	Inglizcha korpus 1970-yilda qo'llanilgan.	
4.	Rus tilining milliy korpusi 149 mln so'zni o'z ichiga oladi.	
5.	Xelsinki annotatsiyalangan korpusi (Xelsinskiy annotirovanny korpus (18) (XANKO)) 2000 yillarda ishlab chiqilgan.	
6.	XANKO 1918 yillarda ishlab chiqilgan.	
7.	Xelsinki universitetida "Rus tilining funksional sintaksisi" (rahbar prof. A. Mustayoki) loyihasining bir qismi sifatida ishni boshlagan, u doimiy ravishda to'ldirib boriladi.	
8.	Ilk ingliz tili Brown korpusi 1960 yilda ishlab chiqilgan.	
9.	Rus tilining Uppsala korpusi (Uppsalskiy korpus russkix tekstov, 1980 y.) 1980-yillarda ishlab chiqilgan.	
10.	Ilk ingliz tili Brown korpusi 1980 yilda ishlab chiqilgan.	

3 topshiriq. Quyidagilarning mosligini toping.

1.	Korpus materiali	A	Korpusning eng asosiy qismi bo'lib, uning qidiruv tizimi, matn va lisoniy birliklarni boshqaruvchi sistema.
2.	Korpus menejeri	B	1961-yilda yaratilgan, har biri 2000 so'zli 500 ta matn fragmentini o'z ichiga oladi.
3.	Brown korpusi	D	Korpus tarkibidagi matnlar yig'indisi.

4.	Korpus annotatsiyasi –	C	1980-yillarda ishlab chiqilgan.
5.	Rus tilining Uppsala korpusi	D	foydalanuvchini korpusning mazmuni bilan tanishtiruvchi muhim vazifasini bajaruvchi muhim tarkibiy qism.
6.	Korpus interfeysi –	E	turli lingvistik topshiriq / amalni bajarish uchun matnga lingvistik va ekstralingvistik qo'shimcha ma'lumot bilan ishlov berish.
7.	Korpus razmetkasi –	F	korpusdan foydalanadigan mutaxassislar; tadqiqotchi, filolog, jurnalist, o'qituvchi, talaba, maktab o'quvchisi.
8.	Korpus foydalanuvchisi –	H	korpus matnlariga beriladigan lingvistik va ekstralingvistik izoh.

Javob:

4-topshiriq. To'g'ri javoblarni aniqlang. Matnlar korpusini yaratish qanday aspektlarga asoslaniladi?

1) og'zaki, yozma, aralash; 2) ruscha, inglizcha va b.; 3) bir tili, ikki ko'p tili; 4) badiiy, dialektal, suhbat, terminologik, aralash; 5) adabiy, dramatik, publitistik; 6) erkin, pullik, yopiq; 7) tadqiqiy, tavsifiy; 8) qo'shimcha izohli, izohsiz; 9) o'zgaruvchan, turg'un; 10) markaziy, arxiv, mahalliy; 11) morfologik, sintaktik, semantik; 12) to'liq matnli, lavha matnli; 13) sinxron, diaxron; 14) umumiy, yakka muallifli.

a) Matn tiliga ko'ra	b) Matn tarjimasining parallelligiga ko'ra	c) Uslubga ko'ra	d) Izohlanishiga ko'ra

5-topshiriq. Quyida berilgan korpus turlarini xususiyatlari bilan juftlashtir.

1. Nutq turiga ko'ra	a. Tadqiqiy, tavsifiy
2. Xronologik jihatiga ko'ra	b. Erkin, pullik, yopiq
3. Izoh xususiyatiga ko'ra	c. Markaziy, mahalliy, arxiv
4. Strukturasiga ko'ra	d. Morfologik, sintaktik, semantik
5. Maqsadiga ko'ra	e. Og'zaki, yozma aralash
6. Kirish usuliga ko'ra	f. Bir tili, ikki tili, ko'p tili
7. Parallelligiga ko'ra	g. Sinxron, diaxron
8. Matn hajmiga ko'ra	h. To'liq matnli, lavha matnli

Javob:

1	2	3	4	5	6	7	8

Topshiriq. Eng ma'qulini tanlang.

1. Matnlar korpusi bu...

- a) Lug'at tuzish yoki mavjud lug'at boyligini oshirib borish.
- b) Elektron holda saqlanadigan ma'lum til birliklari.
- c) Grammatik ma'lumotlar bilan ta'minlangan xotira.
- d) Lug'at tuzish dasturi.

2. Kompyuterda yaratilgan birinchi matnlar korpusi nechanchi yilda tuzilgan?

- a) 1959-yilda b) 1960-yilda c) 1961-yilda d) 1962-yilda

3. Bir million so'zni o'z ichiga olgan rus tilining chastotali lug'ati qanday yilda yaratildi?

- a) 1970 b) 1971 c) 1972 d) 1973

4. Rus tilidagi matnlar korpusi qachon, qayerda yaratilgan?

- a) 1970-yillar, Belgiyada
- b) 1970-yillar, Moskvada
- c) 1980-yillar, AQSHda
- d) 1980-yillar, Shvetsiyada

5. Korpus so'zi qaysi tildan olingan va qanday ma'noni anglatadi?

- a) lotincha "ichki" degan ma'noni anglatadi.
- b) ispancha "tashqi" degan ma'noni anglatadi.
- c) fransuzcha "tana" degan ma'noni anglatadi.
- d) lotincha "tana" degan ma'noni anglatadi.

6. Rus tilining milliy korpusi hajmi hozirgi kunda qancha so'zdan iborat?

- a) 148 million b) 149 million c) 150 million d) 151 million

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Qo'shimcha ma'lumotni o'qing. Zarur joylarini daftaringizga yozib oling.

Jahon korpus lingvistikasi taraqqiyoti, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda rus korpus lingvistikasi tajribasini foydadan xoli emas. Chunki rus tili korpuslari miqdor, ko'lam jihatidan jahon korpuslari orasida salmoqli o'rin egallaydi. Jahonda korpus lingvistikasi alohida soha sifatida 1990 yillarda shakllangan.

Rossiyada 1980 yillarda korpus yaratish borasida boshlangan bo'lsa, 1990 yillarga kelib birmuncha to'xtab qoldi. 2000 yillarda rus korpusi shakllanishi, tarixiy taraqqiyot yo'li haqida Sankt-Peterburg davlat universiteti matematik lingvistika kafedrasidan tomonidan tashkil etilgan "Korpus lingvistika" konferensiyasi materiallari bilan tanishish bu ishning davom etishiga bo'lib xizmat qildi.

Rus tilidagi ilk korpusga 1980 yillarda Shvestsiyaning Uppsala universitetida asos solindi. Rus tilidagi ilk korpuslargacha 1960-1970 yillarda L.N.Zasorina tomonidan "Rus tilining chastotali lug'ati" ("Chastotnyy slovar russkogo yazyka") yaratilgan edi. Lug'at 1 million so'z qo'llanish holatiga teng proporsiyaga asoslangan 4 ta janr leksikasini (ijtimoiy-siyosiy matn, badiiy adabiyot, turli sohaning ilmiy hamda ilmiy-ommabop matnlari, dramaturgiya) o'zida jamlagan soddam matnli fayllarga asoslanib tuzilgan. Bu tuzilish (bugungi kunda atamasi bilan aytganda, korpus) tuzish jarayonida zamonaviy korpus lingvistikasining barcha muammolari, korpusga qo'yilgan talablari (keng ko'lam, grammatik tahlil, me'yorlashtirish hamda lemmatizatsiya) javob beradi.

Rus tilining Uppsalla korpusi (Upsalskiy korpus russkogo yazika) 1 million so'z qo'llanish holatini qamrab olgan turli janrdagi 600 ta matn iborat. Tuzuvchilarning fikricha, korpus zamonaviy (hozirgi) rus tilining holatini aks ettirib turishi lozim. Ushbu korpusni tuzishning asosiy maqsadi avvalo, adabiy tilni ko'rsatish sifatida belgilangan, shuning uchun korpusda og'zaki nutq namunalari kiritilmagan. Korpusga 1985-1989 yilgi matnlar (matndan parcha emas, balki to'liq holda), 1960-1988 yilgi badiiy adabiyot namunalari kiritilgan. Korpus annotatsiyasida ko'rsatilishicha, matnlar matnlarni tanlashda matn mavzui, badiiy adabiyot namunasini tanlashda muallifning mashhurligiga alohida e'tibor qaratilgan. Matnlar lotin alifbosi bilan kiritilgan bo'lib, bugungi kunda ushbu korpus Tyubingen universitetida 1990-2000 yillarda maxsus SFB 441 ilmiy-tadqiqot sektori doirasida tuzilgan. Ushbu matnlarning Tyubingen korpusi ("Tyubingenskiye korpusy russkix tekstv") tarkibida joylashgan. Korpus morfologik annotatsiyalangan, qidiruv kodlari so'z shakli hamda morfologik belgilar asosida amalga oshirilishi, qidiruv natijasi esa KOI8 yoki Windows-1251 kodi asosida kirilcha hamda lotincha

hurflar bilan uning transliterasiyasi asosida bo'lishi mumkin.
Qidiruv katta korpuslarni boshqarishga mo'ljallangan.

2-topshiriq. Misollarni qaysi korpus turiga mansubligini

1) *kezet I to je, chto kezmet; ishti kezetinde kыл delay vovremya, v svo y kezetis keldi kolusa folk. nastal tvoy cheryod, tebe vypal sluchay buyyya im).*

kezet - II ponud. ot keze - 1. napravit, zastavit vzyat napravleniye; 2. (nupr. palsem).

1) *Aborigen (yunon.)* – joyning tub aholisi, qadimdan shu mamlakatda yashovchilar.

Abbat (lotincha-arameycha) – ota – Fransiyada katolik mazxabidagi diniy, erlar katolik monastrixning nazoratchisi; yepiskopga yoki to'g'ridan-to'g'ri papuga buysungan.

1) *Dunyodan ketmoq kim* qazo qilmok, o'lmoq. Varianti: olamdan ketmoq, ketmoq. Sinonimi: dunyodan o'tmoq 2 *kim*; ko'z(i)ni yummoq *kim* (*o'zing*); nafas(i) tindi *kimning*; oyog'(i)ni uzatmoq *kim* (*o'zining*); engak ketmoq *kim*. A n t o n i m i: dunyoga kelmoq *kim*; ba'zan nima (jonli). *Har qanday kulfat bilan dunyoga kelgan bo'lsa, shunday kulfat bilan d u n y o d a n ketish g a mahkum edi.* P.Tursun. O'kituvchi. *Raxmatlik Surmaxon o l a m d a n ketayotib seni menga topshirganida vasiyati yodimda.* I. Raxim. *Afsus, ming afsuski, dunyoga juda erta kelgan ekanman.. J u d a - j u d a o't ketaman.* A.Qaxhor. Qushchinor chiroqlari.

3-topshiriq. *Agnat, adaptasiya, aknomadasiya, adabtasiya, tabu, totem, animizm, travestizm, tradisiya* kabi so'zlarga korpus annotatsiyasi yozing.

4-topshiriq. *Agnat, adaptasiya, aknomadasiya, adabtasiya, tabu, totem, animizm, travestizm, tradisiya* kabi so'zlarga korpus razmetkasini tuzing.

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Mavzu yuzasidan prezentatsiya tayyorlang.

2-topshiriq. “Jahon lingvistikasida korpuslarning oʻrni” mavzularini yozing.

3-topshiriq. “Braun korpusi haqida”, “Kompyuter lingvistikasi va lingvistikasi”, “Korpuslar va elektron lugʻatlar”, “Oʻzbekiston lingvistikasining shakllanishi” mavzularining biriga referat tayyorlang.

4-topshiriq. Ispring dasturida mavzu yuzasidan 10 test yarating.

Адабиётлар:

1. Баранов А.Н. Автоматизация лингвистических исследований // корпус текстов как лингвистическая проблема // Русистика сегодня. 1998. № 1-2. С. 179-191.
2. Баранов А.Н., Добровольский Д.О. Немецкая корпусная лингвистика // Вестник МГУ. Сер. Иностранные языки. 1998. № 1.
3. Исаев И.А. Опыт автоматизации лексикографических исследований. Система DIALEX // Слово Достоевского. - М., 1996.
4. Михайлов М.Н. Компьютерное обеспечение корпуса текстов (для пользователя) // Русистика сегодня. 1998. № 1-2. С. 192-201.
5. Мошкович Ж.Г. Автоматическая лексическая система Унилекс. - М., 1989.
6. Фрэнсис У.Н. Проблемы формирования и машинного представления большого корпуса текстов // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 10. Проблемы и методы лексикографии. - М., 1983. С. 334-353.
7. Леннгрен Л., Ферм Л. Уппсальский машинный фонд русского языка // Труды машинного фонда русского языка. Т. 1. - М., 1991.
8. Захаров В.П. Корпусная лингвистика в России // <http://corpora.phil.spbu.ru>.
9. История корпусной лингвистики. Электрон ресурс. <http://www.myfilology.ru/177/istoriya-korpusnoj-lingvistiki>.
10. Кутузов А.Б. Курс “Корпусная лингвистика”. Лицензия Commons Attribution Share-Alike 3.0 Unported. (Электрон ресурс) lab314.brsu.by/kmp-lite/kmp-video/CL/CorporeLingva.pdf.
11. Национального корпус русского языка 2004 г. <http://ruscorpora.ru>.
12. <http://corpora.phil.spbu.ru>.
13. www.slaviska.uu.se/korpus.html.
14. www.sfb441.uni-tuebingen.de/b1/rus/korpora.html.
15. www.philol.msu.ru/~lex/corpus.
16. <http://www.philol.msu.ru/~lex/corpus>.
17. <http://ruscorpora.ru>.
18. Курс «Корпусная лингвистика» (А.Б. Кутузов) Лицензия Commons Attribution Share-Alike 3.0 Unported.

18-MAVZU: SUN'IY INTELLEKT

Reja:

Sun'iy intellekt tushunchasi.

Sun'iy intellekt tarixi.

Sun'iy intellekt tizimlarni yaratish muammosiga uch xil yondashuv.

Sun'iy intellekt tizimi doirasida tatbiq etilgan loyihalar.

Ekspert tizimlari konsepsiyasi.

Parvarch tushunchalar: sun'iy intellekt, ekspert tizimlari konsepsiyasi, Deep Blue, masalani yechuvchi tizim va intellektual interfeys, Deep Blue tizimi, 20Q, Via Voice.

Kompyuter lingvistikasi "sun'iy intellekt" tadqiqot yo'nalishining bir qismini tashkil etadi. "Sun'iy intellekt va intellektual tizim"ning maxsus atamalarini 60-yillardan boshlab shakllana boshladi. Soha shakllanishining bosqichi turli maktablar va mutaxassislar guruhining mavjudligi, bu atamalar ko'pligi bilan ajralib turadi. 70-yillar o'rtasiga kelib sun'iy intellekt sohasida atamalar majmui qat'iylasha boshladi. Aksariyat mutaxassislar tomonidan tan olingan atamalar yuzaga keldi. Bu atamalarning aksariyati ingliz tilida shakllangan. Kompyuter lingvistikasiga oid asosiy atamalar majmui 80-yillarda birinchi yarmida to'liq shakllandi. Kompyuter lingvistikasining atamalar majmui alohida bo'limlarda birinchi bosqich xususiyatlarini saqlab qoldirdi (sinonimlarning ko'pligi, masalan, semantik munosabatlar bo'limida).

Sun'iy intellekt - bu oxirgi o'n yillikda turli fan sohalariga, shu jumladan, kompyuter lingvistikasida faol bo'lgan sohalardan biridir. Sun'iy intellekt ham fanlararo soha hisoblanadi, ammo bu parametrlarni nazardan qaraganda sun'iy intellekt va kompyuter lingvistikasi bir-biriga bog'liq fanlararo sohadir, chunki uning usullaridan turli fanlarda foydalaniladi, kompyuter lingvistikasi esa lingvistika (nutqni va matnlarni tushirib berish bilan bog'liq bo'limlarni), psixologiya, mantiq kabi turli fanlarni, shu jumladan, intellektning ayrim bo'limlarinigina qamrab oladi.

Sun'iy intellekt - intellektual mashinalar, intellektual kompyuter dasturlar va bu haqidagi fan. Intellektual sistema strukturasi 3

asosiy blokni o'z ichiga oladi: *bilimlar bazasi, masalani yechimchi blok, intellektual interfeys*. Sun'iy intellekt insondagi intellekt tushunchasining imitatsiyasi emas, balki inson intellektual faoliyatining ko'plab qirralarini o'z ichiga olgan, modellashtirilgan tizimlar texnologiyasi demakdir. Birinchi marta «**artificial intelligence**» terminini birinchi marta Jon Makkarer 1956-yilda Darmut universitetidagi konferensiyada qollanadi.

Sun'iy intellekt tizimi doirasidagi tabiiy tilli interfeys, eksport tizimi, neyron tarmoqlar, lingvoanalizatorlar, gapiruvchi avtomatlar va boshqalar kompyuter modellashtirish natijasi hisoblanadi.

XX asrning 70-yillariga qadar sun'iy intellekt bo'yicha tizimlar kibernetika hamda informatika doirasida olib borilgan. XX asrning 70-yillaridan boshlab sun'iy intellekt juda ko'plab fanlarning o'rganish obyekti aylandi. Jumladan, neyrolingvistika, psixologiya, informatika, neyrolingvistik epistemologiya (falsafadagi bilish haqidagi ta'limot), kognitologiya, lingvistik, kompyuter lingvistikasi kabi fanlar ham o'z doirasida sun'iy intellekt muammosi bilan shug'ullanadilar.

Sun'iy intellekt tizimlarni yaratish muammosiga uch xil yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin:

- quyi (inglizcha *Top-Down* 41), semiotik yondashuv - eksport tizimlarini bilimlar bazasi, mantiqiy hukm chiqarish tizimi, yuqori darajadagi jarayonlar (tafakkur, nutq, emotsiya, ijod kabi)ning imitatsiyasi va natijada bo'lgan tizimlarni yaratish;

- yuqori (inglizcha *Bottom-Up* 42), biologik yondashuv - neyron tizimlarini o'rganish, biologik unsurlarga asoslangan holda intellektual tizimlarni modellashtirish va natijada neyrokomp'yuter yoki biokomp'yuterlarni yaratish;

- semiotik va biologik yondashuvning sintezi bo'lgan umumlashtirilgan gibrid tizimli yondashuv - sun'iy intellektning yakuniy maqsadi bo'lishi hisoblanadi.

Mazkur yondashuvlardan tashqari, yana simvolli, mantiqiy, qonun yo'naltirilgan yondashuvlar ham mavjud. Simvolli yondashuv, asosan, sun'iy mantiq qoidalarini tizimga tatbiq etish bilan bog'liq bo'lib, bu ko'pincha tizim qoidalarini ishlab chiqishda, hisoblashda (hukmning chin yoki yolg'unligini baholashda) samara beradi. Mantiqiy yondashuv predikatsiya tilidan foydalanish asosida sun'iy intellekt tizimini bilimlar bazasining mantiqiy modellari bilan ta'minlash uchun xizmat qiladi. 1980-yilda Prolog nomli mantiqiy

rejalashtirish tizimi va tili yaratildi. Prolog tilida yozilgan bilimlar bazasi bo'lgan asarini hamda mantiqiy xulosa chiqarish qoidalarini belgilaydi. Unga yo'naltirilgan yondashuv (yoki intellektual, ratsional agentlardan iborat bo'lgan yondashuv) 1990-yillarda rivojlandi. Unga ko'ra, intellektual bo'lgan qo'yilgan masalani hisoblash qismi (rejalashtirish qismi), xolos. U intellektual masalani to'laqonli yechish uchun atrofdagi tizimlar bilan aloqada kirisha oladigan qo'shimcha intellektual (ratsional) agentga ehtiyoj

Umuman olganda, robototexnika va sun'iy intellekt bir-biri bilan aloqador tizimlar bo'lib, kechikda ushbu ikki yo'nalishning integratsiyasi natijasida intellektual robotlar yaratilishi nazarda tutilmoqda, bu esa sun'iy intellektning yangi yo'nalishi hisoblanishi mumkin. PLEO, AIBO, QRIO kabi intellektual robotlar intellektual robototexnikaga misol bo'la oladi.

Sun'iy intellekt tizimi insonning ijodiy tafakkurini modellashtirishni ham o'z ichiga oladi. Shu bilan bog'liq ravishda mashina **ijodi** tushunchasi yuzaga keldi. Ushbu tizimda inson at asarlarini avtomatik tarzda yaratish jarayoni tushuniladi. Hozirgi kunda ijodni to'la modellashtirishga erishilgani yo'q, lekin bu sohada ko'p yutuqlar qo'lga kiritilgan. Jumaladan, kompyuter yordamida musiqalar yaratilishi, treker-dasturlar, sintezatorlar, sekvensorlar yordamida bir turdagi musiqalar va tovushlar generatsiyasi oqibatida elektron musiqalarning yaratilishi, matnning avtomatik generatsiyasi yordamida she'rlar, ertaklar - hikoyalar yaratilishi, rasmlar generatsiyasi va kompyuter grafikasi yordamida kino va o'yinlarning yaratilayotganligi (ayniqsa, strategiya va harbiy o'yinlarga asoslangan kompyuter o'yinlari) mashina ijodiga misol bo'la

Sun'iy intellekt tizimi doirasida tatbiq etilgan loyihalar (eksperimentlar) orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Deep Blue tizimi - IBM kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan superkompyuter. Deep Blue 1997-yil 11-mayda shaxmat bo'yicha jahon chempioni Garri Kasparov ustidan g'alaba qozondi. «Deep Blue» nomi «Deep Thought» («Chuqur mulohaza, tafakkur» ma'nosini anglatiradi) loyihasiga aloqadordir.

MYCIN tizimi - bir qator kasalliklarga shifokor singari to'g'ri tashxis qo'yishni ta'minlaydi.

20Q - «20 savol» klassik o'yini asosida yaratilgan loyiha bo'lib, u sun'iy intellekt bo'yicha o'tkazilgan dastlabki tajribalardan biridir. Bu o'yin amerikalik Robin Byorgenerdir. Bunda foydalanuvchidan biror obyektni topish so'raladi, so'ng foydalanuvchiga 20 ta savol beriladi, berilgan javoblardan kelib chiqqan holda o'sha narsa topiladi. Ayniqsa, bu tizim Internet paydo bo'lgandan beri juda mashhur bo'ldi (<http://www.20q.net> sayti mavjud).

- **Via Voice** - nutqni tovush orqali tanish tizimi.

- **Robo.Cup** - har yili soddalashtirilgan futbol bo'yicha robotlar tomonidan Sun'iy intellekt tizimini baholash bo'yicha 2 xil nuqtayi nazar mavjud.

1) sun'iy intellektni inson tafakkuridan ko'ra kuchliroq, deb baholash. Ushbu qarash tarafdorlari sun'iy intellekt inson intellektiga qaraganda taqsimot operatsiyalarni qisqa muddatlarda bajarishi mumkin, deb hisoblaydilar. 2) sun'iy intellekt inson tafakkuridan, intellektidan kuchsiz. Bu yo'nalishdagi olimlarning fikricha, sun'iy intellektning imkoniyatlari cheklangan bo'ladi, u faqat programmaviy ta'minot asosida muayyan sohalarida ishlaydi, lekin u insonning bilish qobiliyatining, tafakkurining barcha qirralarini qamrab olmaydi. Jon Jon Syorl tomonidan o'tkazilgan «Xitoy uyi» nomi bilan mashhur bo'lgan semantik eksperiment ham tasdiqlaydi. Olim bu tajribasini 1980-yilda «*Mind, Brains and Programs*» («Tafakkur, miya va programmalar») nomli maqolada e'lon qildi. J.Syorlning fikricha, *kompyuter sintaktik qoidalarini alohida nazariyasi orqali formallashtira oladi, lekin semantika, tafakkurni aniq modellashtirishga dasturlar ojizlik qiladi*⁷¹. Xuddi shu pozitsiyada boshqa olimlardan yana biri Rodjer Penrouz o'zining «*Qirolning yangi aqli*» kitobida tafakkurni formal tizimlar asosida mutlaq modellashtirishning imkoniyatini bayon qilgan.

Ayrim olimlar sun'iy intellekt bo'yicha erishilayotgan yutuqlarning keyingi oqibatlaridan qo'rqqmoqdalar. AQSHda Sun'iy intellekt singular inson (SIAI) tadqiqotchisi E.Yudkovskiy insoniyatni sun'iy intellektlar bilan bog'liq global xavf kutayotganidan ogohlantiradi. Olimning fikricha, agar kelajakda sun'iy intellekt tizimiga insonlarga nisbatan do'stona munosabatda bo'lish ta'minlovchi dastur o'rnatilmasa, butun insoniyat uchun katta xavf paydo bo'ladi⁷². Ilmiy fantastik asarlar muallifi Veror Vinj ham sun'iy intellektning

⁷¹ Пулатов А.К., Мухамедова С. Компьютер лингвистикаси (Ухув қўлланма). - Тошкент, 2008.

⁷² O'sha joyda.

...to'la yaratib bo'lingan paytda jamiyatda keskin o'zgarishlar bo'lishi ...
...yozgan. Bu davr ilmiy adabiyotlarda **texnologik singularlik** deb ...
...Hatto futurologlarning fikricha, bu davr 2030-yilda boshlanadi.
... intellektga doir izlanishlar XX asrning 40-yillarida boshlangan. Sun'iy ...
...muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlarning eyforiyasi davrida ...
...*fikrlay oladimi?*», «*Mashina o'z yaratuvchisidan aqlliroqmi?*» ...
...shaklida maqolalar e'lon qilindi. «Mashina fikrlay oladimi» (1950) ...
...shaklida maqolaning muallifi ingliz olimi Alan Tyuring mashina imkoniyatini ...
...aqllilik darajasi bilan qiyoslash prosedurasini ishlab chiqdi, u ...
...«*testi*» deb nomlanadi. Ushbu empirik test g'oyasi 1950-yilda «Mind» ...
...jurnalida «*Hisoblash mashinalari va tafakkur*» (*Computing Machinery* ...
...*Intelligence*) nomli maqolasida e'lon qilindi. Bu testdan ko'zlangan maqsad ...
...tafakkurning inson tafakkuriga yaqin kelishi mumkinligini aniqlash ...
...kidanadi. Unga ko'ra, inson bir kompyuter va bir inson bilan o'zaro ...
...shahatga kirishadi. Savollarga javob berish asosida u kim bilan (inson ...
...yoki kompyuter dasturi bilanmi) gaplashayotganini aniqlashi lozim ...
...tali Kompyuter dasturining vazifasi esa insonni xatoga yol qo'yishiga, ...
...g'ri tanlov qabul qilishiga majbur qildirish sanaladi. Barcha ishtirokchilar ...
...tini ko'rmaydilar.

Avtomatlashtirilgan ekspert tizimlar mantiqiy masalalarni kompyuter ...
...shaklida yechishga imkon beradi. Mazkur tizimlar ma'lum sohadagi bilimlar ...
...shaklida asoslangan implikativ qoidalar - «agar ..sa, u holda ...» qolipidagi ...
...mantiqiy qoidalarni o'z ichiga oladi. Masalan, **MYCIN** ekspert tizimi ...
...shaklida qon tarkibidagi bir qancha bakterial infeksiyalarga tashxis ...
...yoshda va ularga mos davolash metodini tanlashda yordam beradi.

Tabiiy tilda kompyuter bilan muloqot qilishni ta'minlashga yordam ...
...shaklida dasturlar (**lingvistik protsessorlar**) ham yaratilmoqda. XX asrning ...
...yillarida AQSHda kompyuter bilan cheklangan muloqotni ta'minlaydigan ...
...tilli interfeys tizimi (**LIFER** - Language Interface Facility with Ellipsis ...
...and Recursion) yaratildi. 1985-yilda «Semantek» korporatsiyasi tomonidan ...
...dasturi, «Karnegi gruppasi» kompaniyasi tomonidan **Language Craft** ...
...dasturi ta'minoti ishlab chiqildi. Bu turdagi dasturlar hozirda ingliz tilining ...
...shaklida so'zlashuv uslubida uncha katta bo'lmagan lug'at zaxirasi bilan ...
...shaklida. Tabiiy tilni tushunishga imkon beruvchi dasturlarning qamrovini

kengaytirish kompyuter lingvistikasining dolzarb vazifalaridan biri dasturlarni rivojlantirish inson kabi muloqot qila oladigan kommunikatsiyaga kirisha oladigan sun'iy intellekt g'oyasiniq belgilaydi.

Sun'iy intellekt yo'nalishidagi tadqiqotlar sirasiga «ekspert tizim» (neyron tarmoqlar) bo'yicha olib borilgan amaliy tadqiqotlar kiradi. Mazkur ikki yo'nalishga nisbatan «kompyuter intellekti» («computer intelligence») termini ishlatilmoqda, bunda inson tafakkurini global modellash va murakkab masalalarni operativ tarzda yechishga mos avtomatlarning yaratilishi tushuniladi.

Sun'iy intellekt tizimi bo'yicha izlanayotgan mutasaddi inson tafakkuri, ong-u shuurining barcha qirralarini modellash tirish masalalarini qolayotganligini ta'kidlam oqdalar. Mazkur jihatlar sirasiga insonning dunyosi, intuitsiyasi, ong osti jarayonlari, ilhom kabi sirli fenomenlar kiradi.

Inson miyasi murakkab biologik to'ra hisoblanadi, u yuz ming neyronlardan tarkib topgan. Neyronlarning bir-biri bilan aloqadorligi, zanjirli bog'lanishi natijasida miya faoliyati me'yoriy ishlaydi. Zamonaviy sun'iy neyron tarmoqlar inson miyasidagi neyronlar asosida yaratilmoqda. Hozirgi kunda neyron tarmoqlar bir qancha masalalarni hal etishda keng qo'llanilmoqda. Jumladan, ob-havo iqla aniqlashda, obrazlarni tanishda (xususan, og'zaki va yozma nutqni aniq robotlarni boshqarishda, tibbiyotda tashxis qo'yishda ishlatilmoqda. Ammo NASA kosmik agentligida neyron tarmoqlardan fazoda robotlarni boshqarishda hududga tasodifan kelib tushgan obyektlarni tutishda foydalanilmoqda. «Artificial Neural Networks Dynamics» kompaniyasi esa dvigatel shovqiniga qarab kemalarni boshqarish imkon beruvchi tizim ishlab chiqishdi. AQSH Pensilvaniya universiteti uchuvchi obyektlarni (NUJ) aniqlash uchun neyron tarmoqlar tizimi yaratildi.

Neyron tarmoqlarining ishlash tizimi matematik ifodalar yoki qoidalarga asoslanmaydi, balki namuna (**example based approach**) o'qitishga asoslangan. Bunda muayyan masalani yechish uchun namuna (misollar), ya'ni o'qituvchi tanlamalar tayyorlanadi va tarmoqlar shu tanlamalar tekshiradi. Bunda turli xil metodlardan foydalaniladi. Eng keng tarqalgan - bu dastlabki yechim va sinov natijalarini e'tiborga olgan holda

...strukturasini korrektirovka qilishga asoslangan metod (*back propagation method*) bo'lib, unda oldindan ko'plab o'qitish tanlamalari o'qitilgan bo'lmadi, u o'z bazasidagi mavjud ma'lumotlarni yangi kiritilayotgan ma'lumotlarni namuna-tanlamalar bilan solishtiradi. Agar ma'lumotlar bir-biriga mos kelmasa, neyron tarmoqlari strukturasida korrektirovka amalga oshirilmaydi. Agar ma'lumotlar bir-biriga muvofiq kelmaganda korrektirovka yuz beradi. Boshqacharoq, neyron tarmoqlarida muayyan amaliy vazifani hal etish tizimi yaratilgan bo'lgan.

...intellekt tizimiga doir amaliy ishlardan biri ekspert tizimlari bo'lgan. **Ekspert tizimi** - bu muayyan sohadaagi eksperllik yoki mavjud bilimlarning imitatsiyasi tarzida yaratilgan kompyuter dasturi. Boshqacharoq aytganda, ekspert tizimi maxsus sohaga oid barcha bilimlar jamlangan qomus bo'lgan professional ekspertlarning kompyuter modelidir. Ekspert tizimlari odatiy kompyuter dasturlaridan farq qiladi. Odatiy kompyuter dasturlari qidiruv, hisoblash va manipulyatsiya tizimigagina ega bo'ladi. Ekspert tizimlari odatiy dasturlardan tashqari, xuddi insonlarda bo'lgani kabi dalillarga tayanib qaror qila olish imkoniyatiga ham egadir. Ekspert tizimlarining asosiy ikkita qismi mavjud: *ma'lumotlar ombori va mantiqiy mashina*.

Ekspert tizimlari konsepsiyasi Stenford universiteti professori Eduard Feigenbaum nomi bilan bog'liq bo'lib, u 1977-yilda murakkab mantiqiy masalalarni yechishda kompyuter dasturlarining samaradorligi formallashtirish va dasturlash texnikasidan ko'ra muammoli sohaga doir bilimlar bazasiga tayanish ekanligini asoslab berdi. Dastlab ekspert tizimlari diagnostika va tibbiyotni davolash sohasiga tatbiq etildi. Ekspert tizimlari keyinchalik kimyo, fizika, geologiya sohalarida ham qo'llanila boshlandi.

Ekspert tizimlariga bilimlar bazasini kiritish uchun simvolli tizimlarga ishlov berishga xizmat qiladigan LISP, REFAL, PROLOG kabi tizimlar foydalanilmoqda. Bu tillar evristik bilimlar va mantiqiy masalalarni yuzaga chiqarishda eng qulay programmalashtirish tillari hisoblanadi. Bunda yagona qabul qilingan bilimlar bazasi uchun deklarativ bilimlar hamda qaror qabul qilish tizimi uchun protsedura tizimi qo'llaniladi.

Ekspert tizimlari ichiga ekspertlar hamda bir qator yordamchi programmlar kiradi:

- savol-javobli dastur foydalanuvchi bilan tabiiy tilda muammoni ta'riflash va mas'ala kirishishni ta'minlab beradi;

- bilimlar ombori dasturi foydalanuvchiga bilimlar bazasiga o'zgartirishlar kiritish hamda todirib, boyitib borishga imkon beradi;

- tushuntiruvchi dastur - javoblar tizimini tekshiradi;

- interpretator-dastur muayyan sohadagi terminlarni sharhlash va tushuntirishga yordam beradi;

- ijro etuvchi dastur barcha tizimlar ishini ta'minlab beradi.

Yuqorida aytilganidek, ekspert tizimlari deklarativ va protsedurali bosqichlar asosida ishlaydi. **Deklarativ bosqich** - bu ekspert tizimiga bilimlar bazasi bo'lsa, protsedurali bosqich ekspert tizimlarining mavjud bilimlar bazasiga tayanib hukm chiqarish va aniq qaror qabul qilish bosqichini anglatiradi. Ekspert tizimlarining ishlash prinsipiga doir bir misol keltirish mumkin. Masalan, qanday sababga ko'ra avtomobildagi benzonasosdan benzol qisqarmoqda? Bu holat bo'yicha ekspert tizimlariga kiritilgan deklarativ bosqich quyidagilar: klapaning tiqilishi, filtni axtatga to'lganligi, filtni qismining ifloslanganligi, nasos membranasining zararlanganligi. Agar benzonasosdan benzin ajralishi yetarli bo'lmasa, u holda kiritish shartlari shartli to'lib, tiqilib qolgan bo'lishi mumkin kabi.

Informatsiya shiddat bilan ko'payib borayotgan bugungi davrda ekspert tizimlarining bilimlar bazasini uzluksiz to'ldirib, yangi bilimlar bazasini boyitib borish birlamchi vazifa bo'lib qolmoqda. Chunki vaqt o'tgan sari mavjud bilimlar eskirib, talabga javob bermay qolishi mumkin, shunda yangi va qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldirish joiz bo'ladi.

Ko'pchilik mutaxassislarning fikricha, ekspert tizimlari va bilimlar bazalari tarmoqlari sun'iy intellekt bo'yicha izlanishlarda o'zaro musobaqalashuvchi va muqobil yo'nalishlardir. Har ikkala yo'nalishning o'ziga xos afzal va kamchiliklari tomonlari mavjud. Shuni e'tiborga olgan holda aytish mumkin, bilimlar bazalari tarmoqlari va ekspert tizimlarining birgalikda ishlashini ta'minlovchi ekspert tizimlar ishlab chiqilishi lozim. Shunda qo'yilayotgan masalaning saralashiga kelib chiqqan holda mos tizim tanlash va muammoga optimal yechim topish imkoniyati yuzaga keladi. Agar masala «qoida bo'yicha» (implikasiya - then... -agar...-sa, u holda...) hal etilsa, ekspert tizimlariga murojaat qilish mumkin. Agar masalada ko'pgina empirik ma'lumotlar mavjud bo'lsa, natijada

...dan foydalanish maqsadga muvofiq. Yoki obrazlarni tanishda (ya'ni, moliyaviy holatni aniqlashda) asosan neyron tarmoqlaridan, obraz yaratishda asosan keyin bajariladigan mantiqiy amallarda esa ekspert tizimlaridan foydalanish, yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

Topshiriq. Keys 1. Kompyuter lingvistikasini rivojlantirish istiqbollarinin g'ubari va muammolarini ro'yxatini tuzing va fikringizni asoslang.

Topshiriq. Kompyuter lingvistika (A), Matematik lingvistika (B) Sun'iy intellektning xususiyatlarini aniqlang va jadvalning "javob" qismiga yozing.

1. Intellektual mashinalar yaratish haqidagi fan.	10. Tabiiy tillarning matematik modellarini ishlab chiqishi bilan shug'ullanadi.
2. Intellektual kompyuter dasturlari yaratish haqidagi fan.	11. "artificial intelligence" termini birinchi marta Jon Makkarti 1956-yilda Darmut universitetidagi konferensiyada qo'llandi.
3. Matematik lingvistikasining mantiqiy davomi.	12. Bu fanning shakillanishida Lui Yelmslevning g'oyalari turtki bo'lgan.
4. Intellektual sestema strukturasi 3 asosiy blokni o'z ichiga oladi.	13. Bu fanning nomi "computational linguistics " so'zining kalkasidir.
5. XX asrning 50-yillarida yuzaga kelgan.	14. XX asrning 80-yillariga qadar turli nomlar bilan atalgan.
6. Sun'iy tillarni yaratish algoritmini ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi fan.	15. Lui Yelmslevning fikricha bu fan "lingvistik algebra" deb atalishi lozim.
7. Inson intellektual faoliyatining kompyuter modelini yaratish bilan shug'ullanuvchi fan.	16. Bu fanning asosiy maqsadi lingvistik masalalarni yechishning kompyuter dasturlarni ishlab chiqish.
8. 1954-yilda AQSHda yo'nalish sifatida shakillana boshladi.	17. Noam Chomskiyning formal grammatika,



		transformatsion grammatika haqidagi qarashlari bu fan alohida yo'nalish sifatida yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.	
9. Jorjtaun universitetida mashina tarjimai bo'yicha dunyoda o'tkazilgan birinchi tajriba asosida yuzaga kelgan.		18. Bu fan hisoblash lingvistikasi, kvantitativ lingvistika deb ham yuritilgan.	
Javob	A -	B -	C -

3-topshiriq. Quyidagi jadvalda joylashgan jumalarning to'g'ri yoki noto'g'risiga "0" belgilarini quying.

N	Mavzu bo'yicha glossariy	Belgi
1.	Avtomatik ta'firlash – Klining yana yo'nalishlaridan biri bo'lib, matnli ma'lumotlarni tuzish, qayta ishlash va tahrir qilish kabi masalalarni o'rganadi.	
2.	Statistik tadqiqotlar – Klining yana bir yo'nalishlaridan biri bo'lib, kompyuter orqali lug'at tuzish, lug'at tuzish prinsiplarini, lug'atshunoslik ishlarini avtomatlashtirish va ixchamlashtirish, bibliografik ma'lumotlarni avtomatik yo'l bilan qidirish.	
3.	Kompyuter leksikografiyasi - Klining yana bir yo'nalishlaridan biri bo'lib, kompyuter orqali lug'at tuzish, lug'at tuzish prinsiplarini, lug'atshunoslik ishlarini avtomatlashtirish va ixchamlashtirish, bibliografik ma'lumotlarni avtomatik yo'l bilan qidirish.	
4.	Mashina tarjimai – Klining yo'nalishlaridan biri bo'lib, turli tabiiy tillarni tarjima qilish masalalarini o'rganadi.	
5.	Til o'rgatish jarayonini kompyuterlashtirish – bu yo'nalish avtomatlashtirilgan o'qitish jarayonini tashkil qilish maxsus dasturlari va texnik qurilmalari joriy qilishni taqozo etadi.	

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR
1-topshiriq. Yod oling.

Ekspert tizimi - muayyan sohadagi ekspertlik yoki mavjud bilim

tarzida yaratilgan kompyuter dasturi. Boshqacharoq aytganda, bu model maxsus sohaga oid barcha bilimlar jamlangan qomus yoki o'ta bilimlar ekspertlarning kompyuter modelidir. Ekspert tizimlarining asosiy tarkibiy qismi mavjud: ma'lumotlar ombori va mantiqiy mashina.

Intellektual Ijodi - san'at asarlarini avtomatik tarzda yaratish jarayoni. Bu sohada ijodni to'la modellashtirishga erishilgani yo'q, lekin bu sohada muvaffaqiyatlar qo'lga kiritilgan.

Intellektual tarmoqlar - inson miyasidagi neyronlar modeli asosida yaratilgan tarmoqlar bo'lib, u sun'iy intellektning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Sun'iy intellekt - intellektual mashinalar, intellektual kompyuter dasturlar va intellektual texnologiyasi va bu haqidagi fan. Intellektual sistema strukturasi 3 qismga bo'linadi: bilimlar bazasi, masalani yechuvchi tizim va tizim bilan interfeys.

Tyuring testi - «Mashina fikrlay oladimi» (1950) sarlavhali kitobning muallifi ingliz olimi Alan Tyuring tomonidan ishlab chiqilgan test. Olim mashina imkoniyatini insonning aqllilik darajasi bilan solishtirish usulini ishlab chiqdi.

Topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Kompyuter lingvistikasi fanining zamonaviy yo'nalishlari haqida ma'lumotlarini toping.

2. Lingvistik kompyuter dasturlarining ishlash samaradorligini oshirish usullari qanday? Qanday qilib amalga oshirilishi lozim?

3. Ekspert tizimlari qaysi sohalarda ishlatilmoqda?

4. Sun'iy intellekt tizimi bo'yicha erishilgan yutuqlarga nimalarni kiritish mumkin?

5. Sun'iy intellekt tizimini yaratish yuzasidan qanday yondashuvlar mavjud?

Topshiriq. Eng ma'qulini tanlang.

1. Qachon va qayerda informatsion jamiyat qurish muammosiga e'tibor qaratilgan? Butunjaxon Sammiti bo'lib o'tdi?

- a) 2003- yil dekabrda Jenevada
- b) 2005- yil yanvarda Shvetsariyada
- c) 1999- yil avgustda Londonda
- d) 1999- yil mayda Yaponiyada

2. "Kim axborotga ega bo'lsa u xamma narsaga ega bo'ladi" haqida kimning so'zlari?

- a) E.Toffer
- b) Bill Geyts
- c) E.Yudlovskiy
- d) J.Syorl

3. XX asrning 70- yillariga qadar sun'iy intellekt bo'yida qanday fanlar doirasida olib borilgan?

- a) Kibernetika va informatika
- b) Psixologiya va informatika
- c) Fizika va informatika
- d) Kibernetika va fizika

4. Informatsion prinsiplari to'g'risidagi deklaratsiya qachon qilingan?

- a) 1995 yil noyabrda
- b) 1987 yil avgustda
- c) 2001 yil iyunda
- d) 2003 yil dekabrda

5. "Artificial intelligence" termini birinchi bor qachon va kim qo'lgan?

- a) 1950 yil Gavrilov
- b) 1956 yil Jon Makkarte
- c) 1968 yil Jon Uayt
- d) 1958 yil Bill Geyts

6. 1980 yilda ...nomli mantiqiy programmalashtirish tizimi va tili yaratib tushurib qoldirilgan so'zni toping.

- a) Top- Down AL
- b) Bottom-UP AI
- c) Prolog
- d) Darmut

7. Qaysi tizim bir qator kasalliklarga shifokor singari to'g'ri fikr qo'yishni ta'minlaydi?

- a) Deep Blue
- b) MYCIN

1) Deep

2) Deep Thought

3) *Kadifer Penkouz o'zining qaysi kitobida tafakkurni formal tizimlar asosida modelashtirishning imkonsizligini bayon qilgan?*

4) Qirolning yangi aqli

5) Qirol va men

6) Dunyo xavf ostonasida

7) Barchasi noto'g'ri

Topshiriq. "EATF" usulida mavzuni tahlil qiling.

1) **Eslash** bosqichida faol o'qitish jarayonini tashkil etib, o'quvchilarda fikrlashni shakllantiradi. Ya'ni, eslash – ahamiyatli tomoni – fikrlash.

2) **Fikrlash** bosqichida darsni samarali tashkil etishda qo'llaniladi. Tanqidiy fikrlash o'quvchilarni o'z savollarini to'g'ri shakllantirish, muammoni chuqur tahlil qilish, o'z fikrini to'liq bayon etishga o'rgatadi. Usulni qo'llash jarayonida o'quvchi o'quvchi bilan hamkor, o'quvchilar esa o'qitish jarayonining ijodkori bo'ladi.

3) **Eslash** bosqichida o'quvchi mustaqil va faol ravishda eslashga urinadi, mavzu yuzasidan nimani biladi, mavzu yuzasidan qaysi darajada ekanligini biladi. O'quvchi eslash jarayonida mavzu yuzasidan muammolarni aniqlab, ularni tuzatishga ularga javob topishga harakat qiladi. U o'z oldiga maqsad qo'yadi va maqsad sari intiladi. Shu jarayonda matnни to'liq o'rganishga harakat qiladi.

4) **Ahamiyatli tomoni** bosqichida o'quvchi yangi axborot bilan tanishadi. Matn, filmini ko'rish, matnни qayta o'qish, tahlil qilish, tadqiqot o'tkazish. Bu bosqichda o'quvchi faol o'qituvchi boshqaruvchi sifatida bo'ladi. O'qituvchi bu bosqichda o'quvchining qiziqishlarini qo'llab-quvvatlaydi. O'quvchi yangi fikrlar, yangi muammolar topishga harakat qiladi.

5) **Fikrlash** bosqichida o'quvchi tahlil jarayonida o'rgangan yangi fikrlarni qayta ko'rib chiqadi. Boshlang'ich fikrlarini to'ldiradi. Yuqoridagi ikki bosqichda muammolarini qayta ko'rib chiqadi. Xullas, o'quvchida tanqidiy fikrlash shakllanishiga yordam beradi.

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Mavzu yuzasidan prezentatsiya tayyorlang.

2-topshiriq. "Ekspert tizimlar va neyron tarmoqlar" mavzusida essa yozing.

3-topshiriq. "Sun'iy intellekt g'oyasi", "Kompyuter lingvistikasi va sun'iy intellekt g'oyasi", "Sun'iy intellektning

kompyuter lingvistikasi fani bilan aloqadorligi", "Kompyuter lingvistikasi fanida Sun'iy intellektning ahamiyati" mavzularining biriga o'rin berilgan.

4-topshiriq. Darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha mavzularini o'rganish.

5-topshiriq. Ispring dasturida mavzu yuzasidan 10 test yozish.

Adabiyotlar:

1. Нелюбин Л. Л. Компьютерная лингвистика и машинный перевод. - М.: ВЦП, 1991.
2. Шемакин Ю.И. Начало компьютерной лингвистики. - М.: ВЦП, 1992.
3. Белоногов Г.Г. Компьютерная лингвистика и информационные технологии. - М.: Русский мир, 2004.
4. Рассел С., Норвиг П. Искусственный интеллект: современный подход // Artificial Intelligence: a Modern Approach / Пер. К.А.Птицына. 2-е изд. - М.: Вильямс, 2006.
5. Searle J.R. Minds, brains, and programs // Behavioral Sciences. 1980.
6. Jurafsky D., Martin J.H. Speech and language processing. - New Jersey, 2000.
7. Minsky M.A. Framework for Representing Knowledge in the Psychology of Computer Vision. McGraw-Hill, New York (U.S.A.), 1975.
8. Пулатов А.К., Мухамедова С. Компьютер лингвистикаси (qo'llanma). - Тошкент, 2008.
9. Пулатов А. Компьютер лингвистикаси. - Тошкент, 2011.
10. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. - Akademya, 2011.

MODUL. KOMPYUTER LINGVODIDAKTIKASINING IMKONIYATLARI

18-MAVZU:

KOMPYUTER LINGVODIDAKTIKASI

Reja:

1. Ta'lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning imkoniyatlari.
2. Ta'lim jarayonida qo'llanadigan kompyuter dasturlari.

Asosiy tushunchalar: ta'limiy dastur, elektron nusxa, virtual ta'lim jarayoni, elektron ishlanmalar konsepsiyasi, elektron multimedia

Bu talakkuri shu qadar taraqqiy etib bormoqdaki, texnikalashtirish, texnologiyalashtirish jarayoni nafaqat ishlab chiqarishning turli sohalari, balki ta'lim sohasi va ta'lim sohalariga ham dadil kirib bormoqda. Kompyuter texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib borib, ta'lim o'rni o'rnida ta'lim mazmunini, metod va shakllarini qayta ko'rib chiqishni va yangi bilim hamda ko'nikmalar bilan yanada boyitish zaruriyatini yaratib bermoqda.

Hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalarida yangi pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslarini yaratish, ularni tasniflash, metodik asoslarini belgilash, ta'lim jarayoniga tatbiq etish kabi dolzarb muammolar yuzaga kelib borilmoqda. Shu tariqa *lingvodidaktika*, *lisoniy pedagogika* sohalarida rivoj topmoqda, bu sohalarida yangi axborot texnologiyalari tadbiqi dolzarblashmoqda. Mamlakatimizning barcha oliy o'quv yurtlarida pedagogik texnologiyalarini ta'limga tatbiq qilish va masofali ta'lim markazlari tashkil topmoqda. Bu markazlarda virtual kutubxonalar, multimedia o'quv dasturlari, o'qitish materiallari yaratilmoqda.

Ta'lim tizimida darsni samarali tashkil etish vositalari, usullari rivojlanib bormoqda. Ularning rivojlanishiga subyektiv va obyektiv omillar ta'sir etadi. Obyektiv omillar sifatida siyosiy, ilmiy, madaniy, ijtimoiy va boshqalar inobatga olinishi kerak. Masalan, mamlakatdagi siyosiy o'zgarishlar dars soatlari, reja, dasturni yaratishga sabab bo'ladi. Subyektiv omil – o'quvchilarning ma'lumotni qabul

qilishi, o'qitish texnologiyalarining yangilanishi, metodikani darsliklarning sifati sanaladi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalarning kompyuter texnologiyalariga uyg'unlashtirib tashkil etilishi va shu asosda lingvodidaktika asosida aylanib qolmoqda. Jahonda kompyuterni o'quv jarayonida qo'llash yetarli tajriba to'plangan, bu borada olib borilgan muhim ilmiy tadqiqotlar, ko'pgina ta'limiy-nazorat dasturlari, multimedia darsliklari yaratilgan dastur va boshqa elektron ishlanmalarning sifatli mualliflarning shaxsiy qarashlariga, ilmiy-metodik saviyasiga va madaniyatiga bog'liq bo'ladi. Bu esa nazorat qilinishi qiyin bo'ladi. Masalan, ba'zi ta'limiy-elektron ishlanmalar ko'zlangan maqsadga erishishga xizmat qilsa, ba'zilari o'ta qiziqarli, estetik jihatdan yuqori bo'lishiga qaramay, muayyan mavzu bo'yicha kerakli bilim va ko'nikma egallashga xizmat qilmay, informatika va informasion madaniyat o'rganishgagina yordam beradi.

Bugungi kunda o'qitishni kompyuterlashtirish nazariyasini ishlab chiqarish haqiqatan ham, o'quv faoliyatining samaradorligini oshiradigan, o'rganish mavzuga nisbatan ijobiy munosabat va qiziqishni shakllantiradigan elektron ishlanmalarni yaratishning umumiy va xususiy mezonlarini belgilash zarurati paydo bo'ldi.

Hozirgi paytda Rossiya, Ukraina, Fransiya, Yaponiya, Kanada va boshqa mamlakatlarda ta'limiy-elektron ishlanmalarni yaratish konsepsiyasini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borilmoqda. Konsepsiyani ishlanmalarning mohiyati, ularni yaratish, tekshirish va qo'llash tartibi belgilanadi. Mutaxassislarning fikricha, ta'limiy-elektron ishlanmalar yaratishda texnik, pedagogik, metodik talablarga javob berishi zarur. Ular shu talablarga mos kelsagina, ta'lim jarayonida qo'llanilishi mumkin.

XXI asr kompyuter texnologiyalari, ilg'or pedagogika va axborot texnologiyalari (internet), yuksak tafakkur, fan va texnikaning jadal taraqqiyoti asri bo'ladi. XXI asr boshiga kelib, "Elektron ta'lim", "Elektron boshqaruvi", "Ochiq ta'lim", "Masofaviy ta'lim", "Axborotlashgan ta'lim" kabi tushunchalar hayotimizga kundan-kunga singib bormoqda. Prezidentimiz L.A.Karimov so'zlari bilan aytganda, "hozirgi axborot, kommunikatsiya, kompyuter texnologiyalari asrida, internet kundan-kunga hayotimizning barcha jabhalariga

... va keng kirib borayotgan bir paytda, odamlarning ongi va ... kurash hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotgan bir vaziyatda bu ... jamiyatimiz uchun naqadar dolzarb va ustuvor bo'lib borayotgani ... o'tirishga hojat yo'q".

... o'rnatilgan o'qitish tizimi (AO'T) texnik qurilmalar dasturlash ... va mujassamlashgan kompyuterli kompleksdir. AO'Tning asosiy ... qisqa muddatda ma'lum sohadan insonga bilim berishdir. Bunda ... bilan inson muloqoti dialog rejimida display ekranidagi savol-javob ... bilim olishga yordam beradi. AO'T quyidagi vazifalarni bajarishi ... mashinlash o'tkazish; - ma'lumot berish; - konsultatsiya berish; - ... qilish; - mashg'ulot o'tkazish; - modellashtirish; o'qitish; bilimlarni

... o'qitishda quyidagi kompyuter dasturlarini qo'llash mumkin:

Ma'lumot texnologiyasi, ya'ni mashg'ulotni ko'rgazma sifatida o'tkazish, ... kompyuterdan foydalanishning eng oson usulidir. Buning uchun ... uchiga birgina kompyuter va multimedia proyektori kerak bo'ladi. MS ... Point dasturi yordamida o'tilajak dars uchun kompyuterda o'qituvchining ... dasturlar yaratadi va ko'rgazmalar paketini tayyorlaydi.

Elektron nusxa – bu o'zbek tili fani bo'yicha mavjud bo'lgan muayyan ... kompyuterdagi varianti (nusxasi) bo'lib, unda multimedia ... dan faqat ovoz va matn qatnashadi.

Elektron multimedia darsligi – aynan kompyuter vositasida o'quv kursini ... uning bitta katta bo'limini o'qituvchi yordamida yoki mustaqil ... shirishni ta'minlovchi dasturiy-metodik kompleks.

Elektron darslik – davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlariga muvofiq ... o'quv fanining tizimli bayoniga ega bo'lgan, yagona kompyuter dasturi ... gipermatnli texnologiya asosida multimedia komponentlaridan ... holda yaratilgan, foydalanuvchi bilan teskari aloqa o'rnatish ... beradigan, zarur hollarda qo'shimcha dasturiy modullarga ega bo'lgan ... o'quv nashr.

Elektron o'quv qo'llanma – davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlariga ... ravishda o'quv fanining to'liq yoki alohida bo'limlarining tizimli ... ega bo'lgan, darslikni qisman yoki to'liq o'rinni bosuvchi, yagona ... dasturi muhitida gipermatnli texnologiya asosida multimedia

komponentlaridan foydalangan holda interaktiv muloqot taqdim etuvchi yaratuvchi, zarur hollarda qo'shimcha dasturiy modullarga ega bo'lgan o'quv nashri.

Elektron lug'at – kompyuter yoki boshqa elektron tashuvchida saqlanadigan lug'at bo'lib, zarur so'zlarni uning morfologiyasi yoki u bilan bog'liq jumlasini orqali tezlik bilan topish imkonini beradi. Uning ichki matnlar, maqolalari jamlamasidan iborat ma'lumotlar bazasi shaklida qurilgan lug'at tarjima qilish yo'nalishini o'zgartirish funksiyasiga (misol uchun o'zbekcha, o'zbekcha-ruscha) ega bo'ladi. An'anaviy lug'atlardan farqlanishida elektron lug'at matn va grafikaviy tasvirlar bilan bir qatorda animatsion lavhalar, tovush, musiqa va boshqalar bilan bog'liq obyektlarning butun spektrlarini o'z ichiga olishi mumkin.

Elektron ensiklopediya – kuchli qidiruv tizimiga ega bo'lgan lug'at yo'nalishdagi illyustratsiyali maqolalar, elektron xaritalar, foto- va videomateriallar, giperhavola(gipermaurojaat)lar, audio- va videoizohlar, xronologik ma'lumotlar foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati va hokazolardan iborat bo'lgan katta hajmdagi elektron dastur.

Elektron lug'at – odatdagi lug'atlar asosida tuzilgan, multimedia vositalari bilan boyitilgan dastur. Elektron lug'at turli yo'nalishda tuzilishi mumkin, talabaning so'z boyligini oshirish, tarjima qilishda foydalaniladi.

O'rgatuvchi audiodasturlar, elektron lingafon kurslari umuman talabaning tilni o'rganuvchilar uchun nihoyatda samarali ta'lim texnologiyalaridir. Talabaning talaffuzni o'rgatuvchi kompyuter dasturlarida animatsiya yordamida to'g'ri artikulyatsiya o'rni, usuli ko'rsatiladi, etalon nutq eshittiriladi, talabaning talaffuzi yozib kiritiladi, so'ngra u adabiy til me'yori bilan taqqoslanadi. Boshqa tashqari, audiodasturlar qatoriga «Karaoke» tizimini kiritish mumkin. Talabaning hordiq chiqarishda yoki biron tadbiri o'tkazishda foydalanish juda qulaydir.

Universal test dasturi o'zbek tili darslarining biror yirik bo'limi bo'yicha test topshiriqlari va reyting tizimidan iborat bo'lgan kompyuter dasturidir. Uning qulayligi shundaki, birgina dasturiy ta'minot asosida turli xil test tizimlari o'tkazish, ya'ni faqat matnni o'zgartirib, dasturni har xil mavzularda qo'llash mumkin.

Virtual kutubxona – multimedia xonasining keng
bo'lgan yana biri, elektron nusxa yoki elektron multimedia darsliklari
tomonidan tarmoqqa ulangan kutubxona.

Internet tarmog'idan o'zbek tilini o'rganuvchi rusiyazabon talabalar
foydalanishlari mumkin: mustaqil ta'lim jarayonida ma'lumotlar
mavzularni o'zlashtirish, berilgan mavzuda referat, insho yozish va
shuningdek, elektron pochta - axborotni bir kompyuterdan
boshqaga yuborishni ta'minlovchi tizim orqali o'qituvchi yoki tengdoshlari
bilan aloqada bo'lishi mumkin.

Materiallar bilan ishlash til o'qitishda alohida ahamiyat kasb etadi.
Texnologiyalarining bu vositasi turli ko'rinishda, usulda qo'llanilishi

Masofaviy ta'lim – bu masofadan Internet tarmog'i orqali o'qitish usuli
asosida respublikamizda ma'lum sohalar bo'yicha test-tajribalar
tashkil etiladi.

Multimedia («ko'p muhitlik» degan ma'noni bildiradi) zamonaviy
texnologiyalarning deyarli barchasida mavjud bo'lgan imkoniyatlar majmuini,
qisqartirib tushunchani anglatadi. Multimedia axborotning turli ko'rinishlari –
matn, rasmlar, grafikalar, ovoz, animatsiya (multiplikatsiya), videotasvir, musiqa
va boshqalar axborotni yig'ish, saqlash va qayta uzatish vazifalarini bajaradi.
Multimedia «inson-kompyuter» interaktiv (dialogik) muloqotning yangi,
qiziqarli shakli bo'lib, bunda foydalanuvchi juda keng va har
qanday axborot oladi.

Bu qator olimlar, metodistlar tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ta'lim
jarayonida birinchi marta eshitgan mavzusining faqat to'rttadan bir qismini, ko'rgan
materiyalning uchdan bir qisminigina eslab qoladi; ham ko'rib, ham eshitsa,
mavzu faqatgina oltinchi qismigina esda saqlaydi. Interaktiv multimedia texnologiyalaridan
foydalanilganda esa, bu ko'rsatkich yetmish besh foizni tashkil etadi. Shu bois
Internet jarayonida ATdan unumli foydalanish katta ahamiyatga ega.

Anglashiladiki, mashg'ulotlarda kompyuterdan foydalanishning turli-
turli usullari mavjud. Sanab o'tilgan va boshqa bir qator kompyuter
texnologiyalarini til o'qitish jarayonida qo'llash yuqori natijalar berishi
shubhasizdir.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Quyidagi gaplarni transformatsion yoki algoritmik tilda til birliklarini tahlil qilish metodi, ehtimollik belgilariga ko'ra tahlil qilish metodlari asosida tahlil qiling.



“Bu odamzod farzandini Bahrul hayot sarfida parilarning qoidasida muolija qilib, qirq kunda hayot bilan yuborasiz. Bu odamzod menga bir tug‘ilgan qolgan”, deb muhrini bosib, taxtni parilarga ko‘tartirib, Ko‘hiquqqa Parilar Billur tog‘dan o‘tib, uni parilar podshosiga topshiribdi. Shahar kunda sihat topib, ilgari husniga necha barobar husn qo‘shib, yurtidan qaytibdi. Maymun pari: „Seni shu ahvolda otangga yuboradim. Qalandar suratida qishlab olib boraman. Malikani akangga berib, taxtga podshoh qilgan bo‘lsa, shaharga kirmay qaytmaymiz. Agar otang o‘lgan bo‘lsa, malikani senga to‘y qilib, seni taxtga o‘tkazib kelamiz”, deb bolani uch oy saqlabdi (O‘zbek xalq ertaklari).

2-topshiriq. Kompyuter lingvodidaktikasiga berilgan ta’riflarning asosida to‘g‘ri? Javoblar jadvaliga “ha” yoki “yo‘q” so‘zlarini yozing.

No		“ha” yoki “yo‘q”
a.	Til o‘qitish jarayonini avtomatlashtirish.	
b.	Til o‘rgatishda ko‘plab kompyuter dasturlarini qo‘llash mumkin.	
c.	Kompyuter lingvodidaktikasi aniq mazmunga ega bo‘lgan fikrlarni simvollar bilan almashtirish.	
d.	Lug‘atlar tarixi, ularni tuzish kabi masalalar bilan shug‘ullanuvchi yo‘nalish.	
e.	Elektron virtual kutubxona – multimedia xonasining keng imkoniyatlaridan yana biri, elektron nusxa yoki elektron multimedia darsliklari mujassamlangan, tarmoqqa ulangan kutubxona.	
f.	Elektron virtual kutubxona – multimedia xonasining keng imkoniyatlaridan yana biri, elektron nusxa yoki elektron multimedia darsliklari mujassamlangan, tarmoqqa ulangan ta’lim muassasalari.	
j.	O‘rgatuvchi audiodasturlar, elektron lingafon	

O'rgatuvchi umuman ikkinchi tilni o'rganuvchilar uchun nihoyatda samarali ta'lim texnologiyalaridir.	
O'rgatuvchi audiodasturlar, elektron lingafon kurslari umuman ikkinchi tilni o'rganuvchilar uchun nihoyatda samarali ta'lim muassasalari.	
Multimedia zamonaviy kompyuterlarning yordamida mavjud bo'lgan imkoniyatlar majmuini, kompleks tashkilotni anglatadi.	
Multimedia zamonaviy kompyuterlarning yordamida mavjud bo'lgan imkoniyatlar majmui emas.	

Topshiriq. Quyidagilarning mosligini toping.

Multimedia -	A	Fan yuzasidan mavjud bo'lgan darsliklarning kompyuterdagi variant
Elektron nusxa -	B	Biror fan yuzasidan o'qituvchi yordamida yoki mustaqil o'zlashtirishni ta'minlovchi dasturiy metodik kompleks
Elektron multimedia darsligi	C	Test topshiriqlari va reyting tizimidan iborat bo'lgan kompyuter dasturidir
Universal test dasturi -	D	Ko'p muhitlilik degan ma'noni bildiradi
Elektron virtual kutubxona -	E	masofadan Internet tarmog'i orqali o'qitish usuli bo'lib, uning asosida respublikamizda ma'lum sohalar bo'yicha test-tajribalar o'tkazilmoqda.
Musofaviy ta'lim -	F	multimedia xonasining keng imkoniyatlaridan yana biri, elektron nusxa yoki elektron multimedia darsliklari mujassamlangan, tarmoqqa ulangan kutubxona.
O'rgatuvchi audiodasturlar, elektron lingafon kurslari -	H	mashg'ulotni ko'rgazma sifatida o'tkazish, darsda kompyuterdan foydalanishning eng oson usulidir.
Taqdimot texnologiyasi -	K	umuman ikkinchi tilni o'rganuvchilar uchun nihoyatda samarali ta'lim texnologiyalaridir.
Obyektiv omillar -	M	o'quvchilarning ma'lumotni qabul qilishi, o'qitish texnologiyalarining yangilanishi, metodikaning o'zgarishi,

			darsliklarning sifatini tashkil etuvchi
10.	Subyektiv omil –	N	sifatida siyosiy, ilmiy, ma'naviy va boshqalar inobatga olinadi.
Javob:			

4-topshiriq. Jummalarni to'ldiring.

1)- mavjud an'anaviy o'qitish tizimining barid e'tiborga olgan o'qitish mexanizmlari, bunda grammatikaning ta'tir tugagandan so'ng uni topshiriqlar asosida baholash, shuning minimumlar bo'yicha bilimni nazorat qilishga qaratilgan darsliklar asoslangan o'qitish tizimi. 2)- CALL uchun qat'iy ta'minotlar yaratish, o'qitish tizimini lug'at bazasi, grammatika qo'llanmalar, tizimni avtomatik korrektorlar, speller bilan ta'minlash, vizual effektlar bilan boyitish kabi amaliy ishlar majmuasidir. 3) multimedia xonasining keng imkoniyatlaridan yana biri, elektron elektron multimedia darsliklari mujassamlangan, tarmoqqa ulangan tizim.

5-topshiriq. Ingliz tilini o'rgatishga qaratilgan qanday o'qitish usullari bilasiz? Ularga misollar keltiring.

Javob: _____

6-topshiriq. Ingliz tilini o'qitishga mo'ljallangan dasturlarni ta'riflash bilan juftlang

1.	TOFEL tizimi	A	Uch yil davomida ingliz tilini bosqichma-bosqich tizimli tarzda o'rgatishga asoslangan avtomatik o'qitish tizimi.
2.	IELIS tizimi	B	Ingliz tilini avtomatik o'qitishga mo'ljallangan eng rivojlangan saqlash dastur.
3.	REWARD tizimi	C	TOFEL tizimiga o'xshaydigan avtomatik til o'rgatish va bilimlarni diagnostika qilish tizimi
4.	EURO PLUS tizimi	D	Bir necha yil davomida o'qitishga mo'ljallangan til o'rgatish tizimi

Javob:

DAFTAR MASLAG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. O'quv dasturlarining mohiyatini o'rganing.

2. TOEFL tizimi- ingliz tilini avtomatik o'qitishga mo'ljallangan eng mashhur dastur. Bu tizim ingliz tilini o'rgatish birgalikda o'zlashtirilgan grammatika qilish imkoniyatiga ham ega.

3. TOEFL-TOEFL tizimiga o'xshaydigan avtomatik til o'rgatish va grammatika qilish tizimi. U grammatika, lug'at, o'qib va eshitib o'g'ri jumla qurish kabilar yuzasidan bilimlarni baholaydi.

3. ENGLISH FOR ALL- O'zbekistonda yaratilgan avtomatik o'qitishga asoslangan o'quv dasturi. Ushbu o'quv dasturining afzal tomoni shundaki, unda o'qitish tizimi shakli bilan ham boyitilgan, ingliz tilida multfilmlar kiritilgan va o'qish shiqlar karaoke bilan ta'minlangan.

4. EDWARD- bir necha yil davomida o'qitishga mo'ljallangan til o'qitish tizimi.

5. EURO PLUS- 3 yil davomida ingliz tilini bosqichma-bosqich tizimli o'qitishga asoslangan o'qitish tizimi.

6. PROFESSOR HIGGINGS- fonetik trenirovka, ingliz tilida aksentsiz o'qish yorlarini o'rgatuvchi tizim.

1. *topshiriq.* Savollarga javob bering.

1. Ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish va uning mohiyati.

2. O'zbek tilini o'qitishda kompyuter texnologiyasidan foydalanishning imkoniyatlari.

3. Til o'qitishda kompyuter dasturlarining o'rni.

4. Kompyuter dasturlaridan til bo'yicha o'rganilgan bilimlarni baholash imkoniyatlari.

5. Tilshunoslikka oid ma'lumotlar bazasi bilan tanishishda internet texnologiyasining imkoniyatlari.

1. *topshiriq.* "FSMU" usulida mavzuni tahlil qiling.

2. *topshiriq.* Internetdan turli o'qish kurslarini ko'rib chiqing. Bir necha kurs modullarini o'rganib quyidagi jadvalni to'ldiring.

Parametrlar	Izoh
O'rgangan kursingiz (turi: dars, mavzu, miqdori, misol)	
Mavjud qiyinchiliklar	
Sertifikat, diplom, guvohnoma	

5-topshiriq. Internet qidiruv tizimidan quyidagi savollarga javob toping.

Resurslar turi	O'zbek tili	Xorijiy til
Elektron kutubxona		
Elektron jurnal		
Elektron o'quv dasturi		

6-topshiriq. Internet qidiruv tizimidan quyidagi ma'lumotlarni toping.

Dastur nomi	Turi	Maqsad	Darajasi	Soati
TOEFL tizimi				
EURO PLUS				
IELTS-TOEFL				
PROFESSOR HIGGINGS				

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Mavzu yuzasidan prezentatsiya tayyorlang.

2-topshiriq. "Globallashuv jarayonida kompyuter lingvodidaktikaning ahamiyati" mavzusida essa yozing.

3-topshiriq. "Ta'lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati", "O'qitishda qo'llanadigan kompyuter dasturlari", "Lingvodidaktikaning kompyuter lingvistikasi bilan aloqadorligi", "Kompyuter lingvistikasining lingvodidaktikaning ahamiyati" mavzularining birga tayyorlang.

4-topshiriq. Ispring dasturida mavzu yuzasidan 10 test yarating.

Adabiyotlar:

1. Немобин Л. Л. Компьютерная лингвистика и машинный перевод. - М.: Мир, 1991.

2. Шемакин Ю.И. Начало компьютерной лингвистики. - М.: МГОУ, 1991.

3. Белоногов Г.Г. Компьютерная лингвистика и перспективные информационные технологии. - М.: Русский мир, 2004.

4. Рассел С., Норвиг П. Искусственный интеллект: современный подход // Artificial Intelligence: a Modern Approach / Пер. с англ. и ред. И. Гурьева. 2-е изд. - М.: Вильямс, 2006.

5. Jurafsky D., Martin J.H. Speech and language processing. - New York, 2000.

6. Пулатов А.К., Мухамедова С. Компьютер лингвистикаси (Уқув технологияси), - Тошкент, 2008.

7. Пулатов А. Компьютер лингвистикаси. - Тошкент: Академнашр, 2011.

8. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. - Toshkent: Akademinaashr, 2011.

19-MAVZU: JAHON MIQYOSIDA FILOLOGIK TA'LIMIDA QO'LLANILADIGAN AXBOROT-TA'LIMYIY RESURLAR. INTERAKTIV DOSKALARNING IMKONIYATLARI

Reja:

1. Interfaol doskalar haqida tushuncha.
2. Elektromagnitli texnologiyalarning afzalligi.
3. Sensor interfaol elektron doskalar uchun sharoit va zarur qurilmalar.

Tayanch tushunchalar: interfaol elektron doska, matn va grafik tushunchalar, dasturiy ta'minotlar, sensorli elektron doska, marker, magnitofon, kompyuter, DVD-disklar, flesh xotira yoki videokameralar.

Hozirda ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida jihozlanmoqda. Bu pedagoglarni o'z faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Zamonaviy

texnologiyalarning joriy etilishi pedagogni o'quv jarayonida ta'lim vositasi sifatida faoliyat doirasining cheklanishiga emas, balki uning vazifalari va faoliyatini o'zgarishiga, pedagogik faoliyatning mukammallashuviga olib keladi.

Endi pedagog:

- o'quv kurslari dizayneri-yaratuvchisi;
- o'qitish metodlari bo'yicha maslahatchi;
- kompyuter - o'quv kurslarini interaktiv taqdim etish bo'yicha mutaxassis;
- ta'lim natijalarini nazorat qilish usullari bo'yicha mutaxassis bo'lishi talab etiladi. Shunday ekan, darslarni tashkil etishda kompyuterdan foydalanish ijobiy natija beradi.

Bugungi kunda zamonaviy darsni tashkil etish axborot kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ta'lim muassasalarida har bir dars xonalari zarur vositalar bilan jihozlanmoqda. Masalan, interfaol doskalar, proyektorlar, kompyuterlar va boshqalar.

Elektron interaktiv doska – raqamli, dasturiy va Internet texnologiyalaridan sohasidagi oxirgi yutuqlar kombinatsiyasidir. Bu ta'lim sohasidagi ta'lim vositasi o'zgarish hisoblanadi, chunki an'anaviy doska va bo'rlar elektron ko'rinishga o'tadi. Elektron interaktiv doska - personal kompyuter uchun portga ulanib qurilmasi hisoblanadi.

- ✓ Elektron interaktiv doska tarkibiga quyidagi elementlar kiradi:
 - Doskaga yozish uchun 3 dona elektron ruchka;
- ✓ Doskani kompyuterga ulash uchun 10 metrli USB-RS232 kabeli;
- ✓ Diskda elektron doska dasturiy ta'minoti;
- ✓ Doskadan foydalanish yo'riqnomasi.

Elektron doskadan foydalanish majmuasi uch elementdan tarkib topgan. Bular: **personal kompyuter, videoproektor** va **interaktiv doska**. Doska kompyuterga ham videoproektor qurilmasi ham elektron interaktiv doska portiga ulanadi. Dastlab maxsus kabel yordamida interaktiv doska kompyuter portiga ulanadi. So'ngra videoproektor qurilmasi kompyuterga ulanib interaktiv doskaga moslanadi. Bunda ma'lumotlarning siklik aylanishi hosil bo'ladi. Elektron doskadan boshqaruv komandalari kompyuterga kelib tushadi. Kompyuter o'z navbatida ko'rsatilgan amalni bajarib videoproektor qurilmasiga

Videoproektor qurilmasi esa kompyuter xotirasidagi o'zgarishni elektron doskada tasvirlaydi.

Proektor qurilmasi bilan birgalikda videoroliklarni, rasmlarni va boshqa ma'lumotlarni yaratish va namoyish etish, kompyuter xotirasiga saqlash yoki qurilma orqali bosmaga chiqarish mumkin.

Interfaol elektron doskada yozilgan matn va grafik ko'rinishlar rangli displey bilan shakllantirilishi hamda printer rangli bo'lgan hollarda chop etilgan nusxalar ham rangli bo'lishi mumkin. Ranglardan foydalanish elektron doskalarni ajratish va uni samarali qabul qilishga imkon beradi.

Interfaol elektron doskalar aqliy hujumlar uchun ajoyib vositadir. Unda ma'lumotlar axborotlarni, nafaqat muhokama qilish davrida xotirada saqlanadi, balki uni ketma-ket tiklash imkonini ham yaratadi. Bu doskalar bilan birgalikda, ma'lumotlarni etiladigan dasturiy ta'minotlar, bir vaqtning o'zida bir necha shaharlarda, konferentsiyalarda seminar o'tkazish va sezilarli darajada auditoriyani geografik jihatdan ko'paytirishga imkon yaratadi. Seminar tinglovchilari o'zlarining monitorlarida ko'riladigan axborotlarni o'qish yoki jamoa holda muhokama qilishlari uchun katta ekranda namoyish etish mumkin.

Interfaol elektron doskalarda qanday texnologiyalardan foydalaniladi? Hozirgi vaqtda ikkita texnologiya, **sensor ekranli** va **elektromagnit nurlanishli texnologiya**ga asoslangan interfaol doskalar ishlab chiqarilmoqda.

Sensor interfaol elektron doskalar ingichka o'tkazgichli ikkita qatlamlardan iborat. Bunday doskalar o'quv muassasalari uchun juda qulay foydalaniladi. Ular ishonarli va agar axborotlar o'chsa yoki yo'qolib qolsa, hech qanday maxsus usullarni talab qilmaydi. Ularning yana bir afzalligi — ma'lumotlarni nafaqat marker bilan, balki qo'l bilan ham yozish imkonligidadir. Bu texnologiya maxsus markerlarni talab qilmaydi, ishlash uchun hech qanday nurlanishdan foydalanilmaydi va tashqi shovqinlar ta'sir ko'rsatmaydi. Kamchiligi - markerni yoki uni boshqa vosita bilan almashtirilganda ma'lumotlar reaksiyasida unchalik katta bo'lmagan ushlanishlar bo'ladi.

Sensorli elektron doska markerlar yordamida har xil foydalanuvchi ma'lumotlarini chaqirib oladigan, hajm jihatidan katta bo'lgan sensor ekrandir. Ular klassik taqdimotlarda yuqori texnologiyalar imkoniyatlari bilan birgalikda, barcha imkoniyatlardan foydalanishga sharoit yaratadi. Interfaol elektron doskalarga ulangan multimedia-proyektorlar multimediali muhitda ishlash

uchun, axborotlarni internet orqali, magnitofon, kompyuter, foto xotira yoki videokameralar bilan taqdimot tipida namoyish qilishni yaratadi.

Interfaol elektron doskalarda yozilgan barcha axborotlar kompyuterda namoyish etish uchun dasturiy ta'minotlarda tekshirilgan bo'lib, bunday namoyish etishlar ham to'g'ri ham to'g'ri amalga oshirilishi mumkin.

Elektromagnitli texnologiya yozuvchi qurilmalaridan olingan signallarga asoslangan. Bunday qurilma sifatida elektron qurilmalar ushlagichga kiritilgan marker bo'lishi mumkin. Afzalligi - qurilmada yuzani yaratish imkoniyatining mumkinligidir. Kamchiligi - elektron nurlanishlar bilan ishlash va maxsus markerdan foydalanish mavjudligida ko'rinadi.

Bu ikki texnologiya ishlab chiqarilgan va keng tarqalgan doskalar uchun o'quv jarayonida qo'llanishga maxsus tayyorlangan yo'naltirilgan va to'liq holda yetkazib beradigan standart kompyuter dasturiy ta'minotlar ishlab chiqilgan.

Hozirgi vaqtda marker holatini aniqlash uchun infragizil va ultragizil datchiklardan foydalanuvchi doskalar ishlab chiqilmoqda. Ularning datchiklar boshqa nurlanishlarga ham sezuvchandir. Gohlida datchiklar infragizil lazerlardan foydalaniladi. Infragizil markerlar markerlar holatini yuqori aniqlikda hisoblaydi. Bu texnologiyalardan qayta foydalanish bo'lishi mumkinligini aytish qiyin, lekin barcha yangi texnologiyalar maxsuslashtirilgan dasturiy ta'minotga bog'liq bo'ladi.

Interfaol elektron doskalar bilan savdo qiluvchi kompaniyalar bu texnologiya asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotmoqda. Bu kompaniyasi bu ikki texnologiya bilan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni bo'yicha o'z mavqeiga ega. Sensorli texnologiya Polyvision kompaniyasi interfaol elektron doskalar uchun ishlab chiqarilgan, ikki seriyadagi WT/WTL doskalarda qo'llaniladi.

Mazkur seriyadagi doskalar yuqori aniqligi bilan ajratiladi (8000x8000 nuqta), harakatlarni tasvirlashning yuqori tezligiga ega bo'lgan markerlar yoki qo'l bilan bajariladi. TSL va WTL seriyalaridagi ko'rsatkichlaridan, ularda avtomatik tebranish funksiyasi ishlab chiqilgan.

...boshqarish uchun boshqarish avtomatik holatga o'tadi. WT\WTL seriyasidagi doskalar Talk and Talk masofadan boshqarish pultining mavjudligidadir.

...kompaniyasining elektromagnitli doskalaridan Communicator 77 doskasi modellarini o'quv auditoriyalari uchun mo'ljallangan. Bu modellarda ...uchqiruvchisi o'rniga maxsus multimediyali marker ishlatiladi. Bu ...faydalanish yuqori tezlikli va aniqlikdagi (1000 liniya dyuym) ...ishlash imkonini beradi.

...qoplama interfaol elektron doskalarni chizilish, ...himoyalaydi va uzoq vaqt ishonarli ishlashini kafolatlaydi. ...chiqsa ham doskaning ishlash qobiliyati yo'qolmaydi.

...auditoriyalari uchun maxsus ishlab chiqarilgan Penbord ...och-kulrang qatlami uzoq vaqt ishlaganda ko'zlarning ...taminlaydi. Barcha elektromagnitli doskalar ichida bu ...spatib turuvchi belgisi, unda oddiy marker bilan yozish imkoni ...

Communicator 77 doskasi 20 ta qaynoq klavishga ega bo'lib, ular ...tomonida joylashgan. Qaynoq klavishlar har xil funksiyalarni tez ...imkon beradi. Ulardan 17 tasi dasturlanishi, ya'ni ularga boshqa ...yuklanishi mumkin.

Activboard interfaol elektron doskasini Prometneon LTD firmasi ishlab ...va u konferensiya prezentatsiyalarini namoyish etish uchun ...Prometneon LTD interfaol elektron doskalarda ish olib ...ishbu doska barcha imkoniyatlaringizni ko'rsatishga yordam beradi. ...elektron doska ACTIVboard dasturiy ta'minotlarda ishlash ...beradi va bu orqali sizni tinglab turuvchi auditoriya a'zolariga ...yetkazish sifatini oshiradi.

ACTIVboard — interfaol elektron doska 1,25 m, 1,62 m, 1,99 m yoki ...diagonalli bo'lib, kompyuter va proyektor bilan birgalikda ishlaydi. ...qalam faol ekran orqali kompyuterni boshqarib, Windows tizimining ...ilovasida ishlay oladi. Infraqizil portli panel yordamida faol ekranni ...istalgan joyidan turib boshqarish mumkin. Aktivtest simsiz ...faydalanib, audiotoriyada test tayyorlash va uni o'tkazish imkonini ...

Activboard interfaol elektron doskalaridan foydalanish auditoriyadagi bir qatnashuvchining faol ishtirokiga imkon yaratadi. elektron qalam orqali kompyuterni sichqoncha kabi boshqarish mumkin.

Interfaol elektron doska ACTIVboard - konferensiyalar, prezentatsiyalar va masofadan o'qitishlarni sifatli o'tkazish uchun mo'ljallangan.

Activboardda — namoyish etiladigan o'quv ma'lumotlarini tayyorlashda va namoyish etishda ACTIVTable — plansheti sodda va qulay yordamchidir. Bu planshet kompyuter sichqonchasi vazifasini bajaradi. Ma'lumotlarni tayyorlashda prezentatsiya yoki konferensiya uchun ACTIVStudio2 yoki ACTIVPrimary texnologiyalarini qo'llaydi. ACTIVTable kompyuterga USB porti orqali ulanadi va dasturiy ta'minotni barcha funksiyasidan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Simsiz qalam orqali, flipchart oynasida matn yozishda yengillik tug'diradi.

ACTIVote — bu prezentatsiya konferensiya o'tkazish paytida dasturiy «teskari aloqa» texnologiyasidir. ACTIVote2 test sistemasi barcha konferensiya qatnashchisiga, savollarga javob berish, ko'rsatilgan bir nechta javoblardan to'g'ri variantni tanlash radiopult tugmasini bosish yordamida amalga oshiradi. Aktivboard radiopult uzatgan ma'lumotni qabul qilib, uni qayta ishlab



konferensiya qatnashchilari bilan uzluksiz aloqada bo'lishni ta'minlaydi. Ushbu texnologiyada auditoriya bilan aloqa o'rnatishda qo'llaniladi. Masalan, muhokamada, ma'lumotlarni yig'ishda yoki testda AKTIVVote2 sistemasi odatda 16 yoki 32 tug pult komplekti mavjud bo'lib, ular tinglovchilarga tarqatiladi va doimiy aloqa o'rnatadi.

ACTIVWAND elektron ko'rsatkich uzunligi 54 sm bo'lib, bo'yi past foydalanuvchilarga elektron doskaning yuqori qismini namoyish etishda qulay. Elektron ko'rsatkich yon tomonida tugmalar mavjud bo'lib u kompyuter sichqonchasini chap tugmasi funksiyasini bajaradi. Ko'rsatkich ish jarayonida «Rollover» va «Hover» funksiyalari mavjud, bu funksiyalar dasturiy vositalarni boshqarish va veb-sahifalar ustida ishlash vazifalarini yengillashtiradi. Elektron ko'rsatkichning afzallik tomoni shundaki, u proyektordan ACTIVboard doskasiga tushayotgan nurni qaytarmaydi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. So'ltustundagi har bir atamaga o'ng ustundan mos ta'rif tanlang:

Activboard —	Interaktiv doska bo'lib, elektron ko'rsatkich uzunligi 54 sm, bo'yi past foydalanuvchilarga elektron doskaning yuqori qismini namoyish etishda qulay moslama.
ACTIVWAND —	ekranning ikki tomonida joylashgan, 20 ta qaynoq klavishga ega bo'lgan, har xil funksiyalarni tez bajarishga imkonni beradigan moslama.
ACTIVote —	yozuvchi qurilmalardan uzatilgan elektron signallarga asoslangan, elektron qalam, elektron ushlagichga kiritilgan markerli doska.
Elektromagnitli texnologiya -	interfaol elektron doska 1,25 m, 1,62 m, 1,99 m yoki 2,45 m diagonalli bo'lib, kompyuter va proyektor bilan birgalikda ishlaydigan, elektron qalam faol ekran orqali kompyuterni boshqarib, Windows tizimining istalgan ilovasida ishlay oladigan doska.
Communicator 77 doskasi -	bu prezentatsiya konferensiya o'tkazish paytida doimiy «teskari aloqa» texnologiyasidir.

2-topshiriq. Mavzuda keltirilgan har bir so'zning ma'nosi haqida o'ylab

qiling. "Tushunchalar tahlili" usulida tahlil qiling.

Tushunchalar	Izohi

3-topshiriq. "FSMU" usulida mavzuni tahlil qiling.

4-topshiriq. O'qiyotgan asaringizdan matn tanlang. Tanlanma matndan mos so'zlarga misollar toping. Tahlil natijalarini quyidagi jadvalga kiritib tushiring. Matndagi so'zlarning modelini yarating.

Trop turlari	Qo'llanish maqsadi	Matndagi ma'nosi	O'z ma'nosi	Misol	Olingan manba, sahifasi	Izoh

SEMINAR MASHG'UOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Interfaol doskalar haqida nimalar bilasiz?
2. Elektromagnitli texnologiyalarning afzalliklari va kamchiligi haqida fikrlaringizni keltiring.
3. Sensor interfaol elektron doskalar uchun sharoit va zamin qaratilgan deganda nimani tushunasiz?
4. O'zbekistonda onlayn ta'limning rivojlanishi haqida fikringizni ayting.
5. Onlayn ta'limning qanday turlari mavjud?
6. Ta'limda axborot texnologiyalarining qo'llanishi haqida fikringizni bering.
7. Video va audio konferentsiyalar nima?
8. Uzoqdan o'qitish sistemalar qanday tizim hisoblanadi?

2-topshiriq. «Gazetaga maqola» mashqi.

O'qituvchi oldindan gazeta va jurnallardan kesib olingan kompyuter lingvistikasiga oid 25-30ta rasmlarni (fotosuratlarini) tayyorlab qo'yishi kerak. Talabalarni 4-5 kishidan iborat guruhlariga bo'ling. Ularga har bir guruhga gazeta va jurnallardan olingan 5 tadan fotosuratlar beriladi. Talabalar berilishini tushuntiring. Guruhning vazifasi ushbu 5 ta fotosuratlardan faqat 3 tasini tanlab olish va kelgusida 3 ta bo'yicha gazetaga maqolalarni yozishdan iborat. Shundan keyin har bir guruhga 5 tadan rasmlar beriladi va 3 daqiqa ichida 3 ta rasmni tanlab olishni iloji qiling. Ishtirokchilarga guruhdagi barcha a'zolarining fikrlari hisobga olinishi kerakligini eslatib. Qolgan 2 ta rasmni murabbiy guruhlardan olib qo'yadi.

Guruhlar rasmlarni tanlab bo'lganlaridan so'ng, har bir guruh a'zolari gazetaga o'z maqolasini yozish, unga nom berish, va uni maqolani bezatuvchi rasmlar bilan bog'lash lozimligini tushuntiring. Ushbu topshiriqni bajarish uchun guruhga 5 daqiqa beriladi. Har bir guruhga 2 varaqdan A4 qog'ozini berib, varaqda maqola yoziladi, ikkinchisida esa guruhlar uni bezatuvchi rasmlar tayyorlaydilar (izchillik bilan yopishtirilgan rasmlar), yelim va 2 rangli markerlarni berib. Guruhlardan o'z rasmlarini boshqa guruhlariga ko'rsatmaslikni iltimos qiling.

Guruhlar o'z ishlarini tugatganlaridan keyin ulardan rasmlar tayyorlangan A3 varaqlarini olib qo'ying va barcha ishtirokchilarga taqdim qilib, devorga/doskaga mahkamlang. Endi esa guruhlarga o'z ishlarini o'qib berishni taklif qiling. Boshqa guruhlarga esa qaysi rasm qaysi mavzuga mos ekanligini o'zlari uchun belgilashlari, so'ng esa o'z gumonlari yoritishlari taklif etiladi.

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Mavzu yuzasidan prezentatsiya tayyorlang.

2-topshiriq. "Ta'lim tizimida o'qitishning zamonaviy usullari" mavzusida referat tayyorlang.

3-topshiriq. "Interfaol doskalar haqida tushuncha", "Elektromagnitli doskalarning afzalliklari va kamchiligi", "Sensor interfaol elektron doskalar uchun sharoit va zarur qurilmalar", "O'zbekistonda onlayn ta'limning rivojlanishi" mavzularining biriga referat tayyorlang.

4-topshiriq. Ispring dasturida mavzu yuzasidan 10 test yarating.

Adabiyotlar:

1. Гуломов С. Ахборот тизимлари ва технологиялари. – Т.: Шарқ, 2001.

2. Марахимов А.Р., Рахманкулова С.И. Интернет ва ундан фойдаланиш. – Тошкент, 2001.

3. Орипов М., Хайдаров А. Информатика асослари. – Т.: Ўқитувчи, 2002.

4. Абдуқодиров А., Хаитов А., Рашидов Р. Ахборот технологиялари. – Т.: Ўқитувчи, 2002.

20-MAVZU:

TAQDIMOT TEXNOLOGIYASI

Reja:

1. Microsoft Office Power Point dasturi haqida tushuncha.

2. Microsoft Office Power Point dasturidagi asosiy tushunchalar

3. Microsoft Office Power Point dasturini tayyorlash bosqichlari

***Tayanch tushunchalar:** taqdimot, Microsoft Power Point, prezentatsiya, slayd, prezentatsiya strukturasi, soxranit, fayl, elektron darslik, tovush effekt, Word Akt, Vstavka.*

Microsoft Power Point – universal, imkoniyatlari keng bo'lgan ko'rgazmali grafika amaliy dasturlari sirasiga kiradi va matn, rasmlar, grafiklar, animasiya effektlari, ovoz, videorolik va boshqalardan tashkil topgan slaydlarni yaratish imkoniyatini beradi.

Google Docs – bajarilgan ishlarni online tarzda Word, Excel yoki Power Point ko'rinishida taqdim etish uchun juda qulay platforma.

Microsoft Power Point dasturi Windows qobig'i ostida yaratilgan bo'lsa ham, ushbu dastur prezantatsiyalar (taqdimot qilish, ya'ni tanishtirish) bilan ishlash uchun eng qulay bo'lgan dasturiy vositalardan biri hisoblanadi. Bu dastur oq-qora barcha ko'rgazmali qurollarni yaratish va ba'zi joylarda esa ma'lumotlar boshqarish sifatida ham qo'llash mumkin. Bundan tashqari, dasturlarni multimedial vositalaridan boshqarish va qo'llash, namoyish etuvchi qurilmalarga yuborish vazifalarini ham bajarish mumkin.

MS Power Point multimedial dasturi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi: slaydlar bilan ishlash, ularni o'zgartirish, yangi slaydlar qo'shish, slaydlarga animasiyalar kiritish, dizayn berish, ovoz yozish, videomateriallarni qo'yish.

Dasturga tegishli bo'lgan bir qator asosiy tushunchalar mavjud.

Prezentatsiya - bu slaydlar va maxsus effektlar to'plami bo'lib, ularni ekranda ko'rsatish; tarqatiladigan material, ma'ruza rejasi va konspekt shaklida bitta faylda saqlanadi.

Slayd - bu prezentatsiyani alohida kadri bo'lib, matnni, sarlavhalarni, grafik va diagrammalarni o'z ichiga oladi. Power Point vositalari bilan yaratilgan slaydlarni oq-qora yoki rangli printerda chop etish yoki maxsus agentlik yordamida 35 millimetrl slaydlarni fotoplyonkalarda tayyorlash mumkin. Slayd – ma'lum bir o'lchovga ega bo'lgan muloqot varaqlari hisoblanadi. Unda bir maqsad bilan yaratilayotgan namoyish elementlari joylanadi. Slaydlar ketma-

iborat tayyor taqdimotni kompyuter ekranida, videoprojektor yordamida katta ekranda namoyish qilish mumkin.

Tarqatiladigan material - qulay shaklda bosib chiqarilgan va tanishish uchun mo'ljallangan materiallar. Ular bir betda ikki, to'rt yoki olti slaydlar chop qilinib beriladi.

Prezentatsiya strukturasi (tuzilishi) - faqatgina slayd sarlavhasini, asosiy grafik tasvirsiz asosiy matnni va maxsus shakllantirishni ichiga o'z ichiga oladi.

Prezentatsiyali (taqdimotli) dars – mavzuga oid taqdimotlarni yaratish uchun qiziqarli, jonli o'tishini ta'minlaydi. Darsda o'qituvchi ma'ruzachi emas, balki sharhlovchi bo'lib, o'quvchilar esa darsning faol ishtirokchilariga aylanib qoladi. Slaydlardagi qo'shimcha effektlar esa o'quvchilarning mustaqil fikrlashga xulosa chiqarishga yordam beradi. Slaydlarning qulayligi shundaki, ularni istilohlar ta'rif keltirish bilan emas, balki gaplarni qiyoslash orqali tushuntirish, bu esa o'quvchini mustaqil fikrlashga va tegishli xulosa chiqarishga imkon beradi.

Taqdimotni tashkil qilish – slaydlar ketma-ketligini loyihalash va tashkil qilish demakdir.

Power Point dasturida taqdimot materiallarini tayyorlash quyidagi bosqichlardan iborat:

1. **G'oyaning shakllanishi** - ya'ni material kimlar uchun mo'ljallangan va qanday ko'rinishda bo'lishi to'g'risida yaratuvchida bir necha g'oyalar shakllanadi.

2. **Ma'lumot yig'ish** - materiallar bo'yicha kerakli ma'lumot yig'iladi. Ushbu ma'lumotlar mavzuiga taalluqli va aniq maqsadga qaratilgan bo'lishi kerak. Aks holda keraksiz va foydasiz ma'lumotlar yig'ilishiga hamda vaqtning ishtirokida sarflanishiga olib keladi.


3. **Reja tuzish** - reja tuzish bosqichi hisoblanib, unda materiallar saralanib olinadi va mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish rejalashtiriladi.

4. **Matn tanlash** - saralab olingan materiallar ichidan slaydga beriladigan matn tanlab olinadi. Slaydlardagi matnlar juda ko'p bo'lishi maqsadga muvofiq emas. Matnlar qisqartirilgan ko'rinishda tanlab olinadi. Bir slayddagi matnlar 7-8 qatordan oshmasligi lozim. Ta'lim beruvchi dars jarayonida qisqartirilgan matnni og'zaki to'ldirilgan holda tushuntirib beradi.

5. Dizayn tanlash - dizayn tanlash bosqichida matnning shartli, qo'shimcha rasm, chizma, grafika va ranglar tanlab olinadi.


6. Animasiya tanlash - ya'ni oltinchi bosqichda barcha tanlab materillarga animasiya qo'yiladi. Animasiyada matn va tasvirlar harakatlantirish, unga ovoz joylashtiriladi.

O'quvchilarning mavzuni mukammalroq eslab qolishida slaydlar o'rni katta. Slaydlar – **topshiriqli slaydlar, ko'rgazmali slaydlar, jadval slaydlar** bo'lishi mumkin. Masalan, "So'zlar dunyosiga marhamat!" nomli taqdimotda so'zlar dunyosi – sinonim, antonim, omonim, paronim haqida topshiriqlar va ko'rgazmalar berilgan. Quyida misol taqdimot slaydlardan faqatgina sinonim so'zlar keltirilgan qismini ilova etamiz.



Slaydlarga o'quvchilar o'zlarini munosabatini bildirishi, uni ta'kidlash mumkin. Bu orqali o'quvchilar quyidagi malakalarga ega bo'ladi:

gʻalati axborotlarni matn shakliga keltirish yoki aksincha;
 oʻrnatilgan mavzu boʻyicha xulosalar va savollarni
 berish;
 oʻqining oʻquv bilish faoliyatini rejalashtirish.



Ushbu slaydlarga video lavhalar, video roliklar, animasiyalar, matnlar, rasmlar (yozilgan ovoz, musiqa va boshqalar) kiritilsa slaydlar ta'siri yanada kuchli bo'ladi.



b) slaydlar va maxsus effektlar to'plami bo'lib, ularni ekranda ko'rsatish uchun tarqatiladigan material, ma'ruza rejasi va konspekt shaklida bitta faylda saqlanadigan hujjat

c) turli xil rasmlarni va chizmalarni, animasiyalarni, har xil effektlarni o'zida mujassam etadigan fayl

d) faqatgina slayd sarlavhasini, shuningdek grafik tasvirlar, animasiya va maxsus shakllantirishni ichiga olgan hujjat

6. Tarqatiladigan material bu –

a) qulay shaklda bosib chiqarilgan va tanishish uchun mo'ljallangan material

b) slaydlar va maxsus effektlar to'plami bo'lib, ularni ekranda ko'rsatish uchun tarqatiladigan material

c) ma'ruza rejasi va konspekt shaklida bitta faylda saqlanadigan hujjat

d) turli xil rasmlarni va chizmalarni, animasiyalarni, har xil effektlarni o'zida mujassam etadigan fayl

7. Prezentsiya strukturasi (tuzilishi) deganda nimani tushunamiz?

a) faqatgina slayd sarlavhasini, shuningdek grafik tasvirlar, animasiya va maxsus shakllantirishni ichiga olgan hujjat.

b) slaydlar va maxsus effektlar to'plami bo'lib, ularni ekranda ko'rsatish uchun tarqatiladigan material, ma'ruza rejasi va konspekt shaklida bitta faylda saqlanadigan hujjat

c) turli xil rasmlarni va chizmalarni, animasiyalarni, har xil effektlarni o'zida mujassam etadigan fayl

d) bu slaydlar va maxsus effektlar to'plami bo'lib, ularni ekranda ko'rsatish uchun tarqatiladigan material, ma'ruza rejasi va konspekt shaklida bitta faylda saqlanadi.

2-topshiriq. Berilgan fikrlarning to'g'risini aniqlang.

✓ Prezentsiya - bu slaydlar va maxsus effektlar to'plami bo'lib, ularni ekranda ko'rsatish uchun tarqatiladigan material, ma'ruza rejasi va konspekt shaklida bitta faylda saqlanadigan hujjat

✓ Prezentsiya – bu tarqatiladigan material, ma'ruza rejasi va konspekt shaklida bitta faylda saqlanadigan hujjat

✓ Slayd - bu prezentsiyaning alohida kadri bo'lib, matn, grafik, animasiya, grafik va diagrammalarni o'z ichiga oladi.

✓ Power Point vositalari bilan barpo etilgan slaydlarni oq-qora rangda ko'rsatish bo'lishi mumkin.

Slaydlarni maxsus agentlik yordamida 35 millimetrlı fotoplyonkalarda
tasvirlash mumkin.

Slayd – ma'lum bir o'lchovga ega bo'lgan muloqot varaqlari

Slayd

Taqdimot slaydlar ketma-ketligidan iborat.

Taqdimotni kompyuter ekranida, videoproektor yordamida katta
qayg'ich qilish mumkin.

Tayyirlanadigan material - qulay shaklda bosib chiqarilgan va tanishish
mo'ljallangan materiallar.

Prezentatsiya strukturasi (tuzilishi) - faqatgina slayd sarlavhasini,
grafik tasvirsiz asosiy matnni va maxsus shakllantirishni ichiga
oladi.

Prezentatsiyali (taqdimotli) dars – mavzuga oid taqdimotlarni yaratish
qayg'ich, jonli o'tishini ta'minlaydi.

Taqdimotni tashkil qilish – slaydlar ketma-ketligini loyihalash va
tasvirlash demakdir.

Uyning shakllanishi - material kimlar uchun mo'ljallanganligida

Ma'lumot yig'ish - materiallar bo'yicha kerakli ma'lumot yig'iladi.

Ma'lumot yig'ish - materiallar bo'yicha kerakli ma'lumot yig'ilmaydi.

Slaydlar – topshiriqli slaydlar, ko'rgazmali slaydlar, grafik va jadval
bo'lishi mumkin.

Slaydlar – faqat matnli bo'ladi.

Topshiriq. Tushunchalarni ketma-ketligini raqamlar ostida kataklarga

1) uyning shakllanishi; 2) reja tuzish; 3) dizayn tanlash; 4) matn
tasvirlash; 5) ma'lumot yig'ish; 6) animasiya tanlash.





4-topshiriq. To'g'ri javoblarni aniqlang. Javoblar jadvaliga "ha" yoki "yo'q" so'zlarini yozing. "Taqqimot texnologiyasi" mavzusiga oid tushunchalarni toping.

No	Tushunchalar	"ha" yoki "yo'q"
1.	Slayd	
2.	Virtual kutubxona	
3.	Taqqimot	
4.	Onlayn dars	
5.	Prezentasiya	
6.	Reja tuzish	
7.	Animatsiya	
8.	Web texnologiya	
9.	Topshiriqli slayd	
10.	Ko'rgazmali slayd	
11.	Ko'rgazmali ma'ruza	
12.	Jadvalli slayd	
14.	Google Docs	
15.	Power Point	
16.	Excel	

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Yod oling.

Prezentatsiya - bu slaydlar va maxsus effektlar to'plami bo'lib, slaydlar ekranda ko'rsatish; tarqatiladigan material, ma'ruza rejasi va konspekt shaklida bitta faylda saqlanadi.

Slayd - bu prezentatsiyani alohida kadri bo'lib, matnni, sarlavhalmi, grafik va diagrammalarni o'z ichiga oladi. Power Point vositalari bilan tayyor etilgan slaydlarni oq-qora yoki rangli printerda chop etish yoki maxsus asboblarda yordamida 35 millimetrlil slaydlarni fotoplyonkalarda tayyorlash mumkin.

Tarqatiladigan material - qulay shaklda bosib chiqarilgan va tashish uchun mo'ljallangan materiallar. Ular bir betda ikki, to'rt yoki olti slaydlar ekranga etilgan bo'ladi.

Prezentatsiya strukturasi (tuzilishi) - faqatgina slayd sarlavhasi, shuningdek grafik tasvirsiz asosiy matnni va maxsus shakllantirishni o'z ichiga olgan hujjat.

Kompyuter grafikasi - turli xil rasmlarni va chizmalarni, animatsiyalarni, har xil effektlarni, ovozlarni o'zida mujassam etgan jamlanma.

2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. MS Power Point dasturi haqida nimalar bilasiz?
2. MS Power Point dasturining afzalliklarini sanang.
3. MS Power Point dasturining kamchiliklarini sanang.
4. Dars jarayonida MS Power Point dasturini qo'llash qanday qulayliklar keltiradi?
5. Kompyuter grafikasi nima?
6. Kompyuter grafikasi bilan MS Power Point dasturining farqini izohlang.
7. Taqdimot bilan slaydning nima farqi bor?
8. Taqdimotni qo'llashda zarur bo'lgan vositalarni sanang.

3-topshiriq. «Eng muhimi nima?» mashqi.

Talabalarni 4-5 kishidan iborat guruhlariga bo'ling. Ularga har bir guruhga mavzudan olingan tushunchalar yozilgan guruh kartochkalari to'plamini, A3 formatli va yelim berishingizni tushuntiring. Har bir guruhning vazifasi guruh kartochkalarni ko'rib chiqib, guruh fikriga ko'ra, bugungi kunda eng dolzarb va muhim bo'lgan 9 ta tushunchani tanlab olishdan iborat. Talabalarga bu tanlab olish ekanligini va ular o'z g'oyalarini muhokama qilishlari va har bir talababaning fikrini e'tiborga olishlari lozimligini eslatib qo'ying.

Guruh uning nazarida 9 ta dolzarb va muhim tushunchalarni tanlab olingandan keyin, guruh talabalaridan to'qqizta kartochkalardan foydalanib, rombik qator"ni qurishni iltimos qiling. Guruhga "rombik qator" nimaligini tushuntirayotganda, ma'lumotnoma jadvalini chizing yoki ilib qo'ying:

	1		eng ahamiyatli
	2	2	juda ahamiyatli
3	3	3	o'rta ahamiyatli
	4	4	ahamiyati kamroq
	5		eng ahamiyatsizi

Talabalar muhim masala yozilgan kartochkani varaqning yuqori qismiga o'zining cho'qqisiga joylashtiradilar. Uning ostida, ularning fikriga ko'ra, ahamiyatsizroq, lekin baribir kerakli bo'lgan ikkita kartochkani joylashtiradilar.



So'ng o'rta ahamiyatga ega bo'lgan uchta kartochkalar va ikkita birmuncha ahamiyatsizroq kartochkalar, rombning quyida ahamiyatsiz kartochkalar joylashtiriladi.

Talabalar tartibga keltirish yuzasidan kelishib olganlaridan keyin, ular kartochkalarni bir varaq qog'ozga yopishtirib qo'yishlari mumkin.

Har bir guruhning bir talabasidan nima uchun kartochkalarni taqsimlashning aynan shunday yo'li tanlab olinganligini tushuntirishni ilmiy qiling.

4-topshiriq. Sevib o'qigan kitobingizning taqdimotini yarating.

5-topshiriq. Oilangizning taqdimotini yarating.

6-topshiriq. Sevib ko'rayotgan kinofilmingizning taqdimotini yarating.

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Mavzu yuzasidan prezentatsiya tayyorlang.

2-topshiriq. "Microsoft Office Power Point dasturi o'qitishning zamonaviy usuli" mavzusida esse yozing.

3-topshiriq. "Microsoft Office Power Point dasturi haqida", "Microsoft Office Power Point dasturining yutuqlari va kamchiliklari", "Ushbu samaradorligini ta'minlashda Microsoft Office Power Point dasturi vosita", "O'zbekistonda taqdimotli darslar - ta'lim samarasi" mavzularidagi biriga referat tayyorlang.

4-topshiriq. Professor S.Karimovning saytni yaratish uchun ma'lumot bazasini yig'ing.

5-topshiriq. Ispring dasturida mavzu yuzasidan 10 test yarating.

Adabiyotlar:

5. Ғуломов С. Ахборот тизимлари ва технологиялари. – Т.: Шарқ, 2001.
6. Марахимов А.Р., Раҳманқулова С.И. Интернет ва ундан фойдаланиш. – Тошкент, 2001.
7. Орипов М., Хайдаров А. Информатика асослари. – Т.: Ўқитувчи, 2002.
8. Абдуқодиров А., Хайтов А., Рашидов Р. Ахборот технологиялари. Ўқитувчи, 2002.
9. Қодиров Т., Эрназаров А. Компьютерда ишлашни ўрганамиз. Методик тавсиянома. – А.Авлоний номидаги ХТХҚТМОМИ, 2006.
10. Назиров Ш.А., Қобулов Р.В. ва бошқалар. Компьютер ва офис фойдаланиш. – Тошкент, 2007.

21-MAVZU:

AUDIO-VIZUAL VOSITALARNI YARATISH

Reja:

1. Audio va video materiallar.
2. Audio va video materiallarni on-layn namoyish qilish.

Tayanch tushunchalar: Multimedia, audiokonferensiyalar, videokonferensiyalar, ovoz kommunikatsiyalari (karaoke), virtual borliq, animatsiya, audiovizual, operator, (provayder) server, sayt.

Insonda ko'rish hissiyoti eshitish hissiyotidan yuqori turadi. Shuning uchun ko'rguzmali ma'lumot ta'limda keng ko'lamda qo'llaniladi. Hozirgi kunda ta'lim tizimida audio va video ma'lumotlardan foydalanish keng ko'lamda qo'llanilmoqda.

Audio-vizual vositalar – zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida eshitish va ko'rishga mo'ljallangan matn, tasvir, grafika, jadvallarni o'zida mujassamlashtirgan ma'lumotlarni foydalanuvchilarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir.

Video so'zi lotincha *video* so'zidan olingan bo'lib – ko'rayapman ma'nosini anglatadi. «Video» so'zi televideniye rivojlanib o'tirib, o'zining keng tadbirini topdi.

Hozirgi vaqtda ta'lim tizimida video ma'lumotlardan foydalanish ko'lamda qo'llanmoqda. O'z davrida Konfusiylar shunday deydilar: «Eshitganlarimni unutaman, ko'rganlarimni eslab qolaman». Insonning hissiyoti eshitish hissiyotidan yuqori turadi. Shuning uchun video ma'lumot ko'rgazmali ma'lumot hisoblanadi. Ishonch bilan aytish mumkinki, video kelajakda keng ko'lamda qo'llanilishi mumkin. Videota'limning asosiy xususiyati – o'qituvchisiz ta'lim olishdan iborat. Ammo, shuni ta'kidlash joizki, o'qituvchi o'z o'rnini hech qanday videota'lim bosa olmaydi. Ingliz tilidagi saytlarda videota'limdan foydalanish boshlanganiga yigirma yillar bo'lgan. Video ma'lumot ham On-line va Off-line rejimlari orqali tarqatiladi. On-line rejimida materiallar to'g'ridan-to'g'ri uzatilganligi uni deyarli an'anaviy ma'lumotdan farqini qoldirmaydi. Bunda pedagog va talabalar bir-birini real vaqtda ko'rib, eshitib turishi ular orasidagi masofaviy oraliqni yo'q bo'lishiga olib keladi. Texnologiya pedagog va talabaning bevosita muloqoti asosida tashkil topishi bilan ajralib turadi.

Off-line rejimida video materiallar videokassetlar va disklarga yozilib tarqatiladi. Bunday video materiallar tarkibiga ma'ruza, mavzuga ta'lim ommabop videomateriallar, shu sohaning yetuk mutaxassislari bilan uchraydigan videolavhalari kiritiladi. Bunday video materiallardan foydalanishni har qanday joyda va vaqtda, takror va takror amalga oshirish mumkin.

Audio so'zi lotincha *audio* so'zidan olingan bo'lib – eshitaman ma'nosini bildiradi. Ushbu formatdagi ma'lumotlardan o'quv jarayonida foydalanish ilgari, ya'ni audio yozuvlar paydo bo'lgan vaqtdan boshlangan. Video ma'lumotlardan foydalanish ayniqsa tillarni o'rganishda juda qulay va samara berishi mumkin.

Audio materiallar ikki rejim orqali tarqatiladi. On-line rejimida audiomateriallar kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib tarqatiladi. Audiomateriallar telekommunikatsiya qurilmalariga yuqori talab qo'yadigan pedagog va talabalarda turli jismoniy holatlarni sezdirmasligi bilan ajralib turadi. Off-line rejimidagi audiomateriallar audiokassetalar, audio

soʻzlarga yozilgan holda tarmoq texnologiyalari orqali tarqatiladi. Talabalar tomonidan maʼruzalarni eshitish ham shu kabi qulay va ixcham boʻlgan audio vositalar orqali amalga oshiriladi. Masalan, ona tili va adabiyot darslarini oʻqitishda karaokedan foydalanish yaxshi samara beradi. Ona tili darslari oʻquvchining soʻz boyligini oshirishda asosiy oʻrinni egallaydi. Ona tilini oʻrganish, muomala-munosabat zaruriyati, radio, televideniye, matbuot, badiiy adabiyot kabilar uning soʻz olamini toʻldiradigan asosiy manbalardir.

Audio-vizual vositalarga televideniye va radiokoʻrsatuvlar, taqdimotlar, ovoz kommunikatsiyalari (karaoke), disketalar, CD-ROM va DVD disklar, videokassetalar, audiokassetalar kiradi.

Darslarning samaradorligini oshirishda quyidagi audio-vizual vositalardan foydalanish mumkin:

- audiokonferensiyalar;
- videokonferensiyalar;
- ish stolidagi videokonferensiyalar;
- ovoz kommunikatsiyalari (karaoke);
- virtual borliq.

Oʻquvchi nutqida faqat tilimizda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tufayli paydo boʻlayotgan soʻzlar emas, balki ular birinchi marta duch kelayotgan mavjud soʻzlar, chunonchi, **badiiy matnda:** *bo'lma (xona), ishkom (tok so'risi), omi (ovodsiz), sinchalak (chittak), so'ri (katta taxta karavot), hamiyatli (oriyatli); ijtimoiy-iqtisodiy matnda: menejer, profilaktika, menchendayzer, mentalitet, sonotexnologiya, internet, paynet, xolding* kabilar kompyuter xotirasiga ovozli kiritib, soʻng dars jarayonida ular oʻqib eshittiriladi, oʻquvchi esa birgalikda takrorlaydi.

Oʻquvchilarni bunday yangi soʻzlar bilan tanishtirib borish ona tili oʻrnatilgan soh'ulotlarining asosiy vazifasi sanaladi. Bundan tashqari, bola har kuni fan sohaslarini oʻrganish jarayonida sinfdan va maktabdan keyingi foliyatida qanchadan-qancha yangi soʻzlarga duch keladi va ularning ma'nolarini bilib

oladi. Til hodisalarini o'rganish jarayonida ularga notanish bo'lgan so'zlar va atamalarning ma'nolari izohlab borilishi shart.

Yoki, **-i, -u** tovush (harf)larining talaffuzi va imlosi o'rganilish sharti. **urish, tushum-tishim** singari so'zlarni kompyuter xotirasiga kiritib, talaffuz o'quvchi ham takrorlaydi, so'ng taqqoslash orqali ularning ma'no va imlo imlosini sharhlaydi.

Qo'shma otlar va ularning imlosi uchun **paxtagul, boshog'rig'i, gul** singari qo'shma otlarni **paxta guli, bosh og'rig'i, gul bozori** singari birikmalari bilan taqqoslash orqali ularning ma'no va imlo farqlarini bilib olish mumkin.

Adabiyot darslarida esa, taniqli shoirlarning she'rlari asosida yozilgan qo'shiqlarni o'quvchilar karaoke yordamida kuylashadi. Bunda o'quvchi bir tomondan, qo'shiqni yod oladi va xotirasini o'tkirlaydi, ikkinchi tomondan, qo'shiqdagi yangi so'zlarni bilib, ularning ma'nosini aniqlashga harakat qiladilar.

Animasion ma'ruzalar talabalarga interaktiv tuzilishga ega bo'lgan o'rgatuvchi kompyuter dasturlari orqali yetkaziladi. Animasion ma'ruzalar multimedia texnologiyasidan foydalanib, shunday shakllantirildiki, bunda bir talaba o'zining psixofiziologik xususiyatidan kelib chiqib, bu turdagi ma'ruzada o'z trayektoriyasi, o'zlashtirish sur'ati, o'rganish usulini tanlaydi.

Audio-video materiallarini on-layn namoyish etish. Internet tarmoqlarining rivojlanishi bilan video va audio materiallardan o'quv jarayonida foydalanishning qulay imkoniyatlari vujudga keldi. Internet tarmoqlarida video va audio materiallarni saqlash uchun maxsus serverlar mavjud. Masalan **Youtube** – bu video almashish uchun veb-sayt, bu saytda tashrif buyuruvchi videoni yuklash va jo'natish, tomosha qilishlari mumkin. Youtube saytida jami mavzularda yetarli darajadagi video ma'lumotlar to'plangan. Mazkur saytda ma'lumotlar avi, yoki flv formatlarida saqlanadi. Flv formatidagi fayllar ishonchli va uni yuklash uchun ko'plab internet resurslari talab etilmaydi.



Internet olganda, yaratilgan saytni internet tarmog'ida joylashtirish uchun yuboriladi. Internet operatorlarining (provayder) serverlarida saytlarni xosting xizmati – xosting xizmati ko'rsatish deyiladi. Turli yo'nalishdagi turli saytlar singari video va audio ma'lumotlar ham serverlarda joylashadi.

Video materiallar xosting saytlaridan namunalar:

1. "Google video" – хостинг видеоматериалов
Смешное, страшное, удивительное видео, рекламные ролики, спортивные моменты и пр. Возможность бесплатного размещения. http://video.google.com/
2. "Grouper.com" – бесплатный хостинг видео
Возможность размещения и просмотра роликов: музыкальные, рекламные, анимационные материалы, приколы, семейное видео и пр. http://crackde.com/
3. "Intv.ru" – видеохостинг
Возможность создания собственного видеоканала, интернет-телевидения, интернет-магазина по продаже видео. Поиск видео по тегам, жанрам, категориям и алфавиту. http://www.intv.ru/
4. "Lovt.tv" – видеохостинг
Подборки авторского видео, мультфильмов, клиптрейлеров, видеоприколов и др.; поиск видеороликов по тегам, тематика, популярность. http://www.lovt.tv/

Audio va vizual effektlari o'zaro muloqotli dasturiy ta'minot tashkilotida birgalikda namoyon bo'ladi. Odatda bu matn, tovush va grafikaning, so'nggi vaqtlarda esa – animatsiya va videoning ham birlashishida namoyon bo'lmoqda.

Multimedia – zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida matn, tasvir, grafika, animatsiya, jadval, audio, video effektlarini o'zida mujassamlashtirgan ma'lumotlarni o'quvchilarga etkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir

Audiovizual va multimedia vositalaridan foydalanishning afzalliklari:

- o'quv materiali chuqur va mukammal o'rganiladi;

- o'quvchiga istalgan paytida (bo'sh vaqtlarida ham) ta'lim, bilim olish imkonini beradi;

- audiovizual va mul'timediali materiallar o'quvchining xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi;

- o'quvchiga o'zi xohlagan ma'lumotlarni masofada turib o'rganish imkonini beradi;

- ta'lim olish vaqtining qisqarishi natijasida, vaqtni tejash imkoniyatini erishiladi.

Audio-vizual materiallarni yaratishda bir qancha dasturlar mavjud. Jumladan, Movie Maker dasturi.

Movie Maker – Microsoft Windows operatsion tizimining asosiy dasturlaridan bo'lib, u orqali filmlar ustida ishlash, ovoz yozish, rasmlar yaratish mumkin.

Movie Maker dasturi yordamida quyidagi amallarni bajarish mumkin:

- video yozish;
- rasmga olish;
- Movie Makerga multimediali fayllarni import qilish;
- faylni saqlash;
- klipni montaj qilish;
- videoeffekt, videoo'tish va tekstlar bilan ishlash;
- ovozlar bilan ishlash.

Odatdagi televideniedan farqli o'laroq, internet orqali uzatiladigan TV dasturlarda foydalanuvchiga imkoniyatlar beriladi. Yagona formatning qo'llanilishi ma'lum darajada videosignallarning sifati buzilmasligini ta'minlaydi. Fayl formatidagi materialni yuklash eng tezkor va ishonchlidir. Axborotni fayl formatida uzatishning afzalliklaridan biri tarmoq tezligi bilan baholanadi. Undan tashqari IP protokollari va hatolikni tekshiruvlar axborotni uzatishning aniqligini kafolatlaydi. Fayllar real vaqtga nisbatan 20-30 marta tezroq uzatilishi mumkin.

Ta'lim tizimida audio-vizual vositalardan foydalanish quyidagi afzalliklarga ega:

- o'quv materiali chuqur va mukammal o'rganadi;
- o'quvchiga istalgan paytida (bo'sh vaqtlarida ham) ta'lim, bilim olish imkonini beradi;

- audio-vizual va multimediali materiallar o'quvchining xotirasida uzoq saqlanib qoladi;
- o'quvchiga o'zi xohlagan adib, asar haqidagi ma'lumotlarni masofada o'rganish imkonini beradi;
- ta'lim olish vaqtining qisqarishi natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Berilgan fikrlarning to'g'risini aniqlang.

- ✓ Video so'zi ko'ryapman, qarayapman ma'nosini anglatadi.
- ✓ Audio so'zi eshitaman ma'nosini bildiradi.
- ✓ Video so'zi eshitaman ma'nosini anglatadi.
- ✓ Audio so'zi ko'ryapman, qarayapman ma'nosini bildiradi.
- ✓ Audio va video so'zlari lotincha so'z hisoblanadi.
- ✓ Audio va video so'zlari fransuzcha so'z hisoblanadi.
- ✓ Ma'lumot yig'ish - materiallar bo'yicha kerakli ma'lumot yig'iladi.



- ✓ Ma'lumot yig'ish - materiallar bo'yicha kerakli ma'lumot yig'ilmaydi.
- ✓ Slaydlar – topshiriqli slaydlar, ko'rgazmali slaydlar, grafik va jadval slaydlar bo'lishi mumkin.
- ✓ Slaydlar – faqat matnli bo'ladi.

2-topshiriq. Movie Maker dastur orqali "Sohibqiron Amir Temir" mavzusida qisqa video yaratishga harakat qiling.

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Audio nima?
2. Videoqatorlar qanday turlarga bo'linadi?
3. Audiotizim nima?
4. Audiotizimni tashkil etuvchilari qaysilar?
5. Videotizim nima?
6. Audio va video vositalarining afzalliklarini sanang.
7. Audio va video vositalarining kamchiliklarini sanang.



8. Dars jarayonida Audio va video vositalardan foydalanish qanday qulayliklar keltiradi?

9. Audio va video vositalarining bir-biridan nimasi bilan farqi qiling.

10. Audio va video vositalarini qo'llashda zarur bo'ladigan qoidalarni sanang.

2-topshiriq. Sevgan mashg'ulotingizni video dastur asosida 1 daqiqalik video yarating.

3-topshiriq. Oilangizdagi eng quvonchli suratlarni topib ularni video yorutib yarating.

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Mavzu yuzasidan prezentatsiya tayyorlang.

2-topshiriq. "Audio-video vositalar – o'qitishning samaradorligini oshirish" mavzusida esse yozing.

3-topshiriq. "Audio-video vositalar haqida", "Audio-video vositalarining yutuq va kamchiliklari", "Dars samaradorligini ta'minlashda Audio-video vositalarning o'rni" mavzularining biriga referat tayyorlang.

4-topshiriq. Professor A.Xojiyevning sayтини yaratish uchun ma'lumot bazasini yig'ing.

5-topshiriq. Ispring dasturida mavzu yuzasidan 10 test yarating.

Adabiyotlar:

1. Гуломов С. Ахборот тизимлари ва технологиялари. – Т.: ИИQA, 2000.

2. Марахимов А.Р., Рахманкулова С.И. Интернет ва ундa фойдаланиш.- Тошкент, 2001.

3. Абдуқодиров А., Хаитов А., Рашидов Р. Ахборот технологиялари Т.:Ўқитувчи, 2002.

4. Назиров Ш.А., Қобулов Р.В. ва бошқалар. Компьютер ва оғир жихозларидан фойдаланиш. - Тошкент, 2007.



22-MAVZU:

BILIMLARNI NAZORAT QILISH, NAZORAT ISHLARINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH

Reja:

1. Baholash tushunchasiga ta'rif.
2. Baholashning mohiyati, shakllari, tamoyillari.
3. Bilimlarni nazorat qilish va baholashning avtomatik tizimi.
4. Baholashni shakllantiruvchi turli interaktiv vositalar.

Tayanch tushunchalar: bilimlarni nazorat qilish, bilimlarni baholash

TOYeFL, IYELTS, Quizalize, Kahoot dasturi, Flipquiz, Socrative, Meet.

Biz baho va baholash bo'yicha yetarli tushunchaga egamiz, nazarimizda. Baholash nima? Mutaxassislarning fikricha, baholash ta'lim jarayonining bosqichida o'quv maqsadlariga erishganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

Baholash axborot vositasi bo'lib, o'quvchining rivojlanish sur'ati va o'quv natijalarini moslashtirish uchun ushbu axborotdan foydalanish lozim. **Baholash** - axborot jamlash va biror narsaning qadriyatlariga fikr-mulohaza yuritishdan iborat tizimli jarayon. Ta'lim jarayonida nazorat natijalarini o'lchab borish, bilim, ko'nikma va malakalarni baholash o'quvchining o'zligini anglashi uchun bir imkoniyatdir.

Baholashning maqsadi - o'quvchi nimani bilishi va nimani bila olishini aniqlash. Uning bilimidagi bo'shliqlarni oshkor etib, ularni bartaraf etish, o'quvchini rivojlantirish.

Ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materiali o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish va baholash ta'lim jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o'quv jarayonining turli bosqichlarida ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir. Bilimlarni tekshirish va baholashning ta'limiy ahamiyati shundan iboratki, bunda o'quv materialining o'zlashtirilganligi haqida ta'lim beruvchi ham, ta'lim oluvchi ham muayyan

ma'lumotga ega bo'ladi. Baholash natijasida ta'lim beruvchi uchun ta'lim oluvchilarning nimani bilishi va nimani tushunmasligi, qaysi material yanada o'zlashtirilgan, qaysi biri hali yetarli darajada o'zlashtirilmaganligi yoki o'zlashtirilmaganligi ma'lum bo'ladi. Bu ta'lim oluvchining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ta'lim beruvchi o'z faoliyati natijalariga tanqidiy baho berish o'qitish metodlariga tuzatishlar kiritadi. Shuningdek, baholash natijalari ta'lim beruvchining o'quv dasturidagi materiallarni ta'lim oluvchilarning bilish imkoniyatlari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqishi va baholashi uchun ham juda muhimdir. Bilimni nazorat qilish va baholash davlat ahamiyatiga ega. Baholash natijalarini umumlashtirib, ta'lim muassasasi jamoasining ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyatiga, o'quvchilarning umumiy o'zlashtirish darajasiga baho beriladi va tegishli xulosalar chiqariladi. Davlat ta'lim standartlarini davlat tomonidan qo'yilgan talablar qanday bajarilayotganligi aniqlanadi.

Natijalarni baholash orqali bir paytning o'zida butun ta'lim tizimi va uning komponentlari tekshirib ko'rilishi kerak. Bu bilan ta'lim tizimida kutilayotgan natijaga erishilayotganlik darajasi o'lchanadi. Bilimlarni muntazam baholash borish ta'lim rejasi, uning katta-kichik bo'limlari asosida amalga oshiriladi.

Ruhshunoslarning fikricha, hozirgi kunda mavjud bo'lgan baholash tizimining asosiy kamchiligi - bolaga jabr yetkazuvchi ta'siridir. O'quvchilarga baholar e'lon qilinayotganda sinfda paydo bo'ladigan sukunat bizga juda ko'p Barcha o'qituvchilar bahoga bo'lgan munosabatni ko'p ko'zdan kechirib, oshkora xursandchilik yoki achchiq ko'z yoshlarini ko'rishgan. Nima uchun bolaning hayotida muhim o'rin olgan? Avvalambor, u o'zini o'zi baholash muvaffaqiyatni motivasiyalash, xavotirlik, ruhiy sokinlik, atrofdagilarga o'zaro munosabat, ijod kabi tushunchalar bilan bog'liqdir. Sir emasi, ta'lim baho o'quvchining kayfiyatini ko'tarib, bilimga bo'lgan qiziqishini, o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi. Bu holat etnopedagogikamizda ham qayd etilgan. O'quvchi yomon baho olganda unga tanbeh berilishi uning kayfiyatini tushiradi, bilim olishga qiziqishi so'nadi, ishtiyoq so'ngandan keyin bahoning ahamiyati yo'qoladi.

Tajribalardan shu narsa ma'lumki, o'quvchining o'z faoliyatini o'z baholashi, o'ziga o'zi baho qo'yishi eng adolatli, to'g'ri va istiqbolli yo'l. Bunday o'lchov mezonini o'quvchi bilimi sifatini monitoring asosida baholash

Baholash shunday olib borilmog'i kerakki, u o'quvchining o'qishga bo'lgan qiziqishini, xohish- istaklarini, ichki xis-tuyg'ularini oshirishga xizmat qiladi. O'quvchining o'ziga ishonchi ortishi o'quvchi shaxsining doimiy o'zlashtirishini kafolatlaydi.

Baholashning mohiyati, shakllari, tamoyillari

Baholash natijasida nafaqat ta'lim oluvchining, balki ta'lim beruvchining yutuqlari va kuchsiz tomonlari, shuningdek, o'quv jarayonidagi kamchiliklar aniqlanadi. O'qitish vositalari, o'quv rejalari, ta'lim jarayonini tashkil etish usullariga ham baho beriladi. Baholash o'qituvchining kundalik faoliyatlaridan iboratdir. Siz o'z tajribangizda o'quvchining faoliyatini qanday baholaysiz?

Soha mutaxassislari va ilg'or tajribali pedagoglarning fikricha, **baholash** quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- O'quv maqsadlariga asoslanganlik.
- Haqqoniylik.
- Ishonchlilik.
- Qulaylik.

Nima uchun baholash kerak?

- o'quv maqsadlariga erishilganligini aniqlash uchun;
- keyingi bosqichga o'tishdan oldin avvalgi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- natijaga erishganligini tasdiqlash uchun;
- o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash uchun;
- yutuq va kamchiliklarni aniqlash uchun;
- o'qituvchi o'z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi uchun;
- yalpi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- ta'lim jarayoni yutuqlarini aniqlash uchun;
- o'quvchilarni yutuqqa erishishga qiziqitirish uchun;
- tashqi kuzatuvchilar, ish beruvchilar, yuqori tashkilotlar va ota-onalarga ma'lumot berish uchun.

Nimani baholash kerak?

- nazariy bilimlarni;
- amaliy ko'nikma va malakalarni;
- xulq-atvor va shaxsiy fazilatlarini.

Qanday baholash kerak?

- ta'lim jarayoni boshida (boshlang'ich baholash);
- ta'lim jarayoni davomida (joriy baholash);
- ta'lim jarayoni yakunida (yakuniy baholash).

Baholashning asosiy xususiyatlari:

- ta'lim maqsadiga yo'nalganlik;
- muntazamlik;
- pedagogik, psixologik va huquqiy tamoyillarga asoslanganlik;
- umumiy qabul qilingan natija standartlariga asoslanganlik.

Yuqorida ta'kidlanganidek, nazariy bilimlar baholanganda, ko'p o'quv maqsadlariga erishganlik darajapari aniqlanadi. Amaliy ta'lim malakalar baholanganda, psixomotorik; xulq-atvor, shaxsiy fazilatlar bo'yicha esa affektiv o'quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi.

Baholash mezonlari. Har qanday baholash natijalari o'zaro taqqoslashga yaroqchi bo'lishi lozim bo'ladi. Ularni taqqoslash baholashdan oldin ishlatiladigan mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Baholash mezonlari maqsadlariga qay darajada erishilganlikni anglatuvchi ko'rsatkichlar ko'rsatkichlar raqamlar («besh» «to'rt», «uch» va hokazo), so'zlar («yaxshi», «qoniqarli» va hokazo) yordamida tavsiflanishi mumkin. Baholash natijalari qilib aytadigan bo'lsak, baholash mezonlari ta'lim oluvchining qay darajasini namoyish qilishiga qarab mos qo'yiladigan baholash ko'rsatkichlar tavsifidan iborat.

Baholash shakllari. Baholash mohiyatidan kelib chiqib, ikki turla bo'lishi mumkin:

1. Mezonga asoslangan baholash.
2. Me'yorga asoslangan baholash.

Mezonga asoslangan baholash - baholanuvchining ta'lim jarayonida qo'lga kiritgan natijalari, bilim, malaka va ko'rsatkichlar oldindan belgilangan o'quv maqsadlari asosida ishlab chiqilgan baholash uchun umumiy va bir xil mezonlarga ko'rataqqoslash va taqqoslash bo'yicha iborat bo'lgan baholash shaklidir. Bunday baholash mezonlari belgilab beruvchi o'rganish maqsadlari bo'yicha natijalarga baholash imkoniyatini yaratadi. Bu orqali natijalar to'g'ridan to'g'ri baholanadi, shuningdek, kuchli guruhlarni kuchsiz guruxlardan farqlash imkonini beradi. Bu baholash shakli ikki bosqichli.

lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalari baholanadi; ikkinchi bosqichda esa natijalar mezonlar bo'yicha o'lchanadi.

Baholash shakllarining	
afzalliklari (+)	kamchiliklari (-)
O'quv maqsadiga muvofiq baholanadi.	Mezonlarni ishlab chiqish ko'p vaqt talab qiladi.
Ta'lim oluvchining o'zlashtirish darajasini xolisona baholaydi.	Mezonlarning obyektivligi, haqqoniyligi va aniqligini belgilashga nisbatan talablarning ko'pligi.
Baholash o'zining aniq ko'rsatkichlariga ega bo'ladi.	Ijtimoiy fan yo'nalishlari bo'yicha mezonlar ishlab chiqishda qiyinchiliklarga duch kelinadi.
Baho ta'lim oluvchi yo'l qo'ygan xatolarni yaqqol ko'rsatib beradi.	
Baholanuvchini ta'lim olishga yo'naltiradi.	
Uquvchilarning baholanayotgan sohadagi kuchli va kuchsiz tomonlarini xolisona aniqlab beradi, ularning o'z bilimi va malakalariga bo'lgan ishonchini oshiradi.	
Hamma uchun bir xil bilim va malaka talablarini o'rnatadi.	
Ta'lim mazmunini aniqlab boradi.	
Baholanuvchilarning o'z faoliyati natijalariga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi.	

Me'yorga asoslangan baholash - nisbiy baholash shakli bo'lib, u baholanuvchilarning ta'lim jarayonida qo'lga kiritgan natijalarini o'zaro taqqoslash orqali o'lchasdan iborat. Bu baholash shakli ham ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa bu natijalar o'zaro taqqoslash orqali o'lchanadi. Me'yorga asoslangan baholashda baho bir necha ko'rsatkich va ta'lim olish shart-sharoitiga ko'ra, masalan, o'qituvchi paydo bo'lishi yoki o'qituvchining o'ta qattiqqo'lligi sababli ham tomonidan xayrixohlik o'zgarishi mumkin. Paydo bo'lishi yoki o'qituvchining o'ta qattiqqo'lligi sababli ham tomonidan xayrixohlik o'zgarishi mumkin.

1. Marhamat, har biringiz daftaringizga o'z ismingizni yozing
Endi bor mahoratingizni ishga solib, ismingizni birinchi tagiga yana bir marta yozing.

- Ikkinchisining birinчисidan farqi bormi?

- Nimasi bilan farqlanadi?

Ismingiz yozuvlari tagiga uchinchi marta chap qo'lingiz bilan yozing.

- Uchinchi marta yozganingizda o'zingizni qanday his qildingiz?

- Nima uchun shunday deb o'ylaysiz?

Insonlar (jumladan, o'quvchilar ham) uch toifaga bo'linadilar:

1-toifadagilar - qanday bersak, shunday qabul qiladilar. Bular bahoga o'qiyotganlar.

2-toifadagilar - o'qituvchi bilan parallel ishlaydilar. Bular o'qiyotganlar, Ular har bir vazifa (ish)ni puxta, sidqidildan bajarayotganlar.

3-toifadagilar - ancha mehnat qilishadi, mashaqqat bilan bahoga o'qiyotganlar.


Bolon deklaratsiyasi amalda bo'lgan chet el mamlakatlari tajribasi va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib ta'lim tizimiga talabalar yangi usullar kirib kelmoqda. Bu holat nafaqat o'qitishning yangi usullari shakllanishi, balki bilimni baholash jarayonlariga ham ta'sir qilmoqda. Ma'lumki, talabalar bilimni nazorat qilish va baholash ta'lim jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Bunda asosan har bir talabani individual ko'rsatkichlari aniqlanadi. Ya'ni, baholash jarayoni turli baholash ko'rsatgan natijalarini taqqoslashni ko'zda tutmaydi. Bilimni baholash asosiy maqsadlaridan biri ta'lim oluvchining o'zlashtirish ko'rsatkichlariga asoslanib, o'qituvchining ta'lim berish natijalarini tahlil qilgan holda, keyingi o'qitish jarayonini qanday tashkil qilish bo'yicha to'g'ri qaror qabul qilishga qaratilgan.

Hozirda baholashni shakllantiruvchi turli interaktiv vositalardan foydalanilmoqda. Shunday vositalardan biri:

Quizalize. Bu talabalar o'rtasida test va viktorinalar o'tkazishga mo'ljallangan ajoyib vosita. Uning yordamida o'qituvchi dars jarayoni talabalar uchun qiziqarli topshiriqlar ko'rinishida tashkil etishi mumkin. O'qituvchi baholash natijalarini tezda ko'rishi va har bir talabani baholash

...shatlarini osongina aniqlashi mumkin. Viktorinani yaratish jarayoni oddiy. Bunda saytdan ro'yxatdan o'tgandan so'ng, "Mening viktorinam" bo'limida "Yangi viktorina tuzish" tugmasini bosish bilan boshlanadi. Viktorina savol va javoblarini tegishli maydonlarga to'ldirib, uni guruhga sinov tariqasida taqdim etiladi. Har bir savoldan keyin talabaga belgilagan to'g'ri javobi uchun ballar beriladi va u talabaga ko'rsatiladi. Talabalar uni tahlil qilishi yoki yo'l qo'ygan xatolarini ko'rishlari mumkin.

Kahoot. Kahoot dasturi turli multimedia elementlari – matn, surat va audio bilan foydalanib, talabalar o'rtasida onlayn test, debat va so'rovnomalar o'tkazish imkoniyatiga ega. Bunda talabalar istalgan ko'rinishdagi viktorinalardan foydalanishlari mumkin. Har bir savolga rasm yoki videoni ko'rinish hamda bajarish vaqtini belgilash mumkin. Bu o'yin ko'rinishidagi test natijalarini o'tkazishda proyektordan foydalaniladi. O'qituvchi umumiy ekranga savol va javob variantlarini chiqaradi.



Talaba esa kompyuter, planshet yoki o'z mobil telefoni ekranida faqat variantlarni belgilaydi. Savollarga qanchalik to'g'ri va tez javob berilsa, shuncha ko'p ball beriladi. Bu orqali qaysi talaba mustaqil va qaysi biri yonidagi talabadoshidan ko'chirayotganini aniqlash oson. Test so'ngida umumiy natijalar ekranga chiqariladi. Har bir talabaning u yoki bu savolga bergan javobi doimiy saqlanadi va istalgan vaqtda har bir testing natijalarini Excel jadvali shaklida yuklab olish mumkin. Kahoot'ning yana bir jihati shundaki, undagi tayyor test topshiriqlaridan foydalanib, o'z testlaringiz sonini ko'paytirishingiz mumkin.

Flipquiz. Bu onlayn vosita “Mening o‘yinim” («Svoya igra») ga tartibdagi interaktiv savollar o‘yinini tuzishga mo‘ljallangan.




Undan ham individual topshiriqlar, ham guruhli o‘yinlarni tashkil etish uchun foydalanish mumkin.

Socrative. Talabalar bilan qiziqarli o‘quv mashg‘ulotlari va o‘yinlar tashkil qilishga mo‘ljallangan. Bu dastur ham juda sodda va foydalanish uchun qulay. Internet yordamida o‘rnatilgan qurilmadan kirish imkoniyati mavjud. Savollarni uch xil ko‘rinishda tuzish mumkin: bir necha javob varianti tanlash, to‘g‘ri/noto‘g‘ri variant va qisqa yozma javob kiritish. Dastur o‘z-o‘zidan savollar va javoblarni kiritadi. Savollarga rasmni biriktirish mumkin. Natijalarni Excel jadvallari ko‘rinishida kompyuterga yuklash mumkin. Socrative’dan foydalanish sharti 2 xil: erkin va pulli. Erkin foydalanish uchun talabalar soni 50 nafarga cheklangan.

Today’sMeet. Talabalar bilan chatlar tashkil etish uchun qulay vosita. Undan foydalanish juda qulay. Uning yordamida u yoki bu mavzuda talabalar bilan muhokamalar tashkil etish mumkin. Foydalanish uchun dastlab ro‘yxat o‘rnatiladi, o‘tgach, virtual auditoriya yaratiladi va vaqt chegarasi belgilanadi. Auditoriyaning URL havolasini talabalarga uzatib, debatni boshlash mumkin bo‘ladi.

Plickers. Onlayn dastur o‘qituvchilarga real vaqt rejimida talabalardan javob olish imkonini beradi. Ularga maxsus QR-kod tushirilgan kartochkalar tarqatiladi. Bu kodlarning har bir tomoniga javob variantlari harflari yozilgan.



Talabalar ekran yordamida savol bilan tanishtirilgach, ulardan tegishli javob variantni yuqoriga tutib, QR-kodni ko'rsatish talab etiladi.



O'qituvchi Plickers tizimi bilan sinxron ishlaydigan telefon yordamida kodlarni skaner qiladi va talabalardan qay biri to'g'ri javob berishini o'z ekranida kuzatib turadi.

Hozirda bunday tizimlarning amalda qo'llanilishi talabalarni dars mashg'ulotlariga yanada chuqurroq tayyorlanishga undamoqda. Professor-o'qituvchilar ham o'z navbatida, olingan nazorat tahlili natijasida har bir talabaga o'zlashtirishi sust bo'lgan mavzular bo'yicha tushuntirish va individual topshiriqlar berishi yaxshi natijalar bermoqda.

Yuqorida sanab o'tilgan interaktiv dasturlar qatorida yana bir nechta onlayn tizimlar mavjud. Bular: Formative, Quizizz, GoSoapBox, Triventy, Poll Everywhere, The Answer Pad.

O'qituvchining bunday onlayn servislardan foydalanishi berilgan nazariy bilimlarni talabalar tomonidan o'zlashtirilishini va ularning materialni tushunish darajasini qisqa vaqt ichida aniqlashga yordam beradi. Agarda shu kabi texnologiyalarning baholash tizimini tahlil qilib, uni baholashning reyting

tizimiga kiritilsa, talabalarning o'quv mashg'ulotlaridagi ishtirok faollashtiradi. Bunday vositalar yordamida dars mashg'ulotlarini o'quvnoq ravishda olib borish hamda talabalarni baholashni interaktiv tashkil qilish mumkin. Shu o'rinda mobil telefon va planshetlar dars to'squinlik qiluvchi emas, balki yordamchi qurilmalar vazifasini bajaradi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQ

1-topshiriq. Nuqtalar o'rniga tushib qoldirilgan so'zlarni qo'ying.

1) amalda bo'lgan chet el mamlakatlari tajriba zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib ta'lim tizimiga bo'lgan yangi usullar kirib kelmoqda. 2) Talabalar o'rtasida test va o'tkazishga mo'ljallangan ajoyib vosita..... 3) dasturi turli elementlari – matn, surat va videolardan foydalanib, talabalar o'rtasida test, debat va so'rovlarni o'tkazish imkoniyatini beradi. onlayn vosita “Mening o'yinim” («Svoya igra») o'xshash tartibdagi interaktiv savollar o'yinini mo'ljallangan. 5) Talabalar bilan qiziqarli o'quv mashg'ulotlari o'yinlar tashkil qilishga mo'ljallangan.....vosita. 6) dastur o'qituvchilarga real vaqt rejimida talabalardan javob olish beradi.

2-topshiriq. Quyidagi berilgan ta'riflarning to'g'ri nomi noto'g'rilariga esa “0” belgisi bilan jadvalga yozing.

№	Ta'riflar
1.	Baholash - axborot jamlash va biror narsaning qadriyatlarini haqida fikr-mulohaza yuritishdan iborat tizimli jarayon.
2.	Baholash - axborot jamlash va biror narsaning qadriyatlarini haqida fikr-mulohaza yuritishdan iborat tizimli jarayon emas.
3.	Baholashning maqsadi - o'quvchi nimani bilishi va nimani bila olishini aniqlash.
4.	Baholash quyidagi tamoyillarga asoslanadi: o'quv maqsadlariga asoslanganlik; haqqoniylik; ishonchlilik; qulaylik.
5.	Baholash quyidagi tamoyillarga asoslanadi: haqqoniylik; ishonchlilik; qulaylik.
6.	Mezonga asoslangan baholash -

	baholanuvchining ta'lim jarayonida qo'lga kiritgan natijalari, bilim, malaka va ko'nikmalarini oldindan belgilangan o'quv maqsadlari asosida ishlab chiqilgan, hamma uchun umumiy va bir xil mezonlarga ko'ra taqqoslash va o'lchashdan iborat bo'lgan baholash shaklidir.	
7.	Me'yorga asoslangan baholash - nisbiy baholash shakli bo'lib, u baholanuvchilarning ta'lim jarayonida qo'lga kiritgan natijalarini o'zaro taqqoslash orqali o'lchashdan iborat.	
8.	Mezonga asoslanmagan baholash - baholanuvchining ta'lim jarayonida qo'lga kiritgan natijalari, bilim, malaka va ko'nikmalarini oldindan belgilangan o'quv maqsadlari asosida ishlab chiqilgan, hamma uchun umumiy va bir xil mezonlarga ko'ra taqqoslash va o'lchashdan iborat bo'lgan baholash shaklidir.	
9.	Me'yorga asoslanmagan baholash - nisbiy baholash shakli bo'lib, u baholanuvchilarning ta'lim jarayonida qo'lga kiritgan natijalarini o'zaro taqqoslash orqali o'lchashdan iborat.	
10.	<u>Quizalize</u> - talabalar o'rtasida test va viktorinalar o'tkazishga mo'ljallangan ajoyib vosita.	
11.	<u>Socrative</u> . Talabalar bilan qiziqarli o'quv mashg'ulotlari va didaktik o'yinlar tashkil qilishga mo'ljallangan.	
12.	<u>Plickers</u> . Onlayn dastur o'qituvchilarga real vaqt rejimida talabalardan javob olish imkonini beradi.	

3-topshiriq. *Burun, qosh, o't, tom* so'zlarining ma'no qirralarini talimlar nazariyasiga ko'ra tahlil qiling.

4-topshiriq. O'qiyotgan asardan sinonimik qatorni hosil qiluvchi misollarni toping. Ularni qo'llanish darajasiga ko'ra baholang.

5-topshiriq. *Eng maqulini tanlang.*

1. *O'kituvchi o'quvchilarning bilimlarini baxolashda nimalarga e'tibor berishi kerak?*

- mustaqil fikr
- fikr bayonidagi izchilikka
- o'quvchilar nutqidagi savodxonlik
- lavha va misollarning maqsadga muvofiqligi

2. Baholash bu -

a) ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

b) ta'lim jarayonining yakuniy bosqichida o'quv maqsadlariga erishganlik darajasini belgilash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

c) o'quv maqsadlariga erishganlik darajasi aniqlash va belgilangan mezonlar asosida natijalarni aniqlash, tahlil qilishdan iborat jarayondir.

d) axborot jamlash va fikr-mulohaza yuritishdan iborat tizimli jarayon.

3. Baholash quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

a) o'quv maqsadlariga asoslanganlik, haqqoniylik

b) ishonchlilik, qulaylik

c) haqqoniylik, ishonchlilik, asoslanganlik

d) o'quv maqsadlariga asoslanganlik

4. Nimani baholash kerak?

a) nazariy bilimlarni

b) amaliy ko'nikma va malakalarni, xulq-atvor va shaxsiy fazilatlarini

c) xulq-atvor va shaxsiy fazilatlarini

d) nazariy bilimlarni, amaliy ko'nikma va malakalarni

5. Baholashning asosiy xususiyatlari:

a) ta'lim maqsadiga yo'nalganlik

b) muntazamlik

c) pedagogik, psixologik va huquqiy tamoyillarga asoslanganlik

d) umumiy qabul qilingan natija standartlariga asoslanganlik

6. Baholash mohiyatidan kelib chiqib, qanday shakllarda o'tkazilishi mumkin?

a) mezonlarga asoslangan baholash

b) reyting me'yoriga asoslangan baholash

c) nazorat shakllarining xilma-xilligiga asoslangan baholash

d) standartlariga asoslangan baholash

7. Baholashning muhim qoidalari:

a) bolaning rivojlanishini nazarda tutgan holda bo'lishi, muvaffaqiyatga erishganlikni ko'rsatib berishi, baho "quruq" bo'lmasligi, o'quvchiga bo'lgan shaxsiy munosabatini unutib, o'quvchini emas, balki ishini baholash

b) baho ishonchli bo'lishi, baholashda o'quvchilarni qiyoslab bo'lmaydi
c) bolaning rivojlanishini nazarda tutgan holda bo'lishi, muvaffaqiyatga

berishi, baho "quruq" bo'lmashligi kerak

d) o'quvchiga bo'lgan shaxsiy munosabatni unutib, o'quvchini emas, baho ishini baholash; baho ishonchli bo'lishi, baholashda o'quvchilarni

qiyoslamaslik

8. Interaktiv dasturlar qatorida yana bir nechta onlayn tizimlar mavjud.

a) Formative, Quizziz, GoSoapBox, Triventy, Poll, Everywhere, The

Answer Pad, Quizalize, Kahoot, Flipquiz, Socrative, Today'sMeet.

c) TOY-eFL, IY-eLTS.

d) Ispringe, Meytests, Pisa.

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Yod oling.

Baholash - axborot jamlash va biror narsaning qadriyatlarini haqida fikr baholashga yuritishdan iborat tizimli jarayon.

Baholashning maqsadi - o'quvchi nimani bilishi va nimani bila olishini aniqlash.

Baholash tamoyillari - o'quv maqsadlariga asoslanganlik; haqqoniylik; ishonchlilik; qulaylik.

Nima baholanadi - nazariy bilimlarni; amaliy ko'nikma va malakalarni; amaliy-atvor va shaxsiy fazilatlarini.



Mezonga asoslangan baholash - baholanuvchining ta'lim jarayonida qo'lga kiritgan natijalari, bilim, malaka va ko'nikmalarini oldindan belgilangan o'quv maqsadlari asosida baholab chiqilgan, hamma uchun umumiy va bir xil mezonlarga ko'ra taqqoslash va o'lchashdan iborat bo'lgan baholash shaklidir.

Me'yorga asoslangan baholash - nisbiy baholash shakli bo'lib, u baholanuvchilarning ta'lim jarayonida qo'lga kiritgan natijalarini o'zaro taqqoslash orqali o'lchashdan iborat.

Quizalize - talabalar o'rtasida test va viktorina mo'ljallangan ajoyib vosita.

Kahoot - dasturi turli multimedia elementlari – matn, surat foydalanib, talabalar o'rtasida onlayn test, debat va so'rovnomalarni o'tkazish imkoniyatiga ega.

Flipquiz - onlayn vosita "Mening o'yinim" («Svoya igra») tartibdagi interaktiv savollar o'yinini tuzishga mo'ljallangan.

Socrative - talabalar bilan qiziqarli o'quv mashg'ulotlari o'yinlar tashkil qilishga mo'ljallangan.

Plickers - Onlayn dastur o'qituvchilarga real vaqt rejimida javob olish imkonini beradi.

2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. "Baholash" tushunchasiga ta'rif bering.
2. Baholashning mohiyati, shakllari, tamoyillari
3. O'quvchi bilimini baholashining usullari va vazifalarini ayting.
4. Zamonaviy baholash usullarining qanday turlari mavjud?
5. Testlarni tayyorlash va ularni o'tkazishga qo'yilgan asosiy talablar haqida ayting.

3-topshiriq. «Vaziyatlar» rol bajarish o'yini.

Ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat guruhlariga bo'ling. Har bir guruh oldindan kartochkalarga yozib tayyorlab qo'yilgan topshiriqlarni bo'linib olgan kartochkada kompyuter lingvistikasiga oid biron hayotiy vaziyatni tushuntiring. U yerda ssenariy yozib chiqilmagan. Sizning va boshqa guruhlar voqyealar qanday rivoj topishi o'zingizga bog'liq. Barcha guruhlar o'z vaqt beriladi, shundan keyin esa har bir guruh o'z vaziyatini namoyish etishi kerak. Guruhlar namoyishi. Har bir guruh o'z namoyish etadi.

Guruhlar uchun vaziyatlar:
Siz onlayn nazorat ishi topshirmoqdasiz, kompyuter o'chib qoldi. Nima qilasz.....
Sizga guruh rahbaringiz "4" baho quydi. Do'stingiz o'qimasa-da "5" baho qo'ydi. Shunda Siz.....
Siz ingliz tilidan bajarib kelgan topshiriqlaringiz uchun past ball oldingiz. Shunda siz....

1-topshiriq. “Ikki qismli kundalik” usulida mavzuni tahlil qiling va bahani to’ldiring.

Dolzarb bo’lgan masalalarning qo’yilishi	Izohi
1. O’quvchiga baho qo’yish shartmi?	
2. O’quvchiga baho qo’yish ularni qiziqishini o’ldirmaydimi?	
3. Avtomatik baholash bilan ah’anaviy baholashning farqi nimada?	
4. Baholash tizimini kompyuterlashtirishning afzalligi nimada?	
5. Baholash tizimini kompyuterlashtirish nima beradi?	
6. Baholash tizimini kompyuterlashtirishning kamchiligi nimada?	

MUSTAQIL TA’LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Mavzu yuzasidan prezentatsiya tayyorlang.

2-topshiriq. “Globallashuv jarayonida baholashni avtomatlashtirish ahamiyati” mavzusida essa yozing.

3-topshiriq. “Jahon baholash tizimi”, “O’zbek baholash tizimining afzalligi”, “Baholash tizimining kompyuter lingvistikasi fani bilan aloqadorligi” mavzularining biriga referat tayyorlang.

4-topshiriq. Ispring dasturida mavzu yuzasidan 10 test yarating.

Adabiyotlar:

1. Нелюбин Л. Л. Компьютерная лингвистика и машинный перевод. -М.: ВЦП, 1991.

2. Шемакин Ю.И. Начало компьютерной лингвистики. -М.: МГОУ, 1992.

3. Белоногов Г.Г. Компьютерная лингвистика и перспективные

информационные технологии. - М.: Русский мир, 2004.

4. Рассел С., Норвиг П. Искусственный интеллект: современный подход // Artificial Intelligence: a Modern Approach / Пер. с англ. К.А.Птицына. 2-е изд. - М.: Вильямс, 2006.

5. Пулатов А.К., Мухамедова С. Компьютер лингвистикаси (компьютер кулланма). - Тошкент, 2008.

6. Пулатов А. Компьютер лингвистикаси. - Тошкент: Академнашр, 2011.

7. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. - Toshkent: Akademnashr, 2011.

23-MAVZU:

O'ZBEK TILINING AXBOROT USLUBI

Reja:

1. O'zbek tilining axborot – kompyuter uslubini yaratish.
2. Tilning axborot uslubini nazariyasi.
3. O'zbek tilining axborot – kompyuter uslubini yaratish mezonlari.
4. Axborot – kompyuter uslubida sinonimlar, frazeologizmlar va polisemantik so'zlarning mavqeyi.

Tayanch tushunchalar: *informasion jamiyat, sivilizatsiyaning to'liqligi, istiqbolli yo'nalishlar, sun'iy intellekt, neyron tarmoqlar, elektron tizimlar, lingvistik protsessorlar, tabiiy tilli interfeys, biokompyuter, semiotika, biologik yondashuv, o'zbek tilining axborot – kompyuter uslubi, tilning axborot uslubini nazariyasi, o'zbek tilining axborot – kompyuter uslubini yaratish mezonlari, axborot – kompyuter uslubida sinonimlar, frazeologizmlar va polisemantik so'zlar.*

Insoniyat uchinchi ming yillikda axborot asriga qadam qo'yishi bog'liq holda Informasion jamiyat konsepsiyasi ishlab chiqildi. Konsepsiya asoschisi amerikalik futurolog olim E.Toffler hisoblanadi. Jamiyatni turli bosqichlarga bo'lib o'rganishni taklif etib, **sivilizatsiyaning to'liqligini** ajratdi: a) birinchi to'liqligini - industrial jamiyatgacha bo'lgan (qishloq xo'jaligi sivilizatsiyasi). Bunda asosiy boylik yer va tabiatdan olinadigan zaxiralar hisoblanadi; b) ikkinchi to'liqligini - industrial sivilizatsiya. Bunda asosiy boylik ishlab chiqarish vositalari sanaladi; d) uchinchi to'liqligini - postindustrial sivilizatsiya (Informasion jamiyat). Bunda kapital va mehnat o'z o'rnini informatsiya va bilimga bo'shatib beradi.

2003-yil dekabrda Jenevada (Shveysariya) Informasion jamiyat qurish muammosiga bag'ishlangan Butunjahon Sammiti bo'lib o'tdi. Unda shunday deklaratsiya o'rta qabul qilindi: «*Informasion jamiyat qurish - yangi mingyillikning global chaqirig'idir*». Sammitda ikki muhim hujjat qabul qilindi: Informasion jamiyat qurish prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiya⁷³ hamda informasion jamiyat qurish bo'yicha ish Rejasi.⁷⁴ Mazkur hujjatlarda belgilanishicha, endilikda informasion texnologiyalarning tashqi ta'kidlash lozimki, kompyuter lingvistikasi informasion texnologiyalarning istiqbolini belgilovchi eng muhim yo'nalish hisoblanadi, hamda u Informasion jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Shundan kelib chiqib, bugungi kunda jahon miqyosida kechayotgan integratsiya va globallashtirish jarayonida o'zbek tilini dunyoviy tillar darajasiga ko'tarib chiqish hayotiy zaruriyatdir. Mazkur katta, mas'uliyatli, o'ta muhim muammodni amalga oshirishda ham kompyuter texnologiyalariga, xususan, kompyuter lingvistikasiga bo'lgan ehtiyoj yana ham oshadi. Chunki aynan kompyuter lingvistikasi o'zbek tilining jahon miqyosiga chiqishida, o'zbek tilining ham dunyoviy tillardan biriga aylanishiga, uni o'rganish va o'rgatish sharoitlarini optimallashtirishga imkoniyat yaratadi.

Hal qilinishi dolzarb bo'lgan ushbu muammolarning eng ahamiyatlisiga, ya'ni o'zbek tilining kompyuter uslubini yaratish masalasiga alohida urg'u berish lozim. Chunki bu masala sanalgan barcha muammolarning asosi, yechimi hisoblanadi. Zero, jahon andozalari talablariga javob beruvchi, har tomonlama mukammal, qulay va ommabop kompyuter uslubi yaratilganidan so'nggina yuqoridagi muammolarni hal qilish mumkin bo'ladi.

Ma'lumki, inson fikrini og'zaki yoki yozma shakllantirishda turli grammatik vositalardan foydalanadi, u o'z nutqida frazeologizm, har xil iboralar, badiiy tasvir vositalarini qo'llaydi, ya'ni har bir insonning nutqi o'ziga xos va takrorlanmasdir. Ammo axborot va texnologiyalar asri bo'lgan XXI asrda kompyuter uslubi uchun bular ortiqchalik qiladi, ya'ni badiiy uslubning kengligi bugungi kun talablariga, xususan kompyuter uslubining talablariga javob bermaydi. Chunki ma'lumot uzatishda qisqalik, lo'ndalik, qoliplilik zarurdir.

⁷³World summit on the information society. Declaration of Principles. Building the Information Society: a global challenge in the new Millennium. Document WSIS-03/GENEVA/DOC/4-E. 12 December 2003.

⁷⁴World summit on the information society. Plan of Action. Document WSIS-03/GENEVA/DOC/5-E. 12 December 2003.

O'zbek tilining barcha imkoniyatlari, ma'no boyligi, asrlar davomida shakllangan lug'at zahirasi, uning go'zalligi Alisher Navoiy tomonidan ta'kidlaganidek, boshqa tillardan ustun jihatlari bilan faxrlanamiz. Ammo, qaytakroran ta'kidlab aytamizki, kompyuter uslubida badiiy tasvir vositalariga ega bo'lgan nutqiy jilolar va o'ziga xos neologizmlarga o'rin bo'lishi mumkin emas. Uslub badiiy (yoki san'at) uslubi bilan parallel ravishda shakllanib rivojlanib boraveradi, ammo ularning qo'llanilish sohasi turlicha bo'ladi. II asrda uslubdan turli soha vakillari foydalanishadi: adabiyot, san'at, madaniyat, shu jumladan san'at (badiiy) uslubdan, kompyuter mutaxassislari, reklama, biznes, talim-tarbiya vakillari va eng muhimi o'zbek tilida ish yurituvchilar (yuridik, tibbiy, pedagogik) kompyuter uslubidan foydalanishlari mumkin. Kompyuter uslubida talim andozalari talablariga monand holda fikrni aniq, qisqa, lo'nda, kompyuter qat'iyat ishlashiga moslashtirilgan bo'ladi. Shunday uslubni yaratmas ekanmiz, Respublikamizda o'zbek tilida to'liq ish yuritishga o'ta olmaymiz. Ma'lumki, yaqinda «Dunyoviy o'zbek tili» kitobi bosmadan chiqdi. Unda o'zbek tilidagi 1 ta fe'lining (ishlamasligida) taxminan 100000 ta shakli (lekik grammatik paradigmalar) rus va ingliz tillariga o'girilgan. Ingliz tilida esa fe'l taqriban 100 ta shakli borligi hammaga ma'lum. Kompyuter uslubida ushbu 100000 ta shakldan faqat eng zaruriy, eng maqbul (optimal) varianti tanlab olinadi, qolganlari esa imkoniyat tarzida saqlanadi. Xullas, o'zbek tilining kompyuter uslubi yaratishlik asosiy mezonlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- a) aniqlik, qisqalik, lo'ndalik; bir qiymatlilik;
- b) jahon andozalari talablariga moslik;
- v) barcha uchun birdek tushunarlilik (muayyan bir fikrning imkon tomonidan adektiv qabul qilinishi);
- g) turli badiiy tasvir vositalaridan xolilik (shu jumladan, sinonimlar turli variantlari ham kompyuter uslubiga kiritilmaydi, sinonimlik qatorlarining dominantasi tanlab olinadi);
- d) so'zlar, asosan, bir ma'nolilik kasb etadi (ya'ni uslubga so'zlarning faqat denonativ semalari qamrab olinadi, konnotativ semalarga e'tibor qilinmaydi);
- e) kompyuter talablari qat'iy hisobga olinadi.

Ko'rinadiki, o'zbek tilining kompyuter uslubini yaratish hayotimizda muhim ahamiyatga ega. Zero, kompyuter uslubi, aynan, kompyuter lingvistikasi uchun mutaxassislar kompyuter dasturlari va filologlar hamkorligida yaratiladi. Kompyuter lingvistikasining ijobiy jihati ham aynan shunda namoyon bo'ladi: u filolog va kompyuter mutaxassislarini birlashtiradi.

Tarixdan ma'lumki, insoniyat tarixida turli predmetlar toshko'mir, tilla, temir kabilar eng katta boylik hisoblangan davrlar bo'lgan. Turli silsilalarni o'tib borib kelgan insoniyat uchinchi ming yillikning boshida axborot asriga o'tgan qo'ydi. Minglab yillar davomida rivojlangan inson tafakkuri uchun hozirgi kunda dastlabki manba, ya'ni axborot olish hayotiy zaruriyatga aylandi. Shuning uchun jahon bozorida ma'lumot oltindan ham qimmatliroq hisoblanadi. Mazkur axborotni topish, saqlash, qayta ishlash va boshqalarga o'tkazishning qulay usullariga bo'lgan ehtiyoj kun sayin oshib bormoqda. Demak, kimki, mazkur qulay usullarni ishlab chiqsa, ularga egalik qilsa, mana shu odam dunyodagi eng boy odam bo'ladi. Ma'lumki, dunyodagi eng boy davlat kishi Bill Geyts hisoblanadi. Nima uchun dunyodagi eng boy kishi kompyuter, ya'ni axborotni qabul qilish, saqlash va qayta ishlash sohasining rahbari? Nima uchun savdo bahosi yoki bankirning neft, paxta, avtomobil savdodining xo'jayini emas, aynan axborot bilan bog'liq sohaning rahbari sayyoraning eng boy odamiga aylandi? Bu savolga Billi Geytsning o'zi shunday javob beradi: «Kim axborotga ega bo'lsa, u hamma narsaga ega bo'ladi» yoki «Axborotning yana bir mushohadasi dunyoga mashhur: «Axborot dunyodagi eng katta, eng qimmat moddiy boyliklaridan ham ustun turadi, chunki ushbu boyliklar axborot vositasida qo'lga kiritiladi». Ko'rinadiki, inson bir sohada-biznes, ta'lim, qurilish, umuman, hayotning har bir jabxasida biror yutuqqa erishish uchun avvalo axborotga ehtiyoj sezadi: nima? qachon? qayerda? (necha puldan?) kabi savollarga javob topish uchun aynan axborotga murojaat qiladi. Shu tariqa **axborot** olmosu, tillo-kumushlardan ham zaruriylik, qimmat baholik kush etadi.

Shunga ko'ra kompyuter lingvistikasi tilshunoslar uchun ham ma'naviy, ham moddiy boylik manbaidir. Faqat uni barcha to'g'ri tushunish, adektiv qabul qilishi, eng muhimi, qo'llab-quvvatlashi lozim. Vaholanki, kompyuter lingvistikasi nafaqat o'zbek tilinig, balki boshqa tillarni, xususan, rus va ingliz tillarini o'rganishda ham asosiy vosita hisoblanadi. Shuningdek, oliy va o'rta

To'laqonli muloqotlar va tarjima dasturlari yaratishda ma'lumotlar bazasi muhim rol o'ynaydi. «Dunyoviy o'zbek tili» shunday ma'lumotlar bazasini yaratish yo'lidagi birinchi qadamdir. Kitob ko'p jildli bo'lib, uning 1-jildida o'zbek tilidagi buni (ishlamoqning) 100 000 ta shakllari (fe'ning leksik grammatik paradigmalari) ularning rus va ingliz tillaridagi muqobillari keltirilgan. Asarda fe'l



1-topshiriq. Sanalarni sodir bo'lgan voqealar bilan juftlang.

No	Sanalar	Voqealar
1.	1836-1848	A U.Uiver mashina tarjimasini tizimini yaratishning nazariy asoslarini ishlab chiqdi.
2.	1949	B Avtomatik tarjima bo'yicha dastlabki g'oyalar Charlz Bebbidj tomonidan ilgari surilgan.
3.	1954	C AQSHning fan masalalari bo'yicha congress qo'mitasida avtomatik tarjimaga oid ma'ruza muhokamasi bo'lib o'tdi.
4.	1966	D AQSHdagi Jorjtaun universitetida dunyoda birinchi marta avtomatik tarjima tajribadan o'tkazildi
5.	1990	E Moskva davlat lingvistik universitetida mashina tarjimasini laboratoriyasi ochildi.
6.	1959	F Amerikada Global Link, Rossiyada PROMT avtomatik tarjima tizimlari yaratildi.

1	2	3	4	5	6
---	---	---	---	---	---

3-topshiriq. To'g'ri javoblarni belgilang. O'zbek tilining kompyuter yaratishning asosiy mezonlari qaysilar?

1. Aniqlik, qisqalik, lo'ndalik, ko'p qiymatlilik
2. Jahon andozalari talablariga moslik
3. Harcha uchun birdek tushunarlilik
4. Turli badiiy tasvir vositalaridan xolilik
5. So'zlar asosan ko'p ma'nolilik kasb etadi
6. Kompyuter talablari qat'iy hisobga olinadi
Javob:

4-topshiriq. Quyidagi berilgan ta'riflarning to'g'rilariga "1" noto'g'rilariga "0" belgisi bilan jadvalga yozing.

No	Ta'riflar	
1.	Axborot asosan 3 xil ko'rinishda bo'ladi	
2.	Axborot ovoz vositasidagi ko'rinishda bo'ladi	
3.	Axborot asosan 4 xil ko'rinishda bo'ladi	
4.	Axborot tasvir, ovoz va matn ko'rinishida bo'ladi	

4-topshiriq. Quyidagi berilgan fikrlarning qaysilari to'g'ri?

- ✓ Dunyodagi eng boy-badavlat kishi Bill Geyts hisoblanadi.
- ✓ Freym grekcha "qog'oz" degan ma'noni bildiradi.
- ✓ Dastlab "freym" termini XX asrning 70-yillarida Marvin Minskiy tomonidan ishlatilgan.
- ✓ Dastlab "freym" termini XX asrning 70-yillarida Naom Chomskiy tomonidan ishlatilgan.
- ✓ Dastlab "freym" termini XX asrning 70-yillarida Charlz Bebbidj tomonidan ishlatilgan.
- ✓ Freym semantikasi konsepsiyasi I.A.Melchuk tomonidan rivojlantirildi.
- ✓ Avtomatik tarjima bo'yicha dastlabki g'oyalar Naom Chomskiy tomonidan ilgari surilgan.
- ✓ Avtomatik tarjima bo'yicha dastlabki g'oyalar Marvin Minskiy tomonidan ilgari surilgan.
- ✓ Avtomatik tarjima bo'yicha dastlabki g'oyalar Charlz Bebbidj tomonidan ilgari surilgan.
- ✓ O'zbek tilining kompyuter uslubi yaratishlik asosiy mezonlari sifatida aniqlik, qisqalik, lo'ndalik qat'iy hisobga olinadi.
- ✓ O'zbek tilining kompyuter uslubi yaratishlik asosiy mezonlari sifatida aniqlik, qisqalik, lo'ndalik kompyuter talablari qat'iy hisobga olinmaydi.

✓ O'zbek tilining kompyuter uslubi yaratishlik asosiy mezonlari orasida bir qiymatlilik; jahon andozalari talablariga moslik; barcha uchun tushunarlilik (muayyan bir fikrning umum tomonidan adektiv qabul qilish) qat'iy hisobga olinadi.

✓ O'zbek tilining kompyuter uslubi yaratishlik asosiy mezonlari orasida turli badiiy tasvir vositalaridan xolilik (shu jumladan, sinonimlar turli variantlari ham kompyuter uslubiga kiritilmaydi, sinonimlik qatorlarning dominantasi tanlab olinadi); so'zlar, asosan, bir ma'nolilik kasb etadi; kompyuter uslubi qat'iy hisobga olinadi.

✓ Kompyuter uslubida badiiy tasvir vositalardan, turli nutqiy yondashuvlarga xos neologizmlarga o'rin bo'lishi kerak.

5-topshiriq. Tushirib qoldirilgan so'zlarni yozing.

1) Freymlar tizimi birlashib, holat qildik. Freym deb atalgan bir yoki bir nechta elementlarning majmua hisoblanadi. 3) O'zbek tilining kompyuter uslubi yaratishlik asosiy mezonlari sifatida qat'iy hisobga olinadi. 4) Dunyodagi eng buyuk badiiy kishi hisoblanadi. 5) O'zbek tilidagi bitta fe'lning (ishlamadigan) taxminan shakli rus ingliz tillarga o'girilgan. 6) To'laqonli muhokama yaratishda muhim rol o'ynaydi. 7) kitobi ma'lumot bazasi yaratishning birinchi qadami bo'ldi.

6-topshiriq. Kompyuter uslubi yaratishlikning asosiy mezonlarini xato ma'lumotlarni "0" raqamlari bilan belgilang.

1) aniqlik, qisqalik, lo'ndalik, bir qiymatlilik; 2) ma'lumotlarni tashkil etmaslik; 3) jahon andozalari talablariga moslik; 4) barcha uchun tushunarlilik; 5) turli tasvir vositalardan xolilik; 5) so'zlar asosan bir ma'nolilik kasb etadi; 6) matnlarni avtomatik tahrirlash; 7) morfologik analiz asosida o'ynaydi; 8) kompyuter talablari qat'iy hisobga olinadi; 9) murakkab grammatik formalarning sintezi amalga oshiriladi; 10) mantiqan to'g'ri; 11) badiiy tasvir vositalarga boylik; 12) ma'lumotlarni tahrirlash; 13) sinonimlik turli variantlari ham kompyuter uslubiga kiritilmaydi; 14) sinonimlik qatorlarning dominantasi tanlab olinadi.



Javob – "1"	Javob – "0"

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. "EATF" usulida tahlil qiling.

Bu usul 3 bosqichli faol o'qitish jarayonini tashkil etib, o'quvchilarning tanqidiy fikrlashni shakllantiradi. Ya'ni, eslash – ahamiyatli tomoni – fikrlash. Mazkur usul darsni samarali tashkil etishda qo'llaniladi. Tanqidiy fikrlash o'quvchilarni o'z savollarini to'g'ri shakllantirish, muammoni chuqur tahlil

o'z fikrini to'liq bayon etishga o'rgatadi. Usulni qo'llash jarayonida o'quvchi o'quvchi bilan hamkor, o'quvchilar esa o'qitish jarayonining ijodkori bo'ladi.

1. **Eslash** bosqichida o'quvchi mustaqil va faol ravishda eslashga urinadi, mavzu yuzasidan nimani biladi, mavzu yuzasidan qaysi darajada ekanligini biladi. O'quvchi eslash jarayonida mavzu yuzasidan muammolarni aniqlab muammolar tuzishga ularga javob topishga harakat qiladi. U o'z oldiga maqsad qo'yadi va maqsad sari intiladi. Shu jarayonda matnni to'liq o'rganishga harakat qiladi.

2. **Ahamiyatli tomoni** bosqichida o'quvchi yangi axborot bilan tanishadi. Matndan, filmni ko'rish, matnni qayta o'qish, tahlil qilish, tadqiqot o'tkazish. Bu bosqichda o'quvchi faol o'qituvchi boshqaruvchi sifatida bo'ladi. O'qituvchi bu bosqichda o'quvchining qiziqishlarini qo'llab-quvvatlaydi. O'quvchi yangi mavzular, yangi muammolar topishga harakat qiladi.

3. **Fikrlash** bosqichida o'quvchi tahlil jarayonida o'rgangan yangi fikrlarni muhokama qiladi. Boshlang'ich fikrlarini to'ldiradi. Yuqoridagi ikki bosqichda o'rganganlarini qayta ko'rib chiqadi. Xullas, o'quvchida tanqidiy fikrlash muvaffaqiyatli yordam beradi.

2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Insoniyat uchinchi ming yillikda qanday asrga qadam qo'yadi?
2. Informasion jamiyat konsepsiyasi kim tomonidan ishlab chiqilgan?
3. Sivilizasiyaning qanday to'lqinlari mavjud va ular nima uchun xizmat qiladi?
4. Qachon va qaterda Informasion jamiyat qurish muammosiga bag'ishlangan Butunjahon Sammiti bo'lib o'tdi?
5. Unda qanday masalalar ko'tarildi?
6. Informasion jamiyat qurish prinsiplari to'g'risidagi Deklarasiya hamda Informasion jamiyat qurish bo'yicha ish Rejasi qachon, qayrda v anima muhabbatdan qabul qilindi?
7. O'zbek axborot uslubini yaratishga nima sabab bo'ldi?
8. O'zbek axborot uslubini yaratish mezonlari haqida nimalar bilasiz?

3-topshiriq. «FREYM» usulida tahlil qiling.

Matndagi belgi	Muammo	Misol
Aniqlik	Ma'lumotlarning noaniqligi	2003-yil dekabrda Jenevada (Shveytsariya) Informasion jamiyat qurish muammosiga bag'ishlangan Butunjahon

		Sammiti bo'lib o'tadi.
Qisqalik	?	?

4-topshiriq. "NIMA UCHUN" usulida tahlil qiling.

5-topshiriq. Eng ma'qulini tanlang.

1. O'zbek tili axborot uslubida xalqaro so'zlar ishlatilishi imkoniyatini yanada yanada yechimi...

- a) O'zbekcha va imkon darajasida xalqaro so'zlardan foydalanish kerak.
- b) Faqat o'zbekcha so'zlardan foydalanish kerak.
- c) Faqat xalqaro so'zlardan foydalanish kerak.
- d) Faqat ruscha so'zlardan foydalanish kerak.

2. O'zbek tili axborot uslubini yaratish zarurati...

- a) O'ta zarur
- b) Zarur bo'lsa kerak
- c) Shart emas
- d) Yalqin

3. O'zbek tili axborot uslubi qaysi sohalar doirasida ishlatiladi?

- a) Biznes sohasida.
- b) Adabiyot va san'at sohasida.
- c) Hamma sohalarida.
- d) Biznes, huquq, tabiiy fanlar, meditsina, sport, ta'lim, diplomatiya

4. O'zbek tili axborot uslubi asosiy prinsiplari nimalardan iborat?

- a) Go'zallik.
- b) Formula, aniqlik, qisqalik.
- c) Ko'p qirralilik.
- d) Ko'p ma'nolilik.

5. Axborot uzatish va qabul qilish vositali bo'lish tilning ... mahiyatidir.

- a) transformatsion.
- b) predikativ.
- c) signifikativ.
- d) kommunikativ.

6. O'zbek tili axborot uslubi grammatikasida ko'makchi fe'llar istirokidagi tuslanish necha qismdan iborat?

- a) 2
- b) 3
- c) 4
- d) 5

7. Quyida keltiriganlardan qaysi birlari o'zbek tilining kompyuter uslublarini yaratishning asosiy mezonlari hisoblanadi? 1. Qisqalik, lo'ndalilik 2. Jahon andozalari talablariga mosligi. 3. Barcha uchun tushunarililigi. 4. So'zlar

asosan, ma'nolilik kasb etadi.



- a) 1,3
- b) 1,2,3
- c) 1,2,3,4
- d) Faqat 1

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Mavzu yuzasidan prezentatsiya tayyorlang.

3-topshiriq. “O‘zbek axborot uslubini yaratish mezonlari”, “O‘zbek axborot – kompyuter uslubi”, “Tilning axborot uslubi nazariyasi” mavzularida essa yozing.

4-topshiriq. “Tabiiy tillarni kompyuterda qabul qilishning o‘ziga xos xususiyatlari”, “Kompyuter lingvistikasi va axborot uslubi”, “Axborot uslubini yaratishning kompyuter lingvistikasi fani bilan aloqadorligi”, “Kompyuter lingvistikasining fanida axborot uslubining ahamiyati”, “O‘zbek tilining axborot kompyuter uslubini yaratish mezonlari”, “Axborot – kompyuter uslubida monimlar”, “Axborot – kompyuter uslubida frazeologizmlar”, “Axborot – kompyuter uslubida polisemantik so‘zlar”, “Axborot – kompyuter uslubida boshqa yordamchi so‘zlarning mavqeyi”, “Axborot – kompyuter uslubida monimlar”, “Axborot – kompyuter uslubida okkazionalizmlar” mavzularining birini referat tayyorlang.

4-topshiriq. Metodika kafedrasining saytini yaratish uchun ma’lumotlar bazasini yig‘ing.

5-topshiriq. Ispringi dasturida mavzu yuzasidan 10 test yarating.

Adabiyotlar:

1. Нелюбин Л. Л. Компьютерная лингвистика и машинный перевод. - М.: ВЦП, 1991.
2. Шемакин Ю.И. Начало компьютерной лингвистики. - М.: МГОУ, 1992.
3. Белоголов Г.Г. Компьютерная лингвистика и перспективные информационные технологии. - М.: Русский мир, 2004.
4. Рассел С., Норвиг П. Искусственный интеллект: современный подход // Artificial Intelligence: a Modern Approach / Пер. с англ. и ред. К.А.Птицына. 2-е изд. - М.: Вильямс, 2006.
5. Пулатов А.К., Мухамедова С. Компьютер лингвистикаси (Ўқув қўлланма). - Тошкент, 2008.

6. Пулатов А. Компьютер лингвистикаси. - Тошкент: 2011.

7. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. Akademnashr, 2011.

Илмий ва ўқув-услубий адабиётлар:

1. **Каримов И.А.** Юксак маънавият — енгилмас куч. — Тошкент: "Маънавият", 2008. — 176 б.
2. **Адилова С.А.** Ўзбек тили машғулотларини компютер технологиялари воситасида ташкил этиш (олий таълим муассасаларининг тўнғийбон гуруҳлари мисолида). Пед.фан.номз... дисс. автореферати. — Тошкент, 2004. — 26 б.
3. **Арзиқулов Ҳ.** Ўзбек лингвистик автомати // "Мулоқот" журналі. 2012. № 1. — Б. 20-21.
4. **Анисимов А.В.** Компьютерная лингвистика: мифы, алгоритмы, ... — Киев: "Наукова думка". 1991.
5. **Айымбетов М.К.** Проблемы и методы квантитативно-типологического измерения близости тюркских языков (на материалах каракалпакского, казахского и узбекского языков). Автореф. дис... доктора филол. наук. — Ташкент: 1997. — 47 с.
6. **Баскаков Н.А., Содиков А.С., Абдуазизов А.А.** Умумий тилшунослик. — Тошкент: Ўқитувчи, 1979. — 192 б.
7. **Бердиалиев А., Машрабов А.** Луғавий маъноларда конъюнкция ва дисъюнкция муносабатлари (қариндошлик билдирувчи айрим сўзлар мисолида) // Тил ва адабиёт таълими, 2001. № 4. — Б. 25-27.
8. **Бабанаров А.** Разработка принципов построения словарного обеспечения турецкого-русского машинного перевода. Автореф. дис... канд. филол. наук. — Л.: 1981. — 18 с.
9. **Бозоров О.** Лингвистик модел // Ўзбек тили ва адабиёти. 2008. № 4. — Б. 56-60.
10. **Городецкий Б.Ю.** Компьютерная лингвистика: моделирование языкового общения // Новое в зарубежной лингвистике, выпуск XXIV. Компьютерная лингвистика. — М.: "Прогресс". 1989. — С. 5-31.
11. **Засорина Л.Н.** Введение в структурную лингвистику. — М.: «Высшая школа», 1974. — 319 с.
12. **Иброҳимов А.** Частотали луғат ва конкорданс яратишда компютер технологияларининг аҳамияти // Тилшуносликнинг долзарб масалалари (илмий мақолалар тўплами). Ш. — Тошкент: Университет, 2006. — Б. 193-198.
13. **Икромов Х.З.** Инсон — компьютер — келажак. — Тошкент: "Ўзбекистон", 1991. — 112 б.
14. **Исомиддинов З.** Ўзбек тилида товушлар интенсивлиги // Тил ва адабиёт таълими, 2005. № 1. — Б. 88-91.
15. **Йўлдошев Б.** Компьютер лингвистикаси (услубий қўлланма, тўлдирилган, тузатилган иккинчи нашри). — Самарқанд: СамДУ нашри, 2008. — 118 б.
16. **Йўлдошев Б.** Матнни ўрганишнинг лингвостатистик методлари (услубий қўлланма). 1-қисм. — Самарқанд: СамДУ нашри, 2008. — 117 б.

17. **Йўлдошев Б.** Ўзбек компьютер лингвистикаси муаммолари // Ўзбек тилшунослиги масалалари (илмий мақолалар). Самарқанд: СамДУ нашри. 2004. – Б. 17-22.
18. **Йўлдошев Б.**, Тилшунослик фани тараққиётида технологияларнинг ўрни // Тилшуносликнинг долзарб масалалари (мақолалар тўплами). У. – Тошкент: “Академнашр”, 2010. – Б. 1-10.
19. **Йўлдошев Б.** Компьютер лингвистикаси (муаммо, истиқбол) // “Маърифат” газетаси, 2008 йил 25 октябрь.
20. **Караулов Ю.Н.** Лингвистическое конструирование литературного языка. – М.: Наука. 1981. – 368 с.
21. **Киров Е.Ф.** Теоретические проблемы моделирования. Казань: Изд-во Казанского университета, 1989. – 256 с.
22. **Кодухов В.И.** Общее языкознание. – М.: “Высшая школа”. 1989. – 304 с.
23. **Маковский М.М.** Лингвистическая комбинаторика (топологической стратификации языковых структур). – М.: Наука. 1989. – 232 с.
24. **Марчук Ю.Н.** Компьютерная лингвистика. – М.: АИЦ УрО РАН. 2007. – 317 с.
25. **Мельчук И.А.** Порядок слов при автоматическом русском текста // Научно-техническая информация. 1985. № 12. – С. 1-10.
26. **Менглиев Б.** Ўзбек тилининг структур синтаксис (қўлланмаси). – Қарши: “Насаф” нашриёти. 2003. – 147 б.
27. **Миртожиев М.** Ўзбек тилидаги феъл валентликлари. – Тошкент: Университет, 2007. – 64 б.
28. **Мухамедов С.А., Пиотровский Р.Г.** Инженерная лингвистика: опыт системно-статического исследования узбекских текстов. – Ташкент: Фан. 1986. – 164 с.
29. **Мухамедова С.** Компьютер лингвистикадан ўзбек тили ўқитишда фойдаланиш // Давлат тили таълими муаммолари (назарий назарий анжуман материаллари). – Тошкент: ТошДПУ нашри, 2004. – 33-37.
30. **Мухамедова С.** Ўзбек компьютер лингвистикаси: ривожланиш тарихи, бугуни ва келажаги // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент: 2004. – Б. 77-81.
31. **Мухамедова С.** Ҳаракат феъллари асосида компьютер дастурлари учун лингвистик таъмин яратиш (методик қўлланма). Тошкент: ТошДПУ нашри, 2006. – 80 б.
32. **Мухамедова С.** Компьютер лингвистикаси (методик қўлланма). Тошкент: ТошДПУ нашри, 2007. – 74 б.
33. **Неъматов Х., Расулов Р.** Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.
34. Новое в зарубежной лингвистике, выпуск XXIУ. Компьютерная лингвистика. – М.: “Прогресс”. 1989. – 432 с.

11. Нурмонов А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Тошкент, 2001. – 160 б.
12. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдишлари ва усуллари. – Тошкент: “Таълим” нашриёти, 2009. – 160 б.
13. Отақўзиёв Д. Тилшунослик ва математиканинг алоқаси ҳақида // Филологиянинг долзарб масалалари (республика илмий-назарий жамъиини материаллари). – Наманган, НамДУ нашри, 2006. – Б. 349-252.
14. Пиотровский Р.Г. Инженерная лингвистика и теория языка. – Л.: Наука, 1979. – 112 с.
15. Пиотровский Р.Г. Компьютеризация преподавания языков (учебное пособие по спецкурсу). – Л.: 1988. – 76 с.
16. Пиотровский Р.Г., Бектаев К.Б. Машинный перевод: теория, эксперимент, внедрение // Вопросы языкознания. 1977. № 5. – С. 27-33.
17. Пулатов А.К., Жураева Н. Разработка формальной модели грамматики узбекского языка // Узбекский математический журнал, 2002, № 1. – С. 47-54.
18. Пулатов А.К. Тексты лекции по математической и компьютерной лингвистике (электронный вариант). – Ташкент: УзМУ. 2003.
19. Пулатов А.К., Азизходжаев Б.Б., Жураева Н. Разработка программы компьютерного анализа и синтеза глаголов узбекского языка // УзМУ хабарлари, 2002, № 2. – С. 17-19.
20. Пулатов А. Глобаллашув даврида компьютер лингвистикасига доир муаммолар // Тилшуносликнинг долзарб масалалари (илмий мақолалар тўплами). П. – Тошкент: Университет, 2004. – Б. 61-64.
21. Пулатов А. Ўзбек компьютер лингвистикаси муаммолари ва уларни ечиш йўллари // Тилшуносликнинг долзарб масалалари (илмий мақолалар тўплами). 1У-чиқиши. – Тошкент: ЎзМУ нашри, 2008. – Б. 81-87.
22. Пулатов А., Мухамедова С. Компьютер лингвистикаси (методик қўлланма). – Тошкент: Университет, 2008. – 104 б.
23. Пулатов А., Мухамедова С. Компьютер тилшунослигида матнни автоматик таҳрир қилиш учун яратилган дастурнинг баъзи лисоний асослари // Ўзбек тилшунослиги масалари (илмий мақолалар тўплами). – Тошкент: ТДПУ нашри. 2003. – Б. 32-36.
24. Ражабов Б., Зайнутдинова З. “Олтин кесим”га мос тушган “Хамса” // “Маърифат” газетаси, 2006 йил 8 феврал, 11(7828)-сон.
25. Ризаев С. Кибернетика ва тилшунослик. – Тошкент: Ўзбекистон. 1976. – 16 б.
26. Ризаев С. Компьютер лингвистикаси // “Гулистон” журнали, 2009. № 3. – Б. 20-23.
27. Ризаев С. Тилшуносликда замонавий ахборот технологияларининг қўлланилишига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2006. № 5. – Б. 95-97.

52. **Ризаев С.** Ўзбек тилшунослигида лингвостатистика муаммолари. – Тошкент: Фан, 2006. – 296 б.
53. **Ризаев С.** Ўзбек машина фондининг яратилишига асосланган тилшуносликнинг долзарб масалалари (илмий мақолалар тўплами) 1-чиқиши. – Тошкент: ЎЗМУ нашри, 2008. – Б. 91-95.
54. **Сафаров Ш., Йўлдошев Б.** Компьютер лингвистикаси фанни ўрганиш жиддий эътиборни талаб қилади // “Зарафшон” газетаси, 2010 й. 29 июль.
55. **Сафаров Ш., Йўлдошев Б.** Компьютер лингвистикаси фанни биласизми // “Мохият” газетаси, 2004 йил 14 август.
56. **Сафаров Ш., Йўлдошев Б.** Компьютер лингвистикаси фанни (глобаллашув жараёнида ўзбек тилининг жаҳон миқёсига чиқиб, дунёвий тиллардан бирига айланишига имконият яратади) // “Зарафшон” газетаси, 2008 йил 4 ноябр. 135 (21.506)-сон, 5-бет.
57. **Содиқов З.** “Қутадғу билиг” интернет тармоқларида // Тошкент адабиёт таълими. 2003. № 1. – Б. 18-22.
58. **Тураев Ҳ.** Математик мантиқ ва дискрет математика. – Тошкент: Ўқитувчи, 2003. – 416 б.
59. **Тураев Ш., Ҳайдаров Ё.** Ўзбек тили аффиксларининг тили аффикслари билан солиштирма электрон маълумотлар базаси. Тилшуносликнинг долзарб масалалари (илмий мақолалар тўплами). II. Тошкент: Университет. 2004. – Б. 58-60.
60. **Усмонов С.** Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – 208 б.
61. **Эшқобил Шукур.** Она тилимиз “хужайралари” ёхуд сўз математикаси // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 2006 йил 24 февраль, II (3837)-сон.
62. **Файзуллаев О.** Математика ва фалсафа ёхуд математик фалсафий нуқтаи назардан қандай фан? // “Маърифат” газетаси, 2005 йил 26 февраль.
63. **Ўринбоева Д.** Компьютер лингвистикаси (маърузалар матни). Самарқанд: СамДУ нашри, 2009. – 86 б.
64. **Қурбонова М., Сайфуллаева Р., Бокиева Г., Менглиев Б.** Ўзбек тилининг структурал синтаксиси (ўқув қўлланмаси). – Тошкент: Университет, 2004. – 144 б.
65. **Ҳакимов М., Жабборов В.** Поэтик нутқда товушларнинг хосланишига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. 2006. № 4. – Б. 77-84.
66. [http // www. litp. ru / iitp / lab 15. htm.](http://www.litp.ru/iitp/lab15.htm)
67. [http // www. philol. mmsu. ru / rus / chairis / genis / collabor / may 1 / htm.](http://www.philol.mmsu.ru/rus/chairis/genis/collabor/may11.htm)
68. [http // www. ipcs. math. msu. ru. /rus / mlogic. htm](http://www.ipcs.math.msu.ru./rus/mlogic.htm)
69. [http // www. uzcl. com](http://www.uzcl.com)

II. Луғатлар:

- III. **Ахманова О.С.** Словарь лингвистических терминов. – М.: «Сов. энциклопедия», 1969. – 608 с.
71. **Йўлдошев Б., Ўринбоева Д.** Ўзбек халқ дostonларининг частотали изохли фразеологик луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2008. – 100 б.
72. **Каримов С., Қаршиев А., Исроилова Г.** Абдулла Қаҳҳор шариари тилининг луғати. Частотали луғат. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – 420 б.
73. **Каримов С., Қаршиев А., Исроилова Г.** Абдулла Қаҳҳор шариари тилининг луғати. Алфавитли луғат. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – 434 б.
74. **Каримов С., Қаршиев А., Исроилова Г.** Абдулла Қаҳҳор шариари тилининг луғати. Терс луғат. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – 423 б.
75. **Киссен И.А.** Словарь наиболее употребительных слов современного узбекского литературного языка (высокочастотная лексика подъязыка художественной прозы). – Ташкент: «Укитувчи», 1972. – 112 с.
76. **Лингвистический энциклопедический словарь.** – М.: «Сов. энциклопедия», 1990. – 685 с.
77. **Махматмуродов Ш.** Словарь языка поэтических произведений Хамзы. – Ташкент: изд-во литературы и искусства имени Г.Гуляма, 1989. – 128 с.
78. **Муҳамедов С.** Ўзбек тилининг алфавитли-частотали луғати (газета текстлари асосида). – Тошкент: “Фан”, 1982. – 112 б.
79. **Пўлатов А., Мўминова Т.М., Пўлатова И.** Дунёвий ўзбек тили. I-жилд. Ўзбек тилидаги феъл шакллари ва уларнинг рус, инглиз тилларидаги кўринишлари. – Тошкент: Университет, 2003. – 404 б.
80. **Ризаев С., Бўронов Н.** Абдулла Қаҳҳор “Синчалак” повести тилининг частотали луғати. – Тошкент: Тошкент: “Укитувчи”, 1986. – 172 б.
81. **Ризаев С.А.** Статистическая структура лексики языка «Диван»а Хамзы Хаким-заде Ниязи (частотный словарь и конкорданс). – Ташкент: «Фан», 1989. – 246 с.
82. **Ризаев С.** Ўзбек совет болалар адабиёти тилининг частотали луғати. – Тошкент: “Фан”, 1980. – 160 б.
83. **Розенталь Д.Э., Теленкова М.А.** Словарь-справочник лингвистических терминов. – М.: «Просвещение», 1976. – 543 с.
84. **Русский язык (энциклопедия).** – М.: «Сов. энциклопедия», 1979. – 432 с.
85. **Ўринбоева Д.** Ўзбек халқ дostonлари тилининг частотали луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2006. – 244 б.

86. **Ўринбоева Д., Умурзоков У.** Ўзбек халқ достонлари алфавит-частотали луғати. - Тошкент: "Ўзбекистон энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. 2006. - 395 б.

87. **Қўнғуров Р., Каримов С.** Зулфия поэтичи тилшоиси (конкорданс). - Тошкент: "Ўқитувчи", 1981. - 276 б.

88. **Ҳожиев А.** Тилшунослик терминларининг луғати. Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. 2002. - 168 б.

89. **Ҳожиев А., Нурмонов А., Зайнобиддинов С., Кокорин Саидхонов М., Собиров А., Қуронов Д.** Ҳозирги ўзбек тили сўзларининг изоҳли луғати. - Тошкент: "Шарқ" нашриёт-аксиздорлик компанияси бош тахририяти, 2001. - 336 б.

KOMPYUTER LINGVISTIKASI TERMINLARI LUG'ATI (GLOSSARIY)

Abzats (*nem.* abatz < absetzen – surmoq, nari surmoq). 1. *ayn.* Xat boshi. 2. *ayn.* bir xat boshidan keyingi xat boshigacha bo'lgan qismi: *ikki abzatsni tashlab*

Abstrakt ot (*lot.* abstractus – uzoqlashgan, mavhum) – mavhum ot.

Avtomatik tarjima – avvaldan tuzilgan algoritm bo'yicha elektron-hisoblash mashinasi (EHM) yordamida biror tilga oid matnni boshqa tilga tarjima qilish.

Adstrat (*nem.* adstrat) – bir hududda turli tillarning uzoq davr birga amal qilishi holatida yuzaga kelgan ikki tillilik turi.

Aksiomatik nazariya – ilmiy nazariya qurilishi, bu nazariya asosida bunday boshlang'ich postulat va aksiomalar qo'yiladiki, qolgan barcha qoidalar (teoremlar) undan kelib chiqadi. U miloddan avvalgi VII - VI asrlarda shakllangan, asoschisi matematik olim Pifagordir.

Algoritm (bu so'zning etimologiyasi buyuk alloma Al-Xorazmiy nomi bilan bog'liq; lotincha «ibtido» ma'nosini anglatuvchi «algoritmus» termini ham mavjud) – ma'lum bir tipga oid masalalarni yechishda ishlatiladigan jarayonlar tizimining muayyan tartibda bajarilishi haqidagi aniq qoida yoki qoidalar tizimi.

Algoritmik tillar - programmashtirishga asoslangan, tabiiy tildagidek aniq interpretatorga - insonga yoki avtomatik qurilmaga yo'nalgan sun'iy tillar. Algoritmik tillar imperativ xarakterga ega bo'ladi, ya'ni asosan buyruqlar tizimiga tayanadi (*begin* - boshla, *end* - tugalla kabi).

Analiz – tabiiy til xususiyatlarini tushunish uchun kompyuterda amalga oshiriladigan morfologik, sintaktik va semantik tahlil. *Morfologik analiz* morfemalarga ajratish hamda grammatik ma'lumotlar tahlilini o'z ichiga oladi.

Akkumulyatsiya – biror tilda faol ishlatiladigan so'z, ibora va sh.k. ta'sirida shunday til birliklarining boshqa tilda ham faol ishlatila boshlashi.

Amaliy tilshunoslik. Tilshunoslikning lingvistik masalalarni (mas., mashina tarjimasini) hal etishni hisobga olgan holda amaliy yo'l bilan o'rganuvchi sohaları (eksperimental fonetika, leksikografiya, lingvostatistika kabi).

Asos ma'no. 1. Biror ma'noning yuzaga kelishida asos bo'lib xizmat qiladigan ma'no. Mac., o'yin so'zining «ko'ngil ochish, dam olish maqsadidagi erkin (ermak) harakat» ma'nosi o'yinga tushmoq, futbol o'yini birikmalaridagi ma'nosining kelib chiqishiga asos bo'lgan ma'nodir.

2. Yasama so'z asosiga (so'z yasash asosiga) oid ma'no. Mac., *terim* so'zining *ter*, *terimchi* so'zining *terim* qismiga oid ma'no.

Avtomatik tarjima (mashina tarjiması) – bir tildagi matnni ikkinchi bir tilga EHM (kompyuter) vositasida qisqa vaqt ichida tarjima qilish tizimi.

Avtomatik tahrir –kompyuter lingvistikasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, kompyuterdagi matn muharrirlari (Microsoft Word, Excel, Wordpad, Lexicon) rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan tahrir jarayoni. Avtomatik tahrir matndagi mexanik xatolarning avtomatik tarzda to'g'rilanishi va xato ekanligi haqidagi signallarning userga taklif etilishi kabilar bilan bog'liq.

Bevosita ishtirokchilar (immediate constituents) – sintaktik tuzilishda bevosita ishtirokchilar metodiga muvofiq tayanch nuqta komponentlari hisoblanadi. Konstruksiya tarkibidan ishtirokchilar va bevosita ishtirokchilar ajratiladi.

Bilimlar injenerligi (Knowledge Engineering) – bilimlar kengligini shug'ullanuvchi maxsus yo'nalish bo'lib, u sun'iy intellekt tizimining bir qismi sanaladi. Bilimlar injenerligi kognitiv lingvistika, kompyuter tizimlari va komp-yuter lingvistikasining yutuqlariga tayanadi.

Bilingvizm (lot. bi < bis – ikki marta + lingua – til) – *ayn. ikki tildlik*

Bixevioristik yondashuv – mavjud an'anaviy o'qitish tizimining jab-halarini e'tiborga oluvchi o'qitish mexanizmlari, bilimlarni o'qitish shuningdek, leksik minimumlar bo'yicha bilimni nazorat qilishga yo'nalishdagi dasturiy ta'minotga asoslangan o'qitish tizimi. Bunda bixevioristikning «reaksiya-mustahkamlash» formulasiga asoslaniladi. O'qitish moddasi (turtki) vazifasini bajaradi, o'rganuvchi bundan ta'sirlanadi va bilim mustahkamlaydi.

Call (Computer Assisted Language Learning) – til o'qitishni avtomatlashtirish – xorijiy tillarni kompyuter yordamida o'qitish tizimi ta'minlovchi amaliy dasturlar hamda bilimlarni avtomatik tutash mexanizmlari.

Ekspert tizimi – muayyan sohadagi ekspertlik yoki mavjud bilimlarning immi-tatsiyasi tarzida yaratilgan kompyuter dasturi. Ekspert tizim muayyan sohaga oid barcha bilimlar jamlangan qomus yoki o'ra professional ekspertlarning kompyuter modelidir.

Elektron ensiklopediya – kuchli qidiruv tizimiga ega bo'lgan ma'lumot yo'nalishdagi illyustrasiyalik maqolalar, elektron xaritalar, tomonlama giperhavola (gipermurojaat)lar, audio va videoizohlar, xronologik tizimlar foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati va hokazolardan iborat bo'lgan katta hajmdagi elektron dastur.

Gallitsizm (lot. gallicus) – Fransuz tilidan o'zlashgan lekin yot e'timotga ega sezilib turadigan so'z yoki ibora – *mersi pardon* kabi.

Defis (nem. devis < lot. divisio – bo'linish) – juft va takroriy so'zlarda, so'z ta'unga qo'shiladigan yuklamalar orasida qo'yiladigan chiziqcha (-): *kecha-kindon, qora-gora, aytdim-ku* kabi.

Denotat (lot. denotare “belgilamoq”) – til birligi (mas., so'z) yordamida nomlanuvchi (ataluvchi) voqelik, narsa-buyum. Mac, yuz, aft, bashara, chehra to'g'ri so'zlari bir predmet (denotat)ning turli nomlaridir.

Denotativ ma'no – denotat bilan bevosita bog'liq, uni bevosita aniqlaydigan ma'no.

Deskriptor – ma'lumotni qidirish uchun asos bo'ladigan kalit so'z yoki tushuncha.

Elektron lug'atlar – odatdagi lug'atlar asosida leksikografiya sohasiga kompyuter texnologiyalarining tatbiq etilishi natijasida yaratilgan, multimedia vositalari bilan boyitilgan dastur.

Elektron multimedia darsligi – o'quv kursini kompyuter vositasida, o'quvchi yordamida yoki mustaqil o'zlashtirishni ta'minlovchi, matnli fayllar, animatsiyalar, audio va videoeffektlar bilan boyitilgan tizimga asoslangan dasturiy-metodik kompleks.

Formallashtirish – bilimlar majmuyini, mazmunini muayyan shakllar yordamida sun'iy til belgilari orqali ifodalash.

Formal grammatika – muayyan shakllar yordamida sun'iy til belgilari yordamida ifodalangan grammatik qoidalar majmuyi.

Frazeologik mashina tarjimasi – avtomatik tarjimaning sifatini oshirish uchun Rossiyada professor G.G.Belonogov tomonidan ishlab chiqilgan dasturiy tizim; unga ko'ra, matndagi tushunchalar ko'pincha alohida so'zlar yordamida emas, balki so'z birikmalari yordamida ifodalanadi.

Freym (inglizcha “frame” – “karkas”, “ramka”, “skeleton”) – bilimlar tizimiga oid tayanch tushunchalardan biri, sun'iy intellekt tizimida bilimlarni, stereotip (juda ko'p kuzatiladigan, tipik) vaziyatlarni ifodalantirishning bir usuli. Freymga modellashtirilayotgan hodisa, vaziyat va jarayonlarni umimlashtirilgan holda joylashtirish mumkin. Freym turlari: freym-namunalar, freym-strukturalar, freym-rollar, freym-ssenariylar, freym-vaziyatlar.

Freym-ssenariy – ba'zi harakat, voqea-hodisalarning xarakterli jihatlarini o'z ichiga olgan tipik strukturalar hamda vaziyatlarning rivojlanishi, ketma-ketligi (algoritmik bosqichlari).

Generativ va transformation grammatika – formallashtirishning negizi hisoblangan grammatika.

Gipertekst – kompyuter lingvistikasida inqilobiy o'zgarish yasagan texnologiya, kompyuterda boshqa matnlarga giperhavolalar yordamida bog'lashga imkon beradigan matn.

Grammatika – (yun. “o'qish va yozish san'ati”; bu tushuncha dastlab kit-savod, imloni o'rgatuvchi fan ma'nosida ishlatilgan) – tilning fonologik, morfologik, sintaktik va semantik belgilarini tavsiflovchi qoidalar majmuyi.

Indekslash – informatsion qidiruv tilida hujjatlarga ishlov berish protsedurasi.

Implikativ universaliya – Amerikalik olim Jozef Grinberg tomonidan implikatsiyalar (mantiqiy shartli hukmlar) asosida aniqlangan universaliyalar.

Ikki tillilik – ikki tilda bimalol fikrlay olish; ikki tilni bir xilda egallaganlik; zullisonaynlik.

Ikki tili lug'at – bir tilning lug'aviy birliklarini boshqa tilga tarjima qilib beriladigan lug'at. Mac., ruscha-o'zbekcha lug'at, o'zbekcha-ruscha lug'at.

Informatsion qidiruv (ingl. “information retrieval”) – ma'lumotlarni qidirish, kerakli hujjatlarni ma'lumotlar bazasidan topishni optimallashtirish tizimi. Masalan, Internetdagi *Google*, *Yandex*, *Rambler*, *Yahoo* qidiruv tizimlari.

Informatsion qidiruv tillari – IQTda qidiruvni ta'minlash uchun yaratilgan maxsus tillar. Informatsion qidiruv tillari bu formal til bo'lib, u IQTda saqlangan hujjatlarning mazmunini tavsiflash va so'rov uchun mo'ljallangan.

Informatsion qidiruv tezauruslari (lot. *thesaurus* "xazina") – asosiy mazmun-mundarijasini aks ettiradigan kalit soʻzlar, terminlar va tushunchalar bazasi asosida kompyuterda tuzilgan lugʻat.

Intellektual sistema bilimlar bazasi, masalani yechuvchi intellektual interfeyslarni oʻz ichiga oluvchi tizim.

Interlingva (lot. *inter* "opa", *lingua* "til") – 1903 yilda Jozeppe Peano tomonidan taqdim etilgan xalqaro yordamchi til.

Interlingvistika – tilshunoslikning xalqaro aloqa-aralashuv vositalari orqali yordamchi tillarni yaratish va ulardan foydalanish jarayonini oʻrganuvchi boʻlim.

Internatsional leksika (lot. *inter* "opa", *nationis* "xalq") – baysabmishli leksika.

Izohli lugʻat – lugʻaviy birlik maʼnolari keng izohlanadigan, grammatik va boshqa belgilari ham qayd etiladigan lugʻat. Mac., 2006-2008 yillarda ushbu lugʻat besh jildli «Oʻzbek tilining izohli lugʻati».

Ishtirokchilar– kattaroq konstruksiya tarkibiga kirgan bir yoki konstruksiya.

Bevosita ishtirokchilar – muayyan konstruksiyaning boshlangʻich shakllanishida ishtirok etgan bir yoki bir nechta ishtirokchilar.

Kodlash va dekodlash - informatsiyani mashina (kompyuter) tushunadigan tilga oʻtkazish va, aksincha, kompyuter tushunadigan tilga oʻqish tushunadigan tilga aylantirish jarayoni.

Kognitiv-intellektual yondashuv – CALL (CALL Software) ushbu universal dasturiy taʼminotlar yaratish, oʻqitish tizimini lugʻat, grammatika boʻyicha qoʻllanmalar, tizimni avtomatik korrektorlar, speller bilan taʼminlash, audio va vizual effektlar bilan boyitish kabi amaliy ishlar oʻz ichiga oladi.

Kompyuter ieksikografiyasi (elektron lugʻatlar tuzish) – muayyan til leksikonida-gi soʻzlarning maʼlumotlar bazasi va maxsus programmalashtirilgan tillari yordamida ishlash tizimiga ega boʻlgan dasturlar (kompyuter lugʻatlar) yaratish bilan shugʻullanuvchi soha.

Kompyuter lingvistikasi – matematik lingvistikaning mantiqiy davomi boʻlib, u amaliy tilshunoslikning eng muhim qismini tashkil etadi.

Kompyuterli modellash – barcha fanlarda, xususan, kompyuter lingvistikasidagi samarali metod.

Konstruksiya – mazmuniy qismlarning ketma-ket munosabatidan tashkil topgan butunlik.

Kontekstga bogʻliq boʻlmagan grammatika (context-free grammar) avvaldan empirik tarzda belgilab olingan, matndan xoli boʻlgan grammatika.

Lemma – soʻzlarning lugʻatdagi shakli.

Lemmatizatsiya - soʻzning dastlabki, boshlangʻich formasini (lugʻatdagi shaklini - lemmasini) tashkillashtirish texnikasi boʻlib, bu jarayon oʻsha soʻzning boshqa soʻz-shakllaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Lingvistik protsessorlar - tabiiy tilda kompyuter bilan muloqot qilishni taʼminlashga yordam beradigan dasturlar.

Lingvistik universaliya - barcha tillarga yoki dunyo tillarining mutlaq koʻpchilik qismiga xos umumiy qonuniyatlar.

Metatil – formallashgan til.

Matematik lingvistika – XX asrning 50-yillarida yuzaga kelgan amaliy fanlikning alohida yo'nalishi bo'lib, unda tabiiy tillarning matematik tahlilini ishlab chiqish, xususan, sun'iy tillarni yaratish algoritmini tuzish bilan shug'ullanuvchi fan.

Matnlar korpusi (lot. *corpus* “tana”) – elektron holda saqlanadigan til birliklari.

Matnning statistik tahlili – tilni ehtimollik belgilariga ko'ra tahlil qilish, shu hodo-salarini statistik xarakteristikalariga asosida baholash.

Mashina ijodi – san'at asarlarini avtomatik tarzda yaratish jarayoni.

Mashina tarjimasi – Matn (tekst)ni berilgan dastur asosida elektron mashinalar yordamida bir tildan ikkinchi tilga avtomatik tarjima qilish.

Metagrammatika (yun. *metha* “keyin”, *grammatike* “o'qish va yozish bo'yidagi”) – metaqoidalariga asoslangan grammatika; tavsifiy grammatika, formal grammatika, transformatsion grammatika bosqichlaridan so'ng yuzaga kelgan, qayta yozilgan grammatika; programmalash tillarini tavsiflash uchun tabiiy til grammatikasi modeli asosida ishlab chiqilgan metaqoidalar to'plami.

Model (lot. *modelus* “nusxa”, “andaza”, “o'lchov”, “me'yor”) – muayyan original-obyektning hosilasi, moddiy qurilma, grafik, sxema, umuman, bilish vositasi. Model tabiiy obyektlarning imitatsiyasidir (o'xshashi, taqlidiy ko'rinishi), u o'zbek tilidagi qolip, andaza so'zlariga mos keladi. Masalan, *globus* yerning modeli, *o'yinchoq mashina* haqiqiy mashinaning modeli.

Modellashtirish – barcha fanlar uchun xos bo'lgan umumilmiy metod.

Neyron tarmoqlar – inson miyasidagi neyronlar modeli asosida yaratilgan, sun'iy intellektning muhim tarkibiy qismi hisoblanadigan tizim.

Morfologik analiz va sintez – kompyuterda kodlash-dekodlash tamoyili asosida ishlaydigan jarayon. Morfologik analizning mantiqiy davomi sintaktik analiz hisoblanadi. Sintaktik analiz morfologik analiz ustiga quriladi, bunda gap strukturasini turli formal modellar asosida tahlil etiladi.

On-line lug'atlar – ochiq turdagi Internet tizimida ishlaydigan lug'atlar. Bu lug'atlarning aktivlashishi uchun albatta internetga ulanish lozim. Ularning afzalligi shundaki, foydalanuvchilar ushbu lug'atlar bazasini to'ldirib borish, boyitish imkonini beradi.

Parallel matnlar korpusi – badiiy asar, qo'llanma, ommaviy axborot vositasi nashrlari, turli xil hujjatlarning ikki yoki undan ko'p tillardagi elektron holdagi ko'rinishlari.

Qomusiy lug'at – turli ijtimoiy sohalarga oid muhim ma'lumot beradigan, voqelikni (kishi nomlarini, muhim voqea-hodisalarni va b. haqida) batafsil izohlaydigan lug'at.

Sema (yun. *sema* “belgi”) – leksik ma'no (semema)ni tashkil toptiruvchi komponent (qism)lar. Mac, *atrof* leksemasining ma'nosi (sememasi) “hamma” va “tomon” semalaridan iborat. Ma'lum leksik-semantik guruhga oid sememalardagi semalar shu sememalar uchun umumiy yoki xususiy ekaniga ko'ra ikki asosiy turga bo'linadi: 1) umumiy sema – интеграл сема; 2) farqlovchi sema – дифференциал сема.

Semiotika yoki semiologiya (yun. *semiotike*, ya'ni "belgilash", "virlash", "ifodalash" degan ma'nolarni anglatadi) belgilar sistemasi haqidagi fan bo'lib, unda axborotni saqlovchi, uzatuvchi turli xil belgi va belgilar tizimlarining yaratilishi, vazifalarini, belgilar sistemasiga kiruvchi hodisalar, ularning tabiati, mohiyati, turlari, ko'rinishlari, amal qilishi kabilarni o'rganadi. Semiotikada tabiiy tillar, sun'iy tillar, yo'l belgilari, audio va videonizmatlar tadqiq etiladi.

Semantik tarmoq – borliqni so'zlar va ularning semantik munosabatlari yordamida modellashtirishga yo'naltirilgan tizim hisoblanadi. Semantik tarmoq aniq belgilangan uzellar (obyektlar kesishadigan joy) va dugalar (semantik munosa-batlarning biri ikkinchisiga ta'sir ko'rsatadigan nuqta) munosabatlar asosida modellashtiriladi. Semantik tarmoq g'oyasi kompyuter texnologiyalaridagi lokal va global tarmoq nazariyasi ta'sirida kelib chiqqan. Uzellar muayyan obyektlar-ga, muayyan sohaga oid tushunchalarga, dugalar obyektlar o'rntasidagi semantik munosabatlarga aloqador tushunchalardir.

Ssenariy – voqea-hodisalar, harakatlar ketma-ketligining tartib bog'liqlik tamoyili asosidagi zanjiri. Har bir ssenariyda rol bajaruvchilar mavjud. Ssenariylar real hayotda uchraydigan vaziyatlarni aks ettiruvchi hodisalar asosida yuzaga keladi. Masalan, restoranga tashrif buyurish ssenariysi.

Sintez – kompyuterda matnning grammatik shakllantirilishi va generatsiyasi (hosil qilinishi). *Morfologik sintez* matnga avtomatik ishlov berish jarayonida yoki uning so'nggi bosqichida (natijalarni inson hukmiga havola qilishda) so'zlarning turli shakllarini chiqarish, analiz natijalarini umumlashtirish iborat.

Slot – freymni tashkil etuvchi qismlar. Slotlarda obyektlarga sos belgilar ma'nosi qayd etilgan bo'ladi.

Sun'iy intellekt – intellektual mashinalar, intellektual kompyuter dasturlari yara-tish texnologiyasi va bu haqidagi fan. Sun'iy intellekt insondagi intellekt tushunchasining aynan imitatsiyasi emas, balki inson intellektual faoliyatining ko'plab qirralarini o'z ichiga olgan, modellashtirilgan tizimlar texnologiyasi demakdir. Ayni shu ma'noda "artificial intelligence" termini birinchi marta Jon Makkarti 1956-yilda Darmut universitetidagi konferensiyada qo'llagan.

Tezaurus (yun. *thesauros* "xazina") – tilga oid leksik tarkibni to'la hajmda aks ettiruvchi lug'at.

Termin (lot. *terminus* – "chek", "chegara", "chegara belgisi") – fan, texnika va boshqa sohaga oid tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so'z yoki so'z birikmasi. Terminlar bir ma'noli bo'lishi, ekspressivlik va emotsionallikka ega bo'lmasligi bilan ham umumiste'moldagi so'zlardan farqlanadi. Mac., lingvistik terminlar: *bo'g'in*, *urg'u*, *ega*, *kesim*...; geometriyaga oid terminlar: *yuz*, *to'rtburchak*...; fizikaga oid terminlar: *harakat*, *tezlanish*, *maydon*; kimyoga oid terminlar: *kumush*, *ishqor*, *tuz*, *rux* va b.

Tobelik daraxti (shajara) – L.Tenyer g'oyalari ta'sirida shakllangan tobelik grammatikasi modeli bo'lib, u kompyuter lingvistikasining avtomatik

shu klas-turlarida ishlatiladi. Bunda gap asosan daraxt ko'rinishida tashkilatlanadi, jumla tarkibidagi so'zlar bir-biri bilan tobeklik munosabatida bo'ladi (*avvalita dominatsiya munosabati*). Kesim daraxtning ildizida joylashadi va dominant bo'lak hisoblanadi, boshqa so'zlar (gap bo'laklari) unga bevosita yoki bevosita (boshqa so'zlar yordamida) tobelangan bo'ladi.

Translyator – dasturlar (yoki kompilatorlar) – algoritmik til bilan inson tomonidan yaratilgan avtomatik qurilma (kompyuter) o'rtasida muloqotni ta'minlashda vositachi xarakterini bajaradigan dasturlar.

Translation Memory ("Tarjimon xotirasi") yoki **Sentence Memory** ("Gap to'plagich") – aytomatik tarjima samaradorligini oshirish maqsadida amerikalik olim Veb Layn tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya.

Tyuring testi – ingliz olimi Alan Tyuring tomonidan ishlab chiqilgan, insonni xatoga yo'l qo'yishga, noto'g'ri tanlov qabul qilishga da'vat qiladigan, halq'ituvchi empirik test.

Zif qonuni — matnning statistik tahlilida keng foydalaniladigan, katta hajmdagi matnlarda har bir so'zning takrorlanish miqdorini (chastotasini) hisoblashda qo'llanadigan metod. Bunda so'zning chastotasi (f), uning to'yxatdagi holati qatori (r) deb belgilanadi. Zif qonuniga ko'ra, matnda eng ko'p tahlilatilgan so'z $r = 1$, undan pastroq chastotada kuzatilgan so'z $r = 2$, undan keyingisi $r = 3$ tarzida belgilanadi. Bundan kelib chiqadiki, matndagi ixtiyoriy so'z uchun (f) chastotaga (r)ning ko'paytmasi natijasi o'zgarmas miqdor - konstanta (C)ga teng bo'ladi ($r \cdot f = C$), bu yerda C matn hajmiga bog'liq.

Chastotali lug'atlar - matnda so'zlarning qo'llanish miqdori (chastotasi)dan kelib chiqqan holda tayyorlanadigan so'zliklar. Chastotali lug'atlar kompyuterning lingvistik informatsion bazasi hisoblanadi.

D.B.O'RINBAYEVA

KOMPYUTER LINGVISTIKASI

O'QUV QO'LLANMA

5220100 – bakalavriat yo'nalishi o'zbek filologiyasi mutaxassisligi
bo'yicha ta'lim oluvchilar uchun qo'llanma

Muharrir

Musahhih

Texnik muharrir

J. Bozorova

L. Xoshimov

B.Egamberdiyev

ISBN 978-9943-6429-7-3

2020 yil 2 avgustda tahririy-nashriyot bo'limiga qabul qilindi.

2020 yil 8 avgustda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Qog'oz bichimi 60x84_{1/16}. "Times New Roman" garniturası.

Offset qog'ozi. Shartli bosma tabog'i – 20,5.

Adadi 180 nusxa. Buyurtma № 282.

SamDU tahririy-nashriyot bo'limida chop etildi.

140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.





ISBN 978-9943-6429-7-3



9 789943 642973